


24
M74

P. N. MIRZAYEV
M. P. MIRZAYEVA



KIMYO


Abituriyentlar va repetitorlar uchun
o'quv-uslubiy qo'llanma



P. N. MIRZAYEV, M. P. MIRZAYEVA

K I M Y O

Abituriyentlar va repetitorlar uchun
o`quv-uslubiy qo`llanma



У-4080/7

17

NAVOIY - 2010

**O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi Respublika ta`lim markazi
kimyo bo`yicha Ilmiy metodik kengashining 8.05.2010 yil o`tkazilgan
2- sonli yig`ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan**

Taqrizchilar:

K.K.Turg`unov-O`zR FA S.Yu.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosini instituti katta ilmiy xodimi, kimyo fanlari nomzodi

D.Asqarovova-..2009- yilning eng yaxshi kimyo fani o'qituvchisi" respublika tanlovi g'olib, Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 26- maktab o'qituvchisi

So`zboshi

Bu qo`llanmadan kimyodan tayyorlanuvchi abituriyentlar, kimyo repetitorlari hamda akademik litsey, kollej, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari ham foydalanishlari mumkin. Qo`llannia uch qismdan iborat. Birinchi qism umumiy kimyoga, ikkinchi qism anorganik kimyoga, uchinchi qism organik kimyoga bag`ishlangan.

Qo`llannma muallifining 26 yillik o'qituvchilik, 12 yil kimyo-biologyadan repetitoril faoliyati davomida to`plagan tajribalari asosida yozilgan. Qo`llannma abituriyentni ma`ruza yozishdan xalos etish, ko`proq test yechdirish maqsadida yozildi. Unda kimyoning nazariy asoslari haftada uch kunlik uch soatlik darslarga bo`lib berilgan. Darslarning taxminiy o`tish vaqtлari ko`rsatilgan. Qo`llannmada asosan DTM testlarini yechish uzerur ma`lumotlar qisqacha berilgan. Har bir mavzuni chuqurroq tushinish u-n keral bo`lgan adabiyotlar, yechiladigan testlar ro`yxati mavzuni: sarlavhasida ko`rsatilgan Ba`zi hollarda testlar soni kam bo`lsa, bitta darsdagagi bir necha mavzuga oid testlar dan 1- mevzusining sarlavhasida ko`rsatilgan. Mavzuni tushunish u-n undagi har bir so`zning ma`nosini bilish kerak. Sh. u. qo`llanmada darslikda ko`rsatilmagan, lekin amaliyotda ko`p ishlatiladigan qo`shimcha ma`lumotlarning izohi QM qisqartmasi bilan berilgan.

Qo`llanmani ko`rib chiqib, qimmatli fikr va mulohazalarini bildirgan k.f.n K.K.Turg`unovga, D.Asqarovaga, RTM metodisti G.Shoisaevaga, hamda menga testlarni yechishda qulay usullarni topishda yordam bergan aziz abituriyentlarimga va qo`llanmani yozishda yordam bergan Uchquduq shahar 10- maktab o'qituvchisi M.P.Mirzayevaga, kompyuterda terishda yordam bergan Kattaqo`rg`on tumani 74- maktab o'qituvchisi A.A.Mirzayevga minnatdorchlik bildiraman. Qo`llanma bo`yicha bildirilgan barcha fikr-mulohazalarni E-mail: pirmamatmirzaev@mail.ru elektron pochtasiga yoki 141407, Samarqand viloyati, Kattaqo`rg`on tumani, Jizmon aloqa bo`limi, Mirzayev P.N.ga yuborishingizni so`raymiz.

Mirzayev P.N.

**© P.N.Mirzayev, M.P.Mirzayeva. N 2977, 24.08.2009; N 3014, 08.10.2009;
N 3066, 06.01.2010.**

Foydalanilgan va abituriyentlarga tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) 7 - Asqarov I.R. va boshq. Kimyo – 7, T, 2009.
- 2) 8 - Asqarov I.R. va boshq. Kimyo – 8, T, 2006.
- 3) 9 - Asqarov I.R. va boshq. Kimyo – 9, T, 2006
- 4) 10 - Rudzitis G.U. , Feldman F. G. Kimyo – 10, T, 2004
- 5) 11 - Рудзитис Г.Е. , Фельдман Ф. Г Кимё-11, Т, 1995
- 6) М - Muftahov A. G. Umumiy kimyo – 11, T,2004
- 7) X - Xomchenko G.P, Xomchenko I.G. Kimyo, T, 2007
- 8) А - Абдулхаева М.М., Мардонов Ў.М. Кимё, Т,2002
- 9) Р - Рафиков А.С. ва бошқ. Кимё ,T,2000
- 10) И - Искандаров С.И. ва бошқ. Органик кимё, Т,1979
- 11) З - Зияев Р. ва бошқ. Органик кимё, Т,2002
- 12) В – Потапов В.М. Органическая химия, М,1976
- 13) КЛ - Do'stmurodov T. , Otaqo'ziyev T.A. Kimyo atamalari lug'ati, T,2003
- 14) КМ - Iskandarov O. Yu. va boshq. Kimyo (ma'lumotnoma), T, 2008
- 15) VII – Teshaboyev S., Nishonov M. Anorganik kimyo – 7, T,2000
- 16) VIII – Teshaboyev S., Nishonov M. Anorganik kimyo – 8, T,2001
- 17) Т-,,Kimyo, 1996 – 2008 mavzulashtirilgan testlar to'plami"dan yechiladigan testlami joylashgan beti, nomerlari. Tuzuvchi - M.T.Qoraev. Loyiha muallifi, to'plovchi, nashrqa tayyorlovchi – V.T.Bobomurodov. „Buxoro" nashriyoti, 2009
- 18) QM - Qo'shimcha ma'lumotlar
- 19) P- Muallifni o'zini fikrlari
- 20)*FJ - Mirzayev P.N., „Kimyoning asosiy hisoblash formulalari" ma'lumotnomasi.
„Xalq ta'limi"jurnalı, 2009, N3

Shartli qisqartmalar ro'yxati

b-n.	bilan	n.sh.	normal sharoit
EJ.	Ervchanlik jadvali	OD.	oksidlanish darajasi
Fx.	Fizikaviy xossalalar	OI.	Olinishi
h/b.	hosil bo'ladi	OQR.	oksidlanish - qaytarilish reak.
h/q.	hosil qiladi	r/k.	reaksiyaga kirishadi
IAJ.	Ionlarni aniqlash jadvali	SR.	Sifat reaksiyasi
Ishl.	Ishlatilishi	sh.u.	shuning uchun
Iz.	Izomeriyasi	suyul.	suyuktirilgan
KP.	kristall panjara	T/b.	Tabiiy birikmalari
K/x.	Kimyoviy xossalalar	t/e.	ta'sir etdirib
k-ta.	kislota	T/u.	Tabiatda uchrashi
kons.	konsentrangan	Tuz.	Tuzilishi
M.	1) Masalan; 2) Masala	u-n.	uchun
NEM.	nisbiy elektrmanfiylik	Xil.	Xillari
Nom.	1)Nomianishi; 2)Nomenklatur.	Ye.	Yechish

I qism. UMUMIY KIMYO

I bob. KIMYONING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA QONUNLARI

1- dars. 15.09. 7,3-9 9,3 X,4-6 A,5-12 R,4 KM,10 Kimyo predmeti.

Modda, moddalarning xossalari. T: 7-113 67-325

Kimyo – moddalar va ularning bir-biriga aylanishini o’rganadigan fan. Moddalar molekulyar va nomolekulyat tuzilishli bo’ladi. Molekulalardan tuzilgan moddalar molekulyar tuzilishli moddalar deyiladi. Molekulyar tuzilishli moddalar uchun: **Modda** – bir xil molekulalarning to’plamidir.

Atomlar → Molekulalar → Modda

Avogadro soni

$$\text{H}_2\text{O} \quad \text{H}_2\text{O} \quad 6,02 \cdot 10^{23} \text{ ta H}_2\text{O} = 1 \text{ mol} = 18 \text{ g suv}$$

7,9-10 **Moddalarni xossalari** deb moddalarni belgilariiga aytildi. Xossalarni uch xil bo’ladi: 1) **Fizikaviy xossalari** – moddaning agregat holati (gaz, suyuq, qattiq), rangi, bidi, ta’mi, zichligi, qaynash va suyuqlanish haroratlari (temperaturalari), eruvchanligi, elektr va isiqlik o’tkazuvchanligi. 2) **Kimyoviy xossalari** – moddaning kirishadigan reaksiyalari. 3) **Biolegik xossalari** – moddaning tirk organizmiga ta’siri. Moddalarni xossasiga qareb ishlataladi. Reaksiya (kimyoviy hodisa) – bir moddaning boshqa moddaga aylanish jarayoni. M. shamning yonishi, temirning zangga aylanishi, sutning achishi. **Sintez** – reaksiya yo’li bilan biror moddani olish.

7,23 A,14 Toza modda, aralashma. Moddalarni tozalash usullari

Toza modda – bir xil molekulalarning to’plami, **aralashma** – har xil molekulalarning to’plamidir. Nisbatan toza moddalarga distillangan suv, oltin yombisi misol bo’ladi. Amalda toza moddalar juda kam, moddalar asosan aralashma holida bo’ladi.

Aralashmalar 2 xil bo’ladi: 1) **Gomogen (bir jinsli) aralashmada** moddalar bir-biridan sirt bilan ajralmagan bo’ladi. M., Havo, dengiz suvi, osh tuzi yoki shakarni suvli eritmalar. 2) **Geterogen (har xil jinsli) aralashmada** moddalar bir-biridan sirt bilan ajralgan bo’ladi. M., loyqa suv, sut.

Moddaning xossalariiga uni tarkibidagi qo’shimchalari ta’sir qiladi. M., toza suv 0°C da muzlaydi, dengiz suvi 0°C dan pastda muzlaydi. Suv bug’i aralashmagan bo’lsa, is gazi CO kislorodda yonmaydi (7,86). Shuning uchun reaksiyalarni o’tkazishdan oldin moddalar tozalanadi.

Kimyoda moddalarni tozaligi bo’yicha (qo’shimchalarni kamayishi tartibida): *texnik (eng iflosi), soft toza, analiz uchun toza, kimyoviy toza, maxsus toza (eng tozasi)* xillari bor.

Moddalarni aralashmadan ajratib olish uchun: *tindirish, filtrlash, haydash (distillash), ekstraksiya, sublimatlash, xromatografiya, zonali suyuqlantirish, bug'latish, kristallash, dekantatsiya, magnit yoki membrana bilan ajratish* usullari ishlataladi.

7,4-9 9,3 Kimyo tarixi. Kimyo so'zining aniq ma'nosi yo'q. Misorda „xem”-qora, Gretsiyada (Yunonistonda) „xyuma”-qo'shish, aralashtirish, Xitoyda „xim”-oltin ma'nosi bildiradi. **Al-kimyo** - nodirmas metallarni oltinga aylantirish san'ati. G. Shtalning **flagiston nazariyasi:** Flagiston („yonuvchi”) - yonuvchi moddaning tarkibiy qismi. Modda yonganda og'irligi kamaysa flagiston chiqadi, og'irligi ortsa flagiston qo'shiladi.

QM: Fizik kattaliklar

Massa fizika bo'yicha jismni inertlik va gravitatsiya xossalari o'lchovidir. Soddalashtirib **massa**, **m** - moddani tarozida tortilgan og'irligi deyish mumkin. **Massa birliklari:** $1g = 1000 mg = 10^3 mg$; $1 g = 1/1000 kg = 1/10^3 kg = 10^{-3} kg$; $1 kg = 1000 g = 10^3 g$; $1 sr = 100 kg = 10^2 kg$; $1 t = 1000 kg = 10^3 kg$.

Hajm, V- moddani fazoda egallagan joyi. Kubni (xonani) hajmini topish uchun enini bo'yini balandligini ko'paytirish kerak. M., eni 4 m, bo'y 6 m, balandligi 3 m xonani yuzasi $S = ab = 6 \text{ m} \cdot 4 \text{ m} = 24 \text{ m}^2$, hajmi $V = abh = Sh = 24 \text{ m}^2 \cdot 3 \text{ m} = 72 \text{ m}^3$ bo'ladi. **Hajm biliklari:** $1 \text{ sm}^3 = 1 \text{ ml} = 1/1000 \text{ l} = 1/10^3 \text{ l} = 10^{-3} \text{ l}$; $1 \text{ dm}^3 = 1 \text{ l} = 1000 \text{ ml} = 10^3 \text{ ml}$; $1 \text{ m}^3 = 1000 \text{ l} = 10^3 \text{ l}$. Suyuqlikni hajjni o'lchash uchun laboratoriya o'lchov slindiri, o'lchov qolbasi, o'lchov stakani, menzurka, pipetka, byuretka ishlataladi.

Zichlik, ρ (ro)- birlik hajmga to'g'ri kelgan massani bildiradi. $\rho = \frac{m}{V}$, g/ml (suyuq), g/l (gaz), g/sm³ (qattiq). Suyuqlikni zichligini o'lchash uchun areometr ishlataladi. Zichlik asosida hajjni yoki massani topish mumkin, agar ularidan biri ma'lum bo'lsa. 10 l oq yog'ning og'irligi 9 kg bo'lsa, zichligini toping. $\rho = \frac{m}{V} = \frac{9 \text{ kg}}{10 \text{ l}} = 0,9 \frac{\text{kg}}{\text{l}}$ bu 1 l yog' 0,9 kg ligini bildiradi. M. Yog'ning zichligi $0,9 \text{ kg/l}$ bo'lsa, hajmi 10 l yog'ni massasini toping. $m = \rho V = 0,9 \cdot 10 = 9 \text{ kg}$. M. 9 kg yog'ni hajmini toping ($\rho = 0,9 \text{ kg l}^{-1}$) $V = m/\rho = 9/0,9 = 10 \text{ l}$. Suvni zichligi $\rho = 1g/ml = 1kg/l$ ga teng. Shuning uchun suvni massasi va hajmi son qiymati bo'yicha teng bo'ladi, ya'ni $1ml$ suv = 1 g , 1 l suv = 1 kg .

Suyuqlanish temperaturasi, t_s - moddani qattiq holatdan suyuq holatga o'tish temperaturasi. M. $t_s(\text{suv}) = 0^\circ\text{C}$. **Qaynash temperaturasi**, t_q - moddani suyuq holatdan ham sirtidan, ham butun hajmidan bug' holatga o'tish temperaturasi. M. $t_q(\text{suv}) = 100^\circ\text{C}$.


Temperaturaning 2 ta shkalasi bor: *Selsiy va Kelvin shkalalari*. Selsiy shkalasiga suning suyuqlanish va qaynash temperaturalari birlik qilib olingan. Selsiydan Kelvinga o'tish: $T^0\text{K} = 273 \pm t^\circ\text{C}$ chunki $0^\circ\text{C} = 273^\circ\text{K}$. M. $+10^\circ\text{C}$ Kelvinda $T^0\text{K} = 273 + 10 = 283^\circ\text{K}$, -10°C esa $T^0\text{K} = 273 - 10 = 263^\circ\text{K}$ ga teng. Temperatura *termometr* bilan o'lchanadi.

Qattiqlikning Maos shkalasi bo'yicha olmos eng qattiq modda, uning qattiqligi 10, shishaniki 5.

7,15-18 X,7-8 A,17-18 R,4 Atom-molekulyar ta'limot T: 7-114 12-12

Atom-molekulyar ta'limot bo'yicha moddalar molekulalardan, molekulalar esa atomlardan tuzilgan va ular doim harakatda bo'ladi. Harorat ortishi bilan harakatlanish tezligi ortadi. M., muzni qizdirsa suv molekulalari harakati kuchaygani uchun dastlab suyuqlanadi. 100°C da esa bug'ga (gazga) aylanib ketadi. Molekulalar orasidagi tortishish kuchlari qatiq holatda eng katta, suyuqlikda o'rtacha, gaz holatda eng kichik bo'ladi, ya'ni moddani agregat holati shu kuchlarga bog'liq.

Atom, molekula tushunchalari 1860- yil Karlsrueda kimyogarlar kongresida qabul qilingan. Ulami tushunish uchun suvni parchalanish reaksiyasini ko'rib chiqamiz. Schemadan ko'rinish turibdiki: Atom – moddani reaksiyada bo'linmaydigan eng kichik zarracha. Molekula – moddani reaksiyada atomlarga bo'linadigan, ya'ni moddaning kimyoviy xossasiga ega bo'lgan eng kichik zarracha. Reaksiya mohiyati – dastlabki modda



molekulalarini parchalanishdan hosil bo'lgan atomlarni qaytadan boshqacha tartibda birikishidan yangi moddani molekulalarini hosil bo'lishidir. **Kimyoviy formula** moddani tarkibini kimyoviy belgilari va indekslar bilan ifodalash. **Indeks** molekuladagi atomlar sonini bildiradi. **Reaksiya tenglamasi** – reaksiyani kimyoviy formulalar bilan ifodalash. **Koeffitsiyent** molekulalar sonini bildiradi, reaksiyani tenglashtirish uchun qo'shiladi.

Atom ("bo'linmas") tushunchasini Lev-kipp va Demokrit, molekula ("kichik massa") tushunchasini P.Gassendi, element ("tarkibiy qismi") tushunchasini R.Boyl kiritgan. Boyl „kimyon” o'rganishda faqat tajribada isbotlangan ma'lumotlarga ishonish kerak” deb al-kimyoviy qarashlardan xalos bo'lishga katta hissa qo'shgan. Atom-molekulyar ta'limotni yaratishiga M.V.Lomonosov, J.Dalton katta hissa qo'shgan. Lomonosov moddalar „korpuskulalardan (molekulalardan), molekulalar element (atom)lardan tuzilgan” degan. Dalton 1-marta: „Atom-reaksiyada bo'linmaydigan zartacha” ta'rifini bergen; H atomi massasini birlik qilib atomlarni nisbiy massalari jadvalini tuzib atomistik nazariyani yaratdi. Molekulalarning haqiqatda mavjudligini, ular atomlarning birikishidan hosil bo'lishini tajribada A.Avogadro va S.Kannitssaro isbotlagan.

Molekula juda kichik zarracha. Agar molekulani olma kattaligigacha kattalashtirsak, olma Yer sharidek bo'ladi. Molekulalar mavjudligini Broun harakati, diffuziya, sublimatlanish hodisalari isbotlaydi. **Broun harakati** – zarrachalarni to'xtovsiz tartibsiz harakati. **Diffuziya** – bir modda molekulalarini boshqa modda molekulalari orasida tarqalishi. **Sublimatlanish** – qatiq holatdan suyuqlanmasdan gaz holatga o'tish. M."Quruq muz" – CO_2 , yod, naftalin sublimatlanadi.

2-dars. 17.09. VII,22 8, 43-46 9, 11 M, 4-17 X, 8, 48-50 A, 64-67 R, 4,18 KM, 15

Atom tarkibi T: 6-91 28-32,41 29-84,98,100 30-120,127,143,161


31-175,184,186,187,194-196 32-229,232 33-265 34-287,314 35-356

36-357,358,367,375,383,385,391

QM: Metrdan santimetrga o'tish. $1m=100sm=10^2sm$ M. $10^{-10}m=10^{-10}\cdot10^2sm=10^{-8}sm$. Santimetrdan metrga o'tish. $1sm=1/100m=1/10^2m=10^{-2}m$ M. $10^{-8}sm=10^{-8}\cdot10^2m=10^{-10}m$

Atom tuzilishining planetar (yadro) modelini 1911-yilda E.Rezeford taklif etgan. Bu model bo'yicha: Atom - musbat zaryadlangan yadro va uni atrofida aylanuvchi manfiy zaryadli elektronlardan tuzilgan neytral (zaryadsiz) zarracha. Yadroni ichida nuklonlar - +1 zaryadli protonlar va zaryadsiz neytronlar joylashgan. $R_{atom}/R_{yadro}=10^{-10} m/10^{15} m=10^{-10}\cdot10^{15}=10^5=100\ 000$, ya'ni yadro atomdan 100 000 marta kichik. Agar atomni stadiondek desak, yadro stadionni markazidagi makkai donidek bo'ladi. Yadro shunchalik kichik bo'lishiga qaramasdan atomni butun massasi yadroda jamlangan, chunki yadroni ichidagi proton, neytronlarning har bittasi bir nisbiy birlik massaga (1 m.a.b.) ega, elektron esa ulardan 1836 marta engil. Shuning uchun atomni massa soni protonlar va neytronlar sonining yig'indisiga teng: $A=nP+mN$. Massa effekti - atomni tajribada topilgan massasidan uni ichidagi proton, neytronlarni alohida hisoblab jamlangan massasini ortiqcha chiqishi. Bu ortiqcha massa $\Delta E=\Delta mc^2$ Eyenshteyen formulasi bo'yicha nuklonlarni bog'lovchi yadro energiyasiga aylangan.

Atom tuzilishini elementni davriy sisteminadagi o'rniqa qarab topish mumkin: Tartib raqami = Yadro zaryadi = Proton soni = Elektron soni (proton va elektronlar soni bir-biriga teng bo'lgani uchun atom zaryadsiz bo'ladi). Davr raqami = Elektron qavatlar (pog'onalar) soni. Guruh raqami (asosiy guruhcha uchun) = Tashqi qavatdagi elektronlar soni. Neytron soni = Atom massasi tartib raqami. M. C uglerod atomini tuzilishi.



7,18 8,5,47 9,12 11,72 M,17 X, 8,51 A,13,22,67 R,4,18 KM,15 **Kimyoiviy element. Izotop, izobar, izotonlar** T: 4-2,9,10 5-41,49 6-86,97,101 7-112,116 12-351

27-4 28-27,29,33,39,43,53,56 29-85,88,95,99,107,111 30-156,160 31-164,165

32-200,204,210 34-284,303 35-320,323-326 36-359,362,377,386 38-434,462

Tabiatda moddalarni hosil bo'lishida 2000 dan ortiq izotoplarni qatnashadi. Izotoplarni yadro zaryadi bir xil, lekin massasi har xil bo'lgan atomlar. Ular bir-biridan neytron soni

bilan farq qiladi. M., vodorod gazi - oddiy moddasini hosil bo'lishida asosan 2 ta izotopi: ^1H , ^2H , xlor gazida ham 2 ta: ^{35}Cl , ^{37}Cl , kislorod gazi hosil bo'lishida 3ta: ^{16}O , ^{17}O , ^{18}O izotopi qatnashadi. H izotoplari 3 xil H_2 molekulasini hosil qilishi mumkin: $^1\text{H}-^1\text{H}$, $^2\text{H}-^2\text{H}$, $^3\text{H}-^1\text{H}$. Moddani hosii qilishda qatnashgan barcha izotoplarni hissasini tushinish uchun element tushunchasi kiritilgan. **Kimoviy element** - yadro zaryadi bir xil atomlar turi, ya'ni izotoplarni o'rtacha majmui - „o'rtacha atomdir“. Shu sababli 2000 ta izotop 109 xil elementni hosil qiladi. Shuning uchun „suv tarkibiga H_2O atomlari kiradi“ deb emas, „suv tarkibiga H_2O elementlarini atomlari kiradi“ deb gapirish kerak. Aks holda „ H_2O ni qaysi atomlari (izotoplari) kiradi?“ degan savol paydo bo'ladi. **Izobarlar** – massasi bir xil, yadro zaryadi har xil atomlar. M., ^{40}Ar , ^{41}K . **Izotonlar** – neytronlar soni bir xil atomlar. M., ^{136}Xe , ^{138}Ba , ^{139}La larda 82 tadan neytron bor.

Tajribada modda tarkibi aniqlanganda izotoplarni o'rtacha massasi, yani elementni massasi chiqadi. Shuning uchun elementlarning nisbiy massasi butun sonlar emas (proton, neytronlarni massasi butun son: I m.a.b.) kasr sondir. M., A, (Cl)= $37 \cdot 0,25 + 35 \cdot 0,75 = 35,5$. Bu erda 0,25 va 0,75 Cl-37, Cl-35 izotoplарини massa ulushлари.

Elementlarning nomilanishini Y Ya.Berselius kiritgan (7,forzas-2 dagi elementlar belgisini, o'qilishini yodlang). Tabiatda 109 ta elementdan 90 tasi o'chraydi. qolgan 19 (118 tadan 28) tasi sun'iy element. 9 ta element Yer po'stlog'ini 99,79% ni hosil qiladi: O-47,2%, Si-27,6%. Al-8,8%, Fe-5,1%, Ca-3,6%, Na-2,64%, K-2,6%, Mg-2,1%, H-0,15%. Koinotda engil elementlar - H, He ko'p tarqalgan.

QM: Massa va hajm ulushлари

Sistemanı (tizimni) hosil qilishda komponentlar (tarkibiy qismilar) qatnashadi. Tarkibiy qismlarning sisterna (M., eritma yoki aralashma) massasini, hajmini hosil qilishga qo'shgan hissasini bilish uchun „tarkibiy qismning massa yoki hajmiy ulushi“ tushunchalari ishlataladi (FJ,9).

Massa ulushi, ω (omega, aytishga qulay bo'lishi u-n yu deymiz)-tarkibiy qism massasini sistema massasiga nisbatidir. M..50 g tuz+150 g suv=200 g ert uchun ω (tuz) = $= m(\text{tuz})/m(\text{ert}) = 50/200 = 0,25$. Ma'nosi: 1 g eritmani hosil qilishga tuz 0,25 g hissa qo'shgan. Massa ulushdan ko'ra **massanining foiz ulushi** ko'proq ishlataladi. Uni topish uchun massa ulushi 100% ga ko'paytiriladi: $\omega \% = \omega \cdot 100 \% = 0,25 \cdot 100 \% = 25\%$. Ma'nosi: 100 g eritma tarkibida 25 g tuz yoki 100 g eritmani h/q.ga tuz 25 g ulush qo'shgan.

Hajm ulushi, φ (fi) – tarkibiy qism hajmini sistema hajmiga nisbatidir. M., 80 ml spirt + 120 ml suv = 200 ml eritma uchun φ (spirt) = $V(\text{spirt})/V(\text{ert}) = 80/200 = 0,4$. Ma'nosi: 1 ml eritmani hosil qilishga spirt 0,4 ml hissa qo'shgan yoki 1 ml eritmani tarkibida 0,4 ml spirt bor. **Hajmnинг foiz ulushini** topish uchun hajmiy ulushni 100 % ga ko'pay-

tiriladi: $\varphi \% = \varphi \cdot 100 \% = 0,4 \cdot 100 \% = 40 \%$. Ma`nosi: 100 ml eritmani hosil qilishga spirit 40 ml hissa qo'shgan yoki 100 ml eritmani tarkibida 40 ml spirit bor.

7,19 8,5 X,11,51 A, 19 R,4 KM,12 FJ,5 Atom massasi
T: 4-18 8-177,182,187 11-298 14-69,92 21-396 35-322

QM: Sonning standart shakli - har qanday sonni $a \cdot 10^n$ darajali shaklda yezish, bu erda $1 \leq a \leq 10$. M., $3300 = 3,3 \cdot 10^3$, $0,033 = 3,3 \cdot 10^{-2}$. Butun ajratish belgisi (,) nechta katak chagpa siljisa shuncha musbat daraja, nechta katak o'ngga siljisa shuncha manfiy daraja qo'yiladi. Sonning standart shakli sonni eslab qolishga, ishlashga qulay. „KENKO“ kal-kulyatorida standart shaklga o'tish uchun „son“ dan keyin $F \rightarrow E$ tugmasi bosiladi.

Kilogrammdan grammga o'tish: $1 \text{ kg} = 1000 \text{ g} = 10^3 \text{ g}$. $0,5 \text{ kg} = 0,5 \cdot 10^3 \text{ g} = 500 \text{ g}$.
Grammdan kilogrammgan o'tish: $1 \text{ g} = 1/1000 \text{ kg} = 1/10^3 \text{ kg} = 10^{-3} \text{ kg}$. $500 \text{ g} = 500 \cdot 10^{-3} \text{ kg} = 0,5 \text{ kg}$

Atomning haqiqiy (absolyut) massasi, m_a - atomni kg, gramm yoki m.a.b.da ifodalangan massasi. M., $m_a(C) = 0,00000000000000000000000001993 \text{ kg} = 1,993 \cdot 10^{-26} \text{ kg} = 1,993 \cdot 10^{-26} \cdot 10^3 \text{ g} = 1,993 \cdot 10^{-23} \text{ g} \xrightarrow{1,66 \cdot 10^{-24} \text{ g}} 12 \text{ m.a.b.}$

Absolyut massa hisoblashlarga noqulay bo'lgani uchun element atomining nisbiy massasi ishlataladi. **Nisbiy atom massasi, A_r** - element atomini haqiqiy massasini uglerod ^{12}C atomi massasi $1/12$ qismiga - 1 m.a.b.ga (massaning atom birligiga) nisbatiga teng. $1 \text{ m.a.b.} = m_a(C)/12 = 1,993 \cdot 10^{-26} \text{ kg}/12 = 0,166 \cdot 10^{-26} \text{ kg} = 1,66 \cdot 10^{-27} \text{ kg} = 1,66 \cdot 10^{-27} \cdot 10^3 \text{ g} = 1,66 \cdot 10^{-24} \text{ g}$. Bu formuladan C atomini m.a.b.dagi massasi: $m_a(C) = 12 \cdot 1 \text{ m.a.b.} = 12 \text{ m.a.b.}$, nisbiy massasi esa: $A_r = m_a / 1 \text{ m.a.b.}$ bo'yicha $A_r(C) = 1,993 \cdot 10^{-26} \text{ kg} / 1,66 \cdot 10^{-27} \text{ kg} = 1,2 \cdot 10^{-26} \cdot 10^{27} = 1,2 \cdot 10 = 12$. Kislород atomini massasi $26,6 \cdot 10^{-24} \text{ g}$, nisbiy massasi: $A_r(O) = 26,6 \cdot 10^{-24} \text{ g} / 1,66 \cdot 10^{-24} \text{ g} = 16$. Ma'nosi: kislород atomini massasi 1 m.a.b.dan 16 marta og'ir.

Atomning nisbiy massasiga qarab atomni absolyut massasini topish:
 $m_a = A_r \cdot 1 \text{ m.a.b.}$ dan $m_a(C) = A_r(C) \cdot 1 \text{ m.a.b.} = 12 \cdot 1,66 \cdot 10^{-24} \text{ g} = 19,92 \cdot 10^{-24} \text{ g} = 1,992 \cdot 10^{-23} \text{ g} = 1,992 \cdot 10^{-23} \cdot 10^{-3} \text{ kg} = 1,992 \cdot 10^{-26} \text{ kg}$.

3- dars 19.09. 7,33 X,12 A,20 FJ,2 Nisbiy va absolyut molekulyar massa
T: 4-1,5 6-93,110 8-189 11-285,292 13-36 14-70 16-175 21-395

Moddaning nisbiy molekulyar massasi, M_r -modda molekulasi absolyut massasining 1 m.a.b.ga nisbatidir: $M_r = m_a / 1 \text{ m.a.b.}$ Uni molekulani hosil qilgan atomlarning nisbiy massalarini qo'shib topish mumkin. M., $M_r(H_2O) = 2 + 16 = 18$. M., ga qarab moddaning nisbiy molekulyar massasi, m_a - molekulani kg, g yoki m.a.b.da ifodalangan massasini topish mumkin: $m_a(H_2O) = M_r \cdot 1 \text{ m.a.b.} = 18 \cdot 1,66 \cdot 10^{-24} \text{ g} = 2,9 \cdot 10^{-23} \text{ g}$ yoki m.a.b.da: $m_a(H_2O) = 18 \cdot 1 \text{ m.a.b.} = 18 \text{ m.a.b.}$

7,33 X,12 R,6 A,21 KM,13 FJ,4 **Mol. Molyar massa. Molyar hajm** T: 5-35
 6-95,107 8-183 9-199,207,212,213 12-4,6 13-13,14,20,21,26,29,30,34,39, 44,47, 48
 14-56,62,63,67,72,87,89,93,94,95 15-100-102,105,120,124-126,128,129,133,135
 16-143,170,174,180,182 17-201 18-252,264 19-323,324 20-346,356 21-373,408,412
 22-432,433

Kimyoda moddalar reaksiyaga qoldiqsiz kirishishi uchun ularning reaksiya tenglamasidagi koefitsiyentlarga mos ravishda olishga, ya'ni molekulalar sonini hisobga olishga to'g'ri keladi. Shuning uchun kimyoda moddaning massasi va hajmidan tashqari „modda miqdori“ kattaligi ishlataladi. **Modda miqdori, n (en)** - moddanı hosil qilgan zarrachalar (molekula, atom, ionlar) sonini bildiradi. Birligi mol, kmol. 1 mol - moddanı $6,02 \cdot 10^{23}$ ta zarrachasi. $6,02 \cdot 10^{23}$ soni **Avogadro soni, N_A** deyiladi.

Modda miqdori bilan moddaning molekulalar soni, massasi, hajmi orasidagi bog'lanishlar FJ,4 da berilgan. $M \cdot 12,04 \cdot 10^{23}$ ta molekula suvning modda miqdorini molini toping. $n(H_2O) = N/N_A = 12,04 \cdot 10^{23} / 6,02 \cdot 10^{23} = 2$ mol. Bu yerda N-moddanı molekulalar soni. M. 2 mol suvda nechta molekula bor? $N(H_2O) = nN_A = 2 \cdot 6,02 \cdot 10^{23} = 12,04 \cdot 10^{23}$ ta molekula.

Modda massasi bilan moli orasidagi bog'lanishni molyar massa ifodalaydi. **Molyar massa, M** - modda massasini moliga nisbati: $M = m/n$, g/mol. Ma'nosi: 1 mol moddanı massasini bildiradi. M., 36 g suv 2 mol, uni molyar massasi: $M(H_2O) = 36 \text{ g} / 2 \text{ mol} = 18 \text{ g/mol}$, bu 1mol suv 18 g ligini bildiradi. $M_1(H_2O) = 18$ edi. Demak, molyar massani nisbiy molekulyar massaga qarab ham topsa bo'ladi, chunki u son qiyinlati bo'yicha nisbiy molekulyar massaga teng, lekin ularning ma'nosi har xil. Molyar massa 1 mol, ya'ni $6,02 \cdot 10^{23}$ ta molekulani g yoki kg dagi massasini bildiradi, nisbiy molekulyar massa esa 1 ta molekulani nisbiy massasini bildiradi. Molyar massa asosida modda molini yoki massasini topish mumkin. M. 54 g suv necha mol? $n(H_2O) = m/M = 54/18 = 3$ mol. M. 3 mol suv necha g? $m(H_2O) = nM = 3 \cdot 18 = 54 \text{ g}$.

7,45 8,11 A,57 X,25 R,7 **Molyar hajm, V_m** - modda hajmini moliga nisbati: $V_m = V/n$, l/mol. Ma'nosi: 1 mol gaz hajmini bildiradi. **Normal sharoitda** (n.sh.: t = 0°C = 273°K, P = 101,3 kPa) har qanday gazning molyar hajmi o'zgarmas kattalik bo'lib 22,4 l/mol ga teng, ya'ni n.sh.da $V_m = V/n = 22,4 \text{ l/mol}$, bu n.sh.da har qanday gaz 1 molining hajmi 22,4 l ligini bildiradi. Bundan n.sh.dagi gazni moli yoki hajmi: $n = V/22,4$ $V = 22,4n$ ga teng. M. 2 mol kislород n.sh.da necha l? $V(O_2) = 22,4n = 22,4 \cdot 2 = 44,8 \text{ l}$. M. 44,8 l O₂ ni molini (n.sh.da) toping? $n(O_2) = V/22,4 = 44,8/22,4 = 2 \text{ mol}$.

QM: Proporsiya

To'g'ri proporsional - bir x miqdor oshganda unga bog'liq ikkinchi y miqdorni ortishi: $x \sim y$. **Teskari proporsional** - bir x miqdor oshganda unga bog'liq y miqdorni kama-

yishi: $x \sim 1/y$. M., daftar soni va narxi bir-biriga to'g'ri proporsional, qisqacha proporsionaldir. 1 ta daftar ----- 50 so'm, 2 ta daftar ----- 100 so'm. Proporsional miqdorlar uchun proporsiya tuzish mumkin $1/2 = 50/100$, ya'ni: **Proporsiya** – 2 ta nisbatni tengligi. Proporsiyadan foydalanib noma'lum miqdorni topish mumkin. M. 2 ta daftar 100 so'm bo'lsa, 4 ta daftar necha so'm? $x/100 = 4/2$ bundan $x = 4 \cdot 100/2 = 200$ so'm yoki

2 ta ----- 100 so'm Umuman masalalarni 2 xil: proporsiya yoki formulaga

$$4 \text{ta} \longrightarrow x = \frac{4 \cdot 100}{2} = 200 \text{ so'm} \quad \text{qo'yib yechish mumkin.}$$

4- dars 22.09. 7,45 8,11 X,24 A,57 FJ,6 Gaz qonunlari

T: 12-3 13-22,25 14-64,86 16-168;187 17-214 18-245,254,255-258 19-345

1) Avogadro qonuni (1811- y.): Bir xil sharoitda, teng hajmda olingen har xil gazlarning molekulalar soni teng bo'ladi. M., n.sh.da har xil gazlardan 22,4 l dan olsak, barchasi 1 mol dan bo'ladi, mos ravishda molekulalari soni ham teng - $6,02 \cdot 10^{23}$ tadan bo'ladi. Avogadro qonuni gazlar uchun, uni suyuq va qattiq moddalarga ishlatib bo'lmaydi. M., 1 mol suv suyuqlik holatida 22,4 l emas 18 g = 18 ml dir, lekin test shartida suv gaz yoki bug' holatda berilgan bo'lsa, uni 1 molini 22,4 l deb ishlash mumkin.

X,26 A,59-61,112 KM,14 2) **Boyl - Mariott qonuni:** o'zgarmas temperaturada gazni hajmi bosimiga teskari proporsional: $P_1 V_1 = P_2 V_2 = \text{const}$, M., gazni hajmi necha marta kamaysa (gaz porshen bilan siqilsa), bosimi shuncha marta ortadi: 10 l gazni bosimi 100 kPa bo'lsa, uni 5 l gacha siqilsa uni bosimi $100 \cdot 10 = P_2 \cdot 5$ dan $P_2 = 100 \cdot 10 / 5 = 200 \text{ kPa}$ bo'ladi.

3) Birlashgan gaz qonuni: $P_1 V_1 / T_1 = P_2 V_2 / T_2$

4) Universal gaz qonuni (Mendeleyev - Klapeyron tenglamasi): $PV = nRT = mRT/M$, bu erda P kPa da, V l da, T °K da, n mol da, m g da, M g/mol da yoziladi R - universal gaz doimisi, 8,31 ga teng. M. 25°C da bosimi 1400 Pa, hajmi 100 ml azotni n.sh.dagi hajmini aniqlang? $T^0 K = 273 + t^{\circ}C = 273 + 25 = 298^0 K$. 1 Pa = 1/1000 kPa = $= 1/10^3 \text{ kPa} = 10^{-3} \text{ kPa}$ bo'lgani uchun $P = 1400 \text{ Pa} = 1400 \cdot 10^{-3} \text{ kPa} = 1,4 \text{ kPa}$ $V = 100 \text{ ml} = 100 \cdot 10^{-3} \text{ l} = 0,1 \text{ l}$ $n(N_2) = PV/RT = 1,4 \cdot 0,1/8,31 \cdot 298 = 0,14/2476,38 = 0,0000565 \text{ mol} = 5,65 \cdot 10^{-5} \text{ mol} \xrightarrow{22,4} 0,00127 \text{ l} = 1,27 \text{ ml}$.

7,79,81 8,11 X,25 A,58 FJ,5 Gazlarning zichligi, nisbiy zichligi

T: 13-31,40,45 14-71,71',73-75,83 15-108,114,118,139 16-159-162

17-191,217,219,221-223 18-242 19-282 20-327,347,353 21-400 22-428

N.sh.da gazlarning zichligi $\rho = M/22,4$ ga teng. M., kislород uchun $\rho(O_2) = 32/22,4 = 1,43 \text{ g/l}$ ga teng. Birinchi gazning ikkinchi gazga nisbatan zichligi - birinchi gazning molyar massasini ikkinchi gazning molyar massasiga nisbatidir: $D = M_1/M_2 = m_1/m_2$.


Odatda gazlarning nisbiy zichligi vodorodga va havoga nisbatan topiladi: $D_{H_2} = M/2$, $D_{havo} = M/29$. M., $D_{H_2}(O_2) = 32/2 = 16$, bu kislorodni vodoroddan 16 marta og'irligini bildiradi. Gazlarning zichligidan foydalanib molyar massasini topish mumkin. M., kislorod uchun $M(O_2) = 22,4 \rho = 22,4 \cdot 1,43 = 32$ yoki $M(O_2) = 2D_{H_2} = 2 \cdot 16 = 32$

FJ,9 Gazlar aralashmasini o'rtacha molekulyar massasini topish T: 13-15,19,28 14-52,57,58,60,82,90 15-107,119,138 16-178,181,189,190 17-193,220 20-360 22-422,429

Gazlar aralashmasining o'rtacha molyar massasini testni berilishiga qarab bir necha usulda topish mumkin. M. Havoni tarkibida hajm bo'yicha 21% O₂, 79% N₂, massa bo'yicha 23% O₂, 77% N₂ bo'lsa, havoning o'rtacha molyar massasini toping.

- 1) **Hajmiy ulush(%) bo'yicha:** $M_{ar} = \varphi_1 M_1 + \varphi_2 M_2 = 0,21 \cdot 32 + 0,79 \cdot 28 = 29$.
- 2) **Hajmlari bo'yicha:** $M_{ar} = (V_1 M_1 + V_2 M_2) / (V_1 + V_2) = (21 \cdot 32 + 79 \cdot 28) / (21 + 79) = 29$.
- 3) **Massa ulushi(%) bo'yicha:** $M_{ar} = M_1 M_2 / (\omega_1 M_2 + \omega_2 M_1) = 32 \cdot 28 / (23 \cdot 28 + 77 \cdot 32) = 29$.
- 4) **Mollari bo'yicha:** mollar hajmiga proporsional bo'lgani uchun 2- formulaga hajmlar o'mriga mollarni qo'yib M_{ar} ni aniqlash mumkin.
- 5) **Aralashmani zichligi, nisbiy zichligi** ($M_{ar} = 22,4 \rho$, $M_{ar} = 2D_{H_2}$), **aralashma massasi va hajmi boyicha:** n.sh.da $\rho = M/22,4 = m/V$ dan $M_{ar} = 22,4m/V$, **universal gaz qonunidan:** $M_{ar} = mRT/PV$ ham topish mumkin.

Aralashmarining molyar massasi bilan tarkibiy qismlar hajmlari, mollari, massalari orasidagi bog'lanish. T: 12-5 14-81 15-131,137,16-142,145,177 18-238 19-294, 20-328-333,367 21-394,407 130-155. Bu bog'lanishni aralashtirish qoidasi (Pirson konverti, diogonal usul yoki krest) bo'yicha quyidagicha yozish mumkin (FJ,9):



Bu usulda aralashma tarkibini aniqlashda molyar massalar ayirmalaridan aralashmadagi moddalarning hajmlari yoki mollari nisbati chiqadi, lekin bu ayirmanli massalar nisbati deb olish mumkin emas. Massalar nisbati mollarga qarab topiladi. M. Agar havoni $M_{havo}=29$ bo'lsa, 10 l havoni tarkidagi kislorod va azotni hajmlarini toping.

5- dars. 24.09. 7,21,28 M,5/6 X,8 8,85 Molekulyar va nomolekulyar tuzilishli moddalar T: 8-173


Moddalar molekulyar va nomolekulyar tuzilishli bo'ladi. **Molekulyar tuzilishli moddalarda atomlar dastlab kovalent bog'lar yordamida o'zaro birikib molekulalarni, so'ngra molekulalardan modda hosil bo'ladi.** Molekulalar orasidagi tortishish kuchlari kushsiz

bo'lgani uchun bo'nday tuzilishi: moddalar asosan gaz, suyuq holatda, qisman qattiq holda (I_2 yod) uchraydi. Organik moddalarining deyarli barchasi molekulyar tuzilishli.

Nomolekulyar tuzilishli moddalar: atom, ionlardan tuzilgan, ular orasida kimyoviy bog'lar mustahkam, tortishish kuchliliqi sababli barchasi qattiq moddalar.

Ion-atomdan h/b zaryadlangan zarracha; aton. elektron bersa musbat, elektron olsa manfiy zaryadli ionga aylanadi. M_{+} , osh tuzi - $NaCl$ h/b.da: $2Na^0 (+11p-11e = 0)$ $\rightarrow Cl_2^0 (+17p-17e = 0) = 2Na^+ (+11p-10e = +1) \leftarrow 2Cl^- (+17p-18e = -1)$.

Qattiq moddalar 2 xil bo'ladi: 1) **Kristall shakl-zarrachalari** tartibli joylashgan, shuning uchun qattiq mustahkam, M_{+} , osh tuzi, grafit(qor; qalam). 2) **Amorf shakl-zarrachalari** tartibsiz joylashgan, shu sababli mo'rt bo'ladi, M_{+} , qurim, ko'mir.



8,85 Kristall panjara (KP) – kristall zarrachalarini nuqtalar bilan belgilab, chiziqlar bilan tutashirishdan hosil bo'lgan model, u kristallni tuzilishini tushinishga yordam beradi. KP tug'i – KP ni chiziqlari tutashgan joylar. KP tugunida joylashgan zarrachalar xiliga qarab KP lar 4 xil bo'ladi: molekulyar, atomli, ion, metall KP lar. Moddalarning xossalari KP xiliga bog'liq.


7,26,103 M,8-12 X,10 A,31 **Oddiy va murakkab moddalar. Allotropiya** T: 4-13, !4 5-31,37,42,47,55,63,64 6-75,83,84,96,100 7-115,117,124,127,132 8-184,191,194 9-198, 203,225-228 10-260 11-295,299,305,306,306,315,316,322,324,325 12-345,347,349

Oddiy modda-bir xil element atomlaridan hosil bo'lgan modda. **Metall** – issiqlik, elektr tokini yaxshi o'tkazadigan, plastik, yaltiroq oddiy modda. M_{+} , Al , Fe . Yuqoridagi xossalari yomon yoki yo'q oddiy modda – **metallmas**. M_{+} , H_2 , O_2 , S .

Murakkab modda (kimyoviy birikma) – har xil element atomlaridan hosil bo'lgan modda. M. suv H_2O , osh tuzi $NaCl$.

Elementlar soni 109(118) ta, lekin ular hosil qilgan oddiy moddalarni soni 400 dan ortiq. Buning sababi **allotropiya**-bir element atomlaridan bir nechta oddiy modda hosil bo'lishi hodisasiidir. M_{+} , kislородда 2 ta: O_2 -kislород gazi, O_3 -ozon gazi; олtingugurtда

3 ta: rombik, monoklinik, plastik; uglerodda 4 ta: olmos, grafit, karbin, fullerin allotropik shakllar bor. Allotropiyaning sababi molekuladagi atomlar sonining yoki KP tuzilishini har xil bo'lishidir.



Organik modda-tarkibida uglerod bor modda, anorganik modda-tarkibida uglerod yo'q modda (lekin uglerod oksidlari, karbonat kislota, karbonatlar xossalari bo'yicha o'rGANISHGA qulay bo'lishi uchun anorganik moddalarga kiritilgan). Organik moddalarning xillari organik kimyoda o'tiladi. 128-80 testni yeching.

7,30-32 A,23-24 8,8 Valentlik T: 4-6,12 5-34,38,52 8-174 10-261,278

Molekulaning miqdoriy tarkibini ifodalash, ya'ni modda formulasini yozish uchun valentlik tushunchasini 1853-yilda E.Franklend kiritgan. Valentlik - element atomini hosil qilgan bog'lanishlar soni. Uni aniqlash uchun H atomi birlik qilib olingan, ya ni elementning 1 ta atomi nechta H ni biriktirsa, element shuncha valemlini bo'ladi. Formula to'g'ri bo'lishi uchun birikayotgan atomlar valentliklari yig'indisi bir-biriga teng bo'lishi kerak. Formulaga qarab valentlikni topishda formuladagi valentligi ma'lum elementni jami valentligi ikkinchchi elementni jami valentligiga tengligi qoidasi ishlataladi.

7,30 8,7 M,7 A,25 KM,10 .Formula xillari T: 39-8,9

5 xil formula bor. 1) Emperik (sodda) formula-molekuladagi atomlarni eng kichik butun sonlardagi nisbatini bildiradi. M., butan C_4H_{10} sodda formulasasi C_2H_5 . 2) Molekulyar formula-molekuladagi atomlarni xili (sifat tarkib) va soni (miqdoriy tarkib) ko'rsatilgan formula. M., butan C_4H_{10} , suv H_2O . 3) Grafik formula-molekuladagi atomlar orasidagi bog'lanishlar chiziqchalar bilan ko'rsatilgan formula. 1 ta chiziqcha bog'lanishni hosil qilgan 1 juft elektronni billeldiradi. Element atomiga tutashgan chiziqchalar soni elementni valentligini bildiradi. M., $H-O-H$ $H-Cl$ 4) Elektron formula-bog'lanishlarni hosil qilgan elektron juftlar $H-O-H \rightarrow H-\ddot{O}-H$ nuqtalar bilan ko'rsatilgan formula. 5) Tuzilish formulasasi-molekulaning fazoviy shakli yoki molekuladagi atomlar orasidagi masofalar (bog'lanishlar uzunligi) va valent (bog'lanish) burchaklari aks ettirilgan formula. Ko'p darsliklarda grafik formula tuzilish formulasasi deb berilgan. Tuzilish - molekuladagi atomlar-

ning birikish tartibi.

7,32 Valentlik asosida formula tuzish T: 9-211

Oddiy moddalarning formulalari: a) agar oddiy modda inert gaz yoki nomolekulyar tuzilishli bo'lsa (metallar, atomli KP li metalmaslar) formulasi yakka atomli shaklda yoziladi: He, Ar, Fe, Cu, S, C. b) agar oddiy modda faqat molekulyar tuzilishli bo'lsa, molekulasini tarkibi qanday bo'lsa formulasi aynan shunday yoziladi: H₂, N₂, Cl₂, O₃.









Murakkab anorganik moddalarning formulalari ularni tarkibiga kiruvchi atom yoki atomlar guruhlarining (OH, kislota qoldiqlari) valentliklari asosida yoziladi.

P. 1) Valentliklar teng bo'lsa indeks qo'yilmaydi: Ca^{II}O, NH₄⁺OH⁻, CO₃²⁻, Na⁺Cl⁻,

2) Valentliklar bo'linsa bo'lib indekslarni topiladi.

3) Valentliklar bo'linmasa indekslar X bo'yicha topiladi. Al₂X₃³⁻, Fe₂(SO₄)₃

OH, Kislota qoldiqlarini tuzilishi va valentligi: -O-H → OH hidroksil guruhi,



Formulalarni to'g'ri yozishni o'rganguncha va yodda qolgunga qadar hozircha formula yozganda valentliklarni yozib, formula tuzishni tavsiya etaman.

● 6-dars. 26.09. 7,35,36 X,16 A,27, R,8 Fizikaviy va kimyoviy hodisalar.

Reaksiyalarni borish shartlari, belgilari. Reaksiya tenglamasi

T: 4-22 5-53 6-70,99 7-126 9-201 10-258 11-280,289,304,309,312 12-353

Hodisa – atrofimizda tabiatda yuz berayotgan o'zgarishlar. I- darsda aytiganidek reaksiya – **kimyoviy hodisa**, unda modda tarkibi o'zgaradi. **Fizikaviy hodisa** – moddaning tarkibi o'zgarmaydigan hodisa, ya'ni reaksiya emas. M., suvni parchalanib H₂, O₂ ga aylanishi reaksiya, suvni agregat holatini o'zgarishi: qaynashi, muzlashi fizikaviy hodisadir. Chunki bu hoftatlarda suv suvligicha qoladi: bug'ni sovitsak yoki muzni isitsak qaytadan suyuq suvgaga aylanadi.

Reaksiya sodir bo'lishi uchun: 1) Reaksiyaga kirishayotgan moddalar- **reagentlar** bir-biriga tegib aralashib turishi kerak; 2)**Reaksiya boradigan sharoit** – ma'lum bir temperatura, bosim hosil qiliishi, **katalizator** – reaksiyanı tezlashtiruvchi modda ishlatalishi kerak, chunki shunday sharoitda reagentlar reaksiyaga kirishishish uchun zarur bo'lgan

energiya – faollanish(aktivlanish) energiyasiga ega bo’ladi. Ko’pincha reaksiya yuz berishi uchun qizdirishni o’zi etarli bo’ladi. Agar modda etaricha aktiv – reaksiyaga kirishi oson bo’lsa qizdirish ham shart emas. M., natriy metali havo yoki suvgaga tegsa yonib mos ravishda oksid, gidroksidiga aylanib ketadi. Shuning uchun u kerosin ostida saqlanadi.

Reaksiya yuz beriganini **reaksiyaning tashqi alomatlariga** qarab bilish mumkin. Bu belgilarga: *rang, hid o’zgarishi; gaz yoki cho’kma hosil bo’lishi; issiqlik chiqishi yoki yutilishi* kiradi. M., Fe + O₂ + H₂O → Fe(OH)₃↓ -zanglashda qo’ng’ir zang, cho’kma tushishi; K + HOH → KOH + H₂↑ da gaz ajralishi; C + O₂ → CO₂ + Q (Q – issiqlik miqdori) -ko’mir yonganda issiqlik yorug’lik chiqishi, rang o’zgarishi kuzatiladi.

Reaksiya tenglamasini tuzish uchun strelkani (→) chap tomoniga reagentlar, o’ng tomoniga mahsulotlar formulalari valentliklari asosida yoziladi. So’ngra tenglashtirish uchun koeffitsiyentlar qo’yiladi. Agar moddalar reaksiya tenglamasiga mos miqdorda olinsa stexiometrik, **ekvimolyar yoki ekvivalent nisbatlarda** olingan deyiladi. Reaksiya tenglamasidagi koeffitsiyentlarga qarab quyidagilarni topish mumkin:

	2H ₂	+	O ₂	→	2H ₂ O
1) molekula sonimi	2 ta		1 ta		2 ta
2) molni	2 mol		1 mol		2 mol
3) mohiga mos:					
a) zaracha sonimi: 12.04 · 10 ²³ ta	molekula		6.02 · 10 ²³ ta	molekula	12.04 · 10 ²³ ta
b) massasi: 4 g			32 g		36 g
c) hajmini: 44.8 l			22.4 l		44.8 l (bug. gaz)

7,47 11,114 X,19 A,28 Reaksiya turlari

Reaksiyalarning belgilari qarab turli sifrlarga ajratish mumkin (11,114). Shulardan biri reaksiyada qatnashayotgan moddalar tarkibi va sonini o’zgarishiga qarab: **birikish, parchalanish, o’rin olish va almashinish reaksiyalariga** toifalash mumkin. 1) **Birikish reaksiyasida** bir necha moddadan bitta modda hosil bo’ladi: A + B + ... = C. M., 4P + 5O₂ → 2P₂O₅. 2) **Parchalanish (ajralish) reaksiyasida** bir moddadan bir nechta modda hosil bo’ladi: C = A + B + ... M., CaCO₃ = CaO + CO₂. 3) **O’rin olish reaksiyasida** oddiy modda murakkab moddani tarkibiy qismini o’mini oladi, hatijada yangi oddiy va murakkab modda hosil bo’ladi: AB + C = AC + B. M., Fe + CuSO₄ = FeSO₄ + Cu 4) **Almashinish reaksiyasida** 2 ta murakkab modda tarkibiy qismlarini o’zaro almashadi: AB + CD = AD + BC. NaOH + HCl = NaCl + HOH

Kimyoning asosiy miqdoriy qonunlari

Kimyoning asosiy miqdoriy qonunlariga *tarkibning doimiylik qonuni, karrali nisbatlar qonuni, hajmiy nisbatlar qonuni, massaning saqlanish qonuni va ekvivalentlar qonuni* kiradi. Ularni barchasi atom-molekulyar ta limotni isbotlaydi, kimyonini aniq tabiiy fan-

ga aylanishiga yordam bergen, kimyoviy hisoblashlarda katta ahamiyatga ega.

7,21,40 11.74 M,5 X,32, T: 5-36,43 9-233,234 1) Moddalar tarkibining doimiyligi qonuni (J.L.Prust, 1799- y.): Har qanday toza modda olinish usuli va joyidan qat'iy nazar doimiy tarkibga ega bo'ladi. M., suvni qanday usulda olinishi ($H_2 + O_2 \rightarrow H_2O$, $NaOH + HCl \rightarrow NaCl + HOH$) va Yer yuzini qaysi joyidan olinishidan qat'iy nazar tarkibi doim bir xil, ya'ni 2 ta H ga 1 ta O: 2g H ga 16g O yoki 11.11% H ga 88,89% O to'g'ri keladi.

7,41 2) Karrali nisbatlar qonuni (J.Dalton, 1803- y.): Agar ikki element bir-biri bilan bir nechta birikma hosil qilsa, bu birikmalarda bir element massasiga to'g'ri keluvchi boshqa elementlarning massalari o'zaro kichik butun sonlar nisbatida bo'ladi. M., is gazi CO va karbonat angidrid CO_2 da 12 g uglerodga to'g'ri keladigan kislorodlarning massalari 16 g : 32 g = 1 : 2.

7,80 X,23 T: 18-269 3) Hajmiy nisbatlar qonuni (J.L.Gey Lyussak, 1808- y.): Reaksiada qatnashayotgan gazlarni hajmlari o'zaro kichik butun sonlar nisbatida bo'ladi:

$N_2 + 3H_2 \rightarrow 2NH_3$		
1 mol	3 mol	2 mol
22.4 l	67.2 l	44.8 l
1	3	2


Yuqorida ko'rildigan qonunlar **daltonidlar**- molekulyar tuzilishli moddalar uchun to'g'ri, **bertollidlar** - nomolekulyar tuzilishli-tarkibi o'zgaruvchan moddalar uchun amal qilmaydi. M., Titan(IV) oksidni tarkibi qaysi kondan olinishiga qarab o'zgarib turadi: $TiO_{1.9-2}$ T: 4-11,65 testlarni yeching.

4) 7,42 A,53 X,20 M,4 11,72 T: 4-20,30 7-131

27-2 Moddalar massasining saqlanish qonuni

(M.V.Lomonosov, 1748- y., A.Lavuaze, 1772- y.):

Reaksiyaga kirishgan moddalarning umumiy massasi reaksiya mahsulotlarining umumiy massasiga teng



$\Delta E = \Delta m c^2$ Eyenshteyen formulasi bo'yicha (bu yerda ΔE -energiyanı o'zgarishi, Δm -massani o'zgarishi, c -yorug'lik tezligi, $300\ 000 \text{ km/s}$) biror hodisada energiya ajralib chiqsa, massa kamayishi kerak. Haqiqatda yadro reaksiyalarida (M., atom bombanining portlashida) juda katta energiya ajralgani uchun massa kamayadi, ya'ni massani saqlanish qonuni amal qilmaydi. Kimyoviy reaksiyalarda kam energiya ajralgani uchun massani kamayishi juda kichik bo'ladi (10^{-6} g), uni amaldagi tarozilarda (aniqligi 10^{-4} g) sezib bo'lmaydi. Shuning uchun kimyoviy reaksiyalar uchun massanining saqlanish qonuni amalda to'g'ri. M., $H_2 + Cl_2 \rightarrow 2HCl + 92 \text{ kJ} \approx 90 \text{ kJ}$ reaksiya uchun $\Delta m = \Delta E / c^2 = 9 \cdot 10^1 / (3 \cdot 10^5)^2 = 10^{-9} \text{ kg} = 10^{-6} \text{ g}$.

7,43,53 R,59 8,16 FJ,11 Ekvivalent. Ekvivalentlar qonuni

T: 8-195-197 10-265 11-290,291,300-302,317,319

P. Ekvivalent massa, E, g/ekv- moddani 1 g H yoki 8 g O bilan qoldiqsiz birikadigan yoki o'mini oladigan massasi. Ma'nosi: $E = m / n_E \xrightarrow{\text{birfigi}} \text{g/ekv}$ (birfigi) dan $n_E = 1 \text{ ekv}$ da $E = m$ bo'yicha 1 ekvivalent moddanining massasi, bu erda $n_E = \text{moddanining ekvivalentlar soni}$, moddani berilgan massasida yoki hajmida necha ekv modda borligini bildiradi,


Y-7080

birligi ekv: $n_E = m / E = V / E_v$. Ekvivalent hajm, E_v , V eky – moddaning ekvivalent massasiga mos keladigan hajmi yoki 1 ekv modda hajmi: $E_v = V / n_E \rightarrow$ birligi 1 / ekv.

7-sinf darsligi, 43-betdagи ekvivalent massani g/mol, ekvivalent hajmni l/mol birliklarida ifodalash noto`g`ri, chunki M., kislorodning ekvivalentini 8 g/mol yoki 5,6 l/mol deb yozish matematik nuqtai-nazardan 1 mol kislorod 8 g yoki 5,6 l demakdir. Shuning uchun ularni 8 g/ekv yoki 5,6 l/ekv shaklida yozish kerak, bu 1 ekv kislorod 8 g yoki 5,6 l ekanligini bildiradi.

M. Xlor gazini ekvivalent massasini, ekvivalent hajmini toping. 71 g yoki 22,4 l xlorni ekvivalentlar sonini aniqlang. Yechish: $H_2 + Cl_2 \rightarrow 2HCl$ reaksiyasi bo`yicha 2 g H_2 ga \rightarrow 71 g Cl_2 , bundan 1 g H_2 ga $\rightarrow x = 35,5$ g Cl_2 yoki HCl formulasiga ko`ra 1 g H_2 ga 35,5 g Cl to`g`ri keladi, demak xlorni ekvivalent massasi $E(Cl_2) = 35,5$ g/ekv, ya`ni 1 ekv xlor gazi 35,5 g. 71 g xlor $\rightarrow 22,4$ l dan, $35,5$ g xlor $\rightarrow x = 11,2$ l bo`lgani uchun xlorni ekvivalent hajmi $E_v(Cl_2) = 11,2$ l/ekv, ya`ni 1 ekv xlor 11,2 l. 71 g yoki 22,4 l xlorni ekvivalentlar soni: $n_E(Cl_2) = m/E = 71g/35,5g/ekv = 2$ ekv yoki $n_E(Cl_2) = V/E_v = 22,4 l/11,2 l/ekv = 2$ ekv ga teng.

Ekvivalentning ahamiyati shundaki reaksiya tenglamasini tuzmasdan moddalarning reaksiyada qatnashadigan massalaringi yoki hajmlarini topish mumkin, chunki Ekvivalentlar qonuni (I.V.Rixter, 1802-y.) bo`yicha: moddalarning reaksiyada qatnashayotgan massalari, hajmlari ekvivalentlariga proporsional yoki reaksiyada qatnashayotgan moddalarning ekvivalentlar soni o`zar qilinib teng bo`ladi. M., A + B \rightarrow AB reaksiya uchun $n_E(A) = n_E(B)$, bundan $m(A)/E(A) = m(B)/E(B)$, $V(A)/E_v(A) = V(B)/E_v(B)$ yoki $n(A)/E(A) = V(B)/E_v(B)$ lar kelib chiqadi.



7,52 Moddalarning ekvivalentini topish

Oddiy moddalar: $E = A_r / V_A$, nisbiy atom massa, V – valentlik. M., azot N≡N tuzilish bo`yicha 3 valentli, shuning uchun: $E(N_2) = 14/3 = 4,7$ g/ekv. $E(Al) = 27/3 = 9$ g/ekv.

Murakkab moddalar: 1) Oksidlar: $E(E_xO_y) = M / Vx$ $E(Al_2O_3) = 102/3\cdot2 = 17$ g/ekv. 2) Asoslar: $E(Me(OH)_x) = M / V$ $E(Ca(OH)_2) = 74/2 = 37$ g/ekv. 3) Kislotalar: $E(H_xKq) = M / V$ $E(H_2SO_4) = 98/2 = 49$ g/ekv. 4) Tuzlar: $E(Me_xKq_y) = M / Vx$ $E(Al_2(SO_4)_3) = 342/3\cdot2 = 57$ g/ekv.

Eslatma: 1) Ko`p negizli asos va kislotalarning ekvivalenti agar ular reaksiyada asosli yoki nordon tuz hosil qilsa, ularni molyar massasini reaksiyada qatnashgan OH yoki H soniga bo`lib topiladi. $2KOH + H_3PO_4 \rightarrow K_2HPO_4 + 2HOH$ reaksiyada fosfat kislotani 2 ta H atomi reaksiyaga kirishgani uchun $E(H_3PO_4) = 98/2 = 49$ g/ekv ga teng. $Ca(OH)_2 + HCl \rightarrow Ca(OH)Cl + HOH$ reaksiyasida asosni 1 ta OH reaksiyaga kirishgani uchun $E(Ca(OH)_2) = 74/1 = 74$ g/ekv ga teng.

2) Agar reaksiya oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi bo`lsa, oksidlovchi yoki qaytaruvchining ekvivalenti yuqoridaagi formulalar bilan emas, balki *oksidlovchi yoki qaytaruvchini molyar massasini ularni bitta molekulasi olgan yoki bergen elektron soniga bo`lib aniqlanadi.* $10FeSO_4 + 2KMnO_4 + 8H_2SO_4 = 5Fe_2(SO_4)_3 + 2MnSO_4 + K_2SO_4 + 8H_2O$ da jami 10 ta elektron ko`chmoqda, $FeSO_4$ ni 1 ta molekulasi 1 ta elektron bergani uchun $E(FeSO_4) = 152/1 = 152$ g/ekv, 1 ta $KMnO_4$ molekulasi 5 ta elektron olgani uchun $E(KMnO_4) = 158/5 = 31,6$ g/ekv ga teng.

7- dars. 29.09. Kimyoning asosiy miqdoriy masalalari xillari va ularni yechish usullari

Kimyodan masalalar yechishda yechish usullari, formulalarni ma'lum bir tartibga ketirish – sistemaga (tizimga) solish, umumlashtirish, masalalarni klassifikatsiyalash (sinflash) yechishni umumiyo`llari, formulalari haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga, chiqurroq tushinishga, eslab qolishga yordam beradi. Bu sohadagi ishlarmiz bilan „Химия в школе” dagi „К решению расчетных задач” (1988,N1), „Совет мактаби”даги „Масалаларни классификациялаш” (1988,N2), „Халқ та’лими”даги „Кимыoning asosiy hisoblash formulalari”(2009,N3) maqolalarida tanishishingiz mumkin.

7,49,50 X,27-30 I. Formula bo`yicha hisoblashlar

Molekulyar formula asosida (FJ,2,4,5,7,11): I.1. Moddaning nisbiy molekulyar massasini, molar massasini, absolyut molekulyar massasini; I.2. Gazlarning zichligi, nisbiy zichligini; I.3. Moddalarning ekvivalentlarini; I.4. Moddaning molini, massasini, hajmini, molekulalar sonini hisoblash mumkin. Yuqoridagilarni barchasi oldingi darslarda o’tilgani uchun to’xtalib o’tirmaymiz.

T: 4-17,23 6-72,74 10-264 I.5. Murakkab modda tarkibidagi elementlarni massa nisbatlarini topish uchun: a) formulaga qarab modda tarkidagi elementlarni har birini jami massalari topiladi; b) bu massalarni qisqarmaydigan eng kichik butun sonlarga aylanguncha qisqartiriladi. M., CO_2 da $12g C : 32g O \rightarrow 3:8$. $CaCO_3$ da $40g Ca : 12g C : 48g O \rightarrow 10:3:12$.

7,30 X,30 T: 4-25,29 5-44,51,57 6-90 8-178,181 9-236 10-237,262,266 I.6. Murakkab modda tarkidagi elementlar atomlarini massa ulushini (moddan ni foiz tarkibini) aniqlash uchun FJ,3 dagi formula, sxemalardan foydalananiz. M., Al_2O_3 ni foiz tarkibi: $\omega(Al) = 2 \cdot 27 / 102 = 0,53$ (53%), $\omega\%(O) = 100\% - 53\% = 47\%$.

T: 10-268 11-314,318 12-2 14-53,55,66,79,88 15-113,149 16-151-155,164,171,173, 186 I.7. Murakkab moddaning moli, massasi, hajmi bilan uning tarkidagi elementning massasi orasidagi bog`lanishlar ham modda formulasi asosida FJ,8 ga o`xshash sxemalar bo`yicha hisoblanadi. M. 2 mol (88 g, 44,8 l) CO_2 tarkidagi C ni massasini toping. 1 mol (44 g, 22,4 l) CO_2 da $\rightarrow 12 g C$ dan, 2 mol (88 g, 44,8 l) CO_2 da $\rightarrow x = 24 g$ C bor. M. 4 g H necha mol yoki g shurni tarkibida bo`ladi? Suvni formulasi bo`yicha 2 g H \rightarrow 1 mol yoki 18 g suvda, 4 g H $\rightarrow x = 2$ mol yoki 36 g suvda bo`ladi.

7,51 X,30 II. Murakkab moddaning molekulyar formulasini topish

Noma'lum moddaning molekulyar formulasini topish usullari FJ,10 da berilgan.

T: 15-104,115 II.1. **Moddaning foiz tarkibi, molar massasi asosida formulasini topish.** M. Alkanni tarkibida 82,76% C bor. Uni $D(H_2) = 29$ ga teng. Alkanni formulasini toping. Yechish(Ye): Alkanni formulasi C_xH_y , molar massasi $M = 2D(H_2) = 2 \cdot 29 = 58$. FJ,10a formula bo'yicha $x = 58 \cdot 0,8276 / 12 = 4$. $\omega\%(H) = 100\% - 82,76\% = 17,24\%$ dan $y = 58 \cdot 0,1724 = 10$. Javob(J): C_4H_{10} butan.

T: 4-21,28 6-78 9-215,216 II.2. **Moddaning massasi va molar massasi, tarkibidagi elementlarning massalari asosida formulasini topish.** 10, 27-bet. 7-M., 8,6 g uglevodorod yoqilganda 26,4 g CO_2 , 12,6 g suv olingan. Uglevodorodning havoga nisbatan zichligi 2,966 ga teng. Modda formulasini toping. Ye: CO_2 , suv massalari asosida C va H ni massalarini topamiz. $44 \text{ g } CO_2 \text{ da} \rightarrow 12 \text{ g C}$, $26,4 \text{ g } CO_2 \text{ da} \rightarrow x = 26,4 \cdot 12 / 44 = 7,2 \text{ g C}$; $18 \text{ g } H_2O \text{ da} \rightarrow 2 \text{ g H}$, $12,6 \text{ g } H_2O \text{ da} \rightarrow x = 12,6 \cdot 2 / 18 = 1,4 \text{ g H}$ yoki $m(H) = 8,6 \cdot 7,2 / 26,4 = 1,4 \text{ g H}$. C_xH_y moddaning molar massasi $M = 29 \cdot 2,966 = 86$. FJ,10b formula bo'yicha: $x = 86 \cdot 7,2 / 12 \cdot 8,6 = 6$; $y = 86 \cdot 1,4 / 8,6 = 14$. J: C_6H_{14} geksan.

T: 4-24 5-32,39,54,56 7-118,120 8-179 10-250,252,253,255 11-286,296 II.3. **Moddaning faqat foiz yoki massa tarkibi asosida formulasini topish (eng noqilay usul).** M. Alyuminiy oksidi tarkibida 52,9% Al bor. Oksidni formulasini toping. Ye: $\omega\%(Q) = 100\% - 52,9\% = 47,1\%$. Al_xO_y da FJ,10c bo'yicha $x : y = 52,9 / 27 : 47,1 / 16 = 1,96 : 2,94 \xrightarrow{1,96} 1 : 1,5 \xrightarrow{1,5} 2 : 3$. J: Al_2O_3 .

8- dars. 01 10. T: 4-15,16 5-33,59,61,62 6-78,87 7-111,133 8-186 9-209-210 11-307 12-339 II.4. **Moddaning umumiyl formulasidan foydalanib formulasini topish.** II.1.dagi masalani FJ,10d bo'yicha quyidagicha yechish mumkin: alkanlarning molar massasi $M = 14n + 2 = 58$ dan $n = (58 - 2) / 14 = 4$. Buni umumiyl formulaga qo'ysak $C_4H_{2+4 \cdot 2} = C_4H_{10}$. M. 3 valentli metallning oksidida 52,9% metall, 47,1% O bo'lsa oksidni formulasini toping. Ye: Masala sharti bo'yicha oksidning umumiyl formulasi E_2O_3 . Sxema bo'yicha $2E = 52,9 \cdot 48 / 47,1 = 54$, bundan $E = 54 / 2 = 27$. J: Al_2O_3 .

T: 5-40,60 10-251,254 II.5. **Reaksiya mahsulotlari mollaridan foydalanib moddani formulasini topish (eng yaxshi usul).** II.2. dagi masalani bu usulda yechish uchun dastlab yonish mahsulotlari mollarini topamiz: $n(CO_2) = 26,4 / 44 = 0,6 \text{ mol}$, $n(H_2O) = 12,6 / 18 = 0,7 \text{ mol}$. Bu mollar asosida 1 mol noma'lum moddaga mos mollarni topsak yoki mollarni eng kichik butun sonlarga aylantirsak, mahsulotlarni koefitsientlari h/b. Bundan reaksiya tenglamasi bo'yicha moddani formulasi: $C_6H_{14} + 9,5O_2 = \overset{0,6 \text{ mol}}{6CO_2} + \overset{0,7 \text{ mol} / 10}{7H_2O}$

T: 6-104 8-193 9-222 12-343 II.6. **Reaksiyaning umumiyl tenglamasi asosida formulasini topish.** II.2. dagi masalada agar modda alkan deb ko'satilgan bo'lsa, alkanlarning umumiyl yonish tenglamasi: $C_nH_{2n+2} + (1,5n + 0,5)O_2 = nCO_2 + (n + 1)H_2O$ da koefitsientlar mollarga proporsional bo'lgani uchun $n / n+1 = 0,6 / 0,7$ bundan $0,7n = 0,6(n+1) = 0,6n + 0,6$; $0,7n - 0,6n = 0,6$; $0,1n = 0,6$; $n = 0,6 / 0,1 = 6$. $C_6H_{2+6 \cdot 2} = C_6H_{14}$, geksan.

M. 3,9 g ishqoriy metall (IA guruh metali) suv bilan ta'sirlashib n.sh.da 1,12 l gaz ajralib chiqdi. Metallni toping. Umumiy tenglama bo'yicha quyidagicha yechish mumkin. J: Kaliy


$$\text{Me} + \text{H}_2\text{O} = \text{MeOH} + 0,5\text{H}_2$$

$$\text{M=39} \quad 3,9 \text{ g} \quad 1,12 \text{ l}$$

7.54 X.34-38 A.54 R.6 III. Reaksiya tenglamalari asosida hisoblar

T: 4-27 5-48 6-76,88,89,92,108 8-180 9-214 10-243,244,257,259 11-282,313 12-331
 13-42 14-51,54,80 15-127,134 16-144,148 III.1. Reaksiyada qatnashayotgan moddalarning miqdorlari (mollari), molekulalar soni, massalari, hajmlari orasidagi bog`lanishlar asosida hisoblashlar. Bunday hisoblashlarda yuqorida aytilgan miqdorlar reaksiya tenglamasi bo'yicha bir-biriga proporsional bo'lgani uchun ularni biriga qarab ikkinchisini topish mumkin. Bu hisoblarda birliklarni o'zaro mos kelishini bilsish kerak: kmol-kg-m³, mol-g-l.

Bunday masalalarni yechishda: a) dastlab reaksiya sxemasini yozib, so'ngra koefitsientlarni qo'yib reaksiya tenglamasi tuziladi; b) masala shartidagi noma'lum va berilgan (ma'lum) miqdorlar tegishli formulalar ustiga yoziladi, reaksiya tenglamasiga mos miqdorlar formulalar ostiga yoziladi; c) hosil bo'lgan proporsiyani yechib noma'lumni topiladi. M. 320 g Fe₂O₃ + 3H₂ = 2Fe + 3H₂O temir(II) oksiddan temir olish uchun necha mol H₂ kerak? J: 6 mol. M. 1,28 kg mis olish uchun mis(II)



Agar testda bir gazni hajmiga ko'ra 2-gazni hajmini topish so'ralgan bo'lsa, buni koefitsientlarning hajmlarga proporsionalligidan oson aniqlash mumkin (6- dars, 17- bct, hajmiy nisbatlar qonumi). Ammo N₂ + 3H₂ → 2NH₃, buni gaz-suyuqlik, gaz-qattiq moddalarga ishlatalish mumkin emas. M. 20 l ammiak olish uchun necha l azot kerak? J: 10 l.

III.2. Reaksiyada qatnashayotgan moddalarning haqiqiy massalari, mollari, hajmlari „yashirilgan” masalalar. Bu tipdagi masalalarni yechishda dastlab reagentlarning reaksiyaga kirishayotgan haqiqiy miqdorlari berilgan ma'lumotlardan foydalanim topiladi, so'ngra III.1.dagidek reaksiya tenglamasiga qo'yib yechiladi.

T: 6-85 7-134 8-160,161,192 10-241,245-248 11-327 12-337,338 21-397

III.2.a) Reaksiyaga toza modda emas, moddaning aralashmasi yoki eritmasi olingan hollar. Bunday hollarda dastlab massa ulushi asosida toza moddaning massasi topiladi, so'ngra uni reaksiya tenglamasiga qo'yib yechiladi. M. Tarkibida 10% qo'shimchalar bo'lgan 1 kg ohaktoshdan necha g so'ndirilmagan ohak va necha l CO₂ olish mumkin? $\omega(\text{CaCO}_3) = 100\% - 10\% = 90\%$; $m(\text{CaCO}_3) = \omega m(\text{ar.}) = 0,9 \cdot 1000 = 900 \text{ g.}$


$$\text{CaCO}_3 \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{CaO} + \text{CO}_2$$

$$\frac{100\%}{90\%} \quad \frac{56 \text{ g}}{44 \text{ g}} \quad \frac{100\%}{20\%} \quad \frac{1 \text{ kg}}{22.4 \text{ l}}$$

M. 200 ml 10% li NaOH eritmasiga ($\rho = 1,23 \text{ g/ml}$) xlorid kislota ta'sir ettiliganda necha g tuz hosil bo'ladi? P. Kimyo o'rganishni dastlabki bosqichlariда

malaka hosil bo`lguncha o`quvchilarga qiyinroq testlarni yechishda *reja* (*algoritm*) tuzishni o`rgatish kerak. Reja(R): $m(\text{NaCl}) \xleftarrow{\text{m}} m(\text{NaOH}) \xleftarrow{\text{m}} m(\text{ert.}) \xleftarrow{\text{V}} V(\text{ert.})$

Ye: 1) $m(\text{ert.}) = \rho V(\text{ert.}) = 1,23 \cdot 200 = 246 \text{ g}$. 2) $m(\text{NaOH}) = \omega m(\text{ert.}) = 0,1 \cdot 246 = 24,6 \text{ g}$



T: 12-1,7 13-16-18,23,24,27,33,43,49 14-91 16-149,156 21-414 22-421

III.2.b) Reagentlardan blri ortiqcha olingan hol. Agar test shartida reagentlarning ikkalasiga ham tegishli kattaliklar berilgan bo`lsa, reagentlardan biri keragidan ortiqcha olingan bo`lishi mumkin. Sh.u. dastlab qaysi reagent ortiqchaligiot aniqlash kerak, aks holda ortiqchaga nisbatan test yechilsa javob xato bo`ladi, chunki ortiqcha moddaning bir qismi reaksiyaga kirishmaydi. M. Reaksiyaga 2 g H_2 , 22,4 l O_2 (n.sh.) olingan bo`lsa, necha g suv hosil bo`ladi? $\frac{2 \text{ g}}{2 \text{ g}} + \frac{22,4 \text{ l}}{22,4 \text{ l}} = \frac{2 \text{ g} + 22,4 \text{ l}}{2 \text{ g} + 22,4 \text{ l}} = 2H_2O$

9- dars. 03.10. T: 4-7,12,26 5-58,66 6-77,80,94 7-122 8-155-159,162-172,176 10-242,249,279 11-310,326 13-46 **III.3. Reaksiya unumiga old hisoblar**

FJ,17: *Reaksiya unumi, η (eta)* reaksiya mahsulotini tajriba paytida, ya`ni aralda olingan miqdorlarining (n_a , m_a , V_a) reaksiya tenglamasi bo`yicha hisoblangan, ya`ni nazariy miqdorlariga (n_n , m_n , V_n) nisbatidir. Agar jarayon bir necha bosqichlar bilan borsa, jarayonning umumiy unumi bosqichlarning unumlarini ko`paytmasiga teng.

III.3.a) Reaksiya unumini topish. M. 900 g ohaktoshni kuydirilganda 252 g CaO olindi. Mahsulotni unumini toping? R: $\eta(CaO) = \frac{m_a \xleftarrow{\text{m}} 252 \text{ g}}{m_n \xleftarrow{\text{m}} RT}$

$$1) \frac{900 \text{ g}}{100\%} = \frac{1 \cdot 252 \text{ g}}{100\%} \quad 2) \eta(CaO) = 252 / 504 = 0,5 \text{ (50%).}$$

III.3.b) Unumga qarab mahsulot miqdorini topish. M. 900 g ohaktoshdan 50% unumda necha g CaO olish mumkin? R: $m_a(CaO) \xleftarrow{\text{m}} m_n(CaO) \xleftarrow{\text{m}} m(CaCO_3)$

$$1) \frac{900 \text{ g}}{100\%} = \frac{1 \cdot 504 \text{ g}}{100\%} \quad 2) m_a(CaO) = \eta m_n(CaO) = 0,5 \cdot 504 = 252 \text{ g.}$$


III.3.c) Mahsulot miqdori, unumi ma`lum bo`lsa, reagent miqdorini topish. M. 50% unum b-n 252 g so`nmagan ohak olingan bo`lsa, necha g ohaktosh parchalan-gan? R: $m(CaCO_3) \xleftarrow{\text{m}} m_n(CaO) \xleftarrow{\text{m}} m_a(CaO)$

$$1) m_n(CaO) = 252 / 0,5 = 504 \text{ g.} \quad 2) \frac{504 \text{ g}}{100\%} = \frac{CaCO_3}{50\%} + CO_2$$

III.4. Reaksiyaga kirishgan aralashma tarkibini aniqlash

FJ,9 da berilgan. Buning uchun krestga qo`yishda nimani topish kerak bo`lsa, dastlab uni reaksiya bo`yicha shergini topib, sherkni krestga tushirish kerak. M. 6,2 g Na, K

aralashmasidan mo'l suv ta'sirida n.sh.da 2,24 l H₂ ajralib chiqdi. Aralashmadagi metal-larni massasini toping?



10- dars. 06.10. Kimyoning asosiy tushunchalari bobি bo'yicha sinov-saralash testi

II bob. DAVRIY QONUN. ATOM TUZILISHI

11- dars. 08.10. 8,31-43,58 9,5 11,76 M,39-59 X,41-48,73 A,83 KM,3

Elementlarning toifalanishi, davriy qonun T: 23-1,3,5,12,14-16

24-23,31,32,34-37,44,45,47,52 25-55,79,81-83 26-94,95 32-207,234 34-278

7- darsda aytiganidek o'rganilgan bilimlarni, tajribalarda to'plangan ma'lumotlarni - faktlarni sistemaga solish, umumilashtirish o'rganishni, esda saqlashni osonlashtiradi, hal ochilmagan kashfiyotlarni bashorat qilishga yordam beradi. „Fanlarni o'rganishdan maqsad: foyda keltirish va bashorat qilish“ degan edi D.I.Mendeleyev. Kashf etilgan elementlar soni ortib borishi bilan (XVIII asr oxirida 30 ga yaqin, davriy qonun kashf etilish payti -XIX asrni 60- yillari 63 ta element ma'lum edi) ular haqidagi ma'lumotlarni sistemaga solishga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Dastlabki toifalashda elementlar **metall** va **metallmaslarga** ajratildi (qoidalar 13 - betda). Ular bir-biridan faqat fizik xossalari bilan emas, kimyoiy xossalari bilan ham farq qiladi. Elementlarni bunday toifalash shartlidir, chunki ayrim elementlar ham metall, ham metallmas xossasiga ega. Bunday elementlar **amfoter elementlar** (8,33) deyiladi, M., Al, Zn. Keyinchalik I. Debereyner 1829- yil elementlar triadalarini - o'xshash elementlarning uchthalik oilalarini, A.de Shankurtua 1862- yil elementlarni silindrishimon jadvalini, L.Meyer 1864- yil elementlarni atom massalari ortishiga asoslangan jadvalini, J.Nyulends 1865- yil ekvivalentlar asosida oktavalor qonunini yaratib, davriy qonunni kashf etilishiga zamin tayyorladilar.

D.I.Mendeleyev 1869- yilda elementlarni atom massalari ortishi tartibida bir qatorga joylashtirdi. Bu qatorda elementlarning xossalarni qanday o'zgarishini kuzatib davriy qonunni kashf etdi. **Davriy qonun:** Oddiy moddalarning, shuningdek elementlar birikmalarining shakli (P. formulasi) va xossalari elementlar atom og'irliliklari qiy-matiga **davriy ravishda bog'liq bo'ladi**. P., ya'ni atom og'irliliklari ortishi qatorida 7,17,31 ta elementdan keyin oldingi elementning xossasi asosan takrorlanadi. M., Na ni ishqoriy metallik xossasi K da, xloring galogenlik xossasi bromda takrorlanadi. „Davriy“ so'zini ma'nosi takrorlanishdir.

Davriylik faqat xossalarda emas shakl - formulalarda ham kuzatiladi. M., Na₂O ~ K₂O, HCl ~ HBr. Shuning uchun davriy sistemada gruppalarini pastida yuqori oksidlar va vodo-rodli uchuvchan birikmalarning umumiy formulalari berilgan.

Keyinchalik atom tuzilishi sohasida qilingan kashfiyotlar hatijasida **Davriy qonunning zamonaviy ta'rifsi yaratildi: Kimyoviy elementlar va ular hosil qilgan oddiy hamda murakkab moddalarning shakli, xossalari elementlar atomlari yadrosining zaryadiga davriy ravishda bog'liq**. Mendeleyev ta'rifini aniq emasligini sezgan, M., K va Ar ni atom ogirligi emas, xossalari asosida to'g'ri joylashtirgan.

Davriy sistema. Mendeleyev kuzatgan qatordagi xossalari o'xshash elementlarni ostma-ost joylashtirib, davriy qonunning grafik tasvirini- **Elementlar davriy sistemasi** jadvalini yaratdi. Davriy sistema 7 ta davr, 8 ta guruhdan (gruppadan) tuzilgan.

Davr- elementlarning ishqoriy metallar bilan boshlanib inert (nodir) gazlar bilan tugaydigan gorizontal qatoridir. 1,2,3- davrlar kichik davrlar, 4-7- davrlar katta davrlar deyiladi. Kichik davrlar bittadan, katta davrlar ikkitatadan qatordan tuzilgan.

Gruppa (guruhi) – elementlarning davriy sistemadagi vertikal (tik) qatorlari. Gruppa asosiy va qo'shimcha gruppachalarga bo'linadi. **Asosiy (bosh) gruppacha** – ham kichik, ham katta davrlar elementlari kiradigan gruppacha. **Qo'shimcha (yonaki) gruppacha** – faqat katta davrlar elementlaridan tuzilgan gruppacha, ular faqat metallardan (d,f-elementlar) iborat. Bitta gruppachada joylashgan elementlar **analoglar** deyiladi, chunki xossalari bir-biriga juda o'xshaydi va elementlarning tabiiy ojalalarini hosil qiladi. M., IA gruppacha ishqoriy metallar, VIA gr. xalkogenlar, VIIA gr. galogenlar deyiladi.

8,40 9,9 A,88 X,64-68 Moddalarni xossalari davr, gruppalarda o'zgarishi

Davriy qonunning ahamiyati shundaki, elementning davriy sistemadagi o'miga qarab element xossalari aytish, hali kashf etilmagan bo'lsa ilmiy bashorat qilish mumkin. Buning uchun Mendeleyev bashorat qilishda ishlatgan *noma'lum element xossasi davr va gruppacha bo'yicha qo'shni 4 ta elementni o'rtacha xossasiga tengligi usulini* qo'llash kerak. Aytaylik noma'lum element selen bo'lsin, uni biror xossasi, M., atom massasini yuqoridaqgi usulda quyidagicha topish mumkin: A,(Se) = [32(S) + 128(Te) + 75(As) + + 80(Br)] / 4 = 79. Mendeleyev shu usuldan foydalanib hali kashf etilmagan ekasilitsiy (germaniyl, 1886- y. K. Vinkler kashf etgan), ekabor(skandiy. 1879- y. I. Nilson k.e.), eka-salyuminiy (galliy, 1875- y. Lekok de Buabadron k.e.) elementlarini birikmalari xossalari bashorat qilgan edi Men bashoratlash haqida „Совет мактаби”да „Moddalarni tuyziliшини ва хоссфларини башорат килиш”(1989,N4) maqolalunda yozganman.

Oddiy moddalalar **metallik-metallmaslik**, oksidlovchilik – qaytaruvchilik, murakkab moddalalar ham oksidlovchi-qaytaruvchilik va asoslik-kislotalik kimyoviy xossalariiga ega.


Oddiy moddalarning **metallik-metallmaslik xossalari** atomlarini tashqi qavatidagi elektronlarini yadro bilan tortishish kuchiga bog'liq. Elektron ya'doriga qancha kuchsiz tortilsa, shuncha metallik kuchli, qancha kuchli tortilsa, shuncha metallmaslik xossasi kuchli bo'ladi.

Davrlarda chapdan o'ngga qarab (tartib raqami ortishi bilan) elementlar atomlarini tashqi qavatdag'i elektronlar soni (mos ravishda jami zaryadi) ortib boradi, natijada kulan qonuni $F_{\text{ion}} \sim q^+ \cdot q^- / r^2$ bo'yicha (q^+ -yadro zaryadi, q^- - elektronlar zaryadi, r - atom radiusi) elektronlarni yadroga tortishishi kuchayadi. Sh.u. davrlarda elektron qavatlar soni o'zgarmasa ham atomning radiusi kichiklashadi. Yuqoridagilarga ko'ra **davrlarda chapdan o'ngga qarab metallik xossasi kamayadi, metallmaslik xossasi kuchayadi.**


Gruppalarda tepadan pastga qarab tashqi qavatdag'i elektronlar soni o'zgarmaydi, lekin elektron qavatlar soni ortib borgani uchun tashqi qavatdag'i elektronlar yadrodan uzoqlashadi, natijada yadro bilan tortishish susayadi, atom radiusi kattalashadi. Yuqorida-gilarga ko'ra **gruppalarda tepadan pastga qarab metallik kuchayadi, metallmaslik xossasi kamayadi.**

Metallarni oksid-gidroksidlari asosan asos xossali, metallmaslarniki esa kislotali xossali bo'ladi.

Asos xossali deb moddalarning kislotalar bilan reaksiyaga kirishib tuz va suv hosil qilishiga aytildi. Tipik(kuchli) metallarni IIA gruppacha metallari oksid, gidroksidlari asos xossalidir (BeO , $\text{Be}(\text{OH})_2$ amfoter).




Kislota xossali deb moddalarning asoslar, ishqorlar (suvda eriydigan asoslar) bilan reaksiyaga kirishib tuz, suv hosil qilishiga aytildi. Kuchli metallmaslarni M., galogenlarni, N, P, S, C oksidlari, gidroksidlari (kislotalari) kislota xossalidir.



Amfoter xossalni deb moddalarni ham ishqorlar(asoslar), ham kislotalar bilan reaksiyaga kirishib tuz va suv hosil qilishiga aytildi. Amfoter elementlarni oksid-gidroksidlari amfoter xossalidir. $\text{HOH} + \text{Na}_2\text{ZnO}_2(\text{rux sinkat tuzi}) \leftarrow \text{NaOH} + \text{H}_2\text{ZnO}_2 = \text{Zn}(\text{OH})_2, \text{ZnO} + \text{HCl} \rightarrow \text{ZnCl}_2 + \text{HOH}$

Aslida asoslar ham, kislordli kislotalar ham gidroksidlardir, ya'ni barchasining tarkibida hidroksil guruhi - OH bor, lekin eritmada asoslar OH⁻ ionini, kislotalar esa H⁺ ionini h/q. Amfoter xossalilar sharoitga qarab ham OH⁻, ham H⁺ ionlarini h/q. Bunga sabab ularda markaziy atom, H⁺, O²⁻ ionlari orasidagi tortishish-itarishish kuchlari har xilligidir (M,55).



Oksidlovchi deb reaksiyada elektron oladigan, **qaytaruvchi** deb reaksiyada elektron beradigan moddaga aytildi. Modda elektronni qancha kuchli tortsa oksidlovchiligi shuncha kuchli, aksincha elektronni tortishishi qancha kuchsiz bo'lsa qaytaruvchiligi shuncha kuchli bo'ladi. Demak metallarda qaytaruvchilik, metallmaslarda oksidlovchilik kuchli

bo`ladi. $\overset{\text{v}}{\underset{\text{g}}{\text{Na}}} + \overset{\text{v}}{\underset{\text{a}}{\text{Cl}_2}} \rightarrow \overset{\text{-1}}{\text{NaCl}}$. Murakkab moddalarning oksidlovchilik –qaytaruvchilik xossalari bashoratlash keyinroq oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari mavzusida (31-dars, 64- bet) o`tiladi.

Yuqorida aytigilanlardan quyidagi xulosani aytish mungkin: **Oddiy moddaning qancha metalligi kuchli bo`lsa, qaytaruvchiliqi shuncha kuchli, oksid-gidroksidlarining esa asosligi shuncha kuchli bo`ladi. Aksincha, oddiy moddaning qancha metallimasi kuchli bo`lsa, oksidlovchiliqi shuncha kuchli, oksid-gidroksidlarining esa kislotaligi shuncha kuchli bo`ladi.**

Bitta elementning har xil valentli birikmalari har xil xossali bo`lishi mumkin. M., CrO₃, Cr(OH)₃-asos xossali, Cr₂O₃, Cr(OH)₅-amfoter xossali, CrO₃, H₂CrO₄- kislota xossali. Demak, umuman markaziy atomni valentligi (oksidlanish darajasi) qancha kichik bo`lsa shuncha asoslik, valentligi (oksidlanish darajasi) qancha katta bo`lsa shuncha kislotalik kuchli bo`ladi.

**8,50-68 9,13 11,77-81 A,74-83 X,54-73,76 M,25-38 Atomning elektron tuzilishi
T: 27-16 29-110 30-144 32-228,230**

Atom tuzilishi haqidagi dastlabki ma`lumotlarni 7- bet, 2- dars: Atom tarkibi mavzusidan takrorlang.

Elektronlar yadro atrofida qavatlarda (pog`onalarda) joylashadi, qavatlarni soni element joylashgan davr nomeridan topiladi. Qavatlarga sig`adigan elektronlar soni $2n^2$ formula bilan topiladi. Bu yerda n-qavat nomeri. Qavatlar raqamlardan tashqari harflar bilan ham belgilanadi. K = 1-qavat: $2 \cdot 1^2 = 2$ ta elektron. L = 2-qavat: $2 \cdot 2^2 = 2 \cdot 4 = 8$ ta elektron. M = 3-qavat: $2 \cdot 3^2 = 2 \cdot 9 = 18$ ta elektron. N = 4-qavat: $2 \cdot 4^2 = 2 \cdot 16 = 32$ ta elektron.

Tashqi qavatga nomeridan qat`iy nazar 8 tadan ortiq elektron sig` maydi. Agar tashqi qavatda 8 ta elektron bo`lsa, u to`lgan (tugallangan) deb hisoblanadi. M., inert gazlar (VIIIA gr.). Tashqi qavat to`lishga qancha yaqin bo`lsa, elementni metallmaslik xossasi shuncha kuchli bo`ladi. M., galogenlar (VIIA gr. → 7 ta e) Tashqi qavat to`lishdan qancha uzoq bo`lsa, elementni metallik xossasi shuncha kuchli bo`ladi. M., ishqoriy metallar (IA gr. → 1 ta e).


**8,50 X,54 11,77 Elektron bulutlar (orbitallar) T:23-7 27-25 28-37,51 29-93
30-136,139,142,145 31-193 34-292 35-344 36-381**

Elektron bulut- elektronni yadro atrofida harakatlanadigan hajmi yoki elektronni yadro atrofida bo`lish ehtimolligi eng ko`p bo`lgan fazo. Elektron bulutlar 4 xil bo`ladi: sharsimon-s, gantelsimon (sakkizsimon)-p, kapalaksimon- d, murakkab shaklli-f. Qavatdagi elektron bulutlarni xili qavat nomeriga teng. 1-qavatda 1 xil: s-bulutlar, 2-qavatda

2 – xil: s ba p-bulutlar, 3 – qavatda 3 – xil: s,p,d-bulutlar, 4-qavatda 4-xil: s,p,d,f-bulutlar bo`ladi.

Elektronning o`z o`qi atrorida aylanishiga **spin**(„urchuq”) deyiladi. Spinlar yozuvda strelkalar bilan ifodalanadi. Elektron bulutlar (orbitallar) yozuvda katakchalar(kvadratlar) bilan belgilanadi. Katakchalar *energetik katakcha yoki energetik yacheykalar* ham deyiladi. Bulutlari o`xshash, lekin spinlari qarama-qarshi 2 ta elektron bir-biri bilan juftlashib (magnit qutblari har xilligi sababli) 1 ta umumiy elektron bulutda harakatlanishi mumkin. Bunday elektronlar **juftlashgan elektronlar** deyiladi. Agar elektron bulutda yakka o`zi harakatlanayotgan bo`lsa, **juftlashmagan (toq, yakka) elektron** deyiladi.

Qavatlarda: s-elektronlar 2 tagacha bo`ladi, juftlashib 1 ta umumiy bulut hosil qiladi (1 ta katak), sharsimon shakl bo`yicha harakatlangani uchun yo`nalishga ega emas; p-elektronlar 6 tagacha bo`ladi, 2 tadan juftlashib 3 ta yo`nalishda harakatlananadi (3 ta katak); d-elektronlar 10 tagacha bo`ladi, 2 tadan juftlashib 5 ta yo`nalishda harakatlanadi (5 ta katak); f-elektronlar 14 tagacha bo`ladi, 2 tadan juftlashib 7 ta yo`nalishda harakatlanadi (7 ta katak).



Eng keyin joylashgan elektron bo`lsa **s-element**, p-elektron bo`lsa **p-element**, d-elektron bo`lsa **d-element**, f-elektron bo`lsa **f-element** deyiladi. Elektronlar soniga mos ravishda bitta davrda ko`pi bilan: 2 ta s-element(H,He,IA,IIA asosiy gruppachalar), 6 ta p-element(IIIA-VIIIA asosiy gruppachalar), 10 ta d-element (IB-VIIB qoshimcha gruppachalar), 14 ta f-element (flantanoidlar, aktinoidlar) bo`lishi mumkin. Davriy sistemada 14 ta s, 30(36) ta p, 37(40) ta d, 28 ta f, jami 109(118) ta element bor.

12-dars. 10.10. 8,53-55 M,26-30 A,74-80 KM,17 **Kvant sonlari** T: 27-17 30-133

• 34-302,310,311 35-327,328,322-336,338,345 36-382

Kvant sonlari elektronni atomdagи holatini ifodalaydi, ya`ni har bir kvant soni (raqami) elektronning biror xossasini bildiradi. Kvant sonlar 4 xil bo`ladi.

1) Bosh kvant soni, elektron joylashgan qavatni va shu qavatga xos elektron energiyasini bildiradi. $n = 1, 2, 3, 4, \dots$ qiymatlarni oladi. M., bu erda 3 elektronni 3-qavatda joylashganini va shartli 3 birlik energiyaga ega ekanligini bildiradi.

2) Orbital kvant soni, elektron bulutining shaklini va elektronni shu bulutga xos energiyasini bildiradi. $l \leq n-1$ qiymatlarni oladi. M., $n=4$ da $l \leq 4-1=3$, bundan 1 quyidagi qiymatlarni oladi: $\begin{array}{c} l=0,1,2,3 \\ \text{bulut} \end{array}$: Bu 4-qavatda 4 xil elektron bulut va bulutlarga xos shartli energiyalar mos ravishda 0 dan 3 gacha bo'ldi demakdir. Bosh va orbital kvant sonlari birligida elektronning jami energiyasini bildiradi. M., $2p^1$ 2-qavatda p-bulutda joylashgan p-elektron jami: $2 + 1$ (qavat bo'yicha 2, bulut bo'yicha 1 birlik) = 3 birlik energiya-ga egaligini bildiradi.

3) Magnit kvant soni, m_s , elektron bulutlarning fazodagi yo'nalishini bildiradi. Unga qarab qavat(pog'ona) yoki qavatcha(pog'onacha)dagi energetik kataklar (orbitallar) sonini yoki elektron bulutlar yo'nalishlari sonini topish mumkin. U - $l \leq m_l \leq +l$ qiymatlarni oladi. M., $l = 0$ da s-bulut $m_l = 0$ yo'nalishga ega emas; $l = 1$ da p-bulut $m_l = -1,0,+1$ bo'yicha 3 ta yo'nalishga ega: p_x, p_y, p_z ; $l = 2$ da d-bulut $m_l = -2,-1,0,+1,+2$ bo'yicha 5 ta yo'nalishga ega.

4) Spin kvant soni, m_s , elektronning o'z o'qi atrofida aylanishini bildiradi. $m_s = +1/2$ \uparrow spinni, $m_s = -1/2$ \downarrow spinni bildiradi (oldingi darsdagi rasmlarga qarang).


8,57 M,32 X,58 A,82 KM,19 Elektronlarning yadro atrofida joylashish tartibi
qoidalari T: 27-1,5-9,11-13,19 28-31,40,42,44,54,55,58-63,66,69,70
29-73,74,77,101,102,104 30-115-119,128,135,141,146,148-150,155 31-167-174
32-211-213,218-221 33-268 34-298-300,304,305,308 35-321,337,346,347
36-371,378,379,384 37-402,403

8,57 M,32 X,58 A,82 KM,19 1) **V.M.Klechkovskiy qoidasi (eng kam energiya yoki energiya minimumi prinsipi):** yadro atrofiga dastlab energiyasi eng kam elektron birinchi bo'lib joylashadi; elektron energiyasi qavat nomeri va elektron bulut xiliga bog'liq yoki elektronning bosh va orbital kvant sonlari yig'indisiga teng; agar 2 ta elektronni energiyalari teng bo'lib qolsa, qavat nomeri (bosh kvant soni) kichigi birinchi bo'lib joylashadi. Bu qoida bo'yicha elektronlarni joylashish tartibi quyidagicha bo'ladi:

$$n+1 \uparrow + 0,2 \uparrow + 0,2 \uparrow + 1,3 \uparrow + 0,3 \uparrow + 1,4 \uparrow + 0,3 \uparrow + 2,4 \uparrow + 1,5 \uparrow + 0,4 \uparrow + 2,5 \uparrow + 1,6 \uparrow + 0,4 \uparrow + 3,5 \uparrow + 2,6 \uparrow + 1,7 \uparrow + 0,5 \uparrow + 3,6 \uparrow + 2$$

8,56 X,57 M,30 A,80 KM,19 2) **V.Pauli prinsipi:** har qaysi orbitalda ko'pi bilan 2 ta elektron bo'lishi mumkin (yoki atomda 4 ta kvant soni bir xil bo'lgan 2 ta elektron bo'lmaydi). M., $4s^2 [\uparrow\downarrow] \uparrow$. $n=4$ $l=0$ $m_l=0$ $m_s=+1/2$ faqat spin kvant sonlari tengmas.

8,57 M,33 X,60 A,81 KM,19 3) **F.Xund qoldasi:** energiyasi teng orbitallarda dastlab elektronlar yakka-yakka bo'lib joylashadi (yoki elektronlar spinlari yig'indisi maksimal bo'ladi holatda joylashadi).



Yuqorida aytilgan qoidalar asosida elementlar atomlarining elektron formulasini 2 xil shaklda yozish mumkin: a) qavatlarni to'lish tartibi bo'yicha: Cr (+24) 2,8,13,1 $1s^2/2s^2/2p^6/3s^2/3p^6/3d^5/4s^1$ [Ar]3d⁵4s¹; b) pog'anachalarni to'lish tartibi bo'yicha: Cr 1s²2s²3s²3p⁶4s¹3d⁵.

Elementni xossasi bilan atomini elektron tuzilishi orasidagi bog'lanish

T: 23-6,8,11,17,18 24-48-51 25-67,78,80,84 27-15 28-26,28,30,45-50,52,57,64,71,72
29-82,83,91,103,108 30-113,121,122,126,137,152-154 31-176-183 32-225-227,231,
235-237 33-241,243,257,258,273 34-291,317,318 35-329,331,343 36-363-366,368,370
37-401 38-432,435,455,457,459 39-479 43-138

Element xossasi atomining tashqi qavatidagi elektronlar soniga bog'liq. M., ishqoriy metallarning bir-biriga o'xshashligiga sabab barchasini tashqi qavatida bir xil -1 tadan elektron bor. Kichik davrlarda bir gruppadan ikkinchisiga o'tilganda tashqi qavatdagidan elektron soni 1 tadan ortib boradi, sh.u. xossa metallikdan metallmaslikga qarab tez o'zgaradi. Katta davrlarda d-elementlar (qo'shimcha gruppachalar) boshlanishi bilan tashqi qavatdagidan elektronlar soni o'zgarmay qoladi (s^1, s^2), sh.u. metallik xossasi o'zgarmay turaveradi, chunki elektronlar tashqaridan oldingi d - pog'anachalarga joylasha boshlaydi; f-elementlar (lantanoidlar, aktinoidlar) boshlanishi bilan tashqi 2 ta qavatdagidan elektronlar soni o'zgarmay qoladi, endi elektronlar tashqi ikki qavatdan ichkaridagi f - pog'anachalarga joylasha boshlaydi, sh.u. ularni xossasi bir-biriga juda o'xshaydi, shu sababli ular davriy sistemada 1 tadan katakga joylashtirilgan.

M,35 R,21 **Elektron qulashi yoki ko'chishi hodisasi.** Yarim va to'la to'lgan p va d-orbitallar energetik jihatdan barqaror(turg'un) bo'ladi. Sh.u. d-orbitallari yarim yoki to'la to'lishiga 1 ta elektron yetishmayotgan d-elementlar tashqi qavatidagi 2 ta s-elektronni bitoq (Pd da 2 tasi) ichki d-qavatga ko'chib o'tadi. M., Cr, Cu, Nb, Mo, Ru, Rh, Ag, Au, Pt - jami 9 ta. M., Cr ...3d⁵4s¹(yarim to'la holat), Cu...3d¹⁰4s¹(to'la to'lgan holat).

M,49 **Chala va to'la o'xshash elementlar.** Bir gruppachada joylashgan elementlar bir-biriga nisbatan to'la o'xshash deyiladi, chunki ularning tashqi 2 ta qavatidagi elektronlar soni bir xil bo'ladi. M., IA: Li (2,1), Na, K, Rb, Cs ...8,1; Cu, Ag, Au ..18,1. Bir gruppadagi asosiy va qo'shimcha gruppachalar elementlari bir-biriga xossalari bo'yicha chala o'xshash bo'ladi, chunki ularning faqat 1 ta tashqi qavatdagidan elektron soni bir xil bo'ladi. Ular asosan oksid, gidroksidlarning formulasi bo'yicha o'xshaydi. M., I gr.da $\text{Na}_2\text{O} \sim \text{Ag}_2\text{O}$, KOH ~ CuOH.

13- dars. 13.10. 8,68-71 11,86 M,16-23 X,52 A,68 KM,16 Radioaktivlik. Yadro reaksiyalari T: 27-3,10,20-24 28-52,67,68 29-72,78,80,81,92,94,96,97 30-123,134
31-166,185,189-192,197,198 32-199,201-203,205,208,209,222,223 33-246-256,259-
263 34-280-283,285,286 35-339,340,348,349,355 36-374,380,389,392 37-397,398,

- 400,404,417-428 38-429-431,433,436,439,441,443,446,448-450,452,454,456,458,
- 461, 464 39-466,468,470,474,476,478,480,482

Radioaktivlik t. faol nuz chiqaruvchi) deb, bir element atomining elementlar zarracha-
lar ajralib boshqa element atomiga aylanishiga aytiladi. **Radioaktiv elementlar** - barcha
izotoplari o'z-o zidan parchalanadigan elementlar. Uilarga 43-Tc, 61-Pm, 84-Po va undan
kevingi barcha elementlar kiradi. Atomda neytronlar soni protonlar sonidan 1.5-marta va
undan ortiq 1000 bunday element radioaktiv bo'ladi, ya'n o'z-o zidan yemiriladi. M.
Ra uchun $^{138m}_{\text{Ra}} \rightarrow ^{138a}_{\text{Ra}} + ^{88p}_{\text{Ra}}$ 1.57 e 1.5 sababli Ra yemiriladi. $^{226}_{\text{Ra}} \rightarrow ^{222}_{\text{Rn}} + ^{40}_{\text{K}}$

Radioaktiv elementlar 2 xil bo'ladi: a) **Tabiiy radioaktiv elementlar** tabiatda uchray-
di: $^{184}_{\text{Po}}$, $^{186}_{\text{Ru}}$, $^{187}_{\text{Fr}}$, $^{188}_{\text{Ra}}$, $^{189}_{\text{Ac}}$, $^{190}_{\text{Th}}$, $^{91}_{\text{Pa}}$, $^{92}_{\text{U}}$, $^{93}_{\text{Np}}$. b) **Sun'iy radioaktiv elementlar** - inson tomonidan yadro reaksiyalari bilan olingan sun'iy element-
lar. Uilarga 19(73)Fa: 43-Tc(1937-y.), 61-Pm(1940-), 85-Af(1940-y.) va 94-109(118)
elementlar kiradi. Umuman 90 ta element tabiatda uchraydi ($^{109}_{\text{Tc}} = ^{90}_{\text{Ru}}$, $^{118}_{\text{Ra}}$).

III III

Radioaktivlik sababi yadro reaksiyalardir. **Yadro reaksiyalari** - elementning radio-
aktiv nurlar (elementlar zarralar) chiqarib, boshqa element izotopiga yoki o'zini boshqa
izotopiga aylanishi. Bu reaksiyalarda juda katta energiya ajraladi. U kimyoiy emas fizi-
kaviy hodisa, chunki kimyoiy reaksiyada atom boshqa atomiga aylanmaydi.

Yadro reaksiyalari ham 2 xil: tabiiy va sun'iy bo'ladi. **Tabiiy yadro reaksiyalari** tabi-
atda o'z-o zicha boradi. 1-tabiiy yadro reaksiyasini 1898- yil Mariya Skladovskaya-Kyuri
aniqlagan: $^{238}_{\text{U}} \rightarrow ^{206}_{\text{Pb}}$. Tabiiy yadro reaksiyalarini 3 ta **radioaktiv qatori** bor:
 $^{238}_{\text{U}} \rightarrow ^{207}_{\text{Po}} \rightarrow ^{207}_{\text{Pb}}$, $^{232}_{\text{Th}} \rightarrow ^{208}_{\text{Pb}}$. Quyosh, yulduzlarda, vodorod bomba portlagandan
ajraladigan juda katta energiya issiqqlik,yorug'lik nianbai juda yuqori temperatura
(o'nlab, yuzlab min graduslar) ta'sirida boradigan **termoyadro reaksiyalaridir**. M.
Quyoshda $^{4}_{\text{He}} + ^{4}_{\text{He}} \rightarrow ^{2}_{\text{e}} + ^{2}_{\gamma} + 27MeV$

Sun'iy yadro reaksiyalari inson tomonidan katta energiali zarralar bilan elementlar
atomlarini bombardimon qilib olib boriladi. 1- sun'iy yadro reaksiyasini 1919- yil Rezer-
ford amalga oshirgan: $^{14}_{\text{N}} + ^{4}_{\text{He}} = ^{17}_{\text{O}} + ^{1}_{\text{H}}$. **Sun'iy radioaktivlikni va pozitronni** 1934- yil
Fredrik Jolio-Kyuri va Irene Kyuri kashfi etgan: a) $^{11}_{\text{B}} + ^{4}_{\text{He}} = ^{15}_{\text{N}} + ^{1}_{\text{e}}$; b) $^{15}_{\text{N}} \rightarrow ^{15}_{\text{O}} + ^{1}_{\text{e}}$.
Pozitron,e- massasi elektron bilan teng, lekin zaryadi +1 zarracha.

E.Rezersford 1899- yilda radioaktiv nurlarga elektr maydoni ta'sir ettirilganda 3 xil
nurga ajralishini aniqladi: 1) α -nurlar (+2 zaryadli He yadrosi, 1899- y. E.Rezersford);
2) β -nurlar (elektronlar, 1893- y.A.Bekkerel); 3) γ -nurlar (yuqori energiyali, zaryadsiz,
massasiz fotonlar. $e+ + e^- \rightarrow \gamma$ bo'yicha h/b. 1900- y. P.Uillard). Shunday qilib elementlar
zarrachalar ham zarracha. **ham to'lgin xossali bo'ladi**: chunki nurlar elektromagnit to'l-
qinlar - tebranishlardir.

Radioaktiv yemirilishning 4 ta xili bor. 1) α -yemirilishda (α nurlanishda) atomidan He yadrolari chiqib ketgani uchun massa 4 birlikka, zaryad 2 birlikka kamayadi: $^{232}_{\text{Th}} \rightarrow ^{228}_{\text{Ra}} + ^{4}_{\text{He}} ({}^2\alpha)$. 2) β (β) - yemirilishda neytron protonga aylanishi natijasida element atomi yadrosidan elektron chiqib ketadi, natijada massa o'zgarmaydi, lekin zaryad 1 birlikka ortadi: $^1n \rightarrow ^1p + ^0e$, $^{239}_{\text{Np}} \rightarrow ^{239}_{\text{Pu}} + ^0e ({}^0\beta)$. 3) β' - yemirilishda proton neytronga aylanishi natijasida element atomi yadrosidan pozitron chiqib ketadi, natijada massa o'zgarmaydi, lekin zaryad 1 birlikka kamayadi: $^1p \rightarrow ^1n + ^0\beta'$, $^{59}_{\text{Co}} \rightarrow ^{59}_{\text{Fe}} + ^0e ({}^0\beta')$. 4) Elektronning yadroga qulashida (K-qamrashda) yadroga eng yaqin K, ya'ni I- qavatdagи elektronni yadrodagи protonga birikishi natijasida proton neytronga aylanadi, natijada massa o'zgarmaydi, lekin zaryad bir birlikka kamayadi: $^1p + ^0e \rightarrow ^1n$, $^{40}_{\text{K}} + ^0e \rightarrow ^{40}_{\text{Ar}} + ^0\gamma (h\nu)$ yoki qisqacha $^{40}_{\text{K}} ({}^0e, {}^0\gamma) ^{40}_{\text{Ar}}$. Yadro reaksiyalari tenglamalarini tuzganda reagent va mahsulotlarning massalari, zaryadlari yig'indilari teng bo'lishi kerak. M., yuqoridagi yadro reaksiyasi uchun: $40 + 0 = 40 + 0$, $19 - 1 = 18 + 0$.

III bob. MODDA TUZILISHI. KIMYOVIY BOG'LANISH

14- dars. 15.10. 8,75 9,15-18 11,87-93 X,81/2 M,60,92-100 R,27

Kimyoviy bog'lanish T: 33-240,274-277 34-279,288,309 36-372,373 43-142

Kimyoviy bo'g'lanish elektronlar jufti yordamida hosil bo'ladi. Bu elektronlar jufti birikayotgan atomlami yakka elektronlari juftlashishi hisobiga yoki donor-akseptor bog'lanishda (DAB da) esa erkin (xususiy, taqsimlanmayan) elektron juftlar yordamida hosil bo'ladi. $H + H \rightarrow H:H$, $H + :NH_3 \rightarrow [H:NH_3]^+ = NH_4^+$, $Na + :Cl^- \rightarrow Na^+[:Cl^-]$


Kimyoviy bog'lanish hosil bo'lish sabablari: 1) Atomlar o'zaro birikib molekula hosil bo'lishida sistemaning energiyasi kamayadi, natijada atomlarga nisbatan barqaror molekulalar hosil bo'ladi. 2) Atomlar o'zaro bog'langanda ularning tashqi elektron qavati to'lgan energetik barqaror oktet shakl - inert gaz shakliga o'tadi.

Valentlik va elektron tuzilish T: 5-50 8-185 28-65 29-75,76,105,106,109
 30-114,130,138,151 32-217 34-278,294,296,297,301,306,307,313 35-330,353
 36-390 40-15,20,36,44 41-56 44-183 45-197


Valentlik mavzusida aytiganidek, valentlik atomni hosil qilgan bog'lanishlar soniga yoki bog'larni hosil qilishda qatnashayotgan elektron juftlar soniga teng. Valent elektronlar (VE) – kimyoviy bog'lanish hosil qilishda qatnashayotgan elektronlar. Ularning maksimal soni yoki elementning eng katta valentligi element gruppasi nomeriga teng. Asosiy gruppachalarda tashqi qavatdagи barcha elektronlar, qo'shimcha gruppachalarda (d,f-elementlar) tashqi va tashqidan oldingi qavatdagи elektronlar valent elektronlar bo'la oladi. M., PH_3 da fosformi VE = 3 ta, P_2O_5 da VE = 5 ta (VA gr. = max valentlik), Mn_2O_7 da Mn ni VE = 7 ta (VII B gr.).

Atom valentligi normal holatdan qo'zg'algan holatga o'tganda ortadi. **Normal holat** atomni nisbatan energiyasi kamroq holati, bu holatda atomning elektron tuzilishi qoidalarga mos bo'ladi. **Qo'zg'algan (hayajonlangan) holat** (*) atomni reaksiyaga kirishgan paytda, asosan elektrmansiyligi o'zidan katta atom bilan ta'sirlashib energiyasi oshgan holati. Bunda atomni justlashgan elektronlari energiyasi ortsani uchun bir-biridan ajralib, bo'sh orbitallarga o'tib yakka holda joylashadi, natijada yakka elektronlar soni ortsani uchun element valentligi ortadi. M., Si normal holatda ...3s²3p² bo'yicha 2 valentli (SiO), hayajonlangan holatda Si⁺ 3s¹3p³ bo'yicha 4 valentli (SiO₂) bo'ladi.

2-davr elementlari maksimal valentligi 4'dan katta bo'lolmaydi. Buni sabablari: 1) ulamrigi tashqi 2-qavatida azotdan boshlab justlashgan elektronlagini yakka holatga




o'tishi uchun bo'sh orbitallar yo'q: N ...[H] [H][H][H] 2) 2-qavatga ko'pi bilan 8 ta elektron sig'adi, ular 2 tadan justlashib 4 ta bog' + 4 valentlikni hosil qildi. Boshqa davrlar elementlari maksimal valentligi gruppaga nomeriga teng bo'ladi, chunki ularda justlashgan elektronlarni ajralib ko'chib o'tishi uchun bo'sh orbitallar bor.



P: O'zgaruvchan valentli elementlar: 1) o'z atomlariga va o'zidan elektrmansiyligi kichik atomlarga nisbatan o'zgarmas kichik valentli bo'ladi, bunda atom normal holatda bo'ladi: P - PH₃, Ca₃P₂; 2) o'zidan elektrmansiyligi katta atomlarga nisbatan o'zgaruvchan, ya ni kichik va katta valentli bo'ladi, bunda atom qo'zg'algan holatga ham o'ta oladi. 1-holatda birikayotgan elektrmansiyligi kichik atom yoki elementni o'zini atomni atomning elektron justini ajratadigan energiyani berolmaydi. 2-holatda elektrmansiyligi katta atomlar elektron justini ajratadigan energiyani beradi: PCl₅, PCl₃, P₂O₅, P₂O₃.

Reaksiyalarda hosil bo'lgan birikmalar formulalarini tuzishda *metallmaslarning kichik valentligini* topish uchun va metallar uchun ham soddalashtirilgan ushbu qoidani ishlatsa bo'ladi: *Element atomini tashqi qavatidagi elektronlarni 4 tagacha bo'lsa* yakka, 4 tadan oshgach shu 4 ta elektronga bitiaden justlashtrib joylashtiramaniz, shunda atomni nechta yakka elektron bo'lsa shuncha valentli bo'ladi. Na⁺, Ca⁺⁺, Al⁺⁺⁺, B⁺, C⁺, N⁺, O²⁻, S²⁻, Cl⁻



Juslik-toqlik, qoidasi: *Jusi gruppalar elementlari jusli valentliklar, toq gruppalar elementlari toq valentliklar namoyon qildi* M., S VI gr.: II (S₈, H₂S, CaS, SO), IV (SF₄, SO₂), VI (SF₆, SO₃); Cl VII gr.: I (Cl₂, HCl, HClO, NaCl), III (ClF₃, Cl₂O₃), V (ClF₅, Cl₂O₅), VII (ClF₇, Cl₂O₇, HClO₄). **Eslatma:** Kimyoda barcha qoidalar har doim ham to g'ri bo'lavermaydi, ayrim hollarda qoidadan chetga chiqiladi. Bu qoida, nazariyalar

hali chalaligini bildiradi. M., Azot, xlor toq gruppaga elementlari, lekin ularning IV valentli oksidlari ham bor: NO_2 , ClO_2 (M,251).

8,76 9,9 M,44-46 X,68-71 A,87-90 KM,19-20 Atomlarning davriy xossalari

T: 23-2,9,13,19-21 24-25-30,33,38,40-43,46,53 25-58-63,65,66,69-72,75-77,86,87





26-88-93 26-96-104,106-112,114-120 27-121-123,125-131 34-316

Elementlarning tartib raqami ortishi bilan atomlarning radiusi, tashqi qavayidagi elektronlar soni (asosiy gruppachada), oksidalish darajasi, valentligi ionlanish energiyasi, elektronga moyilligi, elektrmanfiyligi, metallik-metallmaslik, oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari davriy ravishda o'zgaradi.

Ionlanish energiyasi(potensiali), I – atomdan elektronni ajralishi uchun zarur bo'lgan energiya. **Elektronga moyillik, E** – atomga bitta elektron birikkanda ajraladigan yoki yutiladigan energiya. **Elektrmanfiylik, EM** – atomni birikmada o'ziga elektronni tortish xossasi, u atomni ionlanish energiyasi bilan elektronga moyilligi yig' indisiga teng: $EM = I + E$. $EM(\text{Li}) = 5,39 + 0,22 = 5,61 \text{ eV}$ (elektron-volt), $EM(\text{F}) = 17,42 + 3,62 = 21,04 \text{ eV}$ Elektrmanfiylikni haqiqiy qiyamatidan foydalanish noqulay bo'lgani uchun L.Poling taklif etgan elementni litiya nisbatan elektrmanfiyligi topiladi, u **nisbiy elektrmanfiylik, NEM** deyiladi. $NEM(\text{Li}) = 5,61/5,61 = 1$, $NEM(\text{F}) = 21,04/5,61 \approx 4$. NEM, I, E uchalesi ham asosiy gruppachalardà pastdan tepaga qarab, davrlarda chapdan o'ngga qarab ortib boradi. I inert gazlarda eng katta bo'ladi, NEM. E esa F da eng katta bo'ladi, sh.u. F eng kuchli metallmas. NEM, I, E seziyda eng kichik bo'ladi, sh.u. Cs eng kuchli metall.

8,78 9,15 M,60 X,81 Kimyoiy bog'lanish xillari T: 39-3 44-174

Atomlar orasida asosan 3 xil bog'lanish bor: *kovalent, ion, metall bog'lanish*. Vodorod bog'lanish atomlar orasidagina emas, asosan molekulalar orasida hosil bo'ladi, ancha kuchsiz. Bog'lanish xili birikayotgan atorflarning NEM lari farqiga - ΔNEM ga bog'liq: $\Delta NEM < 0,4$ $\Delta NEM \leq 1,7 < \Delta NEM$ Umuman bir xil metallmaslar birikkanda qutbsiz qutbsiz kov. qutbli kov. ion kovalent bog' har xil metallmaslar birikkanda




(agar NEM lari teng bo'lmasa) *qutbli kovalent bog'* kuchli metall va kuchli metallmas atomlari bog'langanda *ion bog'* faqat metall atomlari o'zaro birikkanda *metall bog'* hosil bo'ladi.

8,7 9,16 11,95 M,68 A,95-98 R,28 Kovalent bog'lanish
 T: 35-350 40-17,19,34,35,37,40,42 41-53,55,62,65,70,77,80,84,85
 42-86,89,92, 93,97,99,106,109-111,115,122,123 43-134,136,143,144,153,154,157
 44-161,169,170,172,178,185,187,192 45-205,221,235


Kovalent bog'lanish – atomlarni umumiylar elektronlar jufti vositasida bog'lanishi, u ikki xil bo'ladi: 1) **Qutbsiz kovalent bog'lanish** – NEM lari bir xil atomlar orasidagi bog'lanish. Umumiylar elektron juft yadrolarga nisbatan simmetrik joylashgani uchun +,- qutblar - qisman zaryadlar hosil bo'lmaydi, sh.u. bog'lanish qutbsiz, mos ravishda molekula ha:ni qutbsiz bo'ladi. 2) **Qutbli kovalent bog'lanish** – NEM lari har xil atomlar orasidagi kovalent bog'lanish. Umumiylar elektron juft NEMi katta atomga tomon siljishi natijasida, NEMi katta atom qisman manfiy (-), aksincha sherigi qisman musbat (+) zaryadlanadi, ya'ni +,- qutbli bo'ladi. Sh.u. bu bog' qutbli kovalent bog'lanish deyiladi.

X,94 **Qutbsiz molekula** – qutbsiz bog'lanishli yoki qutbli bog'lanishli simmetrik molekula. Qutbli bog'li simmetrik molekulani qutbsiz bo'lishiga sabab qisman +,- zaryadlar markazlarini ustma-ust tushishidir: $CO_2 \rightarrow O \leftarrow C \Rightarrow O$.



Qutbli molekula (dipol) – qutbli bog'li assimmetrik (simmetrikmas) molekula. M., Suv molekulasiда molekula assimmetrik bo'lgani u-n qisman +,- zaryadlar ustma-ust tushmaydi. Qutbsiz molekulalari moddalar (gidrofoblar) qutbsiz erituvchilarda M., yog'lar benzinda, qutbli molekulalari moddalar (gidrofillar) suv va boshqa qutbli erituvchilarda yaxshi eriydi („o'shashlar o'xshashlarda eriydi” qoidasi). Qutbli molekulalarni dissotsilanishi, reaksiyaga kirishishi qutbsizlardan kuchli.

X,257 A,97 **Sigma - σ va pi - π bog'lanishlar.** T: 40-39 41-51,64 42-94,96



Kovalent bog'lanishni hosil qilivchi elektronlar juftlashganda ularni elektron bulutlari o'zaro tutashadi (qoplanadi). Elektron bulutlarini qanday tutashishiga qarab kovalent bog'lanish 2 xil bo'ladi: sigma va pi bog'lanish. σ - sigma bog'lanish – atomlar yadrolarini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq bo'ylab elektron bulutlarni tutashidan hosil bo'lgan bog'lanish. Rasmida azot molekulasidagи: $N_2 \rightarrow N \equiv N \rightarrow N=N$ – uchbog'ning 1 tasi σ , 2 tasi π

bog`ligi ko`rsatilgan. Atomlar orasida sigma bog` 1 ta, pi bog`lar bir nechta bo`lishi mumkin. Elektron bulutlari yaxshi tutashgani uchun sigma bog` mustahkam, pi bog` esa bulutlari kam tutashgani uchun bo`sh bo`ladi, reaksiyada oson uziladi.

Atomni tashqi qavatida bog`lanish hosil qilishda qatnashayotgan elektron juftlar umumiy (**taqsimlangan, erkinmas**) elektron juftlar deyiladi. Azot molekulasiда 3 ta shunday juft bor. Atomni tashqi qavatida bog` hosil qilishda qatnashmayotgan elektron juftlar **erkin** (**taqsimlanmagan, xususiy**) elektron juftlar deyiladi, ularni soni C_T belgisi bilan ko`rsatiladi. Azot molekulasiда bunday juftlar 2 ta, ya`ni C_T = 2.

8,81 M,79 X,85 A,102 **Donor-akseptor (koordinatsion) bog`lanish (DAB)**

T: 40-13,14,26,27,32,46 41-60,63,72,73 42-118,120 43-129,133,135,151,152
44-165,185 45-236

Donor-akseptor bog`lanish – donor(„beruvchi“) atomni erkin elektron jufti va akseptor(„oluvchi“) atomni bo`sh orbitali yordamida hosil bo`lgan kovalent bog`lanish. M., ammiak yoki kislotalar suvda eriganda ammoniy, gidroksoniy ionlarida DAB quyidagi cha h/b: H⁺ + :NH₃ → [H:NH₃]⁺ = [H ← NH₃]⁺ = NH₄⁺ ammoniy ioni; H⁺ + H[”]O[”]H → → [H[”]O[”]H]⁺ = H₃O⁺ gidroksoniy ioni. Kyadrat qavs vodorod ioni + zaryadini *delokalizhsanini*, ya`ni butun ionga (molekulaga) tarqalganini bildiradi. Ammoniy va gidroksoniy ionlaridagi DAB lar ulardagi boshqa kovalent bog`larga o`xshash bo`ladi, ya`ni DAB ga tabiatli kovalent bog`lanish, lekin hosil bo`lish mexanizmi donor-akseptordir.

15- dars. 17.10. 8,82 9,16 M,81 X,92-94 A,108 **Ion bog`lanish**

T: 23-4 28-38 29-87,89,90,112 30-131,157-159 31-188 33-242,245,264 33-269
34-293,295,315 35-341,342 36-360,361 37-396 38-460 40-33,45 41-54,74-76,78
42-98,105,108,114 43-127,140,141,149

Ion bog`lanish – ionlar vositasida bog`lanishdir. Atom elektron berganda musbat zaryadli ionga aylanadi, chunki proton soni (yadro zaryadi) elektron sonidan oshib ketadi; atom elektron olsa manfiy zaryadli ionga aylanadi, bu holda elektron soni proton sonidan ortib qoladi (5-dars,13- bet). Atom nechta elektron bersa, shuncha musbat zaryadli ion, atom nechta elektron olsa shuncha manfiy zaryadli ion h/b: 2Mg²⁺ + O₂²⁻ → 2Mg²⁺O²⁻

P.: Ionlarni zaryadi, valentligiga qarab topiladi: H,NH₃,Metallar Valentinlik, OH, Kislota goldiqlari = Valentinlik. Ionlar 2 xil bo`ladi: 1) oddiy ionlar H⁺ → H⁺, Ca²⁺ S²⁻ 2) murakkab ionlar OH⁻ → OH⁻, SO₄²⁻ → SO₄²⁻


Atom musbat ionga aylanganda radiusi kichrayadi (tashqi elektron qavat yo`qolishi va kationni musbat zaryadi hisobiga elektron qobig`ini tortishi kuchaygani uchun), manfiy

ionga aylanganda esa aksincha radiusi kattalashadi (elektron zaryadzis atomga birikkani uchun tortishish kuchsiz bo'ldi): Na 0,154 nm, Na⁺ 0,102 nm; Cl 0,099 nm, Cl⁻ 0,181 nm.

9,17 M,87 11,97 X,98 A,103 Vodorod bog'lanish

T: 40-18,23,47 41-68,71 43-128 44-166 45-219

Vodorod bog'lanish – tarkibida elektrmanfiyligi katta atom (O,N,F) bilan bog'langan vodorod atomi va erkin elektron juftiga ega bo'lgan elektrmanfiyligi katta element atomi orasidagi kuchsiz bog'lanish. H-bog' hosil bo'lishi uchun elektrmanfiyligi katta atomga birikkan H atomlari bo'lishi kerak: F-H, O-H, N-H. H-bog' 2 xil bo'ldi: molekulalararo



va ichki molekulayar. Ichki H bog' hosil bo'lishi uchun bog'lanuvchi guruhlar yonna yon joylashgan atomlarga birikishi kerak. Suvni 1 ta molekulasida 4 ta vodorod bog' bo'ldi. H-bog' molekulalarini assotsilanishida, kristallanishida, agregat holatini hosil bo'lishiда (suvni suyuq bo'lishiда), DNK oqsillar molekulalarini hosil bo'lishiда (nasliy belgilarni irlsylanishida) katta ahamiyatga ega.

9,55 M,91 A,109 X,96 Metall bog'lanish T: 43-150

Metall bog'lanish metallning musbat ionlarini umumlashgan elektronlari vositasida bog'lanishi. Metall bog'lanish metall ionlarini manfiy zaryadli elektronlar bilan tortishishi bo'yicha ion bog'lanishga o'xshaydi. Elektronlarini juftlashtirib bog'lanishi bo'yicha kovalent bog'lanishga o'xshaydi, lekin kovalent bog'da elektron juft 2 ta atomga tegishli bo'lsa, metall bog'da barcha metall atomlariga tegishlidir. Metallarni fizik xossalari metall bog'ga bog'liq.


Bog'lanish xili va kristall panjara turlari T: 24-22 39-5,6 40-41 41-50,58,68
42-87,100,101 43-124,126 44-163,167 45-223,227 46-3,5,6,10-13,18,20,29,30-33,
35,36 47-46,47,57,62,63 48-89-91,97 49-114,116,117 62-105

Moddaning xossalari KP turlari va bog'lanish xiliga bog'liq (5-dars, 13-bet). Kovalent bog'li moddalar molekulayar (O₂, suv) va atomli KP li (qum, olmos), ion bog'li moddalar ionli KP, metall bog'li moddalar metall KP h/q. Bu mavzu bo'yicha quyidagilarni o'qishni va testlarni yechishni tavsiya etaman: X,101 8,85 M,107 Molekulayar KP X,100 8,85 M,108 Atomli KP X,99 8,85 M,108 Ionli KP X,101 8,86 M,109 Metall KP

Molekuladagi bog'lanishlar xili va sonini topish T: 39-2,4,7,10 40-11,12,24,29-31,38
41-48,49,52,59,61,69,79,83 42-88,90,102-104,112,113,116,121 44-159,164,171
45-206,218,225

Bog'lanishlar sonini: 1) jami valentliklar yig'indisini 2 ga bo'lib topish mumkin, chunki 2 ta valentlik 1 ta bog'ni hosil qiladi: $\frac{1}{2} \cdot \frac{11}{2} \cdot \frac{6}{2} = 8$ = 8

tuzlarida kislород atomlarining jami valentligi bog'lar soniga teng, chunki ularda har bir bog'ni hosil qilishda O atomi qatnashadi. Kaliliy sulfatda 4 ta O borligi uchun: $4 \cdot 2 = 8$ ta bog' 3) tuzilish formulasidagi chiziqchalar (valent shtrixlar) soniga qarab topish mumkin. Tuzilish formulasidan sigma, pi bog'lar sonini, NEM lar farqi bo'yicha bog' xilini aniqlash mumkin.



9,15 M,63-65 X,86 A,93-97 Kimyoviy bog'lanishning xossalari

T: 24-24,54 25-56,57 26-113 27-124 39-1 40-16,21 41-57 42-91,95,107,117,119
43-125,130-132,145,146 44-168,173 45-211

Kovalent bog'lanish to'yingan, yo'nalishga ega; ion bog' to'yinmagan, yo'nalishga emas. M., kovalent bog'li metan CH₄ molekulasida uglerod 4 ta yakka elektron borligi uchun 4 ta H ni biriktira oladi, ortiqcha biriktirolmaydi; C ni 4 ta sp³ gibridlanga bulutlari 109° burchaklar bo'yicha yo'nalganligi uchun bog'lanish shu burchaklar bo'yicha amalga oshadi. Ion bog'li osh tuzi Na⁺Cl⁻ da esa 1 ta Na⁺ ioni 1 ta emas ko'plab Cl⁻ molinari barcha yo'nalishlar bo'yicha biriktira oladi, chunki ion bog' zaryadlar tortishishi bo'yicha amalga oshadi.


Bog'lanish energiyasi bog'lanishni uzish uchun kerak bo'lган energiya. Bog'lanish uzunligi qancha qisqa bo'lsa, elektron bulutlar bir-birini shuncha yaxshi qoplaydi, bog'lanish shuncha mustahkam bo'ladi, bog'lanish energiyasi ham shuncha katta bo'ladi. Bog'lanish karraligi (bog'lar soni) ortishi bilan ham bog'lanish energiyasi ortadi.

H-I	H-Br	H-Cl	H-F
radius, bog' uzunligi	kanne radii	bog'lanish energiyasi	ortadi
C-C	C=C	C≡C	
1 ta	2 ta	3 ta	
bog' uzunligi	0,154nm	0,134nm	0,12nm
E,kJ/mol	83	146	19

X,88-92 11,99 M,69-74,65-67 A,104-107 R,31 KM,20 Gibrildanish, molekul shaklini aniqlash. T: 12-346 43-147,148 46-1,2,4,7,9,17,23,24
47-58-61,64-73 48-74-77,98-106,108-110


Gibrildanish har xil elektron bulutlarni bir xil gibrid (duragay) bulutlarga aylashishi. Gibrildanish tushunchasini 1931-yil L.Poling kiritgan. P.: 1) Gibrildanishda nechta elektron bulut qatnashsa, shuncha gibrid bulut hosil bo'ladi. 2) Gibrildanishda faqat yirka elektronlar emas, erkin elektron juftlar ham qatnashishi mumkin, lekin π -bog'larini hosil qilgan elektronlar gibrildanishda qatnashmaydi. 3) Gibrildanish xili molekulida σ -bog'lar va erkin elektron juftlar soni – C_T ga bog'liq. Gibrildanish xillari: sp, sp², sp³

sp^3d , sp^3d^2 . Molekulani shakli – molekuladagi atomlarni nuqtalar bilan belgilab, ularni to'g'ri chiziqlar bilan tutashtirishdan hosil bo'lgan shakl. U gibridlanish xiliga bog'liq.




IIA gr. $Be^* \dots 2s^1 2p^1 \rightarrow 2g$ (2sp) yoki P.: $BeCl_2 \rightarrow \overset{(+)}{Cl} \leftarrow \underset{(-)}{Be} \rightarrow \overset{(+)}{Cl}$ $2\sigma = 2g = sp$ -gibr.

Chiziqli shaklli, qutbli bog'li simmetrik qutbsiz molekula




III A gr. $B^* \dots 2s^1 2p^2 \rightarrow 3g(3sp^2)$ yoki P.: $BCl_3 \rightarrow 3\sigma = 3g = sp^2$ -gibr. Yassi teng tomonli uchburchak shaklli, qutbli bog'li simmetrik qutbsiz molekula.



IVA gr. $C^* \dots 2s^1 2p^3 \rightarrow 4g(4sp^3)$ yoki P.: $CH_4 \rightarrow 4\sigma = 4g = sp^3$ -gibr. Tetraedr shaklli, qutbli bog'li simmetrik qutbsiz molekula.

π - bog' tutgan etilen C_2H_4 , asetilen C_2H_2 molekulalarida gibridlanish xili, molekula



Tarkibida erkin elektron juftlar tutgan molekulaning shakli elektron bulutlari shakliga mos kelmaydi. M., suv molekulasida

$H-O-H$ markaziy atom-kislородни elektron bulutlari $2\sigma + 2C_T = 4g = sp^3$ - gibridlangan tetraedrik shaklli, lekin molekulasi burchak



shaklli, qutbli bog'li simmetrikmas sh.u. qutbli molekula. Ammiak :NH₃ da atomi elektron bulutlari $3\sigma + 1C_1 = 4g = sp^3$ - gibridlangan tetraedrik shaklli, lekin molekulası uchburchakli piramida shaklli, qutbli bog'li nosimmetrik qutbli molekuladir

H₂S, H₂Se, PH₃ larda bog'lanish burchagi 90° ga teng (2 ta valent p-elektronlar), sh.u. ularda gibridlaniş yo'q.

Molekula şaklini tasavvur qilish uchun molekulaning shar-sterjenli va massali anli modellari ($X, 1/2$) ishlataladi. Model- biror narsani o'rGANISH uchun narsani kichiklashtirib yoki kattalashtirib yasalgan shakli. M., qizaloqni modeli qo'g'irchoq.

16- dars. 20.10. 8,87 9,18 M,100 X,104 A,212 Oksidlanish darajasi (OD).

T: 8-175 24-39 25-68 30-124,162 32-206 35-354 36-369 37-405,416

Oksidlanish darajasi (OD) – atomini birikmada shartli ravishda elektron olishdan yoki berishidan hosil bo'lgan zaryadi. NEM katta atomni elektron olgan, NEM kichik atom elektron bergan deb hisoblanadi. OD ga qarab moddani oksidlovchilik, qaytaruvchilik xossalalarini aytish mumkin. OD ni aniqlash usullari (FJ ni oxirida):

1) Oddiy moddalarda: $OD = 0$ $H_2 \rightarrow \overset{\overset{+1}{H}}{H} \overset{\overset{+1}{H}}{H}, Al$.

2) Birikmalarda vodorod: $OD = +1$ $\overset{\overset{+1}{H}}{H}_2\overset{\overset{-2}{O}}{O}, \overset{\overset{+1}{H}}{CH}_4$. (metall gidiidlarda: $OD = -1$, $\overset{\overset{+1}{Na}}{Na} H$)

3) Birikmalarda kislorod: $OD = -2$ $\overset{\overset{-2}{O}}{CO}_2, \overset{\overset{-2}{O}}{CaO}$. (OD = -1 peroksidda $\overset{\overset{+1}{H}}{H}_2\overset{\overset{-2}{O}}{O}_2$, OD = +2 F₂ O₂ I₂)

4) Birikmalarda metallar: $OD = + Valentlik$ $\overset{\overset{+2}{Cu}}{CuO}, \overset{\overset{+3}{Fe}}{Fe_2O_3}$

5) Molekulada: $\Sigma OD = 0$ $\overset{\overset{+1}{H}}{H}_2\overset{\overset{-2}{S}}{S}\overset{\overset{-2}{O}}{O}_4, \overset{\overset{+1}{H}}{H} \overset{\overset{-2}{O}}{O} \overset{\overset{-2}{S}}{S} \overset{\overset{-2}{O}}{O}, H \rightarrow O \rightarrow S \rightarrow O$

6) Oddiy ion: $OD = Ion zaryadi$ $\overset{\overset{+1}{Na}}{Na}^+, \overset{\overset{-2}{S}}{S}^{2-}$ (yozishda OD element belgisining ustiga zaryad raqamidan oldin, ion zaryadi element belgisining o'ng tomoniga teparoqga zaryadi raqamidan keyin ko'rsatiladi)

7) Murakkab ion: $\Sigma OD = Ion zaryadi$ $\overset{\overset{+2}{Mn}}{MnO_4}^-, \overset{\overset{+4}{Cr}}{Cr_2O_7}^{2-}$


OD har doim ham valentlikga teng bo'lavermaydi: $\overset{\overset{-2}{C}}{C} \equiv \overset{\overset{-2}{O}}{O} \overset{\overset{+1}{H}}{H} \rightarrow C = \overset{\overset{-1}{C}}{C} \leftarrow \overset{\overset{+1}{H}}{H}$

OD kasr son, nol bo'lishi mumkin, lekin valentlik qiymati doim butun son bo'ladi:

$\overset{\overset{+1}{O}}{O} = \overset{\overset{+3}{Fe}}{Fe} \overset{\overset{-2}{O}}{O}_4 (\overset{\overset{+2}{Fe}}{Fe} \overset{\overset{-2}{O}}{O} \cdot \overset{\overset{+3}{Fe}}{Fe}_2 \overset{\overset{-2}{O}}{O}_3)$ - temir qo'sh oksidi, temir kuyundisi.

17- dars. 22.10. Sinov testi (Botanika yakuniga)

IV bob. ANORGANIK MODDALARNING SINFLARI



18- dars. 24.10. 7,106-112 8,21 X,163-165 A,33-39 **Oksidlar** T: 21-391
 85-18,21,26,27 86-36,38,45,52,53 87-68,70,71,73,75,81,93,95 88-103,112,116,124
 89-153 90-165,169,170,192,194,196,199 91-202,203,207,209,216,218 130-131




Oksid, E_xO_y – ikki elementdan tuzilgan, biri kislorod bo’lgan murakkab modda.

Xillari.(Xil.) Oksidlar *tuz hosil qiluvchi va tuz hosil qilmaydiganlarga* bo’linadi. Tuz hosil qilmaydigan oksidlar *betaraf, befarq yoki indifferent* oksidlar deyiladi: CO-uglerod (II) oksid, is gazi; SO- oltingugurt (II) oksid, PO- fosfor (II) oksid, SiO- kreminiy (II) oksid, NO- azot (II) oksid; N_2O - azot (I) oksid, kuldiruvchi gaz.

Tuz hosil qilivchi oksidlar 3 xil bo’ladi: *asosli, kislotali, amfoter*. Asosli oksid kislotalar bilan, kislotali oksid asoslar bilan, amfoter oksid ham kislotalar, ham asoslar bilan reaksiyaga kirishib tuz va suv hosil qilivchi oksiddir. Asosli oksidlarga kuchli metallarning, kichik valentli d-elementlarning (Na_2O , CaO ; CuO , Ag_2O , MnO , CrO), kislotali oksidlarga metallmaslarning va yuqori valentli d-elementlarning (CO_2 , SO_3 , Mn_2O_7 , CrO_3), amfoter oksidlarga amfoter elementlarning, o’tacha valentli d-elementlarning (Al_2O_3 , BeO ; MnO_2 , Cr_2O_3) oksidlari kiradi.


Fizik xossalari (F/x). Asosli, amfoter oksidlar asosan qattiq bo’ladi, chunki ko’pchiligi ionli birikmalar - metallarning oksidlari. Kislotali oksidlar qattiq (SiO_2 -qum, P_2O_5), suyuq (SO_3 , N_2O_3 , N_2O_5 , Cl_2O_7), gaz (CO_2 , NO_2 , SO_2) holatda bo’ladi, chunki ular qutbli bog’li, asosan molekulyar tuzilishli moddalar.

Olinishi (Ol). ! Reaksiyalarni o’rganish uchun: a)qog’ozga yozish kerak; b)quruq yodllamasdan reaksiyanini borishi va mahsulotlarni h/b sabablarini o’ylab ko’rish kerak.



- b) kuchsiz kislotalarni parchalab: $H_2\overset{\cdot}{S}O_4 \rightarrow \overset{\cdot}{S}O_2 + H_2O$ $H_2SiO_3 = SiO_2 + H_2O$
c) kislorodli tuzlarni parchalab: $CaCO_3 = CaO + CO_2$

4) Ba`zi reaksiyalar natijasida:




Kimyoiy xossalari (K/x).

1) Ishqor hosil qilivchi oksidlar (ishqoriy metallar va ishqoriy-yer metallar: Ca, Sr, Ba oksidlari) suv bilan reaksiyaga kirishib ishqor hosil qiladi. *Ishqor suvda eriydigan asos*
 $CaO + H_2O = Ca(OH)_2$ $Li_2O + H_2O \rightarrow 2LiOH$

2) Ba`zi metallmas oksidlar suv bilan ta`sirlashib kislota hosil qiladi.



3) Asosli oksidlar kislotalar bilan reaksiyaga kirishib tuz va suv hosil qiladi.




4) Kislotali oksidlar ishqorlar bilan ta`sirlashib tuz va suv hosil qiladi.




Qanday tuz hosil bo`lishi reagentlarning mol nisbatiga bog`liq.

5) Amfoter oksidlar kislotalar bilan ham, ishqorlar bilan ham tuz va suv hosil qiladi.



$Zn(OH)_2 = H_2ZnO_2$ -sinkat kislota. $Al_2O_3 + 2KOH \rightarrow 2KAIO_2$ (kaliy aluminat) + H_2O



Eslatma: Nomlashda bir xil valentli (OD li) elementni kislorodi kam kislotosi meta-, kislorodi ko`p kislotosi orto- oldqo`shimchasi bilan ko`rsatiladi.



6) Metall oksidlari metallmas oksidlariga birikib tuz hosil qiladi: $CaO + CO_2 = CaCO_3$

Ishlatilishi (Ish.): CO_2 – karbonat angidrid salqin ichimliklarni gazzlashda, o`t o`chireshda, soda olishda, qattiq shakli – „quruq muz” sovitgichlarda; SiO_2 – qum, kvars turli shishalar, qimmatbaho toshlar sifatida, Si olishda; CaO – so`nmagan ohak ohak olishda, oqlashda; SO_3 – sulfat angidrid sulfat kislota olishda; NO_2 – azot(IV) oksid nitrat kislota olishda ishlatiladi.

A,257 X,163 T: 37-395 60-11 **Peroksidlar.** Oksidlarga peroksidlar ham kiradi. Peroksid – tarkibida $-O-O-$ bog`i tutgan oksid. „Per” old qo`shimchasi kislorod eng

ko'pligini bildiradi. H_2O_2 - vodorod peroksid, BaO_2 - bariy peroksid, Na_2O_2 – natriy peroksid, K_2O_2 – kaliy peroksid, $KO_2(K_2O_4)$ – kaliy superoksid (M,199).

Peroksidlarda kislороднинг OD = -1, valentligi 2 bo'ladi. Ulardan eng muhimi H_2O_2 ($H \rightarrow O-O \leftarrow H$) - vodorod peroksid („periks“) rangsiz quyuq suyuqlik, 30% li eritmasi „pergidrol“ deyiladi (!qoshni, terini kuydiradi), suyultirilgan 5% eritmasi yaralarni yuvishda, gazlamalarni oqartirishda ishlataladi.

OI. a) labarotoriyada: BaO_2 (bariy peroksid) + H_2SO_4 = $BaSO_4 \downarrow + H_2O_2$
 $Na_2O_2 + 2H_2O \rightarrow 2NaOH + H_2O_2$ (reaksiya qizdirilsa: $\rightarrow NaOH + O_2 \uparrow$ bo'yicha boradi).
 b) sanoatda persulfat kislota va uni tuzlaridan olinadi: $H_2S_2O_8 + 2H_2O \rightarrow 2H_2SO_4 + H_2O_2$
 $Na_2S_2O_8 + 2H_2O \rightarrow Na_2SO_4 + H_2SO_4 + H_2O_2$.

K/x. H_2O_2 beqaror modda, qizdirilganda yoki yorug'lik ta'sirida O_2 ajratib parchalanadi: $H_2O_2 \xrightarrow{\cdot} H_2O + 0,5O_2$ Sharoitga qarab oksidlovchi yoki qaytaruvchi bo'lishi mumkin (OQR mavzusi, 66-bet), chunki undagi O oraliq OD li (-1).

19- dars. 27 10. 7,113-118 8,23 X,168-170 A,40-43 Asoslar

T: 15-103,106 85-13,15,16,19 86-31-35,46 87-62,64,66,89-92 88-99,102,125
 89-133,135,140,151,157 90-167,172,177,198 91-200,201,211,219,223,224

Asoslar, $Me(OH)_n$ – metall atomiga bir yoki bir necha OH – gidroksil (gidrokso) gruppa birikishidan hosil bo'lgan murakkab modda. Metall atomi necha valentli bo'lsa, shuncha OH guruhini biriktiradi. chunki OH bir valentli.


Xil., nom. 1 Suvda eruvchanligiga qarab: a) suvda eriydigan asoslar- ishqorlar (IA gruppasi metallari, Ca, Sr, Ba hosil qilgan asoslar); b) suvda erimaydigan asoslar ($Cu(OH)_2$, $Al(OH)_3$)

2) Kimyoviy xossasi bo'yicha. a) faqat asos xossali asoslar (ishqorlar, $Cu(OH)_2$, $Fe(OH)_2$); b) amfoter asoslar ($Al(OH)_3$, $Fe(OH)_3$, $Be(OH)_2$, $Zn(OH)_2$). Barcha amfoter asoslar suvda erimaydi.


$NaOH$ – natriy gidroksid, natriy ishqori, kaustik soda, o'yuvchi natriy (! Ishqorlar terini kuydiradi-o'yadi). KOH – kaliy gidroksid, kaliy ishqori; o'yuvchi kaliy. $Ca(OH)_2$ – kalsiy gidroksid, kalsiy digidroksid, o'yuvchi kalsiy, so'ndirilgan ohak.

F/x. Asoslarning kristall panjarasi Me^+ va OH^- ionlaridan tuzilgani uchun asoslar qattiq moddalardir.


OI. 1) **Ishqorlarni**: mos metallarini, metallari gidridlarini (*Gidridlar* – elementlarning vodorod bilan hosil qilgan birikmalari – E_xH_y) va oksidlarini suvg'a ta'sir ettirib olinadi.



2) *Ishqorlarni* suvda eriydigan mos tuzlarini elektroliz qilib olish mumkin.



3) *Suvda erimaydigan asoslarni* suvda eriydigan tuzlariga ishqor ta'sir ettirib olinadi.



4) *Ammiakni* suvda eritib ammiakli suv (ammoniy gidroksid, novshadil spirit) NH_4OH olinadi. $\text{HO}^-\text{H}^+ + :\text{NH}_3 = \text{NH}_4^+\text{OH}^-$

K/x. Funksional guruhi moddaning kimyoviy xossalariiga (funksiyalariga) sababchi atomlar guruhi. Asoslarni funksional guruhi OH - gidroksil gruppasi, chunki asoslar asosan OH yordamida reaksiyaga kirishadi.

1) Indikatorlar rangini o'zgartiradi. *Indikatorlar* eritma muhitiga qarab rangini o'zgartiradigan buyoqlar, eritma muhitini aniqlashda ishlataladi.


indikator →	Lakmus	Metilzarg'aldog'i	Fenolftalein
muhit ↓			
$\text{H}^+ = \text{OH}^-$	Neytral	Binafsha	To'q sariq
$\text{H}^+ > \text{OH}^-$	Kislotali	Qizil	Qizil
$\text{H}^+ < \text{OH}^-$	Ishqoriy	Ko'k	Sariq

2) Asoslар kislotalar, kislotali oksidlar bilan reaksiyaga kirishib tuz va suv hosil qiladi, bu *neytrallanish reaksiyasi* deyiladi, chunki reaksiyada neytral muhit hosil bo'ladi.




3) Asoslар (ishqorlar) ayrim metallimashlar bilan reaksiyaga kirishadi.

$\text{Ca}(\text{OH})_2 + \text{Cl}_2 \rightarrow \text{CaOCl}_2$ ($\text{CaCl}_2 + \text{Ca}(\text{OCl})_2$) *xlorli ohak* + H_2O $\text{Ca}(\text{OCl})_2$ kalsiy gipoxlorit, suvda *gidrolizlanib* gipoxlorit kislota hosil qiladi. Bu kislota beqaror- oson parchalanadi: $\text{HOCl} \rightarrow \text{HCl} + \text{O}$ Hosil bo'lgan HCl o'tkir hid beradi, atomlar kislorod mikroblarni o'ldiradi, gazlamalarni oqartiradi - bo'yoglarni parchalaydi. Shuning uchun xlorli ohak dezenfeksiyalashda, gazlamalarni oqartirishda ishlataladi.




4) Asoslар (ishqorlar) tuz bilan reaksiyaga kirishib yangi tuz, yangi asos hosil qiladi. Bu reaksiya borishi uchun tuz yoki asos cho'kmaga tushishi kerak.





6) Amfoter asoslar kislota va ishqorlar bilan ta'sirlashib tuz, suv hosil qiladi.



Ish. NaOH kirsovun, qog'oz, sun'iy tola olishda; KOH suyuqsovun olishda; Ca(OH)₂- so'ndirilgan ohak ohaklashda, zararkunandalarga qarshi ishlataladi.

20- dars. 29.10. 7,118-128 8,25 11,186,188 X,166-168 A,45-46 **Kislotalar**
 T: 15-98 20-338,354,355 80-88 85-11,28 86-39,56 88-106 90-193,195

Kislotalar, H, K^+ - metall atomiga almashinadigan vodorod atomlari va kislota qo'shidagi idan tuzilgan murakkab moddalar.


Xil., noml. 1) tarkibidagi H soniga qarab: *bir negizli* (HCl), *ikki negizli* (H_2CO_3), *uch negizli* (H_3PO_4) va *ko'p negizli kislotalar*; 2) tarkibida kislorod bor-yo'qliga qarab: *kislorodli* (HNO_3) va *kislorodsiz kislotalar* (H_2S) bo'ladi.

Kislorodsiz kislota nomi *id* qo'shimchasi bilan tugaydi: HCl xiorid kislota, H_2S sulfid kislota. Bitta elementning kislorodi kam kislotasida *-it*, kisloredi ko'p kislotasida *-at* qo'shimchasi bo'ladi: H_2SO_3 sulfit kislota, H_2SO_4 sulfat kislota. Kislorod eng kam bo'lsa *gipo-*, kislorod eng ko'p bo'lsa *per-* oldqo'shimchasi qo'yiladi: HOCl gipoxlorit kislota, HClO_2 xlorit kislota, HClO_3 xlorat kislota, HClO_4 perxlorat kislota. Bir xil valentli (OD li) elementni kislorodi kam kislotasiga *meta-*, kislorodi ko'p kislotasiga *orta-* oldqo'shimchasi qo'yiladi: $\text{H}_3\overset{\text{P}}{\text{PO}}_4$ metafosfat kislota, $\text{H}_3\overset{\text{P}}{\text{PO}}_4$ ortofosfat (fosfat) kislota.

F/x. H_3BO_3 borat kislota, H_3PO_4 fosfat kislota, HPO_4 metafosfat kislota, H_2SiO_3 silikat kislota (suvda erimaydi) qattiq moddalar, qolganlari suyuqliklar.

Ol. 1) Ba'zi (kuchli) kislotali oksidlarga suv ta'sir ettirib: $\text{SO}_3 + \text{HOH} = \text{H}_2\text{SO}_4$
 $\text{CrO}_3 + \text{HOH} = \text{H}_2\text{CrO}_4$ xromat kislota, $2\text{CrO}_3 + \text{HOH} = \text{H}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ dixromat kislota

2) Uchuvchan kislotalarni ularni quruq tuzlariga o'zlaridan kuchli kislotalarni ta'sir ettirib olinadi. *Kislotalar kuchini kamayish qatori:* HClO_4 , H_2SO_4 , HCl , HNO_3 (kuchlilar); HF, H_3PO_4 (o'rtacha kuchlilar); CH_3COOH , H_2SO_3 , HNO_2 , H_2CO_3 , H_2S , HCN , H_2SiO_3 (kuchsizlar). * Kislotalarni kuchini topish mavzuni oxirida berilgan.



3) Cho'kma hosil qilish yordamida kislota olish mumkin.




4) Kislorodsiz kislotalar mos metallmaslarga vodorod biriktirib olingan gazlarni suvda eritib ham olinadi. $\text{H}_2 + \text{Cl}_2 \rightarrow \text{HCl}$ (vodorod xlорид гази) $\xrightarrow{\text{HCl}}$ HCl eritmasi (xlорид kislota); $\text{H}_2 + \text{S} \rightarrow \text{H}_2\text{S}$ (vodorod sulfid гази) $\xrightarrow{\text{H}_2\text{S}}$ H₂S eritmasi (sulfid k-ta).

K/x. H⁺ ioni kislotalarning funksional gruppasi, chunki kislotalar asosan H⁺ ioni vositasida reaksiyaga kirishadi. Har qanday kislota eritmasida vodorec ioni bor, sh.u. kislotalar nordon ta'mli bo'ladi („кислотын”-nordon). M., qatiqda, chim-chimda sut kislota bor.


! Kislotalarni (umuman moddalarni) ratib ko'rnang: kuyish, zaharlanish mumkin.

1) Indikatorlarga ta'siri asoslar mavzusidagi jadvalda berilgan: lakmusni, metilzarg'oldog'ini (metiloranjni) qizartiradi; fenolftalein bilan aniqlab bo'lmaydi, chunki u suvdagi-dek rangsizligicha qoladi.

2) Neytrallanish reaksiysi




3) Aktivlik qatorida vodoroddan oldinda turgan metallar suyultirilgan kislotalardan vodorodni siqib chiqaradi. HNO₃ dan umuman vodorod chiqmaydi. Konsentrangan H₂SO₄, HNO₃ kislotalardan vodorodmas boshaq gazlar chiqadi. Sovuqda temirga kons. H₂SO₄, ta'sir etmaydi, sh.u. kons. H₂SO₄, po'lat sisternalarda tashiladi; lekin qizdirilganda reaksiya boradi Al, Fe, Cr ga kons. HNO₃ ta'sir etmaydi, sh.u. kons. HNO₃ Al sisternalarda tashiladi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra ko'rsatilgan holatlarda reaksiya tenglamalari tuzilganda kislotalar konsentrasiyasi, temperatura ko'rsatiladi.



Konsentrangan (quyuq) kislota eritmasida kislotani ulushi suvdan ko'p bo'ladi (50% dan ziyod), lekin bu HCl ga to'g'ri kelmaydi, uni 37% lisi kons. deyiladi.

4) Kislotalar tuzlar bilan gaz, cho'kma yoki kuchsizroq kislota hosil qiladi.




5) O'zini o'rta tuzi bilan nordon tuz hosil qiladi.



6) Kuchsiz kislotalar qizdirilganda parchalanadi.



7) Kislotalar ayrim metallmaslar ta'sirlashadi. $\overset{0}{S} + 2\overset{0}{H}_2\overset{6}{S}\overset{2}{O}_4 \xrightarrow{\text{H}_2\text{O}} \overset{+2}{H}_2\overset{6}{S}\overset{2}{O}_4 + 2\overset{2}{N}\overset{0}{O} \uparrow$



Ish. H_2SO_4 akkumulyatorga elektrolit sifatida, gazlarni qurishda, o'g'it, turli kislotalar, qog'oz, sulfatlar olishda, metallarni xurishlashda; HCl dorilar, xloridlar, plastmassalar, bo'yoqlar olishda, metallarni xurishlashda; HNO_3 azotli o'g'itlar, portlovchi moddalar, bo'yoqlar, sun'iy tolalar, dorilar olishda ishlataladi.

* Kislotalarning kuchini aniqlash. T: 25-73 78-31,32 85-2,14 87-83 88-113,115, 117,118 89-128,155 91-215,220,222 Umuman kislota vodorod ionini qancha oson hosil qilsa, ya'ni dissotsilanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, kislota shuncha kuchli bo'ladi.

1) Kislorodsiz kislotalarni Davrda $\overset{2}{H}_2\overset{2}{S}$, $\overset{-1}{H}\overset{+1}{Cl}$ Gruppada $\overset{-1}{HF}$, $\overset{-1}{HCl}$, $\overset{-1}{HBr}$, $\overset{-1}{HI}$ kuchi metallmas ioni manfiy zaryadi kamayishi va radiusi zaryadi kamayeydi, kislotalik kuchayadi. Gelegen ioni radiusi ortadi, kislotalik kuchayadi

2.a) M,56. V.Kossel sxemasi: gidroksidlar (kislorodli kislotalar) markaziy atomining zaryadi ortishi, radiusi kamayishi bilan kislotalik kuchayadi, asoslik susayadi.

Davrda $\overset{+1}{Na}\overset{+1}{O}\overset{+1}{H}$, $\overset{+1}{Al}(\overset{+1}{O}\overset{+1}{H})_3$, $\overset{+1}{H}\overset{+1}{S}\overset{2}{O}_4$, Gruppada $\overset{+1}{H}\overset{+1}{F}\overset{+1}{O}_4 < \overset{+1}{H}\overset{+1}{N}\overset{+1}{O}_3$, mark. atomni r kamayadi, OD(zaryadi) ortadi asoslik kamayadi, kislotalik kuchayadi i kamayadi, kislotalik kuchayadi

b) M,106; 8,107. Kislorodli kislotalarni kuchi markaziy atomga birikkan qo'shbog'li kislorod atomlari soni ortishi bilan ortadi. M., chapdagি sxemada qo'shbog'li kislorodlar so-

$\overset{+1}{HO}\overset{+1}{Cl} < \overset{+1}{H}\overset{+1}{Cl}\overset{+1}{O}_2 < \overset{+1}{H}\overset{+1}{Cl}\overset{+1}{O}_3$, ni bittadan uchtagacha ortadi. Gipoxlorit kislotalaring oksidlovchiligi kuchlilik kamayadi

OD(zaryad) ortadi, kislotalik kuchayadi, oksidlovchilik kamayadi

21- dars. 31.10. 7,129-140 8.26 A,46-52 X,170-174 R,43 Tuzlar
T: 10-238-240 85-22,23 86-40,41,57 87-61,88 89-138,144 90-168

Tuzlar, Me_xKq_y – Metall va kislota qoldig' idan tuzilgan murakkab moddalar.

F/x. Metall va kislota qoldig'i ionlaridan tuzilgani uchun qattiq bo'ldi. Ishqoriy metallarning tuzlari, ammoniy tuzlari, nitratlar, xloridlar, asetatlarni deyarli barchasi suvda yaxshi eriydi.

XII. Tuzlar 6 xil bo'ldi: 1) Normal (o'rta) tuzlar; 2) Nordan tuzlar; 3) Asosli tuzlar; 4) Qo'sh tuzlar; 5) Aralash tuzlar; 6) Kompleks tuzlar.

1. Normal (o'rta) tuzlar


Normal (o'rta) tuzlar deb, kislotalagi barcha vodorod atomlarini metallarga almashishidan hosil bo'lgan tuzlarga aytildi.

- 1) Metallga metallmas ta'sir ettirib. $2\text{Na} + \text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{NaCl}$ $\text{Fe} + \text{S} = \text{FeS}$
- 2) Metallarni kislotalarga ta'sir ettirib (t/e). $\text{Zn} + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{ZnSO}_4 + \text{H}_2\uparrow$
- 3) Metallarni tuzlarga t/e. $\text{Fe} + \text{CuSO}_4 = \text{FeSO}_4 + \text{Cu}$
- 4) Amfoter metallarga ishqor t/e. $\text{Al} + \text{NaOH} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{NaAlO}_2 + 1,5\text{H}_2\uparrow$
- 5) Asosli oksidlarga kislota t/e. $\text{CuO} + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{CuSO}_4 + \text{H}_2\text{O}$
- 6) Asosli oksidlarga kislotali oksid t/e. $\text{CaO} + \text{CO}_2 = \text{CaCO}_3$
- 7) Asoslarga kislota t/e. $\text{Ca}(\text{OH})_2 + 2\text{HCl} \rightarrow \text{CaCl}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$
- 8) Asoslarga kislotali oksid t/e. $\text{Ca}(\text{OH})_2 + \text{CO}_2 = \text{CaCO}_3\downarrow + \text{H}_2\text{O}$
- 9) Tuzlarga ishqor t/e. $\text{FeCl}_2 + 2\text{KOH} \rightarrow \text{Fe}(\text{OH})_2\downarrow + 2\text{KCl}$
- 10) Ishqorlarga metallmas t/e. $2\text{NaOH} + \text{Cl}_2 \rightarrow \text{NaCl} + \text{NaOCl} + \text{H}_2\text{O}$
 $6\text{NaOH} + 3\text{Cl}_2 \rightarrow 5\text{NaCl} + \text{NaClO}_3 + 3\text{H}_2\text{O}$
- 11) Tuzlarga kislota t/e. $2\text{NaCl} (\text{q}) + \text{H}_2\text{SO}_4 (\text{kons}) \rightarrow \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HCl}\uparrow$
- 12) Tuzlarga kislotali oksid t/e. $\text{CaCO}_3 + \text{SiO}_2 \rightarrow \text{CaSiO}_3 + \text{CO}_2\uparrow$
- 13) Tuzlarga tuzni t/e. $\text{AgNO}_3 + \text{NaCl} = \text{AgCl}\downarrow + \text{NaNO}_3$
- 14) Tuzlarga metallmas t/e. $2\text{NaBr} + \text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{NaCl} + \text{Br}_2$ tepadagi galogen pastdagisini siqib chiqaradi.

K/x. 1) Ayrim tuzlar o'zlariga suvni biriktirib kristallgidratlar hosil qiladi. *Kristallgidratlar (KG)* - tarkibida kimyoviy bog'langan suv tutgan tuzlar.



mis kuperosi



kristall soda.

KG tarkibidagi suvga *kristallizatsiya suvi* deyiladi.

2) Aktivlik qatoridagi metallar o'zidan keyindagi metallini tuzlardan siqib chiqaradi. Magniydan chapda turgan ishqoriy, ishqoriy-yer metallar tuzlarni eritmasidan metallni emas vodorodni siqib chiqaradi, chunki tuz bilan emas eritmadi suv bilan ta'sirlashadi.

$$\text{Cu} + \text{Hg}(\text{NO}_3)_2 = \text{Cu}(\text{NO}_3)_2 + \text{Hg}$$

$$\text{K} + \text{AlCl}_3(\text{ert}) \neq ; \quad \text{K} + \text{HOH} = \text{KOH} + 0,5\text{H}_2\uparrow$$

Tuzlar metallar, metallmaslar, oksidlar, ishqorlar, kislotalar, tuzlar bilan reaksiyaga kirishadi. Bu reaksiyalar oildingi darslarda, tuzlarni olinishida ko'rib o'tilgan.

2. Nordon tuzlar T: 21-404,406 45-217 87-77,85 88-119 89-129,162 90-174

Nordon tuzlar deb tarkibida ikki va undan ortiq vodorod tutgan kislotadagi vodorodlarni bir qismini metallga almashishidan hosil bo'lgan tuzlarga aytildi. Bir negizli kislotalar nordon tuz hosil qilmaydi. Nordon tuzlar eritmada H^+ ionini hosil qilishi uchun erima nordon ta'mli, kislotali muhitli bo'ladi; sh.u. ular neytrallanish reaksiyasiga kirishadi.

Ol. 1) O'rta tuzlarga kislotasi t/e. $\text{MgSO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_3 = \text{Mg}(\text{HSO}_3)_2$ magniy gidrosulfit;
 $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 + 4\text{H}_3\text{PO}_4 \rightarrow 3\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$ kalsiy digidrofosfat, qo'sh superfosfat;
 $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 + 2\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 + 2\text{CaSO}_4$ oddiy superfosfat.
 $\text{NaNO}_3(\text{q}) + \text{H}_2\text{SO}_4(\text{kons}) \rightarrow \text{NaHSO}_4 + \text{HNO}_3\uparrow$ (11,190)

2) Asoslarga kislotasi t/e. $\text{NaOH} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{HOH} + \text{NaHSO}_4$ natriy gidrosulfat

3) Asoslarga kislotali oksid t/e. $\text{KOH} + \text{CO}_2 = \text{KHCO}_3$ kaliy hidrokarbonat

K/x. 1) Ishqorlar bilan neytrallanish reaksiyaga kirishadi.
 $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2 + \text{Ca}(\text{OH})_2 \rightarrow 2\text{CaCO}_3\downarrow + 2\text{HOH}$

2) Nordon tuzlar qizdirilsa oson parchalanadi. $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2 \rightarrow \text{CaCO}_3\downarrow(\text{quyqa}) + \text{CO}_2\uparrow + \text{H}_2\text{O}$ 2NaHCO_3 (ichimlik soda) $\rightarrow \text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$

Formulasini tuzishda: nordon tuzlarda kislotasi qoldig'idan vodorodni valentligini ayirib; asosli tuzlarda OH ni valentligini metallni valentligidan ayirib gruppasi umumiyligi valentligi topiladi. $\overset{\text{H}}{\underset{\text{Ca}}{\text{Ca}}}(\text{H}\overset{\text{C}}{\underset{\text{O}}{\text{CO}}}_3)_2 \cdot [\overset{\text{H}}{\underset{\text{Al}}{\text{Al}}}(\overset{\text{O}}{\underset{\text{H}}{\text{OH}}})_2]_2 \overset{\text{H}}{\underset{\text{S}}{\text{SO}}}_4$ aluminiy hidroksofosfat.

3. Asoslari tuzlar T: 21-403 87-84,94 89-131,161,163

Asoslari tuzlar deb tarkibida metall va kislotasi qoldig'idan tashqari OH gruppasi tutgan tuzlarga aytildi. Asoslari tuz hosil bo'lishi uchun asosda kamida ikkita OH bo'lishi kerak.

Ol. 1) Asoslarga kislotasi t/e.
 $\text{Mg}(\text{OH})_2 + \text{HCl} \rightarrow \text{HOH} + \text{Mg}(\text{OH})\text{Cl}$ magniy hidroksoxlorid

$2\text{Al}(\text{OH})_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 = 2\text{HOH} + [\text{Al}(\text{OH})_2]_2\text{SO}_4$ alyuminiy hidroksofosfat
 $\text{Al}(\text{OH})_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 = 2\text{HOH} + \text{Al}(\text{OH})\text{SO}_4$ alyuminiy hidroksofosfat

2) Tuzlarga ishqor t/e. $\text{CuCl}_2 + \text{NaOH} = \text{NaCl} + \text{Cu}(\text{OH})\text{Cl}$ mis(II) hidroksoxlorid

K/x. 1) Kislotalar bilan neytrallanish r/k. $\text{Cu}(\text{OH})\text{Cl} + \text{HCl} = \text{CuCl}_2 + \text{HOH}$
2) Ishqorlar ta sirida asosga aylanadi. $\text{Cu}(\text{OH})\text{Cl} + \text{NaOH} = \text{Cu}(\text{OH})_2 \downarrow + \text{NaCl}$

7,133 8,26 4. Qo'shaloq (qo'sh) tuzlar T: 90-171

Qo'shaloq tuzlar ikki xil metall va bitta kislota qoldig'idan tuzilgan tuzlar
M.. achchiqtoshlar: $\text{K}_2\text{SO}_4 \cdot \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 = \text{K}_2\text{Al}_2(\text{SO}_4)_4$, $\text{KA}(\text{SO}_4)_2 \cdot M\text{H}_2\text{Al}(\text{SO}_4)_3$.
Demak, qo'sh tuzlar bitta kislotani ikki xil tuzini aralashmasi. $\text{NaCl} \cdot \text{KCl} = \text{NaKCl}$
silvinit. $\text{CaCO}_3 \cdot \text{MgCO}_3 = \text{CaMg}(\text{CO}_3)_2$ dolomit.

8.26 5. Aralash tuzlar

Aralash tuzlar - bir xil metall va ikki xil kislota qoldig'idan tuzilgan tuzlar
 $\text{CaCl}_2 \cdot \text{Ca}(\text{OCl})_2 = \text{Ca}_2\text{O}_2\text{Cl}_4 \rightarrow \text{CaOCl}_2$ xlорli ohak. Demak, aralash tuz bitta metallni
ikki xil kislota bilan hosil qilgan tuzlарини aralashmasi.

A,47 M,183-194 X,172 R,45 6. Kompleks tuzlar

T: 7-125 14-76 44-186,195 48-107 101-207 107-455 127-9 131-200

Kompleks tuzlar deb tarkibida qattiq holda va eritmada mustaqil holda mavjud bo'lgan kompleks ion tutgan tuzlarga aytildi.


Komplekslar A.Verner nazariyasi bilan izohlanadi:

- 1) Kompleks hosil qilivchi metall (ba'zan metallmas: $\text{H}[\text{PF}_6]$, NH_3) markaziy atom (ion) deyiladi va u akseptor - bo'sh orbitallarga ega bo'ladi (asosan d-elementlar).
- 2) Markaziy atom atrosida ligandlar joylashadi. Ligandlar anionlar (manfiy zaryadli ionlar OH^- , CN^- , Cl^- , NO_3^-) yoki C_6H_5 li neytral molekulalar (H_2C_2 , NH_3) bo'lishi mumkin, ya'ni ular donor sifatida markaziy atom bilan donor-akseptor bog' hosil qiladi (lekin NH_3 ioni bu qoidalarga tushmaydi, bunday hollar juda kam).
- 3) Ligandlarning soni markaziy atomning koordinatsion soni deyiladi va u 2,4,6,8 bo'lishi mumkin.
- 4) Markaziy atom bilan ligandlar kompleks birikmaning ichki sferasini-kompleks ionni hosil qiladi. Ichki sfera-kompleks ion odatda kvadrat qavs bilan belgilanadi va uni zaryadi markaziy ion va ligandlar zaryadlarinig yig'indisiga teng.
- 5) Kompleks birikmaning tashqi sferasida zaryadi ichki sfera zaryadiga teng, lekin ishorasi qarama-qarshi ionlar joylashadi.

M,188 Komplekslarning nomlanishi

- 1) Oldin kation (+ ion), keyin anion (- ion) aytildi va formula shu tarzda yoziladi.
- 2) *Ligandlarni nomlash tartibi:* oldin manfiy zaryadli ion, keyin neytral molekula, oxirida musbat zaryadli ion aytildi; o'xshash zaryadli ligandlardan oldin soddasi (Cl^-), keyin murakkabi (SO_4^{2-}) aytildi.
- 3) Ligandlardan keyin markaziy atom aytildi, so'ngra uning OD si (valentligi emas) rim raqamida ko'rsatiladi.
- 4) Ligandlar soni yunoncha raqamlar (di,tri,tetra, penta, geksa...) bilan ifodalanadi va ligandning nomidan oldin aytildi.
- 5) Kompleks ion nomi ajratilmay bitta so'z bilan yoziladi. Kislota qoldig'i nomiga „o“ harfi qo'shiladi.

P.: Tuzlarning formulasini yozish tartibi bo'yicha tashqi sfera: 1) kation bo'lsa metall ionidek qaralib 1-o'rinda aytildi va yoziladi; 2) anion bo'lsa, kislota qoldig'idek qaraladi-nomlanadi, 2-o'rinda aytildi va yoziladi.



Markaziy atom- Fe, uni OD si = +3, valentligi = VI, koordinatsion soni (KS) = 6, ligandlar- CN⁻ (sianid ionlari), ichki sfera – kompleks ion- $[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{3-}$, tashqi sfera- K⁺ iioni.


M,185. Agar tashqi sfera H⁺ iioni bo'lsa *kompleks kislota*, OH⁻ iioni bo'lsa *kompleks asos hosil* bo'ladi. M., H[AuCl₄] oltin kislota, [Ag(NH₃)₂]OH diamminkumish(I) hidrokсид, „kumish kuzgu“ reaksiyasida aldegidlarni aniqlashda ishlataladi.

7,141 8,28 X,179 A,52 R,47 **Anorganik moddalarning orasidagi genetik bog'lanish**
T: 7-137,146-148 85-7,8,12,20,25 86-37,47 87-63,67,74,86 90-180,186 91-204,217

Genetik bog'lanish deb bir-sinfga oid moddalardan boshqa sinfga oid moddalarning olinishiga aytildi. 51- betdag'i sxemada anorganik moddalarning sinflari orasidagi genetik bog'lanishlar ko'rsatilgan, sxemaga mos genetik sxemalarni tuzing.

P.: *Genetik sxema* – genetik bog'lanishlar reaksiyalari qisqacha yozilgan sxema. Genetik sxemada ko'rileyotgan jarayon uchun muhim, genetik bog'lanish bo'yicha bir necha bosqichlarda olinayotgan asosiy moddalar streikalar ketma-ketligi bilan birlash-

tiriladi. Strelkalarni ustiga oldida „+“ bilan muhimmas reagent, reaksiya sharoiti ko'rsatiladi, strelkani ostiga muhim bo'limgan mahsulot oldida „-“ bilan ko'rsatiladi.



22- dars. 03.11 Test yechish. 8,29-bet:1-17 masalalar

V bob. SUV. ERITMALAR VA ULARDА BORADIGAN JARYONLAR

23- dars. 05.11 7,84-89 M,110-115 X,220-222 A,250-254 Suv

T: 11-303 17-208,210,212 18-241,246,247,249,250,259,276 19-325 20-337,359


- 22-450,457 27-14 45-209 69-375 128-57 130-138 132-243

Suv Yer yuzida eng ko'p tarqalgan moddalardan biri, tirik organizmlarning asosiy tarkibiy qismi, ko'pchilik reaksiyalar suvli eritmalarda boradi. Sh.u. suvni o'rganish katta ahamiyatga ega.

Suvning tarkibini isbotlash. 1) Suvni Goffman asbobida (VII,121) tok bilan parchalasa 2 hajm vodorod 1 hajm kislorod hosil bo'ladi, bu suvni tarkibi H_2O ligini isbotlaydi: $2\text{H}_2\text{O} = 2\text{H}_2(2\text{l}) + \text{O}_2(1\text{l})$ 2) Evdiometrda 2 hajm vodorodga 1 hajm kislorod qo'shib portlatsak (bu aralashma „yaldiroq gaz“ deyiladi) ular qoldiqsiz r/k, bu ham suvni tarkibi H_2O ligini isbotlaydi. $2\text{H}_2(2\text{l}) + \text{O}_2(1\text{l}) = 2\text{H}_2\text{O}$

F/x. Toza suv ${}^{17}\text{O}$ rangsiz, hidsiz, ta'msiz suyuqlik, 0°C da muzlaydi, 100°C da qaynaydi, zichligi 1. X,222. Og'ir suv - ${}^{17}\text{O} - \text{D}_2\text{O}$ M=20, 3.8°C da muzlaydi, 101.4°C da qaynaydi, zichligi 1,1. Oddiy suvgaga nisbatan reaksiyalarga susi kirishadi, sh.u. elektroliz vannasida to'planib qoladi, yadro reaktorlarida neytronlarni sekinlatuvchi sifatida ishlataliladi. 1 tonna suvda 150 g og'ir suv bo'ladi.

K/x. 1) Ishqoriy, ishqoriy-yer metallar bilan ta'sirlashadi.



2) Ayrim metallar bilan qizdirilganda r/k. $Mg + 2HOH \rightarrow Mg(OH)_2 + H_2 \uparrow$
 $Zn + H_2O \rightarrow ZnO + H_2 \uparrow$ $3Fe + 4H_2O \rightarrow Fe_3O_4 + 4H_2 \uparrow$ (Fe-bug' usulida H_2 olish)

3) Ba'zi metallmaslar bilan r/k. $C(cho'g') + H_2O \rightarrow CO + H_2$ (suv gazi, sintez gaz)
 $Cl_2 + HOH \rightarrow HCl + HOCl \rightarrow HCl + O$ atomar O mikroblarni o'ldiradi) – svuni xlorlash

4) Ishqoriy, ishqoriy-yer metallar oksidlari bilan ishqorlar hosil qiladi.
 $Na_2O + H_2O \rightarrow 2NaOH$ $CaO + H_2O \rightarrow Ca(OH)_2$ ohakni so`ndirish reaksiyasini

5) Ko`pchilik metallmaslar oksidlari bilan kislorodli kislotalarni hosil qiladi.
 $P_2O_5 + 3H_2O \rightarrow 2H_3PO_4$ $P_2O_5 + H_2O \rightarrow 2HPO_3$

6) Suvni elektroliz qilib yoki yuqori temperaturada parchalash mumkin. *Termik dissotsiasiya* – moddalarni qizdirilganda parchalanishi. $2H_2O \xrightarrow{1000^{\circ}C} 2H_2 + O_2$

7) Moddalarning suv bilan hosil qilgan birikmalari *gidratlar* suvdan boshqa erituvchilar bilan hosil qilgan birikmalari *solvatlar* deyiladi. Bu KG lar formulalarini yodlang.

$Na_2SO_4 + 10HOH = Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ Glauber tuzi
 $Na_2CO_3 + 10H_2O = Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$ Kristall soda
 $CuSO_4 + 5H_2O = CuSO_4 \cdot 5H_2O$ Mis kuporosi
 $FeSO_4 + 7H_2O = FeSO_4 \cdot 7H_2O$ Temir kuporosi
 $CaSO_4 \cdot 0,5H_2O$ (alebastr) + $1,5H_2O = CaSO_4 \cdot 2H_2O$ Tabiiy gips

Suvning ba'zi gazlar bilan hosil qilgan *gidratlar* *klatratlar* deyiladi. Ular yuqori bosimda, $0^{\circ}C$ dan $24^{\circ}C$ gacha kristall shaklda bo'ladigan beqaror moddalar: $Xe \cdot 6H_2O$, $Cl_2 \cdot 8H_2O$, $C_2H_6 \cdot 6H_2O$, $C_3H_8 \cdot 17H_2O$.

7,90,96 M,116-117 X,134-139 A,161-171 **Eruvchanlik. Eritmalar**
T: 60-28 61-43,49,50,52,58,79 62-117 63-136,166 64-169 65-223-229 67-294
68-356,363-366 69-372,381,382,390,391 70-426 71-443-450 72-511,513,517,518
74-583,589 75-625 76-668,683

Eritma – erituvchi, erigan modda va ularning o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlaridan iborat bir jinsi (gomogen) sistema. Eritmalar aralashmalar bilan kimyoviy birikmalar orasidagi holatga to'g'ri keladi. Eritmalar suyuq, qattiq (tilla buyuñilar, duyuraluminiy qotishmasi), gazsimon (havo) bo'ladi.

Eruvchanlik – moddaning erish qobiliyati. Eruvchanlik moddaning ma'lum sharoitda (temperatura, bosimda) to'yingan eritmasidagi erigan miqdori bilan o'chanadi. To'yingan eritma ayni temperaturada eruvchi moddani ortiqcha erita olmaydigan eritma.

Eruvchanlikni 3 xil ifodalash bor 1) Asosiy usul: 100 g suvda erigan moddani massasi bilan ifodalanadi, s harfi bilan belgilanadi. s^{20} (shakar) = 200 g; $s^{20}(NaCl) = 36$ g (Ma'nosи: $20^{\circ}C$ da 100 g suvda ko'pi bilan 36 g osh tuzi eriydi). 2) 1 l suvda erigan moddani

massasi bilan ifodalanadi. Shakarniki 2000 g/l, osh tuziniki 360 g/l. 3) Erigan moddani to`yingan eritmasini foiz konsentrasiyasi bilan ifodalanadi.

$$\omega(shakar) = m(shakar) / m(ert) = 200 / (100 + 200) = 200 / 300 = 0,67 (67\%)$$

$$\omega(NaCl) = 36 / (100 + 36) = 36 / 136 = 0,26 (26\%)$$

Moddalar 100 g suvda eruvchanligiga qarab: 1) E(P)- yaxshi eriydigan (1 g dan ko`p), 2) O(M)- oz eriydigan (1 g dan 0,1 g gacha); 3) Q(H)- amalda erimaydigan (0,1 g dan kam) xillarga ajratiladi: $Q < 0,1 \text{ g} - O - I \text{ g} < E$. (M,forzas-2)

Suyultirilgan eritma – erigan modda miqdori juda oz eritma. *Konsentrangan eritma* erigan modda miqdori yetarlicha yuqori bo`lgan eritma. P suyul. $<50\%$ kons. O`ta to`yingan eritma – to`yingan eritmadaqiga nisbatan ko`proq modda erigan eritma. O`ta to`yingan eritma qaynoq to`yingan eritmani sovutib hosil qilinadi. U juda beqaror: sal chayqatilsa yoki tuz tashlansa ortiqcha erigan modda toza kristall shaklda ajralib chiqadi. bu kristallah usuli deyiladi, moddalarni tozalashda ishlataladi. M., novvot olish.

Qattiq moddalarni eruvchanligi temperatura ortishi bilan ortadi, lekin gazlarni eruvchanligi temperatura ortishi, bosim kamayishi bilan kamayadi. M., suvni qaynatish uchun qizdirsak, eritma temperaturasi oshgani uchun suvda erigan havoning (gazlarni) eruvchanligi kamayib pufakchalar shaklida ajralib chiqsa boshlaydi. Bakalashkadagi mineral suvni ochganda bosim kamaygani uchun karbonat angidridni eruvchanligi kamayib pufakchalar shaklida chiqadi.

7,92-95 M,115-116 X,132-134 A,172-179 KM,23 Eritmalarni konsentratsialari
T: 11-284 60-1,3,6,7,13,23-27,30-36,39,41 61-44,45,47,51,53-57,59-68,70,71,73,74,
76,77,80,82,83 62-85,86,89,95,100,104,106,109,110,113,115,116,125,126 63-127,133,
134,137,140-142,145-149,151,153-159,161-164,168 64-170-180,186,191-213 65-214,
215,230-249 66-255-258,260-265,270,272,275,279,288-291 67-292,293,295,296,299,
306,308,311,313-315,319,327-329 68-342-344,346-350,354,359,360 69-369,378-380,
383-389,395-398 70-408-410,413,415,418,431,436,437 71-451,460-462,464-466,468,
469,72-505-509,512,514-516,519-527 73-538-554,556,557,562,564 74-578,581,603
608,613 75-616,622,642,651,652 76-678,688

Eritma konsentratsiyasi eritma tarkibini miqdori bilan ishlataladi. *Konsentratsiya* erigan moddaning eritmaga nisbatadir: $K = \text{erigan modda} / \text{eritma}$. Ma`nosisi: eritmaning bir massa yoki hajm birligida qancha modda eriganini bildiradi.

Konsentratsiyani 7 xil ifodalash bor.

- 1) **Erigan moddani massa ulushi**, ω (tuz) = $m(\text{tuz}) / m(\text{ert})$. Ma`nosisi: 1 g eritma tarkibida necha g modda (tuz) eriganini yoki 1 g eritmani hosil qilishga erigan modda qancha massa hissa (ulush) qo'shganini bildiradi.

- 2) **Foiz (protsent) konsentratsiya**, $\omega\%$ - massa ulushining 100% ga ko'paytmasi: $\omega\% \text{ (tuz)} = \omega \cdot 100\%$. Ma'nosi: 100 g eritma tarkibida necha g modda eriganini bildiradi.
- 3) **Eriган moddani hajmly ulushi**, $\varphi(\text{spirit}) = V(\text{spirit}) / V(\text{ert})$. Ma'nosi: 1 ml eritma tarkibida necha ml modda (spirit) eriganini bildiradi.
- 4) **Hajmiy solz konsentratsiya**, $\varphi\% = \varphi \cdot 100\%$. Ma'nosi: 100 birlik hajm eritma tarkibida necha birlik hajm modda eriganini bildiradi.
- 5) **Molyar konsentratsiya**, $C = n(\text{erigan moddani moli}) / V(\text{ert}) \rightarrow \text{mol/l} = M$. Ma'nosi: 1 l eritma tarkibida necha mol modda eriganini bildiradi. M., 2 mol/l yoki 2M ikki molyarli eritmani har 1 l ni tarkibida 2 mol modda erigan bo'ladi.
- 6) **Normal konsentratsiya**, $N = n_E (\text{erigan moddaning ekv. soni}) / V(\text{ert}) \rightarrow \text{ekv/l} = N$. Ma'nosi: 1 l eritma tarkibida necha ekv modda eriganini bildiradi. M. 2 l eritma tarkibida 196 g sulfat kislota bo'lsa, eritmaning normal konsentratsiyasini toping. $E(H_2SO_4) = 98/2 = 49 \text{ g/ekv}$, $n_E(H_2SO_4) = m/E = 196/49 = 4 \text{ ekv}$, $N(H_2SO_4) = n_E/V = 4 \text{ ekv} / 2 \text{ l} = 2 \text{ ekv/l} = 2N$ – ikki normalli eritmani har bir litrida 2 ekv modda (98 g H₂SO₄) erigan.
- 7) **Titr konsentratsiya**, $T = m (\text{erigan modda}), \text{g} / V(\text{ert}), \text{ml} \rightarrow \text{g/ml}$. Ma'nosi: 1 ml eritmada necha g modda eriganini bildiradi. $T(H_2SO_4) = 196 \text{ g}/2000 \text{ ml} = 0,098 \text{ g/ml}$.

Konsentratsiyalarni biriga qarab ikkinchisini topish mumkin. Eritmalar suyultirilganda (suv qo'shilganda) yoki quyultirilganda (suvi bug'latilganda), bir moddani ikki xil eritmasi aralashtirilganda eritmalar konsentratsiyasi o'zgaradi. Aytilgan hollarga tegishli hisoblash formulalari FJ,12 da berilgan.

24- dars. 07.11. Test yechish

25- dars. 10.11. 8,100 9,20 M,118 X,140-162 KM,24 Elektrolitik dissotsilanish
 T: 17-198 60-40 75-629,635,654 78-25-29 79-55,66 80-85,90,91,100,108
 81-129,131,142-1455 83-208,209 84-251

8,99 X,199 A,186 **Elektrolitlar** – eritmalari yoki suyuqlanmalari elektr tokini o'tkazadigan moddalar. Elektrolitlar ion yoki qutbli kovalent bog'li birikmalardir. Bunday bog'lanishli moddalar suvning qutbli molekulalari bilan tortishib dissotsilanadi, ya'ni ionlarga ajraladi. Ionlar zaryadli zarrachalar bo'lgani, eritma yoki suyuqlanmada harakatlana olganligi uchun elektrolitdan tok o'tadi (*7ok* – zaryadli zarrachalarni tartibli harakati). Suvli muhitda ionlar orasidagi tortishish kuchini 81 marta kamayishi (suvni dielektrik singdiruvchanligi $\epsilon = 81$), suv molekulalarini to'xtovsiz issiqlik harakatida bo'lishi

ham dissotsilanishga sabab bo`ladi. Suvda eriydigan: tuzlar, asoslar^{*} (ishqorlar), kislolar elektrolitlardir.

Elektrolitmaslar (noelektrolitlar) – eritmasi yoki suyuqlanmalar elektr tokini o`tkazmaydigan moddalar. Ular qutbsiz yoki kuchsiz qutbli bog`li birikmalar bo`lib erituvchi ta`sirida ionlanmaydi, sh.u. eritmalari tok o`tkazmaydi. M., shakar, kislorod, ko`pchilik organik birikmalar, gazlar, cho`kmalar, distillangan suv.

Dissotsilanish nazariyasini 1887- yilda S. Arrenius yaratgan. Mendeleyevning gidratalar, Arreniusning dissotsilanish nazariyasini elektrolitik dissotsilanish nazariyasi shaklida birlashtirishni I.A.Kublukov taklif etgan.

Atom va ionlar bir-biridan xossalari bilan keskin farq qiladi. Bunga sabab atom zar-yadsiz, ionlar esa zaryadli zarrachadir. Manfiy zaryadli ionlar musbat qutb anodga qarab harakatlangani uchun *anion* (*An*⁻), musbat zaryadli ionlar manfiy qutb – katodga (katod(-)-krovat) qarab harakatlangani uchun *kation* (*Kai*⁺) deyiladi.

Asosiy gruppachalar elementlariga mos ionlar rangsiz (Na⁺, K⁺, Cl⁻, S²⁻, NO₃⁻, SO₄²⁻), qo'shimcha gruppachalar elementlariga mos ionlar ko'pincha rangli bo`ladi. M., Cu²⁺ ko'k, Fe²⁺ yashil, Fe³⁺ qizil-qo'ng'ir (olma yeyilganda po'sti ochilib havo tekmani uchun tarkibidagi beqaror yashil Fe²⁺ oksidlanib zang rangli Fe³⁺ ga aylanadi: $Fe^{2+} \xrightarrow{O_2 + H_2O} Fe^{3+}(Fe(OH)_3, \downarrow \text{zang})$ Cr³⁺ yashil, CrO₄²⁻ sariq, Cr₂O₇²⁻ qovoq (to'q sariq); MnO₄⁻ yashil, MnO₂ pushti raengli bo`ladi.

Elektrolitik dissotsilanish – elektrolitni suv yoki boshqa qutbli erituvchi ta`sirida eriganda hamda yuqori harorat ta`sirida suyuqlanganda ionlarga ajralish hodisasiidir. Dissotsilanish qaytar jarayon, sh.u. dissotsilanish tenglamalariga qaytarlik belgisi \leftrightarrow qo'yiladi.

8,104 X,143 A,196 Kislota, ishqor, tuzlarni dissotsilanashi


T: 37-411-415 49-137 73-555 74-584 77-1,4 78-11,15,18,24 79-65 80-89,93,104, 109,110 81-114,117,118,123,127,136-139,141,142 82-150,152,154,155,159-161,168, 179,183,186 83-189,191,203,206,212,219 84-236,238,239,249 90-179

Dissotsilanish nazariyasi bo'yicha kislolar H⁺ ionini hosil qiladigan, asoslar OH⁻ ionini hosil qilivchi, amfoter gidroksidlar sharoitga qarab H⁺ yoki OH⁻ ionini hosil qilivchi brikmalardir. Tuzlar esa metall va kislota qoldig'i ionlarini (nordon tuzlar H⁺ ionini ham, asosli tuzlar OH⁻ ionini ham) hosil qiladigan moddalardir. $H^+ \overset{\prime}{SO}_4^{\prime\prime} \rightleftharpoons 2H^+ + SO_4^{2-}$ diss. tenglamasi. $Ca(OH)_2 \rightleftharpoons Ca^{2+} + 2OH^-$ $2H^+ + ZnO_2^- \xleftarrow{M} Zn(OH)_2 \xrightarrow{AM} Zn^{2+} + 2OH^-$

Kislolar dissotsilanganda aslida H⁺ ioni ernas H⁺ ionini suv bilan birikishi natijasida gidroksoniy ioni H₃O⁺ hosil bo`ladi, lekin soddalashtirib H⁺ ioni yoziladi.

$H^+ + HOH \rightarrow H_3O^+$ C₁ hisobiga 1 ta DAB hosil bo`ladi, bu yerda kislorodni valentligi 3, OD = -2, gibridlanishi $IC_T + 3\sigma = sp^3$, ion shakli piramida.

Ko`p negizli asoslar kislotalar, nordon va asosli tuzlar bosqichli dissotsilanadi. O`rtacha kuchli, kuchsiz elektrolitlar eritmalarida asosan 1-bosqich boradi, keyingi bosqichlar ionlarni tortishishi sababli juda kam boradi. O`rta tuzlar bosqichsiz dissotsilanadi.



1b. $Mg(OH)Cl \rightleftharpoons MgOH^- + Cl^-$ 2b. $MgOH^- \rightleftharpoons Mg^{2+} + OH^-$ $Al_2(SO_4)_3 \rightleftharpoons 2Al^{3+} + 3SO_4^{2-}$
Kompleks tuzlar dissotsilanganda kompleks ion hosil bo`ladi, kompleks ion amalda dis-sotsilanmaydi. $K_{[Fe(CN)_6]}^{III} \rightleftharpoons 3K^+ + [Fe(CN)_6]^{3-}$

8,105 X,145 A,189 FJ,13 Dissotsilanish darajasi T: 78-7,16,17,19,22,23,30,33,40-42
79-56,60.68 80-77,78,87 81-115,116,119,130,147 82-158,169,172 83-192,216,217,222
84-229,231-235,237,248,252 87-82

Dissotsilanish darajasi, α moddalarni eritmada qanchalik dissotsilanganligini miqdoriy ifodalash uchun kiritilgan. U ma'lum sharoitda dissotsilangan molekulalar sonini (yoki mos ravishda dissotsilangan: molini, molar konsentrasiyasini) erigan moddahining jami molekulalar soniga (jami moliga,molar kons.ga) nisbatiga teng. $\alpha = \frac{N_{\text{dis}}}{N_{\text{sum}}} = \frac{n_{\text{dis}}}{n_{\text{sum}}} = \frac{C_{\text{dis}}}{C_{\text{sum}}}$
 $\alpha\% = \alpha \cdot 100\%$ M., $25^\circ C$ da 0,05 M li sirka kislota uchun $\alpha\% = 1,9 \approx 2$ (A,194 jadval), bu suvda erigan kislotani har 100 ta molekulasidan 2 tasi dissotsilangan ($CH_3COOH \rightleftharpoons CH_3COO^- + H^+$), 98 tasi dissotsilanmagan deganidir: $\alpha = 2/100 = 0,02(2\%)$.

α ga qarab elektrolitlarni kuchi topiladi. Agara $\alpha\% < 3\%$ bo`lsa kuchsiz elektrolit, $3\% \leq \alpha\% \leq 30\%$ bo`lsa o`rtacha kuchli elektrolit (M., HF, H_3PO_4), $30\% < \alpha\% \leq 100\%$ bo`lsa kuchli elektrolit deyiladi.

Dissotsilanish darajasi erituvchi va erigan moddani tabiatiga bog`liq bo`lib, eritma qizdirilganda (temperatura oshganda), suyultirilganda (konsentratsiya kamayganda) ortadi. Sh.u. α konsentratsiya va harorat bilan birga ko`rsatiladi.

8,106 X,146 A,190 Kuchli elektrolit – dissotsilanish darajasi nisbatan yuqori bo`lgan elektrolitlar. Ular har qanday konsentratsiyali eritmalarida amalda ionlarga to`liq dis-sotsilanadi. M., suvda eriydigan tuzlar,kislotalar, ishqorlar.

Kuchsiz elektrolitlar – dissotsilanish darajasi suyultirilgan eritmalarда ham kichik bo`lgan elektrolitlar. Deyarli barcha organik va ba`zi anorganik kislotalar (H_2SO_3 , H_2S , HNO_2 , H_2CO_3 , $HOCl$, H_2SiO_3 , $HClO_2$), NH_4OH , suvda erimaydigan asoslar, suv kiradi.

8,107 A,191-194 FJ,13 Dissotsilanish doimiysi (konstantasi), K_{dis} T: 81-135 83-193




Kuchsiz elektrolitlar kuchini aniqroq topish uchun α yetarli emas. sh.u. dissotsilanish doimiysi (konstantasi) ishlataladi, $H_2CO_3 \xrightleftharpoons[\text{teskar}]{m\ g\ m} 2H^+ + CO_3^{2-}$ da dissotsilanish (to'g'ri) va assotsilanish (teskar) reaksiyalari tezliklari tenglashgan holat: $V_{to\ g} = V_{tesk}$ muvozanat holati (69- bet) uchun $K_{dis} = \frac{[H^+]^2[CO_3^{2-}]}{[H_2CO_3]}$ bo'ladi. Bu yerda kvadrat qayslarda karbonat kislota va uni ionlarini muvozanat konsentratsiyalari (mol/l da) berilgan. *Dissotsilanish doimiysi ma'nosi:* ionlarning muvozanat konsentratsiyalari ko'paytmasini elektrolitning muvozanat konsentratsiyaga nisbati o'zgarmas temperaturada o'zgarmas (doimiy) sondir.

K_{dis} qancha katta bo'lsa elektrolit shuncha kuchli bo'ladi, qancha kichik bo'lsa elektrolit shuncha kuchsiz bo'ladi. Dissotsilanish doimiysi elektrolit va erituvg'i tabiatiga, haroratga bog'liq, lekin konsentratsiyaga bog'liq emas. K_{dis} bilan α orasida quyidagiicha bog'lanish bor: $K_{dis} = \alpha^2 C \quad \alpha = \frac{K_{dis}}{C} \quad C = K_{dis} / \alpha^2$.


8,108 M,118 X,147 A,194 Ion almashinish reaksiyaları T: 67-317 74-588 75-636,665 76-666,667,681,686 77-2,3,5 78-6,8,9,21 79-43-52,54, 57,59,61-64,67,71,74 80-80,83,84,92,94-96,106,111 81-112,126,146,148 82-151,162- 167,180-182,188 84-223,226,228,230,253,258,260 83-194,200,210,215,220 85-264 90-175,178

Ion almashinish reaksiyaları deb, elektrolitlarni eritmalarida boradigan reaksiyalarga atildi. Bu reaksiyalar borishi uchun reaksiya natijasida elektrolitmas yoki kuchsiz eiktrotlit (cho'kma, gaz, suv, kompleks ion) hosil bo'lishi kerak, ya'ni reaksiyaga kirishayotgan elektrolitlarni ionlari o'zaro birikib yuqorida aytilganlarni hosil qilishi kerak.

1) Cho'kma hosil bo'ladigan reaksiyalar:




2) Gaz hosil bo'ladigan reaksiyalar. $Na_2S + H_2SO_4 = H_2S \uparrow + Na_2SO_4$



3) Suv hosil bo'ladigan neytrallanish reaksiyaları. $NaOH + HCl = NaCl + HOH$
 $Na^+ + OH^- + H^+ + Cl^- = Na^+ + Cl^- + HOH \quad H^+ + OH^- = HOH$ Neytrallanish reaksiyasini mohiyati H^+ va OH^- ionlarini bog'lanib suv hosil qilishidan iborat.

4) Kompleks hosil bo'ladigan reaksiyalar. $AgCl \downarrow + HCl = H[AgCl_2]$



M,120 X,149 A,198 VIII,55 KM,24 FJ,13 Vodorod ko`rsatgich – pH
 T: 74-602 78-12,14 81-120-122,128 82-170,171,173-178,184,185,187
 83-190,197,198,201,202,204,205,221 84-224,227,261 85-262,263,265-267

1909- yilda daniyalik olim Syorensen tomonidan eritmalar muhitini aniq miqdoriy ifodalash uchun pH (pe ash) – vodorod ko`rsatgich tushunchasi kiritilgan. *Vodorod ionlarining molyar konsentratsiyasini manfiy ishora bilan olingen o`nli logarifimi qiyamatiga vodorod ko`rsatgich – pH deyiladi.* $pH = -\lg[H^+]$ $pOH = -\lg[OH^-]$ pOH (pe o ash) OH^- ionlari ko`rsatgichi.

$22^\circ C$ da toza suvdagi H^+ va OH^- ionlarini molyar konsentratsiyalari 10^{-7} mol/l dan (har 100 mln ta suv molekulasiidan 6 tasi dissosiyalangan) bo`lib, ularning ko`paytmasi 10^{-14} ga suvning ion ko`paytmasi- K_w deyiladi. $H_2O \rightleftharpoons H^+ + OH^-$ $K_w = [H^+][OH^-] = 10^{-14} \cdot 10^{-7} = 10^{-14} = \text{const.}$ Eritmaga kislota yoki ishqor qo`shilganda H^+ yoki OH^- ionlarini konsentratsiyalari o`zgarishi mumkin, lekin ulami ko`paytmasi o`zgarmasdan 10^{-14} ligicha qoladi: $[H^+][OH^-] = 10^{-14}$ yoki $pH + pOH = 14$. Bundan $pH = 14 - pOH$, $pOH = 14 - pH$, ya`ni eritmani pH yoki pOH dan biri ma`lum bo`lsa, ikkinchisini topish mumkin.

Endi uch xil muhit uchun pH ni topishni ko`rib-chiqamiz.

- 1) *Neytral muhit:* $[H^+] = [OH^-] = 10^{-7}$ mol/l M., toza suv. $pH = -\lg 10^{-7} = 7$. **pH = 7, NM (neytral muhit).** ($[OH^-] = 10^{-7}$ M, $pOH = -\lg 10^{-7} = 7$).
- 2) *Kislotali muhit:* $[H^+] > [OH^-]$ M., $[H^+] = 10^{-3}$ M $> 10^{-7}$ M bo`lsin, u holda $[OH^-] = 10^{-11}$ M bo`ladi ($pOH = -\lg 10^{-11} = 11$), chunki $10^{-3} \cdot 10^{-11} = 10^{-14}$. Bu holda $pH = -\lg 10^{-3} = 3 < 7$. **pH < 7 KM (kislotali muhit).** $pOH = 14 - 3 = 11$ bo`ladi.
- 3) *Ishqoriy muhit:* $[H^+] < [OH^-]$ M., endi $[OH^-] = 10^{-1}$ M $> 10^{-7}$ M bo`lsin. $pOH = -\lg 10^{-1} = 4$, $pH = 14 - 4 = 10 > 7$. **pH > 7, IM (ishqoriy muhit).**

pH qiymatini tajribada *indikatorlar* yoki *pH-metr* asbobi yordamida aniqlash mumkin. M. Agar $[H^+] = 4,2 \cdot 10^{-4}$ mol/l bo`lsa, eritma pH ini toping? $pH = -\lg 4,2 \cdot 10^{-4} = 3,38$ KM. („KENKO”da ishlash: $4,2 \rightarrow \exp \rightarrow -04 \rightarrow \log \rightarrow -3,37675 \approx -3,38$. $pH \approx 3,38$. M. pH = 3,38 bo`lsa $[H^+]$ ni toping? $[H^+] = 10^{-3,37675} = 4,2 \cdot 10^{-4}$ mol/l. („KENKO”da ishlash: $-3,37675 \rightarrow 2nd \rightarrow 10^x \rightarrow 0,00042 \rightarrow „F \rightarrow E“ \rightarrow 4,2 \cdot 10^{-4}$ mol/l = $[H^+]$).

8,110 Sifat reaksiyalar T: 78-10,20 79-58,73,75 80-97,99,101,105,107
 81-133,134 82-156 83-199 84-246,250

Sifat reaksiya faqat moddaning (ionning) o`ziga xos bo`lgan, ya`ni uni aniqlash imkonini beradigan reaksiya. M., kraxmalni yod bilan ko`k kompleks hosil qilishidan aniqlash mumkin. Cu^{2+} ionini quyidagi ionlar bilan hosil qilgan rangli birikmalariga qarab aniqlash mumkin: $Cu^{2+} + 2OH^- = Cu(OH)_2 \downarrow$ ko`k cho`kma, $Cu^{2+} + S^{2-} = CuS \downarrow$ qora cho`kma. (8,110 jadvalni yodlang, reaksiyalarini yozing).





26- dars. 12.11. Test yechish.

27- dars. 14.11. 8,111-115 M,124-125 A,203 X,174 **Gidroliz. Tuzlar gidrolizi**

T: 4-8 75-628,641 81-132 88-98 91-1-14 92-15-50 93-51-86

94-87-124 95-125-150 130-161,162 131-185 132-232


Gidroliz – moddalarni suv bilan reaksiyaga kirishib parchalanishidir. *Anorganik moddalardan*: tuzlar, ba`zi galogenli birikmalar, nitridlar, karbidlar, fosfidlar gidrolizlanadi. *Organik moddalardan*: murakkab efirlar (yog`lar), polisaxaridlar, disaxaridlar, oqsillar, nuklein kislotalar, ba`zi polimerlar (poliefirlar, poliamidlar) gidrolizlanadi.



Tuzlar gidrolizlanishi uchun undagi metall yoki kislota qoldig`i suvni H^+ yoki OH^- ionlar bilan bog`lana olishi kerak. Buning uchun metallga kuchsiz asos, kislota qoldig`iga kuchsiz kislota mos kelishi kerak.

1) *Kuchli asos, kuchli kislotadan hosil bo`lgan tuzlar* (M,206: *kumush tuzlari ham*) *gidrolizlanmaydi*, chunki bu tuzlarni ionlariga kuchli elektrolitlar mos kelgani uchun bu ionlar suvning H^+ yoki OH^- ionlari bilan birika olmaydi, natijada suvdagi muhit o`zgarmasdan neytralligicha qoladi. $NaCl$ ($NaOH$ -kuchli, HCl -kuchli) $\rightarrow Na^+(+ OH^- \neq) + Cl^-(+ H^+ \neq) NM, pH = 7$.

2) *Kuchli asos, kuchsiz kislota qoldig`idan hosil bo`lgan tuzlar kislota qoldig`i hisobiga qaytar gidrolizlanadi, muhit ishqoriy bo`ladi**. Bunday gidrolizni kislota qo'shib kuchaytirish, ishqor qo'shib susaytirish mumkin. Na_2CO_3 ($NaOH$ -kuchli, H_2CO_3 -kuchsiz) $\rightarrow Na^+(+ OH^- \neq) + CO_3^{2-} (+ H^+ = HCO_3^-)$. H^+ bog`langani uchun OH^- ko`payib ketadi: muhit ishqoriy bo`ladi, $pH > 7$.







3) *Kuchsiz asos, kuchli kislotadan hosil bo`lgan tuzlar metall ioni hisobiga qaytar gidrolizlanadi, muhit kislotali bo`ladi*. Bunday gidrolizni ishqor qo'shib kuchaytirish, kis-

Iota qo'shib susaytirish mumkin. $ZnCl_2$ ($Zn(OH)_2$ -kuchsiz, HCl-kuchli) $\rightarrow Zn^{2+}$ (+ OH^- = $ZnOH^+$) + Cl^- (+ H^+ ≠). OH^- bog'langani uchun H^+ ioni OH^- dan ortib ketadi: muhit kislotali bo'ladi, $pH < 7$



4) *Kuchsiz asos, kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar:* a) eruvchanlik jadvalida Q (H) quyilgan tuzlarni barchasi cho'kmada bo'ladi, gidrolizlanmaydi ($M.$, $ZnS \downarrow$, $BaSO_4 \downarrow$); b) E (P) qo'yilgan bo'lsa bunday tuzlar suvda eriydi, gidrolizlanadi ($M.$, $(NH_4)_2CO_3$); c) „–“ chiziqcha qo'yilgan bo'lsa tuz to'liq gidrolizlanib butunlay parchalanib ketadi, eritmada mavjud boilmaydi ($M.$, Al_2S_3). $(NH_4)_2CO_3$ (NH_4OH -kuchsiz, H_2CO_3 -kuchsiz) $\rightarrow NH_4^+ (+ OH^- = NH_4OH) + CO_3^{2-} (+ H^+ = HCO_3^-)$. Bu holda H^+ ham, OH^- ham bog'langani uchun ularni miqdori taqrirba bir-biriga teng bo'ladi, sh. u. muhit neytral bo'ladi,



Eritma suyultirilganda, temperatura oshganda gidroliz kuchayadi (~α).

* 1) O'rtacha kuchli kislotalar – H_3PO_4 , HF ni gidrolizda kuchsiz deb ishlaymiz, ya'ni ularni tuzlari gidrolizlanadi. 2) Digidrofosfat tuzlari suvda eriganda ishqoriy emas, kislotali muhit hosil bo'ladi, chunki $H_2PO_4^-$ ni dissotsiyalanishi gidrolizdan ustunlik qiladi. Fosfat, hidrofosfat tuzlari suvda eritilganda odatdagidek ishqoriy muhit hosil bo'ladi. 3) Tuzga mos keluvchi asos yoki kislotqa qancha kuchsiz bo'lsa, gidroliz shuncha kuchli boradi. M., Fe^{2+} ga nisbatan Fe^{3+} tuzlari, sulfidlarga nisbatan sianidlar kuchli gidrolizlanadi.

M,128 A,228 Birgalikdagi (qarama-qarshi) gidroliz deb, qarama-qarshi muhit hosil qiladigan ikki xil tuzni bitta eritmada eritilganda boradigan gidrolizga aytiladi. Bunday gidroliz qaytmas, muhiti neytral bo'ladi. Bu almashinish reaksiyasida hosil bo'lgan tuzga ($M.$, $Al_2(CO_3)_3$) eruvchanlik jadvalida „–“ (chiziqcha) qo'yilgan bo'ladi, ya'ni u suvda parchalanib ketadi. $2AlCl_3 + 3Na_2CO_3 + 3HOH \rightarrow 2Al(OH)_3 \downarrow + 3CO_2 \uparrow + 6NaCl$

M,122-124 A,158-161 X,295 11,109 **Dispers sistemalar**
T: 60-2,4,5,38 61-42,48,69,72,75,78,81,84 62-90,92-94,96,118,119 63-150

Dispers sistema -- bir muddani boshqa muddada tarqalishidan hosil bo'lgan sistema (lot. „dispersiya“- tarqalish). Dispers sistema dispers faz va dispers muhitudan (50% dan ko'pi) tuzilgan. Dispers sistemalar 3 xil bo'ladi: 1) *chin (haqiqiy) eritmalar;* 2) *kolloid eritmalar;* 3) *dag'at dispers sistemalar* Chin va kolloid eritmalar nozik dispers

sistemalar, kolloid eritmalar va dag`al dispers sistemalar zarrachalari kattaligi har xil bo`lgani uchun *polidispers sistemalar* ham deyiladi.

Chin eritmalarida moddalar molekula yoki ion shaklida tarqaladi, zarrachalar kattaligi 1 nm dan kichik bo`ladi, ya`ni dispers fazasida dispers muhitda erib bir jinsli gomogen sistema – chin eritma hosil qiladi. Agar dispers fazasi (DF) dispers muhitda (DMda) erimasa har xil jinsli geterogen sistemalar – kolloid eritmalar, dag`al dispers sistemalar hosil bo`ladi. Agar zarracha kattaligi 1 nm dan 100 nm gacha bo`lsa kolloid eritma, 100 nm dan katta bo`lsa dag`al dispers sistema h/b.

Dag`al dispers sistemalar asosan 3 xil bo`ladi: 1) *DF:Qattiq yoki suyuq DM:Gaz(havo)* *Aerozollar* M., qurum (gorakuya) + havo = tutun; tuproq + havo chang; suv + havo = tuman. 2) *Suyuq + suyuq Emulsiyalar* M., moy + suv = sut. 3) *Qattiq + suyuq = Suspenziyalar* M., tuproq + suv = loyqa suv.

Dag`al dispers sistemalar beqaror bo`ladi: faza va muhitga tez ajratlib ketadi. Chin eritmalar barqaror boladi. Kolloid eritmalar dag`al dispers sistemalarga nisbatan barqaror.

Kolloid eritmalar *zollar* ham deyiladi. Kolloid eritmalariga erituvchida (suvda) erimaydigan moddalarni zollari; turli elim, bo`yoq, lakklar; sovunning suvdagi eritmasi; polimerlar eritmalarini (kraxmal kleystri, kauchuk lateksi, tuxum oqsili eritmasi); qon plazmasi kiradi. Kolloid eritmalar ham chin eritmalardek tiniq shaffof bo`ladi, lekin ularga ingich ka yorug`lik nuri tushirilsa yorug`lik sochilib yorug` konus hosil qiladi (*Tindal effekti*). Kolloid eritmalar barqarorligiga sabab kolloid zarrachalar bir xil zaryadlangan bo`ladi, sh.u. ular bir-biridan itariladi. M., a) $\text{Na}_2\text{SiO}_3(\text{mo'l}) + \text{HCl} = \text{H}_2\text{SiO}_3\downarrow + \text{NaCl}$ b) $\text{Na}_2\text{SiO}_3 \Leftrightarrow 2\text{Na}^+ + \text{SiO}_3^{2-}$ c) $n\text{H}_2\text{SiO}_3\downarrow + m\text{SiO}_3^{2-} \rightarrow [\text{H}_2\text{SiO}_3]_n \cdot m\text{SiO}_3^{2-}$ (manfiy zaryadli kolloid zarracha).

Kolloid eritmalarini ham qaynatish yoki elektrolit qo`shish, qattiq chayqatish yo`li bilan buzish mumkin. Bunda kolloid zarrachalar zaryadsizlanib bir-biriga yopishib yirikiashib eritmadan cho`kadi. Bu hodisa *koagulyasiya* deyiladi. Ba`zi kolloid eritmalar koagulyasiya vaqtida dirildoq massa-gel holatiga o`tadi.

28- dars. 17.11. Test yechish

29- dars. 19.11 Sinov testi (Zoologiya yakuni)

VI bob. KIMYOVIY REAKSIYALARING BA`ZI QONUNIYATLARI


30- dars. 21.11 11,114 – 120 X, 19-20 A, 26-31 R, 79 Reaksiya xillari
T: 12-350 84-247 85-9, 10, 24 86-44, 48 87-72 88-105, 114, 121 89-132, 137, 146 90-181

Kimyoviy reaksiyalarni har xil belgilariiga qarab turli xillarga (sinflarga) ajratish mumkin.

1) Reaksiyada qatnashayotgan moddalar molekulalarini soni va tarkibiga qarab: *birikish, ajralish, o'rinn olish, almashinish reaksiyalari* bo'ladi (7-dars, 16-bet).

2) 8,154 11,119 Reaksiyalarni oxirigacha borish-bormasligiga qarab: *qaytar va qaytmas reaksiyalari* bo'ladi. *Qaytmas reaksiya* – bir modda boshqa moddaga to'la aylanadigan, ya'ni oxirigacha boradigan reaksiya. M., gaz, cho'kma, suv hosil bo'ladigan ion almashinish reaksiyalari. $\text{NaCl} + \text{AgNO}_3 \rightarrow \text{AgCl}\downarrow + \text{NaNO}_3$. *Qaytar reaksiyu* – bir modda boshqa moddaga to'liq aylana olmaydigan, ya'ni bir vaqtini o'zida qarama-qarshi yonalishda boradigan reaksiya. $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3$ to'g'ri reaksiya, $2\text{NH}_3 \rightarrow \text{N}_2 + 3\text{H}_2$ teskari reaksiya. Ikki reaksiyaning qaytarlik belgisi bilan birlashtirsak: $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \xrightleftharpoons[\text{reaksiya}]{\text{qaytar}} 2\text{NH}_3$, qaytar reaksiya tenglamasi h/b.

3) 8,90 Reagentlarning oksidlanish darajasi o'zgarish-o'zgarmasligiga qarab: *oksidanish-qaytarilish reaksiyalari (OQR) va OQR mas reaksiyalari* bo'ladi.



4) 11,117 Reaksiyada qanday zarrahdalar ishtiroy etishiga qarab: *radikal va ion maxanizmlari reaksiyalari* bo'ladi (organik kimyoda o'tiladi).

5) Katalizator ta'sir etish-etmasligiga qarab: *katalitik va katalitikmas reaksiyalari* bo'ladi. *Katalitik reaksiya* katalizator ishtiroyida tezlashadi: $\text{N}_2 + \text{H}_2 \rightleftharpoons \text{NH}_3$; $\text{NaCl} + \text{AgNO}_3 = \text{AgCl}\downarrow + \text{NaNO}_3$ katalitikmas reaksiya.

6) Reaksiyaga kirishayotgan moddalar bir-biridan sirt bilan ajralmagan bo'lsa *gomogen reaksiya*, sirt bilan ajralgan bo'lsa *geterogen reaksiya* deyiladi. Gomogen reaksiyalari: N_2 (gaz) + H_2 (gaz) $\rightleftharpoons \text{NH}_3$ (gaz); $\text{NaCl}(\text{ert}) + \text{AgNO}_3(\text{ert}) = \text{AgCl}\downarrow + \text{NaNO}_3$. Geterogen reaksiya: $\text{C}(\text{qattiq}) + \text{O}_2(\text{gaz}) = \text{CO}_2$

7) 8,18 Reaksiyada issiqlik chiqishi yoki yutilishiga qarab: *ekzotermik va endotermik reaksiyalari* bo'ladi.

7,48 8,18 11,118 X,17-19 A,124,128 **Termokimyo**

T: 22-452 34-289 125-75-77 126-111 127-17,21,42 130-128,149-152,154,159
131-172,183,184,191-195 132-247 133-248,249,251

7,48 *Kimyoviy energiya* deb reaksiyada ajralgan (P. yoki yutilgan) energiyaga aytildi. Ajralgan kimyoviy energiya energiyani saqlanish qonuniga muvofiq issiqlik, yorug'lik (yonishda), mekanik (portlashda), elektr (akkumulyator tok berganda) energiyalariga aylanishi mumkin va ular aksincha reaksiyada energiya yutilganda kimyoviy energiyaga aylanishi mumkin. M., fotosintezda yorug'lik energiyasi kimyoviy energiyaga (dastlab

ATF energiyasiga, keyin ATF energiyasi glukoza bog`lanishlari energiyasiga) aylanadi. Akkumulyator zaryadlanganda elektr energiyasi kimyoviy energiyaga aylanadi.


Ko`pincha kimyoviy energiya issiqlikga (ekzotermik reaksiyada) va aksincha issiqlik kimyoviy energiyaga (endotermik reaksiyada) aylanadi. Reaksiyada issiqlik chiqishi yoki yutilishi, reaksiyaning issiqlik effekti hosil bo`layotgan va uzilayotgan bog`lar energiyalari farqiga bog`liq (X,121 A,138).

Termokimyo – reaksiyalarning issiqlik effektini o`rganadigan fan. Reaksiyaning issiqlik effekti, Q – reaksiyada chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori. Issiqlik chiqadigan ($+Q$) reaksiya ekzotermik reaksiya, issiqlik yutiladigan ($-Q$) reaksiya endotermik reaksiya deyiladi. Reaksiyaning issiqlik effekti ko`rsatilgan tenglama termokimiyoviy tenglama deyiladi. Reaksiyaning issiqlik effektini issiqlik miqdori Q dan tashqari issiqlik saqlami – entalpiya ΔH bilan ham ko`rsatiladi. Ular son qiymatlari bo`yicha bir-biriga teng, lekin ishoralari qarama-qarshi bo`ladi: $+Q = -\Delta H$, $-Q = +\Delta H$. Issiqlik miqdori Q reaksiya tenglamasiga qo'shib, entalpiya ΔH reaksiya tenglamasidan alohida yoziladi.



Reaksiyaning issiqlik effekti *kilokaloriya (kkal)* va *kilojoul (kJ)* da o`lchanadi. 1 kkal – 1 kg suv temperaturasini 1°C ga isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdori. 1 kkal = 4,184 kJ ga teng.

8,19 11,118 *Moddaning hosil bo`lish issiqligi, Q_{hb}* – oddiy moddalardan 1 mol murakkab modda hosil bo`lganda chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori. Oddiy moddalarning hosil bo`lish issiqligi nol (0) deb olinadi.



8,19 *Lavuazye - Laplas qonuni:* Har qanday murakkab moddani oddiy moddalarga qadar parchalanish issiqligi uning hosil bo`lish issiqligiga teng, lekin ishorasi qarama-qarshi bo`ladi: $+Q_{hb} = -Q_{parch}$, $-Q_{hb} = +Q_{parch}$ M., yuqoridagi reaksiyalar uchun parchalanish issiqliklari:



11,119 *Moddaning yonish issiqligi, Q_{yonish}* – 1 mol modda yonganda ajralib chiqqan issiqlik miqdori. $C_2H_2 + 2,5O_2 = 2CO_2 + H_2O + Q_{yonish} (+1300 \text{ kJ/mol})$

8,19 M,164 A,124 FJ,18 G.I.Gess qonuni: $+ \frac{1}{b} C + 0,5O_2 = CO + 109 \text{ kJ}$
reaksiyaning issiqlik effekti reagentlar bilan $+ \frac{2}{b} CC + 0,5O_2 = CO_2 + 285 \text{ kJ}$
mahsulotlarning tabiatiga bog`liq bo`lib, $C + O_2 = CO_2 + 394 \text{ kJ}$

reaksiyaning oraliq bosqichlariga bog'liq emas.

Gess qonuni yordamida reaksiyaning issiqlik effektini hisoblash mumkin: *reaksiyaning issiqlik effekti mahsulotlarni hosil bo'lish issiqliklari yig'indisidan reagentlarni hosil bo'lish issiqliklari yig'indisini ayirmasiga teng*

$$Q = \sum Q_{h/b}^{maks} - \sum Q_{h/b}^{min} \text{ yoki } \Delta H_r = \sum \Delta H_{h/b}^{maks} - \sum \Delta H_{h/b}^{min} + Q = -\Delta H_r - Q = +\Delta H$$

M. Asetilen yonish reaksiyasini issiqlik effektini quyidagi ma'lumotlar asosida aniqlang: $Q_{h/b}(C_2H_2) = -227 \text{ kJ/mol}$, $Q_{h/b}(H_2O_{suyuq}) = +286 \text{ kJ/mol}$, $Q_{h/b}(CO_2) = +394 \text{ kJ/mol}$.


$$\text{Yechish: } 2C_2H_2 + 5O_2 \xrightarrow{\text{ }} 4CO_2 + 2H_2O + Q \quad Q = (4 \cdot 394 + 2 \cdot 286) - 2 \cdot (-227) = 1576 + 572 + 454 = 2602 \text{ kJ. J: } Q = 2602 \text{ kJ} \approx 2600 \text{ kJ.}$$

8,90 9,17 11,114 M,130 X,186-200 A,211-213 KM,25 FJ, oxirida.


Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari (OQR)

T: 33-244 95-1-10 96-11-30,32-43,46-48 97-51-90 98-92-126 99-130-135,143,153, 154 100-170,174,175,177,179-181,184-186,194,196,198 101-204,217,221,229,235-240 102-245,270,276,277 103-291-293,297,299 104-336,337,353-355 105-375,378,379, 383,389 106-397,401,409,411,413 107-449,450

OQR deb elektron ko'chishi, ya'ni oksidlanish darajasi (OD) o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalarga aytildi.



Agar reaksiyada oddiy modda qatnashsa albatta OQR bo'ladi. *Qaytaruvchi (Zn): oksidlovchini qaytaradi, o'zi oksidlanadi, OD si ortadi (e bergani u-n) —> Oksidlovchi (HCl): qaytaruvchini oksidlaydi, o'zi qaytariladi, OD si kamayadi (e olgani u-n).*



$H_2 \xrightarrow[\substack{+2e \\ 2,1}]{\text{qey}} \overset{0}{S}(\text{oks}) \rightarrow \overset{1}{H}_2 \overset{-2}{S}$ $\overset{0}{S}(\text{qayv}) \xrightarrow[\substack{+2e \\ 2,3}]{\text{qey}} \overset{0}{O}_2 \rightarrow \overset{4}{S} \overset{-2}{O}_2$

8,93 11,188 M,131 X,191 A,213 R,81 OQR tenglamasini tuzish

M. Ushbu OQR ni tenglamasini tuzing:



1-usul. *Elektronlar balansi usuli* OQR da qaytaruvchi bergan, oksidlovchi olgan elektronlar sonlari tengligiga asoslangan. Dastlab OD si o'zgargan elementlarni belgilab olamiz: $\text{Na} \overset{+3}{N} \overset{-2e}{O}_2 + \text{K}_2 \overset{+3}{Cr}_2 \overset{-6e}{O}_7 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Na} \overset{+5}{N} \overset{-6e}{O}_3 + \overset{+3}{Cr}_2(\text{SO}_4)_3 + \text{K}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O}$ Elektron tengla-


malami tuzamiz (Cr sonini 2 taligini nazarda tutamiz), olingan va berilgan elektronlar sonini koefitsientlar qo'yib tenglashtiramiz – balanslaymiz (valentlikdagi indeks topishdagidek: bo'linsa bo'lib, bo'linmasa X shaklida). Topilgan koefitsientlarni oksidlovchi, qaytaruvchilarni formulalari oldiga yozamiz. Keyin sulfatlarni, oxirida suvni tenglashtiramiz, kislorodlarni tengligini tekshirib ko'ramiz.



Ba'zan oksidlovchi yoki qaytaruvchini bir qismi OD si o'zgarmasdan mahsulotga o'tadi. M., Cu + HNO₃ → Cu(NO₃)₂ + NO₂ + H₂O reaksiyada kislotani bir qismi tuziga. Bunday hollarda dastlab NO₂ ga koefitsientini qo'yib, keyin kislotaga koefitsient qo'yishda uni tuziga o'tgan sonini ham hisobga olish kerak (R,81). Ayrim hollarda OQR da bitta molekulani tarkibida 2 xil element qaytaruvchi bo'lishi mumkin. Bunday hollarda dastlab qaytaruvchilarni bergan elektronlarini jamlab so'ngra balanslanadi (M,134,4-misol).

2-usul. *Yarim reaksiyalar (ion-elektronli) usuli*. Aslida yuqorida ko'rilgan reaksiyada elektron balans usulida yozilgan mavjud bo'lmagan ionlar: N³⁺, N⁵⁺, Cr⁶⁺ lar o'miga eritmada haqiqatda bor ionlar NO₂⁻, NO₃⁻, Cr₂O₇²⁻ reaksiyaga kirishadi. Yarim reaksiyalar usul real ionlarni hisobga olinishi bilan balans usulidan ustunlikga ega, sh.u. amaliyotda OQR larni o'tkazishda shu usul ishlatalidi.

Bu usulda dastlab yarim reaksiyalarda: mahsulot ionda kislorod ko'paygan bo'lsa, reagent ionni suv bilan; mahsulot ionda kislorod kamaygan yoki yo'q bo'lsa vodorod ioni bilan yarim reaksiya tuzamiz, so'ngra yarim reaksiyaga elektron qo'shib yoki ayirib zaryadlarni tenglashtiramiz. Elektronlarni balanslab yig'indi ionli tenglamani hosil qilamiz:



Vodorodlarni, suvlarni qisqartiramiz, so'ngra tenglamaga tegishli ionlarni qo'shib molekulyar tenglamani hosil qilamiz.




8,95 M,142 X,198 A,217 OQR xillari

1) Molekulalararo OQR da elektron bir molekuladan boshqa molekulaga ko'chib o'tadi. $H_2 + Cl_2 \rightarrow 2HCl$ 2) Ichki molekulyar OQR da elektron bitta molekulani ichida bir element atomidan boshqa element atomiga ko'chib o'tadi. $2KClO_3 \rightarrow 2KCl + 3O_2$

3) Sinproporsiya reaksiyasiда bitta element atomlari har xil OD dan bir xil OD ga o'tadi:


a) $\overset{\overset{+1}{N}}{N}H_4 \overset{\overset{+5}{N}}{NO}_3 \xrightarrow{\text{reaksiya}} \overset{\overset{+1}{N}}{N}O + 2H_2O$ b) $2H_2 \overset{\overset{+4}{S}}{S} + \overset{\overset{+6}{O}_2}{} \rightarrow 3\overset{\overset{0}{S}}{S} + 2H_2O$. Agar testda sinproporsiya so'ralmagan bo'lsa, a-reaksiya ichki molekulyar OQR deb, b-reaksiya molekulalararo OQR deb ishlanaadi.

4) Disproporsiya reaksiyasiда bir xil element atomlari bir xil OD dan har xil OD ga o'tadi, ya'ni disproporsiya sinproporsiyani teskarisi. Disproporsiya dismutatsiya, sinproporsiya konmutatsiya ha'm deyiladi. Disproporsiya borishi ~~ha'm~~ element oraliq OD da bo'lishi kerak.




X,196-198 M,140 OQR ga muhit ta'siri


OQR qanday borishiga reaksiya muhiti ta'sir etadi. M., pushti MnO_4^- - permanganat ionni kislotali muhitda rangsiz Mn^{2+} ioniga, neytral muhitda qo'ng'ir $MnO_2 \downarrow$ - marganes(IV) oksid cho'kmasiga, ishqoriy muhitda yashil MnO_4^{2-} -manganat ioniga aylanadi(yodlang!).



Sariq CrO_4^{2-} xromat, qovoq rangli $Cr_2O_7^{2-}$ dixromat ionlari kislotali muhitda yashil Cr^{3+} ioniga aylanadi. Cr^{3+} ioni esa faqat ishqoriy muhitda yuqoridagi ionlarga aylanadi.



H_2O_2 vodorod peroksidda kislordan oraliq OD = -1 da bo'lgani uchun kuchli oksidlov-chilarga nisbatan qaytaruvchi bo'lib - elektron berib $\overset{\overset{0}{O}}{O}_2$ ga, kuchli qaytaruvchilarga nisbatan oksidlovchi bo'lib - elektron olib $H_2\overset{\overset{0}{O}}{O}(\overset{\overset{2}{O}}{O}H^-)$ ga aylanadi.



31- dars. 24.11. Test yechish

32- dars. 26.11. 8,151 11,120 M,166-171 X,116-122 A,130-140 KM,21 FJ,16
Reaksiya tezligi T: 50-2-30 51-31-67 52-68-104 53-105-143 54-144-165

Reaksiya tezligi – reaksiyada qatnashayotgan moddalarni konsentratsiyalarini vaqt bir-

ligida o'zgarishi. $v = \frac{C_1 - C_2}{t} = \frac{\Delta C}{t} = \frac{\Delta n}{Vt} = \frac{n_1 - n_2}{Vt} \text{ mol/s}$ C_1 - reagentni dastlabki molyar konsentratsiyasi, C_2 – reagentni reaksiya boshlanib t vaqt o'tgandan keyingi konsentratsiyasi ($C_1 > C_2$), ΔC - konsentratsiyalar farqi yoki t vaqt davomida reagentni reaksiyaga kirishgan konsentratsiyasi, $\Delta n = \Delta C \cdot V$ Δn - reagentni mollari farqi, V – reaksiya borayotgan idishni hajmi l da (ular testda konsentratsiya emas, mollar berilganda ishlataladi).


P: Agar reaksiya har xil vaqtlar oraliq ida (t_1 vaqtida reagent konsentratsiyalari farqi: $C_1 - C_2$, t_2 vaqtida esa $C_2 - C_3$, bunda $C_1 > C_2 > C_3$) har xil tezlikda borsa, reaksiyaning o'rinchcha tezligi $v_{reaksiya} = \frac{C_1 - C_3}{t_1 + t_2}$, agar mahsulot konsentratsiyasi o'zgarishi bo'yicha topilsa (t_1 da $C_2 - C_1$, t_2 da $C_3 - C_2$ bo'ladi, chunki $C_3 > C_2 > C_1$) $v_{reaksiya} = \frac{C_2}{t_1 + t_2}$ bo'ladi.

Kinetika – kimyoning reaksiya tezligini o'rjanadigan bo'limi.

Reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillar.

Reaksiya tezligi *reagentlarni tabiatiga bog'liq*: aktiv (faol) moddalar tezroq, passiv moddalar ust reaksiyaga kirishadi. M., Na havo kislorodi bilan tez oksidlanib yonib ketadi, Zn esa sekir oksidlanadi.

Moddalarning konsentratsiyalari, bosimi, temperaturasi ortishi bilan, katalizator ishlataliganda, qattiq moddalar eritilganda, maydalanganda, aralashirilganda reaksiya tezligi ortadi. M., sumalak tayyorlashda



Reaksiya tezligiga konsentratsiya ta'sirini *mussalar ta'siri qonuni* (1867- y., K.Guldberg, P.Vaage) ifodalaydi: reaksiya tezligi reagentlarning konsentratsiyasiga to'g'ri proporsional.

A) Gomogen reaksiya $N_{2(gaz)} + 3H_{2(gaz)} = 2NH_3$ uchun: $v_{reaksiya} = k[N_2][H_2]^3 = k \cdot 1mol/l \cdot (1mol/l)^3 = k$ Kvadrat qavsdagilar molyar konsentratsiyalar, k – *tezlik konstantasi (doimysi)*, ma'nosi: reagentlarning konsentratsiyalari 1 mol/l dan bo'lgandagi tezlikni bildiradi. U moddani tabiatiga bog'liq, lekin konsentratsiyaga bog'liq emas.

B) Geterogen reaksiya $C_{qui(ko'mir)} + O_{2(gaz)} = CO_2$ uchun $v_{reaksiya} = k[O_2] = kP(O_2)$, P- kislorodni parsial (xususiy) bosimi. Geterogen reaksiyaning tezligi qattiq moddani konsentratsiyasiga bog'liq emas, sirtiga bog'liq. Sh.u. qattiq modda maydalanganda sirti (yuzasi) organi uchun reaksiya tezlashadi. 8,153: lekin maydalanish darajasi ortib, modda talqon holatiga yetganda reaksiya susayib ketadi, sabab moddalar zichlashib molekulalarni to'qnashishlar soni kamayadi. P., sanoatda „qaynovchi qavat” hosil qilib bunday holatda ham reaksiyaning tezlatish mumkin (8,159). Pirit, temir kolchedani FeS₂ ni kuydirish), chunki moddalar aralashirilganda molekulalarni to'qnashishlar soni ortadi. Moddalar eritilganda ham shunday bo'ladi, chunki gomogen sistema h/b.

Reaksiya tezligiga temperaturaning ta'sirini Ya. Vant Goff qonuni ifodalaydi: temperatura har 10^0 ga ortganda reaksiyalar tezligi 2-4 marta ortadi:

$$\frac{r_2}{r_1} = \frac{v_{r_2}}{v_{r_1}} = \gamma^{\frac{M}{10}} = \gamma^{10} = \gamma^n \quad \text{Bu yerda } t_2 > t_1, r_2 - r_1 \text{ temperaturada, } r_2 - r_1 \text{ temperaturada}$$

reaksiyaga ketgan vaqtlar, ya'ni vaqtlar mos tezliklarga teskari proporsional. γ (gamma) – reaksiyani temperatura (harorat) koefisienti, u harorat har 10^0 oshganda reaksiya necha marta tezlashishini bildiradi. M., $\gamma = 2$ har 10^0 da reaksiya 2 marta tezlashishini bildiradi. Lekin testda M., har 30^0 da reaksiya 3 marta tezlashadi deyilgan bo'lsa

$\gamma = 3^{10}$ shaklda yoziladi. Temperatura oshganda reaksiyani tezlashishiga sabab moddalar qizdirilganda reaksiyaga kirishish uchun zarur bo'lgan aktivlanish energiyasini oladi.

X,120 A,138 Aktivlanish (faollanish) energiyasi, E_a deb moddani reaksiyaga kiri shishi uchun zarur bo'lgan energiyaga aytildi. Katalizator aktivlanish energiyasini kamaytirgani uchun reaksiya tezlashadi. Aktivlangan kompleks aktivlanish energiyasiga ega bo'lgan reagentlarni oraliq birikmasi.

A,140 1) Agar $E_a < 40$ kJ/mol bo'lsa, reaksiya juda tez boradi. M., portlash, yonish reaksiyalari. 2) Aktivlanish energiyasi $40 \text{ kJ/mol} < E_a < 120 \text{ kJ/mol}$ bo'lsa, reaksiya o'rta cha tezlikda boradi, ularni laboratoriya da o'r ganish mumkin. 3) $E_a > 120 \text{ kJ/mol}$ bo'lsa, reaksiya amalda bormaydi. Shunday qilib: *reaksiyani tezligi aktivlanish energiyasiga bog'liq*.

8,153 11,112-125 M,174-178 A,141-144 X,122-125 Kataliz T: 19-283 128-62

Katalizator – reaksiyani tezlashtiradigan, ammo o'zi o'zgarmay qoladigan modda (P., katalizator reaksiyada qatnashadi). Katalizator „parchalovchi“ tushunchasini Y.Berse lius kiritgan. $\text{H}_2\text{O}_2 \xrightarrow{\text{VMO}} \text{H}_2\text{O} + \text{O}_2$ $\text{KClO}_3 \xrightarrow{\text{VMO}} \text{KCl} + \text{O}_2$

Gomogen kataliz: $\text{SO}_{2(\text{gaz})} + \text{O}_{2(\text{gaz})} \xrightarrow{\text{VMO}} \text{SO}_3$

Geterogen kataliz: $\text{SO}_{2(\text{gaz})} + \text{O}_{2(\text{gaz})} \xrightarrow{\text{P}} \text{SO}_3$

Katalitik zaharlar – qattiq katalizatorni aktivligini yo'qotadigan moddalar. M., katalitik krekingda aluminiy silikat katalizatorini qurum qoplab ishlatmay qo'yadi, zaharlangan katalizatorni kuydirib aktivligi tiklanadi. Promotorlar – katalizatorni aktivligini oshiradigan moddalar. M., Pt ni aktivligini Fe va Al kuchaytiradi. Ingibitorlar (manfiy katalizatorlar) – reaksiyani sekinlatadigan yoki to'xtatadigan moddalar. M., $\text{H}_2\text{SO}_3 + \text{O}_2$

$\neq \text{H}_2\text{SO}_4$ reaksiyani glitserin to'xtatib qo'yadi. Fermentilar (enzimlar, biologik katalizatorlar) – katalizator xossalai oqsillar. Ular tirik organizmlardagi reaksiyalarni oddiy sharoitda minglab marta tezlatishi, o'ta tanlab ta'sir etishi (spesifikligi: E.Fisherni „qulf-kalit“ qoidasi, 1910 yillar) bilan anorganik katalizatorlardan farq qiladi.

Katalizatorlarning ta'sir mexanizmi 2 xil bo'ladi.



1) Katalizator (qattiq modda) sirtiga reagentlarni yutib (adsorbsiyalab) reagentlarning konsentratsiyasini oshiradi, natijada reaksiya tezlashadi. M., 1 sm^3 (1 ml) Pt sirtiga 600

ml H₂ ni yetadi, bu H₂ ni konsentratsiyasi 600 marta oshdi deganidir, sh.u. reaksiya tezlashadi.

2) Reagentlar katalizator bilan *oraliq birikma* hosil qiladi. Oraliq birikmaning aktivlaniş energiyasi reagentlarning aktivlaniş energiyasidan kichik bo'lgani uchun reaksiya tezlashadi. M., A, B reagentlar, K katalizator bo'lsa, A + B = AB reaksiyaga katalizator ta'sir ettirsak: 1b.) A + K = AK-oraliq birikma h/b. 2b.) AK + B = AB + K Bu yuqorida ko'rilgan gomogen katalitik reaksiyasi uchun quyidagicha bo'ladi. 1b.) O₂(A) + NO(K) → NO₂(AK) 2b.) NO₂(AK) + SO₂(B) → SO₃(AB) + NO(K). Bertole tuzini parchalanishi uchun: KClO₃(A) + MnO₂(K) → KCl(B) + O₂(C) + MnO₂(K). Etilen C₂H₄ ni H₂SO₄ katalizatorligida hidratlab etil spirit C₂H₅OH olish reaksiyasi uchun: CH₂ = CH₂(A) + HO-SO₂-OH(K) → CH₃ - CH₂ - O - SO₂OH(AK) $\xrightarrow{+HOH}$ CH₃CH₂OH(AB) + H₂SO₄(K).

33- dars. 28.11. 8,153-155 M,178-182 X,126-128 A,150-157 R,83 KM,22 **Kimyoiy muvozanat** T: 50-1 54-1-12 55-13-38 56-39-65 57-66-92 58-93-121 59-122-148

Kimyoiy muvozanat deb qaytar reaksiyalarda to'g'ri va teskari reaksiyalarni tezliklari tenglashgan holatga aytildi.



Qaytar ammiak sintezi reaksiyasi boshlangandan keyin N₂, H₂ lar to'g'ri reaksiyaga sarflanib miqdorlari kamaygani uchun to'g'ri reaksiyani tezligi $v_{to'g'}$ kamaya boshlaydi. Aksincha NH₃ miqdori ko'payda boshlagani teskarli NH₃ ni parchalanishi reaksiyasi tezligi v_{tes} orta boshlaydi Qandaydir τ vaqt o'tgach to'g'ri va teskari reaksiyalarni tezliklari tenglashadi. Mana shu holatga *kimyoiy muvozanat* deyiladi. Muvozanat paytida sharoit o'zgarmay tursa reaksiya da qatnashayotgan moddalarning konseentratsiyalari – *muvozanat konseentratsiyalari* deyiladi va ular ham o'zgarmasdan turadi, ya'ni go'yo qaytar reaksiya to'xtagandek bo'ladi. Aslida muvozanat paytida reaksiyalar to'xtamaydi, balki ammiakni hosil bo'lish va parchalanish reaksiyalar – to'g'ri va teskari reaksiyalar tezliklari tenglashadi. Sh.u. kimyoiy muvozanat *dinamik muvozanat* deyiladi.

Endi muvozanatga tegishli formulalarni keltirib chiqaramiz.

1) *Gomogen reaksiya* uchun. NH₃ sintezi qaytar reaksiyasi gomogen reaksiya bo'lgani uchun to'g'ri va teskari reaksiyalar tezliklari massalar ta'siri qonuni bo'yicha quyidagicha bo'ladi: $v_{to'g'} = k_{to'g'} [N_2][H_2]^3$, $v_{tes} = k_{tes}[NH_3]^2$ Muvozanat paytida $v_{to'g'}$ bo'lgani uchun: $k_{to'g'} [N_2][H_2]^3 = k_{tes}[NH_3]^2$ Bundan to'g'ri va teskari reaksiyalar tezlik konstantalarini nisbatli berilgan sharoit uchun o'zgarmas son bo'lib, qaytar reaksiyani *kimyoiy muvozanat konstantasi (doimiysi)*, K deyiladi: $K = \frac{k_{to'g'}}{k_{tes}} = \frac{[NH_3]^2}{[N_2][H_2]^3} = \frac{P^2(NH_3)}{P(N_2) P^3(H_2)}$ Bu yerda kvadrat qavslarda muvozanat konseentratsiyalar mol/l da berilgan. Gazlar uchun

konsentratsiya P-bosimiga proporsional bo'lgani uchun konsentratsiyalar o'miga tegishli parcial (xususiy) bosinlarni qo'yish mumkin.

2) **Geterogen reaksiya uchun.** Ko'mirdan CO olish qaytar reaksiyasida $C_{\text{gas}} + CO_{2(\text{gaz})} \rightleftharpoons 2CO$ da to'g'ri reaksiya geterogen reaksiya, chunki ko'mir va CO_2 bir-biridan sirt bilan ajralgani uchun: $v_{\text{gas}} = k_{\text{kes}} [CO_2]$, $v_{\text{kes}} = k_{\text{kes}} [CO]^2$ bo'ladi, bundan muvozanat doimiy-si. $K = \frac{[CO]^2}{[CO_2]} = \frac{P^2(CO)}{P(CO_2)}$

K – muvozanat doimiysi reaksiyada qatnashayotgan moddalarni tabiatiga va temperaturaga bog'liq, lekin konsentratsiya, bosimga bog'liq emas. K qancha katta bo'lsa to'g'ri reaksiyani unumi – mahsulotni unumi shuncha yuqori bo'ladi.

M. 2 l idishda 2 mol N_2 , 6 mol H_2 aralashtirilgan. Reaksiyaga H_2 ni 10% kirishganda muvozanat holati hosil bo'ldi. Moddalarni muvozanat konsentratsiyalarini, muvozanat doimiysini toping.

P.: Yechish. Dastlab reagentlarni dastlabki (boshilang'ich) konsentratsiyalarini (DK larni) topamiz: $C(N_2) = n/V = 2/2 = 1 \text{ mol/l}$, $C(H_2) = 6/2 = 3 \text{ mol/l}$. Reaksiyaga kirishgan H_2 ni konsentratsiyasi (RK): $3 \cdot 0,1 = 0,3 \text{ mol/l}$ bo'ladi. Unga qarab reaksiya tenglamasi asosida azotni qanchasi reaksiyaga kirishganini va hosil bo'lgan NH_3 ni konsentratsiyasini topish mumkin. RK: $C(N_2) = 0,3 \cdot 1/1 = 0,1 \text{ mol/l}$, $C(NH_3) = 0,3 \cdot 2/3 = 0,2 \text{ mol/l}$. Reaksiyaga „kiringmasdan” qolgan muvozanat konsentratsiyalarini (MK larni) topish uchun DK lardan RK larni ayiramiz. MK: $C(N_2) = 1 - 0,1 = 0,9 \text{ mol/l}$, $C(H_2) = 3 - 0,3 = 2,7 \text{ mol/l}$, $C(NH_3) = 0,2 \text{ mol/l}$ bo'ladi. Reaksiyaning muvozanat doimiysi:

$$K = \frac{[NH_3]^2}{[N_2][H_2]^3} = \frac{0,2^2}{0,9 \cdot 2,7^3} = 0,04/17,7 = 0,002 = 2 \cdot 10^{-3}$$

Muvozanatni siljитish. A.Le Shatele prinsipi (P., aks ta'sir yoki gomeostaz) T: 69-374

Sanoatda qaytar reaksiyalarni amalgalashirishda mahsulot unumini oshirish, ya'ni muvozanatni mahsulot tomonga siljитish katta ahamiyatga ega. Qaytar reaksiya muvozanatini kerakli tomonga siljитish Le Shatele prinsipi (1884-y.) yordamida topiladi: *muvozanatda turgan sistemaga biror ta'sir qilinsa (temperatura, bosim yoki konsentratsiya o'zgartirilsa), muvozanat shu ta'sirni kamaytiruvchi reaksiya tomonga siljidi*. Qaytar reaksiyaning qaysi tomonidagi moddalar ko'paysa muvozanat shu tomonga siljigan bo'ladi. M., ko'rileyotgan qaytar reaksiyada sharoit o'zgartirilganda NH_3 miqdori ko'paysa, muvozanat mahsulot - NH_3 , tomonga yoki o'ng tomonga siljidi deyiladi, chunki to'g'ri reaksiyani tezligi teskari reaksiyani tezligidan ortib ketadi: $v_{\text{kes}} > v_{\text{gas}}$.

Endi NH_3 olish Q - $\text{N}_2 + 3\text{H}_2$ (J:4ta molekula) $\xrightarrow{\text{Q}} 2\text{NH}_3$ (J.2ta molekula) + Q qaytar reaksiyasida tashqi sharoit omillari o'zgarganda muvozanatni qaysi tomonga siljishini Le Shatele prinsipi yordamida aniqlashni ko'rib chiqariz.

1) Bosim ta'siri. Bosim molekula soniga proporsional bo'lgani uchun reaksiyani chiq tomonida bosim yuqori bo'ladi, ya'ni to'g'ri reaksiya natijasida bosim kamayadi. Sh.u. agar bosimni oshirsak (+P) (yoki hajmni kamaytirsak: -V) muvozanat Le Shatele prinsipi bo'yicha bosim kamayish tomoni- o'ng tomonga siljiyi (\rightarrow), natijada mahsulot NH_3 ko'payadi ($+[\text{NH}_3]$) yoki N_2 , H_2 kamayadi ($-[\text{N}_2, \text{H}_2]$). Aksincha bosimni kamaytirsak (-P) (yoki hajmni oshirsak+V) muvozanat bosim ortish tomoni-chapga siljiyi (\leftarrow), NH_3 ni parchalanishi kuchayib miqdori kamayadi ($-[\text{NH}_3]$)), N_2 va H_2 miqdori ortadi ($+[\text{N}_2, \text{H}_2]$).
 $+ P(-V) \xrightarrow{\text{man o'qib}} + [\text{NH}_3], - P(+V) \xleftarrow{\text{man chiqar}} - [\text{NH}_3]$

2) Temperatura ta'siri. Temperaturani oshirsak – reaksiyani qizdirilsa (+T), Le Shatele bo'yicha muvozanat sovish tomonga – chapga siljiyi (\leftarrow), aksincha sovutsak (-T) muvozanat isish tomonga – o'ngga siljiyi (\rightarrow): $+T \leftarrow, -T \rightarrow$

3) Konsentratsiya ta'siri. Azot, vodorod miqdorini ko'paytirilsa yoki hosil bo'lgan ammiakni biror yo'l bilan (X,263 Sanaotda NH_3 sintezida sovutgichda bosim ostida NH_3 ni sovutilganda suyuqlanib reaksiyon gazlar aralashmasidan ajraladi) reaksiyadan chiqarib yuborilsa – miqdori (~konsentratsiyasi) kamaytirilsa, muvozanat aks ta'sir bo'yicha N_2 , H_2 ni kamaytirish NH_3 ni ko'paytirish tomoni – o'ng tomonga siljiyi (\rightarrow). Aksincha yuqorida aytilgan konsentratsiyalar teskarisiga o'zgartirilsa: N_2 , H_2 kamaytirilsa, NH_3 ko'paytirilsa muvozanat chapga siljiyi (\leftarrow): $+[\text{N}_2, \text{H}_2], -[\text{NII}_3] \rightarrow, -[\text{N}_2, \text{H}_2], +[\text{NH}_3] \leftarrow$. Laboratoriya tajriba o'tkazishda konsentratsiyaning o'zgartirishdan foydalanib qaytar reaksiyani kerakli tomonga yo'naltiriladi, chunki laboratoriya yuqori bosim yoki temperaturani hosil qilish qiyin.

4) Katalizator ta'siri. Katalizator muvozanatni siljitmaydi, lekin muvozanatni tezroq hosil bolishiga yordam beradi (rasmda bu vaqt t_m bilan ko'rsatilgan), chunki to'g'ri va teskari reaksiyalarni birdek tezlatadi: $\pm KAT = const$ (muvozanat o'zarmaydi).

Yuqoridagi larni hisobga olib sanoatda ammiak sintezi (X,262) yuqori bosimda, katalizator ishtirokida, $400\text{-}500^\circ\text{C}$ da o'tkaziladi. Temperatura bundan past bo'lsa reaksiya bormaydi, chunki azot molekulasi juda barqaror-atomlari uch bog' bilan bog'langan.

P. Reaksiyalarni xarakterini va mahsulotlarni barqarorligini bashoratlash

Bu haqda men „Совет мактаби” ni 1989- yil, N4 sonida „Моддаларнинг тузилишини ва хоссаларини башорат килиш” maqolamda yozganman. Reaksiyalar xarakterini (tezligi, qaytar –qaytmasligini, issiqlik effektini) va reaksiya mahsulotlari barqarorligini

bashoratlash uchun soddalashtirilgan ushbu qoidani ishlatsa bo`ladi: *Reaksiyaga kirishayotgan moddalar bir-biridan qarama-qarshi xossalari (metallik-metallmaslik, asoslik-kislotalik, qaytaruvchilik-oksidlovchilik) bilan qancha katta farq qilsa, ya`ni qarama-qarshi xossalari qanchalik kuchli bo`lsa, moddalarning o`zaro reaksiyalari shunchalik tez boradi. shunchalik qaytmas ekzotermik bo`ladi, reaksiya mahsulotlari esa shunchalik barqaror bo`ladi* Qoidani isbotlash uchun galogenlarni vodorod bilan reaksiyalari ko`rsatgichlarini keltiraman.

	HI	HBr	HCl	HF
Q, kJ	-53	72	184	542,
	reaksiyalarning issiqlik effekti oshadi			
$\Delta G^\circ, \text{kJ/mol}$	1,78	-51,2	-94,79	-272,8
	reaksiyalarning qaytmashgi, tezligi ortadi			
$\Delta H^\circ, \text{kJ/mol}$	298,3	362,5	431,6	565,7
	reaksiya mahsulotlarni barqarorligi ortach vodorodu metallmaslik xossasi b-n galogenlarni metallmaslik xossasi orasidagi farq ortadi			
ΔG° -standart h/b Gibbs energiyasi, ΔH° -bog'larmi tashish energiyasi				

34- dars. 01 / 12. Test.yechish

II qism. ANORGANIK KIMYO

VII bob. METALLARNING UMUMIY XOSSALARI

35- dars. 03.12. 9,49 11,126 M,195 X,306-311 A,323-327 R,95 **Metallar** T: 6-103
12-348 70-434,435 116-18-21,23-26,32,34,39,46,49,51,53-46 117-67-75,77-88,90,92-
94 118-97-100,102,103,106,107,109-114,116-118,122-124,127,129,131-133,136-141
119-143,146-152,163,164,168-170,174-178 120-185-188,190,194-201,203-210,216,218
F21-219-225,246,253-255 122-256,257,266,268-270,273,275,276,281,281,285,291.
300,301 123-304,305,307,309,311

Javriy sistemadagi 109 (118) ta elementdən 22 tasi metallmas, 87(96) tasi metallardır. Metallmasları 20 tasi p-element, 2 tasi s-element (H, He). Metallarga IA, IIA gruppachaları s-elementləri, IIIA – VIA gruppachalaradagi p-elementlərinin bir qismi, qo'shıncha gruppachalaradagi d,f-elementlərinin hamması kiridi.


9,49 Qadimdan 7 ta metall mə'lum: Au, Ag, Cu, Fe, Sn, Pb, Hg. Lekin VII ranglı ilova jadvalı bo'yicha 10 ta metall mə'lum bo'lgan (+ Zn, Bi, Pt), bu to'g'ri mə'lumot, metallmaslardan esa 4 ta: S, Sb, As, C mə'lum bo'lgan.

9,54 X,307 A,326 Metallarning fizikaviy xossalari

Fr va Hg dan boshqa barcha metallar oddiy sharoitda qattiq moddalar, metall KP li bo'ladi. M,109. Metallarni KP lari 3 xil bo'ladi: 1) Hajmiy markazlashgan kub (8+1 = 9 ta atom); 2) Yon tomonlari markazlashgan kub (8+6 = 14 ta atom); 3) Geksagonal panjara (7+7+3 =

17 ta atom).

Shamitga qarab bitta metallning o'zi har xil KP hosil qilishi mumkin. Ularni har biri allotropik shakl bo'ladi. M., Fe da α , γ shakllar bor.



Metallarning issiqlik (elektr) o'tkazuvchanlik qatori: Ag,Cu,Au,Al,Mg, Zn, Fe, Pb, Hg

Metallarning plastiliklik (yumshoqlik) qatori: Au, Ag, Cu, Sn, Pb, Zn, Fe. I gruppadan VI gruppaga tomon metallarning qattiqligi ortib boradi. Eng qattiq metallar Cr,W. Eng yumshoq metallar Li, K, In.

Yaltiroqlik bo'yicha Ag birinchi o'rinda, sh.u. Ag ko'zgularga qoplashda ishlataladi. 9,51. Ag, In projektorlarning reflektorlarini tayyorlashda ishlataladi.

Zichligi 5 dan kichik metallar *yengil metallar* (ishqoriy metallar; Ca, Mg, Al, Ti), zichligi 5 dan katta metallar *og'ir metallar* deyiladi. M., Fe (7,8), Zn, Cu, Cr, Hg (13), Au (19), Pb (11), Os (22,5). Eng *og'ir metall* Os (22,5), eng *yengil metall* Li (0,5).

Suyuqlanish temperaturasi 1000°C dan past bo'lgan metallar *oson suyuqlanuvchan* (Al, Zn, Mg, Pb, Sn), 1000°C dan yuqori bo'lganlari *qiyin suyuqlanuvchan* (W, Cu, Cr, Fe, Mo) metallar deyiladi. Eng oson suyuqlanuvchan metall Hg (-39°C), eng qiyin suyuqlanuvchan metall W (3400°C).

Fe va uning qotishmalari (cho'yan, po'lat) *qora metallar*, qolgan barcha metallar *rangli metallar* deyiladi. Aslida Au sariq, Cu qizil, qolgan barcha metallar oq kumushsimon rangli.

Qadimda *asl metallar* - Cu, Ag, Au dan pul (tanga) tayyorlangan. Nodir metallari deb zargarlikda ishlatalidigan, ta'sirlarga chidamli metallarga aytildi. M., Ag, Au, Pt, Pd. *Noyob metallar* - tabiatda kam tarqalgan va boshqa metallardan xossalari bo'yicha keskin farq qiladigan metallardir: lantanoidlar, aktinoidlar, W, V, Mo, Nb, Ra, Th, Ta. Tabiatda kam tarqalgan elementlar *siyrak-yer elementlar* ham deyiladi.

M,254 (2002- yilgi nashri) Metallarning (moddalarining) magnit xossalar


Metallar (moddalar) magnit xossalariga ko'ra 3 xil bo'ladi. 1) *Paramagnitlar* yakka elektronlari hisobiga magnit maydoniga ega bo'lgan, magnitiga tortiladigan metallar (IA, IIA gruppachalar metallari, siyrak-yezi elementlar, Al, Pt) kiradi. Kislorod ($7,61$ rasm) molekulyar orbitallar metodi bo'yicha yakka elektronlarga ega, sh.u. paramagnit xossali. Azotni radikal tabiatli oksidlari: $\cdot\text{NO}$, $\cdot\text{NO}_2$ (M,263) toq elektronlari borligi uchun magnitga tortiladi (137-138- betlar). *Radikal* yakka elektronli zarracha.

2) *Diamagnitlar* -- barcha elektronlari juftlashgan, sh.u. magnit maydoni yo'q, magnitga tortilmaydigan moddalar. M., inert gazlar, suv, shisha, ko'pchilik organik moddalar, IB, IIB, IIIA gruppachalar metallari, lekin Al kirmaydi.


3) *Ferromagnitlarga* Co, Ni, Fe va uning oksidlari: Fe_2O_3 , Fe_3O_4 (magnitosh) kiradi. Ular magnitonofon lentalariga qoplangan, doimiy magnitlar tayyorlashda ishlataladi. Magnit maydoni juda kuchli, chunki ularda atomlarning magnit maydonlari parallel joylashgani uchun bir-biriga qo'shilib kuchayib ketadi. Fizika bo'yicha tashqi magnit maydonini: biroz kuchaytiradigan moddalar -- *paramagnitlar*, biroz susaytiradigan moddalar -- *diamagnitlar*, yuzlab, minglab marta kuchaytiradigan moddalar -- *ferromagnitlar* deyiladi. P.: IIA, IB, IIIA metallarining atom tuzilishi bilan magnit xossalarining mos kelmasligi sababi KP tuzilishida bo'lsa kerak, chunki magnitdanish KP ga ham bog'liq.

9,55 11,131-134 X,309 A,324 Metallarning kimyoiy xossalari


Metallar oddiy modda holida reaksiyalarda faqat qaytaruvchi bo`ladi.



2) Metallar metallmaslar bilan birikadi (1- qatordagilar: tuzlar).




3) Aktivlik qatoridagi vodoroddan oldindagi metallar kislotalardan (HNO_3 dan boshqalaridan) H_2 ni siqib chiqaradi.




4) Aktivlik qatoridagi oldindagi metall o`zidan keyindagi metallini tuzidan siqib chiqaradi.



5) Ishqoriy, ishqoriy-yer metallar suvdan H_2 ni siqib chiqarib ishqor h/q. Aktivligi o`rtacha metallar: Fe , Mg , Zn qizdirilganda suv bilan ta`sirlashib oksid, H_2 h/q.



6) Amfoter metallar kislotalar, ishqorlar bilan ta`sirlashib tuz va suv h/q.



Metallar o`zaro r/k intermetall birtkmalar h/q. Ular bertollidlar, ya`ni tarkibi o`zgaruvchan bo`lgani uchun valentlik bilan formulasini yozib bo`lmaydi: NiSb , Ni_4Sb

9,49 11,128 **Tabiatda uchrashi.** Aktivlik qatorida Al gacha joylashgan metallar aktiv bo`lgani uchun tuzlar shaklida (NaCl , CaSO_4), Al dan H_2 gacha joylashgan o`rtacha aktivlikdagi metallar oksidlar, sulfidlar, sulfatlar shaklida (Fe_2O_3 , FeS_2 , $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$), H_2 dan keyindagi passiv metallar erkin (yombi) shaklida (Cu , Ag , Au) uchraydi.

9,50 11,128 X,316 A,328 Metallarni olish usullari

Ruda – metall olishga yaroqli bo`lgan minerallar. Mineral – tabiatda uchraydigan anorganik modda. Polimetall ruda tarkibida bir nechta metall tutgan ruda. Metallurgiya – metallarni olish sanoati. Qora va rangli metallurgiya bor.

Metallarni olish usullari asosan 3 xil: 1) pirometallurgiya; 2) gidrometallurgiya; 3) elektrometallurgiya.


1) *Pirometallurgiyada* metallar birikmalaridan issiqlik ta'sirida qaytaruvchilar yordamida olinadi va quyidagi xillari bor:

a) *Karbotermiya* - C (koks, ko'mir), CO is gazi yordamida qaytarish.




P., OQR larni balans yozmasdan quyidagicha fikrlab og'zaki tenglashtirish mumkin: 2 ta Fe ga +3 dan 0 ga o'tishi uchun jami 6 ta elektron kerak; 6 ta elektronni Fe ga berish uchun jami 3 ta CO dagi C +2 dan +4 ga o'tish uchun 2 ta elektron beradi: $\text{Fe}_2\text{O}_3 + 3\text{CO} = 2\text{Fe} + 3\text{CO}_2$.


Agar metall sulfidlar shaklida bo'lsa, dastlab sulfidni kuydirib oksidga aylantiriladi, keyin oksiddan metall olinadi.



b) *Metallatermiya* – metallarni birikmalaridan aktiv metallar bilan siqib chiqarish.




c) *Kremniytermiya* – metallarni birikmalaridan Si yordamida ajratib olish.




d) *Vodorodtermiya* – metallarni (W, Co, Cu, Mo) oksidlaridan H₂ yordamida qaytarib olish.



e) Passiv metallarni birikmalarini qizdirib parchalash usuli.



2) *Gidrometallurgiya* – metall birikmalarini suvda eriydigan tuzlarga aylantirib, yuqori haroratsiz eritmalaridan metallni ajratib olish.




3) Elektrometallurgiya – asosan aktiv metallarni (ishqoriy, ishqoriy-yer metallar, Al) tuzlarini suyuqlanmalaridan vakuumda suv, havo tekkizmay elektroliz qilib olish.



9,55 11,127 M, 145-152 X, 313-316 A, 220-232 Metallarning elektrokimyoviy kuchlanish qatori (metallarning aktivlik qatori, metallarning standart elektrod potensiallari qatori, N.N.Beketov qatori) T: 67-318 115-4 116-29 117-61 118-101, 104, 105, 119-121, 125, 126, 128 121-231, 232 122-258 127-43

Metallni tuzini eritmasiga botirliganda metall-eritma chegarasida qo'sh elektr qavatda (st.sh.da E^0 – standart potensiali neytral sharoitda suvni standart potensiali -0,41V dan kichik metallar manfiy, katta metallar musbat zaryadlanadi) hosil bo'lgan potensiallar ayirmasi $\varphi_1 - \varphi_2 = E_{\text{oks/qay/Zn}^{2+}/Zn^0}$ elektrod potensiali deyiladi. Potensial, φ - birlik zaryadga to'g'ri kelgan potensial energiyadir: $\varphi = P/q$. P- potensial energiya, q-zaryad miqdori. $Zn^{(pl.)} - 2e \leftrightarrow Zn^{(ert.)}$ elektrod reaksiya qay shakli oks.shakli deyiladi.





Elektrod potensiali $E_{\text{oks/qay}}$ metallni tabiatiga, eritmadagi metall ioni konsentratsiyasiaga, temperaturaga, eritma pH iga bog'liq. Bu bog'lanishni *Nernest formulasasi* ifodalaydi:

$$E_{\text{oks/qay}} = E^0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{[\text{oks}]}{[\text{qay}]}, \text{ bu yerda } n-\text{OQR da olingan (berilgan) elektron soni; } F - \text{Faraday soni} = 96500 \text{ KJ; } \ln (\text{natural logarifm}) = 2,3 \cdot \lg; E^0 - \text{standart elektrod potensiali standart sharoitda (st.sh.: } 25^\circ\text{C} = 298^\circ\text{K; 101,3 kPa), metall botirligan tuz eritmasida metall ionini konsentratsiyasi 1 mol/l bo'lganligi elektrod potensiali. Ko'rيلayotgan reaksiya uchun standart potensial } [Zn^{2+}] = 1 \text{ mol/l da } \lg 1 = 0 \text{ bo'lgani uchun}$$

$$E_{Zn^{2+}/Zn^0} = E^0 + \frac{0,059}{n} \lg \frac{[Zn^{2+}]}{[Zn]} = E^0 \text{ bo'ladi.}$$

Standart potensialni o'lchanadi uchun standart vodorod elektrod (SVE, M, 146) bilan galvanik element hosil qilinadi va galvanometr yordamida elektrod potensiali o'lchanadi: $E_{Zn^{2+}/Zn^0}^0 = -0,76\text{V}$. Bu yerda quyidagi OQR yuz beradi:



V tengligi aniqlanadi, ya`ni SVE ga nisbatan aktivlik qatorida vodoroddan oldindagi metallar manfiy (qaytaruvchi), keyindagi metallar musbat zaryadli (oksidlovchi) bo`ladi. Agar Zn, Cu elektrodlardan galvanik element hosil qilinsa OQR quyidagicha borib, unda 1,1 V elektr yurituvchi kuch - ΔE (EYUK) h/b: $Zn_{\text{qay}}^0 + Cu_{\text{aks}}^{+2} \rightarrow ZnSO_4 + Cu^0$, chunki $+0,34 \text{ V} > -0,76 \text{ V}$, ya`ni Zn ni qaytaruvchiligi-elektronni berishi Cu dan kuchli yoki Cu^{2+} ionini oksidlovchiligi-elektronni tortishi Zn^{2+} ionidan kuchli. $\Delta E = E_{\text{akt.chi}}^0 - E_{\text{qay.chi}}^0 = E_{Cu^0}^0 - E_{Zn^{2+}, SO_4}^0 = 0,34 \text{ V} - (-0,76 \text{ V}) = 0,34 + +0,76 = 1,1 \text{ V}$.

Metallarning standart potensiallari ortishi tartibida joylashtirilgan qatori metallarning standart potensiallar qatori yoki metallarning elektrokimyoiy kuchlanish qatori deyiladi(9,56). Qatorda erkin holatdagi metallar qancha oldinda joylashgan bo`lsa shuncha qaytaruvchilik xossasi kuchli bo`ladi, lekin metall ioni qatorda qancha keyinda joylashgan bo`lsa uni oksidlovchilik xossasi shuncha kuchli bo`ladi. M., Li atomi eng kuchli qaytaruvchi, Au^3+ ioni eng kuchli oksidlovchi. Aktivlik qatoridagi o`rn bo`yicha Li ni K, Na dan kuchliligi faqat suvli eritmalar uchun to`g`ri, boshqa holatlarda davriy sistemadagi o`rn bo`yicha Li metalligi K, Na dan kuchsizdir.

Qatorda H_2 dan oldindagi- qaytaruvchiligi H_2 dan kuchli metallar kislotalar eritmalaridan (ba`zi hollarda vodorod emas boshqa gazlar chiqadi, I qism, 45- bet) H_2 ni siqib chiqaradi: $Zn_{\text{qay}}^0 + 2HCl \rightarrow ZnCl_2 + H_2 \uparrow$ Qatorda oldinda turgan metall o`zidan keyindagi metallni tuzidan siqib chiqaradi: $Cu_{\text{qay}}^0 + Hg(NO_3)_2 \rightarrow Cu(NO_3)_2 + Hg$ Lekin magniyidan chapda turgan ishqoriy, ishqoriy-yer metallar tuzlarni eritmalaridan metallni emas vodorodni siqib chiqaradi, chunki tuz bilan emas eritmadagi suv bilan r/k. $K + AlCl_3(\text{ert}) \neq, K + HOH = KOH + 0,5H_2 \uparrow$.

Metallar qatorda qancha bir-biridan uzoq joylashsa, ularni juftidan hosil bo`lgan galvanik elementni volti (EYUK) shuncha katta bo`ladi:


$$\Delta E = E_{Ag-Ag}^0 - E_{Mg-Li-Mg}^0 = 0,8 - (-2,34) = 0,8 + 2,34 = 3,14 \text{ V.}$$

M,151-152 A,222-227 Umuman har qanday OQR da qatnashayotgan qaytaruvchi va oksidlovchini bir-biridan ajratib, ularni eritmalariga inert elektrodlarni (M., grafit) tushirib galvanik element hosil qilish yoki SVE yordamida standart potensialini aniqlash mumkin (M,152 jadval). Moddalarni oksidlangan va qaytarilgan ionlarini tutgan eritmalar bilan inert elektrod chegarasida paydo bo`lgan potensial oksidlanish-qaytarilish potensiali deyiladi. Bu potensial qancha katta bo`lsa moddaning oksidlovchiligi shuncha kuchli, aksincha potensiali qancha kichik bo`lsa moddaning qaytaruvchiligi shuncha kuchli bo`ladi.

OQR da qatnashayotgan moddalarning standart oksidlanish-qaytarilish potensiallarini solishtirib ko'rib: a) qaysi modda oksidlovchi yoki qaytaruvchi bo'lishini va ularni kuchi ni; b) OQR yo'nalishini; c) konsentratsiya, pH, temperaturani o'zgartirish orqali OQR yo'nalishini o'zgartirishni; d) hosil bo'lgan galvanik elementni EYUK ni aniqlash mungkin. M., $2\overset{0}{Fe} \overset{3}{Cl}_3 + 2K \overset{1}{I} \rightleftharpoons 2\overset{2}{Fe} \overset{2}{Cl}_2 + \overset{0}{I}_2 + 2KCl$ reaksiyasi standart sharoitda o'ngga qarab boradi, chunki Fe³⁺ ioni oksidlovchiligi I₂ dan kuchli: $E_{Fe^{3+}/Fe^{2+}}^0 = + 0,77 V > 0,53 V$
 $E_{0,I_2/I}^0$. Agar shu reaksiyaga mos galvanik element hosil qilinsa, uni EYUK: $\Delta E = + 0,77 - (+ 0,53) = 0,77 - 0,53 = 0,24 V$ bo'ladi.

M.149 A.227-231 Galvanik element deb OQR energiyasini elektr energiyasiga aylaniradigan asbobga aytildi. Galvanik elementda elektrodlarni nomlanishi elektrolizga teskari bo'ladi (X,320). M., Zn-Cu li galvanik elementda aktiv Zn-anod („aktivniy anod“), passiv Cu katod bo'ladi. Galvanik elementlar 2 xil bo'ladi: 1) *Qaytmas galvanik elementlar (quruiq elementlar yoki batareyalar; A.230 rasm)*

$\overset{0}{Zn} \overset{\text{12V}}{\underset{\text{diaphragma}}{\text{+}}} \overset{4}{MnO_2} + 2NH_4^+ \rightarrow \overset{2}{Zn^{2+}} + \overset{2}{Mn(OH)_2} + 2NH_3$, 2) *Qaytar galvanik elementlar (akkumulyatorlar; A.231 rasm)*. Akkumulyatorlar 2 xil bo'ladi: kislotali (Pb li) va ishqorli.



36-dars. 05.12. 9,52-54 11,157-161 A.327 X,311 Qotishmalar

T: 7-118,119 11-311 12-332,333,336 16-185 17-233 120-215 121-243 131-177

Qotishmalar deb, suyuqlantirilgan metallda boshqa metallar, metallmaslar, murakkab moddalarning erishidan hosil bo'lgan eritmalariga aytildi. Qotishmalarni olishdan maqsad metallarning xossalari yaxshilashdir.

Qotishmalar xossalari qarab: 1) qattiq va yumshoq; 2) qiyin va oson suyuqlanuvchan; 3) ishqor va kislotaga chidamli turlari bo'ladi.

Kristall tuzilishiga qarab: 1) *gomogen qotishmalar (qattiq eritmalar)*, atom radiuslari o'xshash metallar aralashtirilganda h/b, sovitilganda ham bir jinsligicha qoladi; 2) *geterogen qotishmalar*, atom radiuslari keskin farq qiladigan metallar aralashtirilganda h/b, sovitilganda metallar qotishmani ichida kichik kristallar shaklida ajralib, qoladi; 3) *intermetall (metallararo) qotishmalar intermetallidlar*, NEM lari bir-biridan keskin farq qiladigan metallarni turli ekvivalent miqdorlarda o'zaro ta'sirlashib hosil qilgan kimyoiy birikmalar. M., CuZn, Cu₅Zn₈, Cu₃Al. Fe va Pb bir-biriga aralashmaydi, qotishma hosil qilmaydi.

Qotishmalar tarkibiy qismlari (komponentlari) soniga qarab *ikkilamchi*, *uchlamchi* va *hokazoli* bo`ladi. Qotishmalar olinish texnologiyasiga qarab: 1) *quyma (deformasiyalanmaydigan)*, M., cho`yan (Fe + C 2,14% dan ko`p); 2) *deformasiyalanadigan*, M., po`lat (Fe + C 2,14% dan kam) bo`ladi.

Qotishmalarga misollar

1) *Po`latlar (Fe C 2,14% dan kam):* a) *zanglamaydigan po`lat (xromli po`lat)* – Fe 84%, Cr 12%, C 0,3%. M., zanglamaydigan pichoq, qoshiqlar. b) *marganesli po`lat* Fe 83%, Mn 12%, C 1%. Qattiq, mexanik pishiqlik. M., shesternalar olishda. c) *volframli po`lat* – Fe 70-85%, W 12-23%, Cr 2-6%, C 0,5-0,6%. Qattiq, o`tga chidamli. M., tezkesar asboblar olishda. d) *kremniyli po`latlar (9,40)*: 4% Si lisi *elektrotexnik po`lat* – oson magnitlanadi, transformatorlar, elektrosvigatellar, generatorlar olishda: 16%≤Si lisi *kislotaga chidamli po`lat* kimyo sanoati uskunalarini olishda. e) *nixrom po`lat* Ni 67%, Fe 16%, Cr 15%, Mn 1,5%. Elektr qizdirgichlar spirallarini olishda.

2) Mis qotishmali: a) *qadimgi bronza* – Cu + Sn qotishmasi, 5000 yil ilgari ma`lum bo`lgan(bronza asri); b) *berilliyl bronza* Cu 99%, Be 1%, misdan 7 marta qattiq; c) *jez* Cu 60%, Zn 40%, asbobsozlik, motorsozlikda, qadimgi tangalar, sirg`alar; d) *neyzelber* Cu 65%, Zn 20%, sariq tangalar; e) *melxior* Cu 80%, Ni 19%, Fe 1%, oq tangalar.

Bakterial o'g'itlar deb tuproq tarkibiga kiradigan mikroorganizmlarni tutgan o'g'itlarga aytildi. *Nitrogen o'g'itida* dukkakli o'simliklarda uchraydigan tugunak bakteriyalar bo'ladi. *Fosfobakterin o'g'itida* chirituvchi fosfobakteriyalar bo'ladi. *Azotogen va azotobakterin o'g'itlarida* havodagi erkin azotni o'zlashtiradigan bakteriyalar bo'ladi.

Ammonifikatsiya – tuproqdagi organizmlarning qoldiqlari tarkibidagi oqsillarni chirittuvchi bakteriyalar ta'sirida NH_3 hosil bo'lishi. *Nitrifikatsiya* ammiakni xemosintezlovchi bakteriyalar ta'sirida NO_2 , NO_3 ga aylanishi:



O'g'it tarkibidagi oziq elementlarni foizini hisoblash. Azotli o'g'itda oziq element sifatida N ni, fosforli o'g'itda P_2O_5 ni, kaliyli o'g'itda K_2O ni foiz miqdorlari topiladi.



Topshiriq: 8,193 dan „Biogen elementlar va ularning tirik organizmlardagi ahamiyati”ni, 8,197 dan „Ba'zi mineral o'g'itlarning umumiy tavsifi” ni o'qish.

XVI bob. UGLEROD GRUPPACHASI. BOR.

52- dars. 14.01. 9,26 11,172 M,272 X,280 A,391 IVA - Uglerod gruppachasi
T: 85-5 87-65 105-372

IVA gruppachaga metallmaslardan C, Si, metallardan Ge, Sn, Pb kiradi. Barchasi p-elementlar: ns^2np^2 Shu elektron tuzilishga mos ravishda birikmalarida -4, +2, +4 OD li, II, III, IV valentli bo'ladi. Oksidlari RO, RO_2 , vodorodli birikmalari RH₄.

Vodorodli birikmalarini barqarorligi tepadan pastga qarab kamayib boradi, ular kislota yoki asos xossasiga ega emas. Bunga sabab: 1) H b-n NEM yaqinligi uchun C – H, Si – H bog'lari kam qutblangan; 2) CH_4 , SiH_4 simmetrik qutbsiz molekulalar bo'lgani uchun suvni qutbli molekulalari b-n tortisha olmaydi: H⁺, OH⁻ hosil bo'lmaydi. 3) P., C₂ si yo'qligi uchun H⁺ ni biriktirolmaydi.

Kislородли кислоталарини кuchi tepadan pastga qarab kamayadi, chunki metallik kuchayadi. M., silikat kislota - H_2SiO_3 karbonat kislota – H_2CO_3 dan kuchsiz. Qolgan gidrosidlari amfoter xossalidir.

9,27-33 11,172 M,278 X,282-286 A,393-397 R,110 KM,49 Uglerod T: 7-138
8-190 9-219 10-263 18-240 37-409 47-38,39,53 49-127,130 103-321 112-10 113-
-18-20,25,29,32,34 114-56,69,70 115-88,101,102 123-3 126-114,117 128-75 130-132

C...2s²2p² tuzilishli, „ko'mir hosil qilivchi” ma'nosiga ega, qadimdan ma'lum.

T/b. C tabiatda kam uchraydi (0,023%), lekin tirik organizmlarni asosiy qismini h/q: 10,5% Fotosintez natijasida o'simliklarga va oziq zanjiri bo'yicha o'simliklardan hayvonlar, odamlarga o'tadi. Tabiatda erkin va birikmalar holida uchraydi.

Erkin C olmos, grafit, karbin, ko'mir.

C birikmalarda. 1) *Gaz shaklida*: CO₂, CH₄ – metan, tabiiy gaz; yo`ldosh gazlar (C₂H₆ – etan, C₃H₈ – propan, C₄H₁₀ – butan). 2) *Suyuq holatda*: neft – 300 xil uglevodorodlar aralashmasi; gidrokarbonatlar – MeHCO₃ larni suvdagi eritmaları. 3) *Qattiq holatda* karbonatlar shaklida uchraydi: CaCO₃ – marmar, ohaktosh, stalakmit, stalaktit (g`orlardagi sumalaklar), kalsit; CaCO₃·MgCO₃ – dolomit, MgCO₃ – magnezit, Na₂CO₃, FeCO₃.

Allotropik shakllari. C ni allotropik shakllariga C ni kristall shakllari: olmos, grafit, karbin, fulleren kiradi (9,30 rasm).

1) *Olmos* atom KP li, sp³- gibridlangan, tetraedrik birikkan C atomlaridan tuzilgan. Olmos eng qattiq modda, sababi: C atomlari 4 tadan mustahkam σ bog`lar b-n bog`langan, zichligi grafitnikidan katta ($\rho_{(olmos)} = 3,5 > 2,26 = \rho_{(grafit)}$). Barcha elektronlari mustahkam bog`langani uchun olmosdan tok o`tmaydi. Olmos juda qattiq bo`lgani uchun undan shisha, metall kesgichlar, burg`ulash va silliqlash asboblari yasaladi, buning u-n *texnik-sun`iy olmos* ishlataladi. Texnik olmos 1961 yilda grafitni katta bosim ostida qizdirib olingan. *Tabiiy olmos* yorug`likni kuchli sindiradi, shu`lalanib kamalak h/q. Buning uchun olmosga ishlov berib – qirralar hosil qilib brilliantlar tayyorlanadi.

2) *Grafit* oddiy qora qalam (grafiyo- „yozaman“) yoki yumshoq qora rangli kristall. sp²-gibridlangan C atomlari 3 tadan σ bog`lar orqali birikib oltiburchaklardan tashkil topgan grafit qatlamlarini h/q (~qora P). Bu qatlamlar gibridlannagan p-elektronlar hisobiga metall bog`lanish bilan bog`lanadi. Bu bog` kuchsiz bo`lgani, p-elektronlar bo`sh bog`langani uchun grafit qatlamlarga oson ajraladi – yozadi va tok o`tkazadi. Grafitdan tok o`tishi elementlarni metall, metallmaslarga ajratish shartli ekanligini isbotlaydi. Grafitdan tok o`tgani uchun undan elektrodlar (elektrolizda, batareyalarda), generator cho`tkalari tayyorlanadi. Grafitni moyga qo`shib qizdirishga chidamli grafitli surkov moylari, gil b-n aralashmasidan metallarni suyuqlantiradigan tigellar olinadi. Grafit neytronlarni yutgani uchun yadro reaktorlarida neytronlar sekinlatgichi sifatida ishlataladi.

3) *Karbin* chiziqli shaklli polimer, C atomlari sp-gibridlangan. Kimyoviy inert qora kunkun, yarim o`tkazgich, havosiz joyda 2800°C da grafitga aylanadi, 2 xili bor: a) *Poliin*, *poliasetilen* (-C≡C-)_n, b) *Polikumilen*, *polimetilen* (-C=C-)_n.

4) *Fulleren* C₆₀, 80 ta C dan h/b 20 ta oltiburchak va 12 ta beshburchakdan iborat ikosaedr shaklda bo`ladi. U gazsimon C ni qattiq holatga o`tishida h/b.

Amorf shakllari. C ni amorf shakllariga: koks, qurum (qora kuya), shisha uglerod va ko`mir kiradi. Ular grafitning juda mayda kristallari to`plamidan iborat.

1) *Koks* toshko`mirni havosiz joyda qizdirib olingan mahsulot, cho`yan olishda ishlataladi.

2) *Qurum* yoqilg`ilarni, uglevodorolarni chala yonishidan, termik parchalanashidan

h/b. Qora bo`yoq, rezina tayyorlashda to`ldirgich sifatida ishlataladi.

3) *Shisha uglerod* C li birikmalarni termik parchalab ham olinadi. Mexanik mustahkan, agressiv muhitlarga chidamli. Sh.u. aviatsiya-kosmonavtikada, kimyo apparatlari tayyorlashda ishlataladi.

4) *Pista ko`mir* yog`ochni pirolizida – havosiz joyda qizdirib quruq haydashda yoki chala yonishida hosil bo`ladi. Metallurgiyada, temirchilik ustaxonalardan, qora porox, aktivlangan (faollangan) ko`mir olishda ishlataladi.



Adsorbsiya – bir moddani boshqa moddani sirtiga yutilishi. Sirtiga yutayotgan modda *adsorbent*, yutayotgan modda *adsorbtiv (adsorbat)* deyiladi. Umuman bir moddani boshqa moddaga yutilishi *sorbsiya* deyiladi. Adsorbent sifatida pista ko`mir, aktivlangan ko`mir, silikogel, seolitlar, sintetik smolalar ishlataladi.

Aktivlangan ko`mir pista ko`mirlari suv bug`i bilan qizdirib kovaklari tozalangan shakli. U shakarni sariq rangdan, moylarni, aroqni zaharli moddalardan tozalashda; zaharlangan odamni qonini, hazm organlarini tozalashda; qorin damlaganda gazlarni yuttirishda („karbojen“ tabletkasi); protivogazlarda zaharli gazlarni yutishda ishlataladi. Protivogazni (gazniqobni) 1916 yil N.D.Zelenskiy injener A.Kumant b-n hamkorlikda yaratgan.

F/x. C barcha shakllarida hidsiz, ta`msiz, qiyin suyuqlanadigan, erituvchilarda erimaydi.

K/x. Oddiy sharoitda aktivmas, qizdirilganda ko`p moddalar b-n r/k. NEM o`rtacha bo`lgani u-n ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi bo`lishi mumkin.


Oddiy moddalar b-n reaksiyalari. a) Metallmaslar b-n.




M,283 *HCN sianid kislota* achchiq bodom hidli, kuchli zaharli suyuqlik. Juda kuchsiz – sirka kislotadan 100 ming marta kuchsiz. Tuzlari kuchli zaharli moddalar. M., KCN oltinni eritmaga o`tkazishda, rodanid (tiosianat) tuzlarini olishda ishlataladi.


$K \rightarrow \begin{smallmatrix} 1 \\ S \\ 2s - 2s \end{smallmatrix} \begin{smallmatrix} 3 \\ N \\ 2s - 2s \end{smallmatrix}$ KCN + S $\xrightarrow{-}$ KSCN kaliy rodanid yoki kaliy tiosianat Fe^{3+} ni aniqlashda ishlataladi (SR). HSCN – rodanid kislota kuchli kislota.

b) *Metallar b-n reaksiyalarida karbidlar* h/b. Ca + 2C $\xrightarrow{-}$ CaC₂ kalsiy karbid





Kuchli oksidlovchilar: kons. H_2SO_4 , HNO_3 , KNO_3 , $KClO_3$, $K_2Cr_2O_7$ C ni CO_2 gacha oksidlaydi.



C kuchli qaytaruvchi bo`lgani uchun metallarni oksidlaridan qaytarib olishda ishlataladi (karbotermiya). $Fe_3O_4 + 4C \xrightarrow{\cdot} 3Fe + 4CO$ $ZnO + C \xrightarrow{\cdot} Zn + CO$

M,281 A,397 T: 104-324 **Karbidlar** 3 xil bo`ladi. 1) *Ion bog`li tuzsimon karbidlar* suvda gidrolizlanishiga qarab 3 xil bo`ladi:

- a) *Metanidlar* (Be_2C , Al_4C_3) $Al_4\overset{\cdot}{C}_3 + 12H_2O = 4Al(OH)_3\downarrow + 3\overset{\cdot}{CH}_4 \uparrow$
- b) *Asetilenidlar* (Me_2C_2 ; Cu_2C_2 , Ag_2C_2 ; MeC_2 ; CaC_2 , SrC_2 , MgC_2 , BaC_2 , ZnC_2 , CdC_2 , HgC_2). Asetilenidlar qizdirilganda yoki zarba ta`sirida portlaydi.
 $Ag_2C_2 + H_2O = Ag_2O\downarrow + HC \equiv CH \uparrow$ $Ca\overset{\cdot}{C}_2 + 2H_2O = Ca(OH)_2 + \overset{\cdot}{C}_2H_2 \uparrow$
- c) *Propinidlar* (Al_2C_6 , Ge_2C_6 , Mg_2C_3) $Mg_2C_3 + 4H_2O = 2Mg(OH)_2 + CH_3 - C \equiv CH \uparrow$
- 2) *Kovalent bog`li karbidlar* juda qattiq, o`tga bardoshli, kimyoviy inert moddalar: silitsidlar (SiC), boridlar ($B_{12}C_3$, $B_{12}C_2$, B_4C). B_4C – bor karbidi qora kristall, issiq ishqorda parchalanadi, juda qattiq, charxlashda ishlataladi.

3) *Metallsimon karbidlar* metall – atom KP li, tokni o`tkazadi, juda qattiq barqaror, o`tga bardoshli: Cr_3C_2 , $Cr_{23}C_6$, $Mn_{23}C_6$, Mn_7C_9 .

Fe_3C *sementit* ionli va metall karbidlari oralig`idagi mahsulot, to`yingan oq cho`yan tarkibida bo`ladi. WC , VC po`lat olishda W , V qo`shilganda h/b, legirlovchi qo`shimcha sifatida po`latni qattiqligini oshiradi.


C ni vodorodli birikmalari *uglevodorodlar* deyiladi, ular organik kimyoda o`tiladi.

9,33-35 M,279 X,286 A,399 KM,50 **Uglerod oksidlari** T: 5-46 7-128 9-220
 17-196,205,228 18-236,243,273,274 19-284,288,312,315 21-375,409 22-447,453,455
 23-460,463-465,467 44-181 45-202,208,213 46-15 49-138 50-142 67-303,309
 68-331,332 80-82 81-113 89-130 90-164 101-208 113-35,39 114-60 123-7,11
 124-51 126-97,103,108 127-20,38 128-51,64,77 129-123 130-139,143 131-201,202
 132-242 133-252

Asosan 2 ta: CO , CO_2 , lekin polielementlarga o`xshash C_3O_2 , C_5O_2 oksidlari ham bor.

CO – uglerod(II) oksid, is gazi beqaror, rangsiz, hidsiz, zaharli gaz, kuchli qaytaruvchi, betaraf oksid. Unda C ni OD si +2, valentligi III ga teng, $1\sigma + 1C_T = sp^2$ – gibridlangan, 1 ta DAB bor. Zaharlilikiga sabab qondagi gemoglobin b-n O₂ ga nisbatan oson birikadi, natijada gemoglobin kislorod tashiyolmay qoladi, shu holda CO b-n uzoq vaqt nafas olinsa o'limga olib keladi. CO ko'mirni, avtomobil yoqilg'isini chala yonishidan h/b. Zaharlanmaslik uchun pechkalarni mo'rilarini soz, garajlar yaxshi shamollaydigan bo`lishi kerak.

OI. Sanoatda:



CO + H₂ aralashmasi *sintez gaz* ham deyiladi, chunki undan juda ko`p organik modalar olinadi – sintezlanadi.



Laboratoriya: HCOOH (chumoli k-ta) $\xrightarrow{\cdot, H_2SO_4}$ CO + H₂O

K/x. Yuqori temperaturada kuchli qaytaruvchi. Fe₂O₃ + 3CO $\xrightarrow{\cdot}$ 2Fe + 3CO₂
2CO + SnO₂ $\xrightarrow{\cdot}$ 2CO₂ + Sn CO + CuO $\xrightarrow{\cdot}$ Cu + CO₂ (karbotermiya)

2CO + O₂ = 2CO₂ CO + Cl₂ $\xrightarrow{\cdot, (1200)}$ COCl₂ fosgen, juda zaharli, bo`yoqlar olishda ishlataladi. NaOH + CO $\xrightarrow{\cdot, P}$ HCOONa natriy formiat.

Oraliq d-metallar b-n yuqori temperatura, bosimda birikib *karbonillarni* h/q.

Fe + 5CO $\xrightarrow{\cdot, P}$ Fe(CO)₅ temir pentakarbonil. Karbonillar kompleks birikmalar bo`lib, oson bug`lanadigan, zaharli, suyuq yoki qattiq moddalardir. Beqaror, qizdirilganda metall va CO ga parchalanadi, sh.u. metallarni toza holda olishga ishlataladi.

CO₂ – uglerod(IV) oksid, karbonat angidrid rangsiz, hidsiz gaz, zaharli emas. Havo dan og`ir (44 > 29) bo`lgani uchun g`orlar, shaxtalar, quduqlar, yerto`lalarda to`planib qoladi. Bunday joylarda odam O₂ yetishmasligidan o`lishi mumkin. M., Italiyani Neapol shahri yaqinidagi „It g`ori”, Indoneziyani Yava orolidagi „O`limlar vodiysi”

CO₂ bosim ostida oson suyuqlanadi ($t_s = -57^\circ C$), sh.u. CO₂ li balonni kranini ochgan da CO₂ bug`lanishi natijasida qattiq sovib qorga o`xshash „quruq muz”ni h/q. Qattiq CO₂ ni bunday nomlanishiga sabab u sublimatlanadi, ya`ni suyulmasdan birdan gaz holatga o`tadi.

$\text{CO}_2 \rightarrow \overset{\text{O}}{\underset{\text{C}}{\text{O}}} \rightleftharpoons \overset{\text{O}}{\underset{\text{C}}{\text{O}}} \rightleftharpoons \overset{\text{O}}{\underset{\text{C}}{\text{O}}}$ tuzilishga ega, $2\sigma = sp$ – gibrildanish bo'lgani uchun chiziqli shaklli, qutbli bog'li, lekin simmetrik bo'lgani uchun qutbsiz molekula.

K/x. Kislotali oksid, suvda eriganda saqat eritmada mavjud bo'ladigan kuchsiz H_2CO_3 karbonat kislotani h/q. Sh.u. ishqorlar b-n 2 xil tuzlar h/q.



Yuqori temperaturada oksidlovchilik xossasini namoyon qiladi: C, Zn, K, Mg lar b-n ta'sirlashadi. CO_2 (oks) + $2\text{Mg} = 2\text{MgO} + \text{C}$

SR. CO_2 ohakli suvni loyqalantiradi, gaz o'tkazish davom ettirilsa cho'kma erib ketadi: a) $\text{CO}_2 + \text{Ca}(\text{OH})_2 = \text{CaCO}_3 \downarrow + \text{H}_2\text{O}$ b) $\text{CaCO}_3 + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O} = \text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ eriydi



Laboratoriya da Kipp apparatida marmarga HCl ta'sir ettirib olinadi.




Ish. Soda, shakar ishlab chiqarishda, ichimliklarni gazlashda, o't o chirishda (ko'pik), quruq muz sovitgichlarda ishlatalidi.

M,280 Polielement oksidlari. C_3O_2 – rangsiz bo'g'uvchi gaz, $\text{O} = \text{C} = \text{C} = \text{C} = \text{O}$ tuzilishli. Malon kislotadan olinadi $\text{HOOC}-\text{CH}_2-\text{COOH} \xrightarrow{\text{H}_2\text{O}} \text{C}_3\text{O}_2 + \text{H}_2\text{O}$. Bu gaz molekulyar C_2 b-n qizdirilganda C_3O_2 ni h/q: $\text{C}_3\text{O}_2 + \text{C}_2 \rightarrow \text{O} = \text{C} = \text{C} - \text{C} = \text{C} = \text{O}$

9,36-38 M,280 X,286,289 A,401-403 KM,51 **Karbonat kislota, karbonatlar**
 T 6-107 7-130,151 9-206 10-270 19-302 21-410 41-82 44-191 49-140 62-99
 66-278 71-442,452,474 84-242 111-123 113-37 122-290 123-312 124-50,52,56
 125-86,87,89,90 126-7 127-12


Karbonat kislota kuchsiz, beqaror, saqat eritmada mavjud: $\text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightleftharpoons \text{H}_2\text{CO}_3$ 2 xil tuzlar h/q: karbonatlar, hidrokarbonatlar.



Ishqoriy metallar karbonatlari, $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$, barcha hidrokarbonatlar suvda eriydi, gidrolizlanib ishqoriy muhit h/q ($(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ neytral). Boshqa karbonatlar suvda erimaydi.

M,281 IA, IIA gruppachalar elementlari karbonatlari va hidrokarbonatlari eruvchanligi teskari qonuniyatga ega: ishqoriy metallarni karbonatlariga nisbatan hidrokarbonatlari suvda kam eriydi. M., soda olishni Solvey (ammiaqli) usuli NaHCO_3 ni kam eruvchanligiga asoslangan. Aksincha IIA gruppaga ishqoriy-yer metallari: karbonatlari suvda deyarli erimaydi, barchasi oq cho'kmalar; hidrokarbonatlari esa yaxshi eriydi.

Ishqoriy metallarni karbonatlaridan boshqa barcha karbonatlar parchalanadi. Gidrokarbonatlar qizdirilganda karbonatlarga aylanadi. Karbonatlar eritmasidan CO_2 o'tkazilsa gidrokarbonatlar h/b. Tabiatda shu tarzda sumalaklar – stalakmit, stalaktitlar h/b.



SR. Karbonatlar, gidrokarbonatlarni kislotalar ta'sirida CO_2 ajratishidan aniqlash mumkin. Gazni CO_2 ligini ohakli suvni loyqalantirishidan bilish mumkin.



Ish. Na_2CO_3 – soda (suvsiz soda, kalsinasiyalangan (qizdirilgan) soda, temir sodasi) shisha,sovun, qog'oz olishda ishlatiladi. $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ – kristall soda, kir soda kir yuvishda ishlatiladi. NaHCO_3 – ichimlik soda (xamir soda, choy soda) tibbiyotda, non pishirishda, o't o'chirgich ballonlarni zaryadlashda ishlatiladi. K_2CO_3 – potash (o'simlik kuli) suyuq sovun, optik shisha olishda ishlatiladi. CaCO_3 – marmar, bo'r sifatida va ohak, CO_2 olishda ishlatiladi.

9.39-41 11,172 M,283-285 X,290-292,298 A,405-407,411 KM,51 **Kremniy**
 T· 4-3 10-272 17-215 19-309,322 30-163 37-408 39-481 44-194 46-16,19,21,
 47-37,41,42,44,48-52,54 49-112,134 60-29 62-112 65-253 67-316 69-373 74-572
 87-79 89-158 96-31 102-253,265 103-283 105-382 107-444 113-16,41
 114-54,57,76,78,83 115-95,99 123-14 124-49 125-83,88,92 126-110
 127-29 128-53,79 129-88,97 130-156 131-178-180

Si... $3s^23p^2$ tuzilishli, 1824-yilda Y.Berselius kashf etgan, „qoyatosh” ma'nosiga ega.



T/b. Tabiatda faqat birikmalar shaklida uchraydi, Yer qobig'ida tarqalish bo'yicha kisloroddan keyin 2-o'rinda turadi: 27,6%. SiO_2 , silikatlar, tog' jinslari (gneyslar, granit, bazalt) shaklida uchraydi. SiO_2 – qum, kvars, qumtuproq; $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ – gil, kaolin; $\text{K}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 6\text{SiO}_2$ – dala shpati, $\text{K}_2\text{O} \cdot 3\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 6\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ – slyuda, $3\text{MgO} \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ – azbest. Si o'simlik poyasi, qushlarni pati, sut emizuvchilarini juni tarkibida bo'ladi.

OI. Sanoatda: $\text{SiO}_2 + 2\text{C}$ (kok) $\xrightarrow{\quad}$ Si + 2CO


Laboratoriyyada: $\text{SiO}_2 + 2\text{Mg} \xrightarrow{\quad} \text{Si} + 2\text{MgO}$ $3\text{SiO}_2 + 4\text{Al} \xrightarrow{\quad} 3\text{Si} + 2\text{Al}_2\text{O}_3$,
 $\text{SiCl}_4 + 2\text{Zn} \xrightarrow{\quad} 2\text{ZnCl}_2 + \text{Si eng toza}$

F/x. Si kulrang qattiq kristall modda, atomli KP li, qiyin suyuqlanuvchan. Elektronlari bo'sh bog'langani uchun (metallmaslar ichida NEM eng kichigi: 1,8) yarim o'tkazuvchanlik xossasiga ega, qizdirilganda yoki yoritilganda elektr o'tkazuvchanligi ortadi.


K/x. Oddiy moddalar b-n reaksiyaları. KP si mustahkam bo`lgani uchun oddiy sharoitda faqat fluor b-n r/k, qizdirilganda ko`p metallmaslar va metallar (Mg, Mn, Fe, Ca, Cr) b-n r/k.



Murakkab moddalar b-n reaksiyaları. Kislotalardan faqat HF, HNO₃ aralashmasida eriydi. 800°C da suvdan vodorodni siqib chiqaradi (~P). ishqorlarda eriydi.



Galogenli, S li birikmalari gidrolizlanadi.



Ish. Toza Si kristali yarim o`tkazgich bo`lgani uchun: quyosh batareyalarida, diod, tranzistorlar olishda ishlataladi. 16% Si li po`lat *kisloliaga chidamli po`lat*, 4% Si li po`lat oson magnitlangani uchun *elektrotexnik po`lat* sifatida transformatorlar, elektrosvyatelliar, generatorlar tayyorlashda ishlataladi.

Birikmalari.

9,41-42 M,284 Silanlar - Si ni H li birikmalaridir. Ularda 8 tagacha Si bo`lishi mumkin. C-H, C-C bog`li alkanlarga nisbatan reaksiyaga kirishishi kuchli, chunki Si-H, Si-Si bog`lari kuchsiz bo`lgani uchun silanlar beqaror, qizdirilganda oson parchalanadi. juda kuchli qaytaruvchilar. Ishqoriy muhitda silan - SiH₄, disilan - Si₂H₆ suv b-n parchalanadi. havoda o`z-o`zidan alanganadi. Silan $\overset{\cdot}{\text{SiH}_4}$ rangsiz, qo`lansa hidli, zaharli gaz.



9,42 M,286 X,292 KM,52 Kremniy(IV) oksid, SiO₂ atom KP li, sp³-gibridlanishli ($4\sigma = \text{sp}^3$), tetraedr tuzilishli, qattiq, qiyin suyuqlanuvchan modda. U tabiatda 2 xil ko`rinishda uchraydi (X,292).

I) SiO_2 - *kvarts, kristall qumtuproq* minerali. Tog` billuri (xrustali), agat (chaqmoqtosh), yashma, xaledon kvarsni har xil polimorf ko`rimishlaridir.

Kvarsni suyuqlantirib *kvarts shisha* olinadi. U oddiy shishadan farq qilib ultrabinafsha

nurlarni yaxshi o'tkazadi, qizdirib tez sovutilganda sinmaydi. Sh.u. undan simobli lampalar, laboratoriya asboblari tayyorlanadi.


2) $\text{SiO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$ amorf qumtuproq opal minerali shaklida bo'ladi. Diatomit, trepel (infuzor tuproq, undan dinamit tayyorlanadi) amorf qumtuproqning har xil shakllaridir. U suvsizlantirilganda silikogel h/b. Silikogel - suvsizlantirilgan H_2SiO_3 dir, u yaxshi adsorbent. $\text{SiO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \xrightarrow{\quad} n\text{H}_2\text{O} + \text{SiO}_2$ silikogel $\text{H}_2\text{SiO}_3 \xrightarrow{\quad} \text{H}_2\text{O} + \text{SiO}_2$

M,286 bo'yicha SiO_2 4 xil shaklda bo'ladi: 1,2) Geksagonal tuzilishli kvars va tridemit; 3) Kubik tuzilishli kristobalit; 4) Amorf shaklli SiO_2 M., kvars shisha.


K/x. SiO_2 kislotali oksid bo'lgani uchun ishqorlar, ishqoriy va ishqoriy-yer metallarni karbonatlari, oksidlari b-n qizdirib suyuqlantirilganda silikat tuzlarini h/q. Kislotalardan faqat ftorid kislota b-n r/k. Sh.u. shisha idishda ftorid kislotani saqlab bo'lmaydi.



9,42 M,285 X,294 A,407 Kremniy kislotalari



H_2SiO_3 silikat kislota suvda erimaydigan iviq, H_2CO_3 dan kuchsiz, ishqorlarda erib tuz h/q, qizdirilsa parchalanadi.



Silikatlar H_2SiO_3 ni tuzlaridir. Ishqoriy metallarni silikatlari suvda eriydi, sh.u. nativ silikat yoki kaliy silikatni ervuchan shisha, suvdagi quyuq eritmasi esa suyuq shisha deyiladi. Ular sanoatda quyidagicha olinadi.




Suyuq shisha kislotaga chidamli betonlar, qog'oz yelimi, zamazkalar olishda ishlataladi. Gazlama, yog'och, qog'ozga suyuq shishani shimdirib ularni yonmaydigan, suv o'tkazmaydigan qilinadi.

9,43-45 X,298-300 A,408-411 Silikat sanoati

Silikat sanoatiga shisha, sement, keramik buyumlar ishlab chiqarish kiradi.

Shisha. Oddiy shisha soda, ohaktosh, qumni pechlarda qizdirib olinadi. Shishani olishni arablar ixtiro qilishgan.



Silikatlarni oksidlar shaklida yozish qulay: $\text{Na}_2\text{SiO}_3 \cdot \text{CaSiO}_3 \cdot 4\text{SiO}_2 = \text{Na}_2\text{O} \cdot \text{CaO} \cdot 6\text{SiO}_2$ – oddiy shisha. Demak, *oddiy shisha* natriy va kalsiy silikatlarni SiO_2 b-n hosil qilgan qotishmasidir.

Shisha amorf tuzilishli bo`lgani uchun qizdirilganda asta – sekin suyuqlanadi yoki sovutilganda asta – sekin qotadi. Bundan foydalanib shishadan har xil buyumlarni yasash mumkin.

Agar soda o`rniga potash - K_2CO_3 olinsa laboratoriya idishlari tayyorlanadigan *qiyin suyuqlanadigan shisha* h/b. K_2CO_3 , PbO_2 olinsa linzalar, billur (xrustal) buyumlar olina-digan nurni kuchli sindiruvchi *billur yoki og`ir shisha* h/b. *Rangli shishalar* olish uchun shishaga turli rangli moddalar qo`shiladi: Cr_2O_3 qo`shilsa yashil, FeO da to`q-yashil, CoO da ko`k, Cu_2O da qizil, MnO_2 da to`q-qizil, Au da faqat qizil nurlarni o`tkazadigan rubin shisha olinadi.

Kristall shisha materiallar *sitallar* deyiladi. Ulardan olingan *shisha tolalardan* shishaga nisbatan mustahkam, tok va issiqlikni o`tkazmaydigan gazlamalar, kislotaga chidamli materiallar, sifatli aloqani ta`minlaydigan optik tolalar olinadi.

Sement. Oddiy silikat yoki portland sement suv b-n qorilganda qotadigan kulrang kunkun. U ohaktosh va gil tuproq aralashmasini kuydirib olinadi. Bunda dastlab qattiq klinker h/b. Uni tegrimonlarda maydalab sementga aylantiriladi. Sementga azbest qo`shib suv b-n qorib, preslab *shifr* olinadi. Sementga qum, shag`al, tosh qo`shib suv b-n qorib *beton* olinadi. Agar betonni ichiga temir armaturalar karkasi o`rnatisla, *temir-beton* h/b.

Keramika deb gildan olingan buyumlarga aytildi (keramon „gil” ma`nosiga ega). Keramikaga *sopol buyumlar*: pishiq g`isht, cheripitsa, kanalizatsiya trubalari, bezak plit-kalari (kafel), chinni, fayans, elektrizolyatorlar kiradi. Sopol olish uchun gil tuproq, kao-lin, qum, bo`r, dolomit ishlatalidi.

Nozik sopollar asbobsozlik, elektrotexnika, radiotexnikada ishlataladigan sopollardir. Uni olish uchun asosiy xomashyoga talk (magniy silikat $3\text{MgO} \cdot 4\text{SiO}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$), glinozem (loytuproq), MgO , Ti birikmalari qo`shiladi.


Keramik buyumlarni suv o`tkazmaydigan qilish uchun kuydirish pechiga osh tuzi tashlanadi, natijada NaCl bug`lari SiO_2 b-n r/k buyumni yuzasida *sir (glazur)* h/q.

A,364-368 **Bor** T: 7-145 19-307 49-132,133,139 66-280
100-173 102-243 114-82 131-188-190

B... $2s^2p^1$ elektron tushilishli, IIIA gruppadagi yagona metallmas. 1808- yilda J.L. Gey Lyussak, L.J.Tenar, G.Devi kashf etgan.

T/b. Ol. Tabiatda $Na_2B_2O_7 \cdot 10H_2O$ – bura (tanakor) shaklida uchraydi, magniytermiya usulida olinadi. $B_2O_3 + 3Mg \rightarrow 2B + 3MgO$

F/x. K/x. Atom KP li, sh.u. qattiq, inert metallmas. 3 ta allotropik shakli bor. Oddiy sharoitda faqat ftor b-n ta'sirlashadi, qizdirilganda xlor, brom, S b-n r/k. Borga suyultirilgan kislotalar ta'sir etmaydi, lekin qizdirilganda kons. HNO_3 , H_2SO_4 , zar suvi, ishqorlar, metallmaslar oksidlari bilan r/k.



Vodorodli birikmaları *boranlar* deyiladi. Ular havoda o'z-o'zidan alangalanadi (~silanlar), bunda katta issiqlik ajraladi, sh.u. raketa yoqilg'isi sifatida ishlataladi.



B_2O_3 – bor oksid qattiq modda, suvda eritilganda borat kislotani h/q.



Bura metallarni kavsharlashda, olovga chidamli shishalar olishda ishlataladi.

Bor galogenidlari suv b-n gidrolizlanadi. $BCl_3 + 3H_2O = H_3BO_3 + 3HCl$

Bor azot b-n birikib bornitrid – borazon (BN_3) h/q. Uni qattiqligi olmosga yaqin, metallarni kesishda ishlataladi (bolgarka). Borażol – $B_3N_3H_6$ xossalari, tuzilishi benzolga o'xshaydi, sh.u. „anorganik benzol” deyiladi. U 55°C da qaynaydi, benzolga o'xshab yog'larni eritadi.

III qism. ORGANIK KIMYO

XVII bob. ORGANIK MODDALARNING KIMYOVİY TUZİLİŞ NAZARIYASI. TO'YINGAN UGLEVODORODLAR

53- dars. 16.01. 9,101-102 10,3-7 X,376-377 A,427 Organik kimyo predmeti, tarixi

Organik kimyo, organik moddalarni o'r ganadigan fan. *Organik modda* tarkibida C tutgan moddalarni. Organik so'zi „organizm” so'zidan olingan, chunki dastlab ma'lum bo'lgan organik moddalarni: sirka kislota, etil spirit, shakar, efir moylar, bo'yoqlar tirik organizmlarda uchragan, ularni faoliyati natijasida h/b.

Organik modda, organik kimyo, izomeriya terminlarini Y.Ya.Berselius kiritgan. U 1827- yilda birinchi organik kimyo darsligini yozgan. Organik kimyo ta'rifini A.Kekule aytgan. Ammo Berselius va ko'p olimlar „organik moddalarni sintez qilib bo'lmaydi, chunki ular faqat tirik organizmlarga xos bo'lgan „hayotiy kuch” ta'sirida h/b” degan vitalistik ta'limotni aytishgan (vita - „hayot”). Bu ta'limotni puchligini birinchi bo'lib Berseliusni shogirdi F.Vyoler anorganik moddalardan 1824- yilda oksalat kislotani, 1828-yilda mochevinani – *dastlabki sintezlangan organik moddalarni* olib isbotladi (231- bet). Keyinchalik 1832- yilda N.N.Zinin anilinni, 1848- yilda G.Kolbe, E.Frankland sirka kislotani, 1854- yil M.Bertlo yog'larni, 1861- yilda A.M.Butlerov shakarsimon moddani sintezlab vitalistik ta'limotni noto'g'rilingini uzil-kesil tasdiqladilar.

Organik moddalarning ahamiyati. Anorganik moddalarni 0,5 mln. organik moddalarni esa 6,5 mln ga yaqin. Organik moddalarni soni to'xtovsiz ortib bormoqda, chunki insoplar uchun organik moddalarni ahamiyati katta: sintetik plastmassalar, sun'iy va sintetik tolalar, rezina mahsulotlari, yonilg'ilalar, surkov moylari; bo'yoqlar, dorilar, pestisidlarni asosiy qismi; oziq-ovqat mahsulotlari organik moddalardir. Tirik organizmlardagi moddalarni ko'philigi organik moddalardir. M., oqsillar, nuklein kislotalar, vitaminlar, uglevodlar, yog'lar. Organik moddalarni ko'pligi, xossalarni o'ziga xosligi va odamlar uchun ahamiyatini kattaligi organik moddalarni o'r ganuvchi organik kimyonini paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi.

Organik moddalarni umumiyl xossalari. Organik moddalarni ko'pliliga sabab C atomlarini har xil tartibda har xil kattalikdagi zanjirlar h/q va yakka bog'dan tashqari qo'shbog', uchbog'lar orqali birika olishidir. 9,104. Asosan 3 xil birikish bor: to'g'ri, tarmoqlangan, halqali:



Organik moddalarni asosan kovalent bog'lanishli, molekulyar tuzilishi moddalarni. Ular asosan elektrolitmaslar, sh.u. ion almashinish reaksiyalariga deyarli kirishmaydi. Deyarli barcha organik moddalarni yonadi. Havosiz sharoitda 500°C gacha qizdirilsa parchalanib ketadi yoki qurumga (ko'mirga) aylanadi. Bu barcha organik moddalarni tarkibiga C kiri shini isbotlaydi. Organik moddalarni anorganik moddalarga nisbatan sust r/k.


9,103-106 10,8-13 X,378-390 A,428-440 KM,68

Organik moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasi

Bu nazariya haqida A.M.Butlerov 1861- yil, 19- sentabrda Shpeyer shaharida bo'lib


o`tgan nemis tabiatshunoslari s`yezdida ma`ruza qilgan:

1) Atom va molekulalar real mavjud. Molekulada atomlar valentliklariga muvofiq



2) Moddalarning xossalari molekuladagi atomlarning: a) xiliga (sifat tarkibga); b) soniga (miqdor tarkibga); c) birikish tartibiga (tuzilishga); d) o`zaro ta`siriga bog`liq.

M., a- ga: H_2O – suv, suyuqlik, zaharli emas. H_2S – vodorod sulfid zaharli gaz. b - ga: CO – is gazi zaharli, betaraf oksid, CO_2 – karbonat angidrid kislotali oksid, zaharli emas.



suyuqlik. Bu ikkala moddaning tarkibi bir xil, lekin tuzilish – birikish tartibini C – O – C dan C – C – O ga o`zgarishi xossani o`zgarishiga sababchi bo`ladi. Kimyoviy tuzilish deb molekuladagi atomlarning birikish tartibiga aytildi. Tarkibi bir xil, lekin tuzulishi har xil, sh.u. fizik – kimyoviy xossalari har xil bo`lgan moddalar izomerlar (izos – „teng”, meros – „qism”) deyiladi. d – ga atomlarning o`zaro ta`siri natijasida gidroksidlarni asos, kislota yoki amfoter xossalni bo`lishi misol bo`ladi (I-qism, 25 – bet).

3) Moddalarni xossalari ko`ra tuzilishini, tuzilishiga ko`ra xossalarni oldindan aytish mumkin. M., modda gaz bo`lsa uni: KP si molekulyar, molekulada atomlari kovalent bog`lar b-n birikkanligini aytish mumkin. Birikayotgan atomlar kuchli metall va metallmaslar bo`lsa ular ion bog`, ionli KP hosil qilishini, natijada qattiq, suvli eritmalaridan tok o`tishini aytish mumkin. Gidroksidlarni markaziy atomni valentligiga (OD siga), davriy sistemadagi o`rniga qarab kislota yoki asos bo`lishini bashoratlash mumkin(I q., 46-b.)

A.M.Butlerov atom, molekulalar haqidagi quyidagi dalillarni umumlashtirib tuzilish nazariyasini yaratdi:

- 1815- yil J.Gey-Lyussak, 1823- yil F.Vyoler, 1832- yil Yu.Libixlarni ishlari natijasida radikallar nazariyasini yaratilishi.
- 1823- yilda Yu.Libix, F.Vyoler tomonidan izomeriya hodisasini ochilishi.
- 1839- yil J.Dyuma, 1836- yil A.Loran, 1853- yil Sh.Jerarlarni ishlari natijasida tiplar nazariyasini yaratilishi.
- 1853- yil E.Frankland tomonidan valentlikni ochilishi.
- 1857- yil A.Kekule tomonidan uglerodni IV valentligini aniqlanishi.
- 1857- yil A.Kekule, A.Kuper tomonidan C atomlarini zanjirsimon birika olishini aniqlanishi.

- 1858- yil A.Kuper tomonidan bog`lanishlarni ifodalash uchun valentshtrixni kiritilishi.
- 1860- yil Karlsruedagi s`yezdda atom, molekulaning aniq tushunchalarini qabul qilinishi.

Organik moddalar uchun tuzilish nazariyasining ahamiyati davriy qonundan kam emas. Bu nazariya yordamida ma`lum organik moddalarning tuzilishini, xossalarni tushuntiribgina qolmay, hali sintez qilinmagan yangi moddalarni xossalarni, olinish usullarini basharatlash mumkin.

9,106 Professor A.G.Maxsumov tuzilish nazariyasini moddaning elektron va fazoviy tuzilishi bilan bog`lab takomillashgan hozirgi zamon qoidasini taklif etdi: „Murakkab zarrachaning tabiatini uning tarkibi hamda kimyoviy, elektron va fazoviy tuzilishiga bog`liq”

9,107-115 10,14-27 X,339 R,125 A,441-454 KM,69-70


Alkanlar (parafinlar, to`yingan alifatik uglevodorodlar) T 18-237,253 21-377,382
22-448 32-238 45-196 70-428,429 102-254,257 105-370 133-1-16 134-17-40
135-41-77 136-78-118 137-119-158 138-159-197 139-198-223 140-224-240

Uglevodorodlar – tarkibida C va H tutgan organik moddalardir. C atomlarining bog`lanish xususiyatiga qarab uglevodorodlar 3 xil bo`ladi. to`yingan, to`yinmagan, aromatik uglevodorodlar.

To`yingan uglevodorodlar deb C atomlari o`zaro yakka bog`lar b-n bog`langan, qolgan valentliklari H atomlari to`yingan uglevodorodlarga aytildi. To`yingan uglevodorodlar ochiq C zanjirli (*atsiklik*) va C atomlari halqa hosil qilib birikkan *yopiq zanjirli* (*alistiklik*) uglevodorodlarga bo`linadi. Ochiq zanjirli to`yingan uglevodorodlar *alkanlar*, *parafinlar* yoki *to`yingan alifatik uglevodorodlar* deyiladi. Yopiq zanjirli, halqa tuzilishli uglevodorodlar *sikloalkanlar* yoki *sikloparafinlar* deyiladi.

Gomologlar – tarkibi va kimyoviy xossalari o`xshash (gomo - „bir xil”), bir-biridan bir yoki bir necha CH₂ – metilen gruppaga farq qiladigan organik moddalar. Gomologlarni C soni ortishi tartibida joylashtirilgan qatori *gomologik qator*, CH₂ gruppasi esa *gomologik farq* deyiladi. Organik moddalar sinflarining har birini gomologik qatorini umumiyy formula b-n aniqlash mumkin (FJ,10d). M., alkanlar u-n umumiyy formula C_nH_{2n+2}, n- C soni. Okta so`zi „8 ta” ma`nosini bilgan holda oktanning formulasini quydagicha topish mumkin: C₈H_{2·8+2} = C₈H₁₈. Penta – 5, geksa – 6, gepta – 7, nona – 9, deka – 10 ma`nosini, -an qo`shimchasi alkanligini bildiradi.

9,108-109 10,14-16 **Tuz Alkanlarda** har bir C atomi 4 ta σ -bog` b-n bog`langani uchun sp³- gibrildanish, tetraedr tuzilish, $\angle 109^028'$, C – C bog` uzunligi 0,154 nm ga



teng (I qism, 37- bet). C atomlari tuzilish formulasida ko'rsatilgandek to'g'ri chiziqli emas, 109° burchak ostida birikkani uchun zigzaksimon (egri-bugri) bog'lanib birikkan (10,17-rasm). C atomlari yakka bog'lar b-n bog'langani uchun bir- biriga nisbatan erkin aylana oladi, natijada alkan molekulasi fazoda har xil shakllarga – *konformatsiyalarga* ega bo'lishi mumkin.

9,110 10,17 X,391-394 A,442-444 Iz.,Nom. Izomerlanish C_4H_{10} – butandan boshlanadi, unda 2 ta izomer bor. C_5H_{12} – pentanda 3 ta, C_6H_{14} – geksanda 5 ta, C_7H_{16} – gepanda 9 ta izomer bor.

C_4H_{10} 1) $CH_3 - CH_2 - CH_2 - CH_3$ n-butan; 2) $CH_3 - CH - CH_3$ izobutan

Tarmoqlanmagan uglevodorodlarga n-, tarmoqlangan uglevodorodlarga izo- old qo'shimchasi qo'yiladi.

Organik moddalarni nomlashni bilish uchun radikallarni nomlashni bilish kerak. *Alkan radikali* – alkan molekulasidan bitta H atomini gomolitik ajralishidan hosil bo'lgan 1 ta yakka elektronli, sh.u. *valentlik imkoniyati* (valentligi emas, II qism, 139- bet) bog' hosil qilish imkoniyati 1 ga teng bo'lgan (yakka elektronini juftlashishi hisobiga 1 ta kovalent bog' hosil qilishi mumkin) neytral zarrachadir. M. – CH_3 metilni valentlik imkoniyati 1, tarkibidagi C ni valentligi III, chunki C 3 ta H b-n 3 ta bog'ga ega. Ular alkanlarni radikal mexanizmlı reaksiyalari paytda C – H bog'ini gomolitik uzilishidan hosil bo'ladi, energiyasi katta bo'lgani u-n qisqa vaqt mavjud bo'ladi va darhol r.k. Alkan radikallari tegishli alkanni nomidagi –an o'miga – il qo'shimchasini qo'shish b-n nomlanadi.

$H:CH_3$ metan \rightarrow $H + \cdot CH_3$ (- CH_3) metil; C_2H_6 etan \rightarrow - C_2H_5 (- $CH_2 - CH_3$) etil; C_3H_8 propan \rightarrow - C_3H_7 : 1) $- CH_2 - CH_2 - CH_3$ propil, 2) $CH_3 - \overset{C}{H} - CH_3$ yoki

$CH(CH_3)_2$ izopropil; C_4H_{10} butan \rightarrow C_4H_9 : 1) $- CH_2CH_2CH_2CH_3$ yoki $- CH_2(CH_2)_2CH_3$ butil, 2) $CH_3 - \overset{C}{H} - CH_2 - CH_3$ yoki $- CH(CH_3)C_2H_5$ ikkilamchi butil,

3) $- CH_2 - \overset{CH_3}{CH} - CH_3$ yoki $- CH_2CH(CH_3)_2$ izobutil, 4) $CH_3 - \overset{CH_3}{C} - CH_3$ yoki $- C(CH_3)_3$ uchlamchi butil

C_5H_{12} pentan \rightarrow - C_5H_{11} : 1) $- CH_2CH_2CH(CH_3)_2$ izopentil, 2) $- CH_2C(CH_3)_3$ neopentil

C zanjirida 1 ta C b-n bog'langan C birlamchi ($-CH_3$), 2 ta C b-n bog'langan C ikkilamchi ($-CH_2-$), 3 ta C b-n bog'langan C uchlamchi ($-CH-$), 4 ta C b-n bog'langan C to'rlamchi ($-C-$) deyiladi.


Nomenklatura – moddalarni nomlash usullaridir. Organik moddalarning 3 xil nomenklaturasi bor: 1) *Tarixiy, empirik yoki trivial* (*emperia* - „*tajriba*“ *trivial* - „*tasodifiy*“); 2) *Ratsional* (*ratio* - „*aql, idrok*“); 3) *Xalqaro, sistematik* (*o'rinnbosar* yoki *YuPAK-Sof* va *Amaliy kimyo xalqaro ittifoqini* inglizchasini qisqartmasi) *nomenklaturalari*.

Tarixiy nomenklaturada organik kimyoning dastlabki bosqichlarida organik moddalar

xossasiga, nimadan olingeniga qarab yoki sintez qilgan olunni sharafiga tasodisan, tartibsiz nomlangan. M., metan, etan, propan, butan, sut kislota, vino spirt, Mixler ketoni.

Ratsional nomenklaturada uglevodorodlarni metanni hosilasi sifatida nomlashgan. M., etanni $\underline{C}H_3 - CH_3$ bo'yicha metilmelan, propanni $CH_3 - \underline{C}H - CH_3$ ga ko'ra dimetilmelan, n - butanni $CH_3 - \underline{CH}_2 - C_2H_5$ ga ko'ra metiletilmelan, izobutanni $CH_3\underline{CH}(CH_3)_2$ bo'yicha trimetilmelan, $\underline{C}(CH_3)_4$ ni tetrametilmelan deb nomlangan.

Sistematik nomenklaturada tarmoqlangan uglevodorodlarni nomlash uchun eng uzun C zanjiri topiladi, keyin yon zanjirdagi radikal qaysi tomonga yaqin bo'lsa, o'sha tomon dan uzun zanjirdagi C lar nomerlanadi. Nomlashda dastlab radikal birikkan uzun zanjirdagi C atomi nomeri, keyin radikal nomi, oxirida uzun zanjirga mos alkanning nomi yoziladi. Agar 2 xil radikal asosiy zanjirni uchlaridan bir xil uzoqlikda joylashgan bo'lsa, nomerlash kichik radikal turgan tomonidan boshlanadi.



9,111 10,18 T/u. Metan CH_4 (tabiiy – oqim gazda 98% gacha), etan C_2H_6 , propan C_3H_8 , butan C_4H_{10} oddiy sharoitda gazlar bo'lgani uchun neftning yo'ldosh gazlari tarkibida, qolgan uglevodorodlar neft tarkibida bo'ladi. Tabiiy va yo'ldosh gazlar, neft, toshko'mir qadimda o'simlik, hayvon qoldiqlarini yer ostida yuqori bosimi, temperatura ta'sirida anaerob - kislorod yetishmagan sharoitda organik moddalarni minerallashmay qolishidan h/b (11-biol, 146-bet). M., metan botqoqliklarda, toshko'mir konlarida (portlab avariya, halokatlarga sababchi bo'ladi) uchraydi, sh.u. *botqoq yoki ruda gazi* ham deyiladi.

9,111 10,19 X,395 A,447 F/x. $C_1 - C_4$ – metandan butangacha gazlar, $C_5 - C_{15}$ – pentandan pentadekangacha suyuqliklar (M., benzin, salarka), C_{16} dan boshlab qattiq moddalar (M., sham, vazelin). C – H bog'ini kam qutblanganligi va bu bog'lar uglevodorod molekulasiда simmetrik joylashganligi uchun uglevodorodlar molekulalari deyarli qutbsiz bo'ladi, sh.u. suvda erimaydi, suvdan engil. Gomologik qatorida molekulyar massasi ortishi b-n molekula kattalashgani – og'irlashgani uchun qaynash, suyuqlanish temperaturalari ortib boradi. Gazlari hidsiz, suyuqliklari o'ziga xos hidli rangsiz moddalar.


9,113 10,19 X,397 A,445 Ol. *Sanoatda* tabiiy va yo'ldosh gazlar, neft tarkibidan ajratib yoki grafitga H_2 ni biriktirib, sintez gazidan (suv gazidan) olinadi.








Laboratoriya da: 1) Dekarboksillanish reaksiyasi yordamida olinadi. Bu reaksiyada karboksil gruppasi $-COOH$ karbon kislotaning tuzi qizdirilganda CO_2 shaklida chiqib ketgani uchun (CO_2 ishqor ta'sirida sodaga aylanadi) tuzga risbatan bitta C kam alkan h/b. CH_3COONa natriy asetat + $NaOH \longrightarrow CH_4 \uparrow + Na_2CO_3$

2) Metanidlardan (Al_4C_3 , Be_2C) metan olish mumkin.
 $Al_4C_3 + 12H_2O = 4Al(OH)_3 + 3CH_4 \uparrow$

3) *Vyurs reaksiyasi* – alkanlarni galogenli hosilalariga ishqoriy metallar ta'sir ettirib olish. Reaksiyaga bir xil galogenli hosila olinsa bir xil alkan, ikki xil galogenli hosila olinsa 3 xil alkan h/b. Ikkinchini holatda radikallarni Pinnet katagida yoki qisqaroq: „o'ziga o'zi” va „o'zaro” sxemalarida o'zaro biriktirib hosil bo'lgan alkanlarni aniqlash mumkin.



10,25-7 masala. Geksanning barcha izomerlarini toping, nomlang. Yechish: Alkanlarning umumiy formulasi bo'yicha geksanni formulasi: $\text{C}_n\text{H}_{2n+2} = \text{C}_6\text{H}_{2\cdot6+2} = \text{C}_6\text{H}_{14}$. Izomerlarni topishda dastlab o'rinnbosarsiz (normal zanjirlari), keyin 1 radikalli (o'rinnbosarli), so'ngra 2 ta radikalli va hakoza radikalli, ya'ni yon zanjirdagi radikallarning soni ortishi tartibida izomerlar topiladi. Qisqa tuzilish formulasini yozish uchun dastlab C skeletini (zanjirini) tuzamiz, bunda C larni yonidan H larga joy tashlab ketamiz. Keyin har bir C ni necha valentligi bo'sh qolgan bo'lsa, shuncha dan H biriktirib chiqamiz. Malaka hosil bo'lga faqat C skeleti bo'yicha izomerlar sonini tez topish mumkin.




Tarmoqlangan bo'lishi uchun radikal uchlamchi yoki to'rtlamchi C ga birikishi kerak.

54- dars. 19.01. 9,112-113 10,20-24 X,394-397 A,449-454

Alkanlarni kimyoviy xossalari

Alkanlar oddiy sharoitda inert moddalar – reaksiyaga kirishmaydi („parum offinus” - passiv). Qizdirish, nur ta'sirida va katalizatorlar ishtiroyida C – H, C – C bog'larini uzilishi hisobiga o'rinn olish reaksiyalariga va deyarli barcha organik moddalar uchun xos bo'lgan yonish, oksidlanish reaksiyalariga kirishadi.




1) *O'rinn olish reaksiyaları*. a) Galogenlash reaksiyasi – temperatura yoki yotug'lik ta'sirida radikal mexanizmda boradigan zanjir reaksiya:



- b) $\text{CH}_3\text{Cl} + \text{Cl}_2 \xrightarrow{\text{nur}} \text{HCl} + \text{CH}_2\text{Cl}_2$ metilen xlorid, dixlorometan
 c) $\text{CH}_2\text{Cl}_2 + \text{Cl}_2 \xrightarrow{\text{nur}} \text{HCl} + \text{CHCl}_3$ xloroform, trixlorometan
 d) $\text{CHCl}_3 + \text{Cl}_2 \xrightarrow{\text{nur}} \text{HCl} + \text{CCl}_4$ uglerod(IV) xlorid, tetraxlorometan

9,113 Galogenlash reaksiyasi ultrabinafsha (UB) nur ta'sirida portlash b-n boradi. P., chunki UB nurlarni energiyasi katta, sh.u. reaksiyada radikal hosil bo'lishi ko'payib, reaksiya tezligi ortib ketadi: $\text{CH}_4 + 4\text{Cl}_2 \xrightarrow{\text{UB nur}} \text{CCl}_4 + 4\text{HCl}$

Tarmoqlangan uglevodorodlarda dastlab uchlamchi, keyin ikkilamchi, oxirida birlamchi C atomlaridagi H atomlari galogenga almashinadi.




Shu reaksiya yordamida yuqori alkanlarni ($\text{C}_{12} - \text{C}_{18}$) sulfokislotalarini Na li tuzlari - sintetik yuvish vositalari (SYuV) olinadi (201 – bet).

2) *Degidrogenlash (H ajratish) reaksiyasida* C – H bog'i uziladi, H_2 ajralib chiqadi.

- a) $\text{CH}_4 \xrightarrow{\text{1000°C}} \text{C} \text{ (qurum)} + 2\text{H}_2$ b) $2\text{CH}_4 \xrightarrow{\text{—}} \text{CH} \equiv \text{CH} \text{ (asetilen)} + 3\text{H}_2$
 c) $\text{CH}_3 - \text{CH}_3 \xrightarrow{\text{—}} \text{CH}_2 = \text{CH}_2 \text{ (eten)} + \text{H}_2$

3) *Krekinglash reaksiyasida* C – C bog'i uziladi, natijada katta molekulalni alkandan kichik molekulalni alkan va alkenlar (qo'shibog'li uglevodorodlar) h/b.

$\text{C}_4\text{H}_{10} \xrightarrow[\text{C}_2\text{H}_6 + \text{C}_2\text{H}_4 \text{ etilen}]{\text{CH}_4 + \text{C}_3\text{H}_6 \text{ propilen}}$ Krekinglash reaksiyasi havosiz sharoitda, yuqori temperatura ($\sim 500^\circ\text{C}$) ta'sirida olib boriladi, bu *termik kreking* deyiladi. Agar krekingda katalizator hamshlatilsa *katalitik kreking* deyiladi. Katalitik krekingda normal zanjirli uglevodorodlardan tashqari tarmoqlangan zanjirli izomerlar ham h/b. Bu neftdan krekinglab olin-gan benzinni sifatini yaxshilaydi.




5) *Oksidlanish reaksiyaları* a) *Yonish reaksiyasida* C ga O birikishidan CO_2 , H ga O birikishidan suv h/b: $\text{CH}_4 + \underset{\text{1/2-10 l havo}}{2\text{O}_2} \rightarrow \text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$

Umumiyligi tenglamasi: $\text{C}_n\text{H}_{2n+2} + (1,5n + 0,5)\text{O}_2 = n\text{CO}_2 + (n + 1)\text{H}_2\text{O}$. Yonish reaksiyasi tenglamasini tuzish uchun dastlab C, keyin H, oxirida O-tenglashtiriladi. Reaksiya tenglamasi bo'yicha metanning kislород b-n 1:2, havo b-n 1:10 hisbatdag'i aralashmasi portlovchi aralashma h/q, sh.u. gaz yoqqanda ehtiyyot choralariga rioya qilish kerak. Uyda gaz hidini sezsangiz, gaz kranini berkitib, derazalarni ochib uyni shamollatish kerak; bu

paytda chiroqni yoqish, televizor va boshqa elektr asboblarini yoqish, agar yoqilgan bo'l-sa o'chirish mumkin emas, aks holda portlash uchun elektr uchquni h/b.

b) Katalitik oksidlanish reaksiyaları.







9,114 10,24 Ish. Alkanlar yoqilg'i sifatida (179-182 betlar), organik sintezda turli moddalar, erituvchilar, sintetik yuvish vositalari, sintetik yog'lar olishda ishlatalidi.

9,114 10,28 X,399 A,455 KM,71 Sikloalkanlar (sikloparafinlar, siklanlar, polimetilenlar, naftenlar, to'yingan alitsiklik uglevodorodlar)

T: 140-1-3 141-4-44 142-45-60

Sikloalkanlar – yopiq zanjirli to'yingan uglevodorodlar. Umumiyligi formulasi C_nH_{2n} , alkenlar b-n bir xil, ya'ni ularga izomer. 1-marta V.V. Markovnikov tomonidan Boku neftidan ajratib olingani uchun naftenlar ham deyiladi.


Iz.Nom. Tuzilish va fazoviy izomerlari bor. *Tuzilish izomerlari* – C atomlarining birikish tartibi b-n farq qiladigan izomerlar. *Fazoviy (geometrik, stereo) izomerlari* – C atomlarini birikish tartibi bir xil, lekin molekuladagi atom yoki atomlar gruppalarining fazoda joylashishi har xil izomerlar. Siklopentanni izomerlarini topishni va nomlashni ko'rib chiqamiz (10,31-2 masala). Molekulyar formulasi: $\text{C}_n\text{H}_{2n} = \text{C}_5\text{H}_{10} = \text{C}_5\text{H}_{10}$ bo'ladi.




Testda siklopentanning faqat tuzilish izomerllari soni so'ralsa 5 ta, „fazoviy izomerlarini ham qo'shib toping“ deb so'ralsa 6 ta deb ishlanaadi. Agar sikloalkanning fazoviy izomerlari so'ralmasa ularni topish shart emas, chunki muktab darsligida sikloalkanlarni fazoviy izomerlari berilmagan. Ammo testda „alkenni yoki alkadiyenni izomerlarini toping“ deyilgan bo'lsa, ya'ni fazoviy izomerlar alohida so'ralmagan bo'lsa ham alkenni, alkadi-

yenni tuzilish izomerlari bilan birga fazoviy izomerlari ham topiladi, chunki ular matab darsligida berilgan.

O1. Sanoatda neft tarkibidan haydab ajratib olinadi yoki quyidagi reaksiyalar yordamida alkanlarni degidrogenlab, aromatik uglevodorlarni gidrogenlab olish mumkin. Sanoat usullari laboratoriyada olish usullaridan yuqori temperatura va bosim, (katalizatorlar) ishlatalishi bilan farq qiladi, chunki laboratoriyada bunday sharoitlarni hosil qilish qiyin.









Laboratoriyada alkanlarni digalogenli hosilalaridan olinadi. M., 1,3-dixlorpropandan Siklopropan olish mumkin:




F/1. Siklopropan siklobutan gaz, siklopantan siklogeksan suyuqliklari. Qutbsiz moddalar, suvda erimaydi.

K/1. 1) *A.Bayerning kuchlanish nazariyasi* bo'yicha halqadagi burchaklar tetraedrik 109° burchakdan qancha katta farq qilsa, sikloalkan halqasi shuncha beqaror – kuchlangan (taranglashgan) bo'ladi, oson ochilib birikish r/k. Sh.u. siklopropan, siklobutan birikish reaksiyalariga (bog'lanish burchaklari 60° va 90°) oson kirishadi, siklopantan, siklogeksan esa asosan o'rinn olish r/k, halqlari barqaror bo'lgani u-n (\angle lar 108°, 120°) birikish reaksiyalarini qiyinroq boradi:



3) Oksidlanish reaksiyasi. Sikloalkanlarning (alkenlarning) yonish reaksiyasi umumiy tenglamasi: $C_nH_{2n} + 1,5nO_2 \rightarrow nCO_2 + nH_2O$. Oksidlovchilar ta'sirida 2 asosli karbon kislotalarni h/q: $H_2C - CH_2 - CH_2 - CH_2 - CH_2$



10.30 Ish. Sikloalkanlar arenlarni olishda, siklopropan narkoz sifatida ishlataladi.

55- dars. 21.01. Test yechish


XVIII bob. TO'YINMAGAN UGLEVODORODLAR

56- dars. 23.01. 9,115 10,33 X,400 A,460 KM,72 To'yinmagan uglevodorodlar

To'yinmagan uglevodorodlar - tarkibida qo'shbog` yoki uchbog` tutgan uglevodorodlar. Ular qo'shbog` yoki uchbog`dagi π -bog`larni uzilishidan hosil bo'lgan bo'sh valentliklari yordamida birikish reaksiyalariga kirishadi. M., H ni biriktirishi mumkin, sh.u. ham to'yinmagan deyiladi. Ochiq zanjirli to'yinmagan uglevodorodlar 3 xil bo'ladi: 1) Alkenlar – 1 ta qo'shbog`li; 2) Alkadienlar – 2 ta qo'shbog`li; 3) Alkinlar – 1 ta uchbog`li.

Alkenlar (olefinlar, etilen qatori uglevodorodlari) T: 15-122 18-279 19-318
45-215 142-1-16 143-17-48 144-49-81 145-82-113 146-114-146 147-147-150


Alkenlar – tarkibida 1 ta qo'shbog` tutgan ochiq zanjirli to'yinmagan uglevodorodlar. Umumiy formulasi C_nH_{2n} , ya'ni sikloalkanlarga izomer.




9.116 10,34 A,461 **Tuz.** $C_nH_{2n} = C_2H_{2-2} = C_2H_4$ etilen, eten molekulasida C atomlari $3\sigma = sp^2$ gibriddlangan, sh.u. bog`lanish bur-chaklari 120° ($360:3 = 120$). Barcha atomlar bitta tekislikda joylashgani uchun molekula yassi tekislik shaklda. (10,35 – rasm). C – H bog`lari qutbli ($\Delta NEM = 2,5 - 2,1 = 0,4$), lekin molekula simmetrik bo'lGANI uchun qisman +, - zaryadlarning i-markazlari ustma –ust tushadi, sh.u. etilen molekulasi qutbsiz molekula. C larning gibriddanishda qatnashmagan p – elektronlari hisobiga qo'shbog`dagi π -bog` h/b. C = C qo'shbog`ni uzunligi 0,133 nm, yakka bog`ga (0,154 nm) nisbatan qisqargan, chunki qo'shbog`dagi C larni musbat yadrolarini 2 ta emas, 4 ta elektron tortmoqda.

9.117 10,36 X,400 A,462,464 **Iz., nom.** Alkenlarda tuzilish va fazoviy (geometrik) izomerlar bor. Fazoviy izomerler hosil bo'lishiga sabab alkenlarda C atomlari qo'shbog` b-n bog`langani uchun bir – biriga nisbatan erkin aylana olmaydi. Agar qo'shbog`dagi bitta C atomiga bir xil atom yoki atomlar gruppalari birikkan bo'lsa fazoviy izomerlar hosil bo'lmaydi. Alkenlarning tuzilish izomerlari 2 xil bo'ladi: 1) Qo'shbog` holati bo'yicha; 2) C zanjiri yoki skeleti bo'yicha. M., Pentenni (amilenni) izomerlarini topishni ko'rib chiqamiz. $C_nH_{2n} = C_5H_{2-5} = C_5H_{10}$ Dastlab normal C zanjirida qo'shbog`ning joyini (holatini) o'zgartirib, keyin tarmoqlangan zanjirda qo'shbog` va radikalning joyini o'zgartirib izomerlarni aniqlaymiz. Har bir izomerni qisqa tuzilish formulasini yozganda yuqorida aytildigan shart bo'yicha fazoviy izomer hosil bo'lish imkonini bo'lsa, fazoviy


izomerini ham topib yozib boramiz. C zanjirini nomerlash qo'shbog' yaqin tomondan boshlanadi. Trivial nomlashda mos alkandagi -an qo'simchasi o'miga -ilen, xalqaro nomenklaturada esa -en qo'simchasi yoziladi.



Shunday qilib, testda C_5H_{10} alkenning izomerlari soni so'ralsa 6 ta deb, lekin C_5H_{10} moddani izonerlari so'ralsa siklopentanni tuzilish izomerlari ham topiladi (166 bet: 5 ta), jami izomerlar $5 + 6 = 11$ ta deb ishlanadi. 1 ga 2, 4 ga 5 va 6 qo'shbog' holati bo'yicha, 1,2 ga 4,5,6 lar C zanjiri bo'yicha, 2 ga 3 fazoviy holati bo'yicha izomerlardir.




2) Spirtlarni ichki molekulyar degidratlab:




A.M.Zaytsev qoidasi: Degidratlash, degidrogalogenlash reaksiyalarida vodorod kam gidrogenlangan (H kam) uglerod atomidan ajraladi.


Degidratlashda temperatura 140°C dan past bo'lsa, molekulalararo degidratlanish borib alken emas, oddiy efirlar h/b. Oddiy efir ($R - O - R$) - 2 ta uglevodorod radikali kislorod orqali bog'langan organik moddalar.



3) Alkanlarni galogenli hosilalarini degidrogalogenlab:



Agar bu reaksiyada ishqorni spirtli eritmasi emas, suvli eritmasi ishlatilsa, almashinish reaksiyasi borib alken emas, spirt h/b.



5) Alkanlarni krekinglab olish (165-bet).



F/x. Etilen, propilen, butilen hidsiz, rangsiz gazlar, C₅ – C₁₄ alkenlar suyuqliklar, qolganlari qattiq moddalar.


9,119 10,39 X,402 A,468 KM,73 K/x. Alkenlar π - bog`ni uzilishi hisobiga ionli mexanizmida (10,40) birikish r/k.




2) *Galogenlash (SR)*: $\text{CH}_2 = \text{CH}_2 + \text{Br}_2$ (qizil) = $\text{CH}_2\text{Br} - \text{CH}_2\text{Br}$ 1,2-dibrometan. Bromli suvni rangsizlanish reaksiyasi barcha to`ymagan uglevodorodlarni faqat to`ymaganligini isbotlovchi sifat reaksiya, lekin ularni sinfini aniqlay olmaydi.

3) *Gidrogalogenlash*. 9,119. 1,63 Agar atom yoki atomlar gruppasi o`ziga elektronlar ni tortsa *manfiy induksion effektli* (-I), o`zidan elektronlarni itarsa *musbat induksion effektli* (+I) deyiladi. O`zaro bog`lartgan atomlarni NEM kattasi manfiy, NEM kichigi musbat induksion effektli bo`ladi. Shunday qilib, *induksion effekt* NEM lar farqi bo`yicha elektronlarni σ -bog`lar bo`ylab siljishini ifodalaydi va yozuvda to`g`ri strelkalar b-n ko`rsatiladi. C_T larni, π -bog`ni elektronlarini (π -elektronlar deb ataymiz) siljishi yoysimon strelkalar b-n ko`rsatiladi.

1,65,61,215; 9,122; P: Bir xil atomlarning NEM sp^3 ($s=25\%$, $4\sigma \rightarrow F/4 = 0,25F$) sp^2 ($s=33\%$, $3\sigma \rightarrow F/3 = 0,33F$) sp ($s=50\%$, $2\sigma \rightarrow F/2 = 0,5F$) gibridlanish qatorida ortib boradi. Bunga sabab, gibridlanishda s-elektronning hissasi ortishi b-n s elektron yadroga yaqinroq joylashgani u-n yoki atomni elektron tortish kuchi-F₁ ni bo`lib kamaytirayotgan yunalishlar- σ bog`lar soni kamaygani u-n NEM ortadi. Propilen molekulasida metil radikal CH₃- dan(C sp³ gibr.) vinil radikal CH₂ = CH- (C sp² gibr.) o`ziga elektronlarni tortadi (-I li), natijada CH₃ (+I li) dan siljigan elektronlar ta`sirida qo`shbog`dagi elektron zichlikni ortishi va harakatchan (bo`sh bog`langani u-n) π -elektronlarni 1-C atomi tomon siljishi yuz beradi. Shu sababli 1-C atomi 2-C atomiga nisbatan ko`proq manfiy zaryadlanadi, sh.u. unga H⁽⁺⁾ birikadi. Zaryadni qavsdaligi uni to`liqmas(+1 yoki -1 emas) – qisman zaryadligini bildiradi.



V.V. Markovnikov qoidasi: Simmetrikmas alkenlarda hidrogalogenlash, hidratlashda H atomi eng ko`p hidrogenlangan C atomiga birikadi.




Quyidagi holatlarda birikish Markovnikov qoidasiga bo`ysinmaydi: a) Simmetrik alkenlar: $\text{CH}_2 = \text{CH}_2 + \text{HOH} \xrightarrow[\text{H}_2\text{O}]{\text{I.P.Kat}} \text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{OH}$ etil spirit, etanol

$\text{CH}_3 - \text{CH} = \text{CH} - \text{CH}_3 + \text{HBr} \rightarrow \text{CH}_3 - \text{CHBr} - \text{CH}_2 - \text{CH}_3$ 2-brombutan; b) Qo'shbog'-dagi C ga yaqin joylashgan C ga NEM katta atom birikkan bo'lsa, birikish Markovnikov qoidasiga teskari boradi (196-b). $\text{CF}_3 \leftarrow \overset{(+)}{\text{C}}\text{H} \approx \overset{(+)}{\text{C}}\text{H}_2 + \overset{(+)}{\text{H}}\text{Br} \longrightarrow \overset{1}{\text{C}}\text{F}_3 - \overset{2}{\text{C}}\text{H}_2 - \overset{3}{\text{C}}\text{H}_2\text{Br}$


3,3,3 - triflorpropen

1,1,1 - triflor - 3 - brompropan

c) Gidrogalogenlash peroksidlar ishtirokida olib borilsa, birikish ionli emas radikal mexanizmda Markovnikov qoidasiga teskari boradi. Bu hodisa *Xarashning peroksid effekti* deyiladi (I, 198).




5) *Polimerlanish reaksiyasi* bir xil molekulalarni ketma-ket birikib yirik molekulalar hosil qilishi. Hosil bo'lgan modda *polimer* (poli-, ko'p") yoki *yugori molekulyar birikma* deyiladi. Polimerning molekulasi *makromolekula* (makro-, katta"), polimerni hosil qilgan kichik molekulali modda *monomer* (mono-, bitta") deyiladi. Makromolekuladagi takrorlanuvchi atomlar gruppasi - *tuzilish bo'g'ini* deyiladi. Tuzilish bo'g' inlari soni - *polimerlanish darajasi* n doimiy kattalik emas, sh.u. polimerning o'rtacha molekulyar massasi topiladi.




M., Sotuvdagagi polietilen uchun $n = 215 - 420$ gacha bo'ladi, mos ravishda o'rtacha molekulyar massasi $M_{o'r} = 6000 - 12000$ ($M_{o'r} = nM_{bo,g} = 215 \cdot 28 = 6020$; $420 \cdot 28 = 11760$) ga teng (Z, 43). Polietilen plyonkalar, ro'zg'or idishlari, trubalar tayyorlashda ishlataladi.

6) *Oksidlanish reaksiyalari*. a) Alkenlar KMnO_4 ni suvli eritmasini rangsizlantiradi, ya'ni oksidlanib diollar - 2 atomli (2 ta OH li) spirlarni h/q. Bu reaksiya ham bromli suvdek barcha to'yinmagan uglevodorodlarni faqat to'yinmaganligini isbotlaydi.



Etilenglikol antifriz, lavsan tolasi olishda ishlataladi (231- bet).

b) Havo kislorodi b-n chala oksidlash.



c) To'la oksidlash (yonishi): $\text{C}_2\text{H}_4 + 3\text{O}_2 = 2\text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ yoki mos ravishda alkenlar ning umumiy yonish tenglamasi: $\text{C}_n\text{H}_{2n} + 1,5n\text{O}_2 = n\text{CO}_2 + n\text{H}_2\text{O}$


9,123 10,42 Ish. Alkenlar organik sintezda ishlataladi. M., etilenden: polietilen plyonkalar, plastmassalar; etanol, etilxloriq, stirol olinadi. Etilen mevalarni yetiltirishda ishlataladi. Sho'rtan kombinatida etilen, propilenden turli plastmassalar olinadi.

57- dars. 26.01. 9,124 10,45 X,409 A,484 KM,73 **Alkadienlar (dien uglevodorodlar)** T: 15-116,117 16-146 48-78 147-1-28 148-29-46

Alkadienlar - tarkibida 2 ta qo'shbog' tutgan uglevodorodlar. Umumiy formulasi $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$. *Poli(enlar* tarkibida 2 tadan ortiq qo'shbog' tutgan uglevodorodlar. Alkadienlar

2 ta qo'shbog'ni bir-biriga nisbatan joylashishiga qarab 3 xil bo'ladi: 1) Kumulyativ (zich) qo'shbog'li dien uglevodorodlar qo'shbog'lar yonma-yon joylashgan. M., $\text{CH}_2 = \text{C} = \text{CH}_2$ allen, propadien; 2) Ajralgan (izolyatsiyalangan) qo'shbog'li dien uglevodorodlar qo'shbog'lar 2 va undan ortiq oddiy bog'lar b-n ajralgan. M., $\overset{1}{\text{C}}\text{H}_2 = \overset{2}{\text{C}}\text{H} - \overset{3}{\text{C}}\text{H}_2 - \overset{4}{\text{C}}\text{H} = \overset{5}{\text{C}}\text{H}_2$ pentadien-1,4; 3) Oralatma (konyugirlangan, tutashgan) qo'shbog'li dien uglevodorodlar – qo'shbog'lar 1 ta oddiy bog' b-n ajralgan. M., $\overset{1}{\text{C}}\text{H}_2 = \overset{2}{\text{C}}\text{H} - \overset{3}{\text{C}}\text{H} = \overset{4}{\text{C}}\text{H}_2$ butadien-1,3 yoki divinil.

Tuz. Oralatma qo'shbog'li dien uglevodorodlarda M., butadien-1,3 da barcha C atomlari $3\sigma = \text{sp}^2$ gibridlangan. C atomlari bir tekislikda va ularni gibridlaniшda qatnashigan p-elektronlari yonma-yon joylashgani uchun bu p-elektronlarni tutashishi – umumishishi yuz beradi, natijada qo'shbog'ni elektron zichligi kamaygani uchun 0,133 nm dan 0,135 nm gacha uzayadi, o'rtaagi yakka bog'ni elektron zichligi ortgani uchun 0,154 nm dan 0,146 nm gacha qisqaradi (V,81). Boshqacha aytsak π -bog'larni hosil qilishda qatnashayotgan p-elektron bulutlari delokallanadi, ya'ni ular qo'shbog' hosil qilgan C atomlari orasidagina emas (lokallahshgan holat), balki C – C bog'lari bo'ylab ham tutashishi natijasida umumiy p-elektronlar buluti h/b (9,125 rasm):



Tutashish natijasida molekulani barqarorligi ortadi, chunki energiyasi kamayadi. V,81-82: *Tutashish yakka bog' b-n ajralgan karrali bog'li: qo'shbog' C = C, C = O yoki uchbog' C ≈ C, C = N tutgan molekulalarda ham yuz beradi. Tutashishda karrali bog'larning elektronlaridan tashqari erkin elektron justflar C_T lar ham qatnashishi mumkin.*


9,124 A,485 Iz., nom. Alkadienlarda tuzilish va fazoviy izomerlar bor. Xalqaro nom.da -dien qo'shimchasi qo'yiladi. Pentadienni izomerlari: $\text{C}_n\text{H}_{2n-2} = \text{C}_5\text{H}_{2\cdot 5-2} = \text{C}_5\text{H}_8$

- 1) $\text{H}_2\overset{1}{\text{C}} = \overset{2}{\text{C}} = \overset{3}{\text{CH}} - \overset{4}{\text{CH}}_2 - \overset{5}{\text{CH}}_3$, pentadien-1,2
- 2) $\text{H}_2\overset{1}{\text{C}} = \overset{2}{\text{C}}\text{H} - \overset{3}{\text{CH}} = \overset{4}{\text{CH}} - \overset{5}{\text{CH}}_3$, →
- $\text{H}_2\overset{1}{\text{C}} = \overset{2}{\text{C}}\text{H} = \overset{3}{\text{C}} < \overset{4}{\text{H}} > \overset{5}{\text{CH}}_3$, sis-pentadien-1,3
- $\text{H}_2\overset{1}{\text{C}} = \overset{2}{\text{C}}\text{H} = \overset{3}{\text{C}} < \overset{4}{\text{H}} < \overset{5}{\text{CH}}_3$, trans-pentadien-1,3
- $\text{H}_2\overset{1}{\text{C}} = \overset{2}{\text{C}}\text{H} - \overset{3}{\text{CH}}_2 - \overset{4}{\text{CH}} = \overset{5}{\text{CH}}_2$, pentadien-1,4
- $\text{H}_3\overset{1}{\text{C}} - \overset{2}{\text{C}}\text{H} = \overset{3}{\text{C}} = \overset{4}{\text{CH}} - \overset{5}{\text{CH}}_3$, →
- $\text{H}_3\overset{1}{\text{C}} > \overset{2}{\text{C}}\text{H} = \overset{3}{\text{C}} = \overset{4}{\text{CH}} < \overset{5}{\text{CH}}_3$, sis-pentadien-2,3
- $\text{H}_3\overset{1}{\text{C}} > \overset{2}{\text{C}}\text{H} = \overset{3}{\text{C}} = \overset{4}{\text{CH}} < \overset{5}{\text{CH}}_3$, trans-pentadien-2,3
- $\overset{1}{\text{C}}\text{H}_2 = \overset{2}{\text{C}} - \overset{3}{\text{CH}} = \overset{4}{\text{CH}}_2$, 2-metilbutadien-1,3
- $\overset{1}{\text{C}}\text{H}_3 - \overset{2}{\text{C}}\text{H} = \overset{3}{\text{C}} = \overset{4}{\text{CH}}_2$, izopren
- $\overset{1}{\text{C}}\text{H}_3 - \overset{2}{\text{C}}\text{H} = \overset{3}{\text{C}}\text{H}_2 - \overset{4}{\text{CH}}_3$, 2-metilbutan
- $\overset{1}{\text{C}}\text{H}_2 = \overset{2}{\text{C}} - \overset{3}{\text{CH}} = \overset{4}{\text{CH}}_2$, 2-metilbutadien-1,3
- $\overset{1}{\text{C}}\text{H}_3 - \overset{2}{\text{C}}\text{H} = \overset{3}{\text{C}}\text{H}_2 - \overset{4}{\text{CH}}_3$, izopren

Oli. 1) *Alkanlarni degidrogenlab:* $\text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{CH}_3 \xrightarrow[-2\text{H}_2]{\text{i.Kat}} \text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$




$\overset{1}{\text{C}}\text{H}_3 - \overset{2}{\text{C}}\text{H} - \overset{3}{\text{CH}}_2 - \overset{4}{\text{CH}}_3$, 2-metilbutan $\xrightarrow[-2\text{H}_2]{\text{i.Kat}}$ $\overset{1}{\text{C}}\text{H}_2 = \overset{2}{\text{C}} - \overset{3}{\text{CH}} = \overset{4}{\text{CH}}_2$, 2-metilbutadien-1,3

2) Lebedev reaksiyasi: etil spirtni bir vaqtida degidrogenlab, degidratlab olish.






F/x. Ish. Divinil rangsiz gaz, izopren rangsiz suyuqlik. Kauchuklar olishga ishlataladi.

9,125 10,46 A,487 K/x. Qo'shbog'lar borligi u-n π -bog'ni uzilishidan hosil bo'lgan bo'sh valentliklar hisobiga birikish r/k. Butadien-1,3 ga birikayotgan atomlar asosan dastlab ikki chekkaga birikadi (1,4-birikish), natijada qo'shbog'ni o'rtaga ko'chishi yuz beradi (qo'shbog' migratsiyasi). 2-bosqichda o'rtadagi qo'shbog'ga birikish yuz beradi.



4) Polimerlanish (A,488 11,43-47) natijasida sintetik kauchuklar h/b. Bu kauchuklarining xossalari darslikni oxirida „Sintetik kauchuklar” mavzusida to’liq berilgan (230-b.).



9,125 10,48 11,43 X,411 A,490 Tabiiy kauchuk

Tabiiy kauchuk fazoviy tartibli sis-poliizopren makromolekulalardan tuzilgan. 1,251 (V,308): O'rtacha molekulyar massasi 50000 dan 3 mln gacha (10,48: 15000 dan 500000 gacha), asosan 1 mln dan kattaroq fraksiyalardan tuzilgan ($n \approx 15000$) chiziqli polimer. Makromolekulalari kuchli buklangan-buralgan holatda bo'ladi (~ilonni kulcha bo'lib yotishi). Kauchuk cho'zilsa, bu makromolekulalar to'g'irlanadi; ta'sir to'xtatilsa molekulalar issiqlik harakati natijasida dastlabki holatga qaytadi. Bu kauchukni eng muhim xossasi - elastikligiga sababchi bo'ladi. Bundan tashqari kauchuk shvni, gazni, tokni o'tkazmaydi. Tartibli tuzilgani uchun pishiq, yedirilishga chidamli.

1928- yil S.V.Lebedev tomonidan sintetik butadien kauchuk olingan, 1932- yilda sanoatda ishlab chiqarish boshlangan. Butadien kauchuk fazoviy tartibsiz tuzilishli bo'lani uchun pishiq bo'lmagan.

Tabiiy kauchuk tropik geveya daraxtini tilib olingen sutsimon shirasi (~qoqini „suti“) - kauchukning kolloid eritmasi - lateksdan olinadi. Lateks qizdirilganda yoki sirka kislota ta'sir ettirilganda koagullanib amorf-mayda zarrachalardan iborat elastik-dirildoq massa shaklida kauchuk h/b, uni ajratib olib quritiladi. Tabiiy kauchuk benzinda, benzolda, uglerod sulfidda avval bo'kib, keyin eriydi. Tarkibida qo'shbog`lar bo`lgani uchun birikish r/k.

Sof kauchukdan buyum olib bo`lmaydi, chunki issiqda yumshab yopishqoq bo`lib qoladi, sovuqda esa qotib mo`rt bo`ladi. 1839-yilda Ch.Gudir kauchukga 2% S qo'shib qizdirib - *vulqonlab* yuqoridaq kamchiliklarini tuzatdi. Vulqonlangan kauchuk *rezina* deyi-ladi. Agar kauchukga 32% gacha S qo'shilsa, qattiq plastmassa - *ebonit* h/b. Vulqonlashda S chiziqli makromolekulardagi qo'shbog`larni uzib birikib makromolekulalarni biribiriga ulaydi - „tikadi“(10,49-50).

58- dars. 28.01. 9,116 10,51 X,407 A,476 KM,74 Alkinlar, asetilen qatori

uglevodorodlari T: 16-158 20-352 38-437 45-210 46-237 101-224
105-377,380,385 129-91 131-173 148-1-17 149-18-55 150-56-88 151-89-122

Alkinlar - tarkigida bitta uchborg` tutgan ochiq C zanjirli to`yinmagan uglevodorodlar. Umumiy formulası C_nH_{2n-2} , ya`ni alkadienlarga izomer.

Tuz. $C_nH_{2n-2} = C_2H_{2 \cdot 2-2} = C_2H_2$ asetilen, etin $\overset{(+)}{H} \rightarrow \overset{(-)}{C} \equiv \overset{(-)}{C} \leftarrow \overset{(+)}{H}$ da C atomlari $2\sigma = sp$ gibridlangani uchun bog`lanish burchagi 180^0 , molekulasi chiziqli simmetrik shaklli, qutbsiz bo`ladi. Uchborg`ni hosil qilishda 6 ta elektron qatnashgani uchun ularni C yadro-lari bilan tortishishi qo'shbog`ga ($0,133$ nm) nisbatan kuchayadi, natijada uchborg` uzunligi $0,120$ nm bo`lib qoladi. C atomlari sp gibridlangani uchun qo'shbog`dagi sp^2 li C ga nisbatan NEM ortadi, natijada C – H bog`i ko`proq qutblanadi, vodorodni H⁺ ion shaklida ajralishi osonlashadi. Sh.u. asetilen kuchsiz kislota xossali bo`ladi: H ni metallarga alma-shinadi.

Iz., nom. Alkinlarda fazoviy izomerlar yo`q, butindan boshlab tuzilish izomerlari h/b. Xalqaro nomenklaturada -in qo'shimchasi qo'yiladi. Ratsional nomlashda asetilen hosilasidek nomlanadi. Pentinning izomerlarini topamiz. $C_nH_{2n-2} = C_5H_{2 \cdot 5-2} = C_5H_8$

1) $\overset{1}{C}H = \overset{2}{C}-\overset{3}{C}H_2 - \overset{4}{C}H_2$, pentin-1, propilasetilen 2) $\overset{1}{C}H = \overset{2}{C}-\overset{3}{C}H-\overset{4}{C}H_2$, 3-metil-


-butin-1, izopropilasetilen 3) $\overset{1}{C}H_3 - \overset{2}{C} = \overset{3}{C}-\overset{4}{C}H_2 - \overset{5}{C}H_3$, pentin-2, metiletiletasetilen. Agar testda C_5H_8 alkinning izomerlari soni so`ralsa 3 ta, C_5H_8 moddaning izomerlari soni so`ralsa $3 + 8$ (pentadienniki) = 11 ta deb ishlanaadi.

9,122 10,53 A,479 Ol. Laboratoriya : I) Karbidlardan:

Kalsiy karbid $Ca\overset{1}{C}\overset{2}{H}_2 + 2HOH \rightarrow \overset{1}{C} \leftarrow H \uparrow + Ca(OH)_2$ yoki $CaC_2 + 2H_2O = C_2H_2 \uparrow + Ca(OH)_2$

Magniy karbid $Mg_2C_3 + 4H_2O = 2Mg(OH)_2 \downarrow + CH_3-C \equiv CH \uparrow$ propin, metilasetilen




2) Alkanlarni digalogenli hosilalaridan: $CH_3 - CHBr - CH_2Br \xrightarrow[-2HBr, 2HOH]{+2KOH, H_2O} CH_3C \equiv CH$







Sanoatda ham asetilen kalsiy karbiddan va tabiiy gaz - metandan olinadi.
 $2\text{CH}_4 \longrightarrow \text{C}_2\text{H}_2 + 3\text{H}_2$

F/x. Asetilen o'ziga xos hidli gaz. Propin, butin ham gaz, $\text{C}_5 - \text{C}_{15}$ (9: C_6) laj suyuq qolganlari qattiq moddalar.



9,119 10,54 X,407 A,480 KM,74 K/x. To'yinmaganligi uchun birikish r/k. Uchibog'i chekkada joylashgan alkinlar ($\equiv \text{CH}$) H ni metallarga almashinadi.



A.P.Eltikov qoidasi (I,216): Qo'shbog'dagi C ga OH biriksa, bunday moddalar beqaror bo'ladi: qayta gruppalanib aldegid yoki ketonlarga aylanadi. Bu qoidaga muvofiq gidratlashga asetilen olinsa sirka aldegid (aldeigidlar: R - CH = O), asetilen gomologlari olinsa ketonlar (R₂C = O) h/b. >C = O karbonil, keto yoki oksogruppa deyiladi. Alkinlarda ham hidratlash, hidrogalogenlash Markovnikov qoidasi bo'yicha boradi.




6) Polimerlanishi:



7) Almashinish reaksiyalari. $\text{H} - \text{C} \equiv \text{C} - \text{H} + 2\text{Na} \rightarrow \text{Na} - \text{C} \equiv \text{C} - \text{Na} + \text{H}_2↑$
 $\text{H} - \text{C} \equiv \text{C} - \text{H} + \text{Ag}_2\text{O} \rightarrow \text{H}_2\text{O} + \text{Ag} - \text{C} \equiv \text{C} - \text{Ag}↓$ kumush asetilenid, kumush karbid

$H - C \equiv C - H + 2CuOH \rightarrow 2H_2O + Cu - C \equiv C - Cu\downarrow$ mis asetilenid. Asetelenidlar cho'kmalari hosil bo'lishi chekkada uchbog' tutgan ($\equiv CH$ li) alkinlar uchun *sifat reaksiyadır*. Bu reaksiya Hg ni I valentli tuzlari b-n ham boradi. Asetelenidlarga kislota ta'sir ettirilsa asetilen h/b. $Ag - C \equiv C - Ag + 2HCl \rightarrow C_2H_2\uparrow + AgCl\downarrow$

8) Oksidlanish reaksiyaları. a) $KMnO_4$, ni suvli eritmasi ta'sirida 2-asosli karbon kislotalar h/b.



b) Yonishi (to'ta oksidlanishi): $2C_2H_2 + 5O_2 \rightarrow 4CO_2 + 2H_2O$ C ko'phgi uchun havoda tutab, toza O_2 ta'sirida esa yorgin alanga hosil qilib yopadi; $3000^{\circ}C$ temperatura h/b. Sh.u. asetilen-kistorod goretkasi (avtogen) metallarni payvandlashda ishlataladi.


9,123 10,55 Ish. Asetilen organik sintezda: etanol, sirkak kislota, polivinilklorid, polivinil florid, xlorpren kauchuk olishda va metallarni payvandlashda ishlataladi.

XIX bob. AROMATIK UGLEVODORODLAR. UGLEVODORODLARNING TABIIY MANBALARI

59-dars. 30 01 9,127 10,59 X,412 A,492 Aromatik uglevodorodlar (arenlar)
 T: 21-402,420 44-162 46-14,28 48-79-82 71-455 96-44 100-187 102-255,256,
 ,261,263,281 105-381 127-13 151-1 152-2-30 153-31-73 154-74-107 155-108-134
 156-135-165 157-166-182

Aromatik uglevodorodlar – tarkibida benzol halqası tutgan karbosiklik uglevodorodlar. Umumi formulasi C_nH_{2n-6} . Aromatik so'zi „xushbo'y“ ma'nosini bildiradi, chunki arenlarni dastlabki aniqlangan vakillari xushbo'y bo'lgan.

Tuz. Eng oddiy vakili benzol: $C_nH_{2n-6} = C_6H_{2n-6} = C_6H_6$




Ushbu for-



mulani 1865-yil F.A.Kekule taklif etgan. C.atomlari $3\sigma = sp^2$ gibriddlangan, molekulasi bir tekislikda yotuvchi oltiburchak shaklli, simmetrik qutbsiz molekula. Kekule formulasi bo'yicha benzolda 3 ta qo'shbog' bor, lekin bu tajribada isbotlanmaydi: benzol oddiy sharoitda $KMnO_4$ ni, bromni suvli eritmalarini rangsizlantirmaydi. Bunga sabab benzol xalqasidagi C atomlarini gibriddanishda qatnashmagan p-elektron bulutlari yonma-yon va bitta tekislikda joylashgani uchun ularni tutashishi yuz beradi (delokallanadi. 10,60 rasm). Natijada barcha C - C bog'lari tenglashib uzunligi bir xil: 0,139 nm bo'lib qoladi. Benzin zamонави formulasi tutashgan p-bulutlar (π -bog'lar) oltiburchakni ichida aylana bilan ko'rsatiladi. 0,139 nm yakka – 0,154 nm va qo'shbog' – 0,133 nm oralig'iiga to'g'ri kelgani uchun arenlar to'yingan uglevodorodlarga o'xshab almashinish (o'rinn olish), to'yinmagan uglevodorodlarga o'xshab birikish reaksiyalariga o'ziga xos tarzda kirishadi. Bunga *aromatiklik xossasi* deyiladi.

Iz., nom. Benzol radikali: $-C_6H_5$, *fenil* deyiladi. Benzolning H larini turli radikallarga almashinishidan benzol gomologlari h/b. $C_6H_5 - CH_3$ metilbenzol, toluol, fenilmelan. M. Tarkibida 8 ta C tutgan areni izomerlarini toping. $C_nH_{2n-6} = C_8H_{2n-6} = C_8H_{10}$ arenni


dastlab bir o'rinnbosarli $C_6 - C_2$, keyin ikki o'rinnbosarli $C - C_6 - C$ izomerlarini topamiz.



1) $C_6H_5 - C_2H_5$ etilbenzol 2)



3) $m - ksilol$
1,3-dimetilbenzol



4) $p - ksilol$
1,4-dimetilbenzol

1,407. Benzol halqasidagi o'rinnbosarlarning soniga qarab, faqat halqadagi o'mi bo'yicha arenni holat izomerlari soni quyidagicha bo'ladi (barcha izomerlari emas): 1) Agar bir xil (dimetilbenzol, dixlorbenzol) yoki har xil 2 ta o'rinnbosar (metilfenol: $CH_3 - C_6H_4 - OH$) bo'lsa, yoxud bir xil 3 ta o'rinnbosar bo'lsa (trimetilbenzol) 3 ta holat izomeri h/b. 2) Agar 3 ta o'rinnbosardan 2 tasi bir xil bo'lsa (dixlorfenol: $Cl - C_6H_5(Cl) - OH$), 6 ta holat izomeri h/b. 3) Agar 3 ta har xil o'rinnbosar bo'lsa (xlornitrofenol: $HO - C_6H_5(Cl) - NO_2$), 10 ta holat izomeri h/b.

Stirol yon zanjiri to'yinmagan aren: $C_6H_5 - CH = CH_2$, lekin benzolni gomologи emas. U xushbo'y hidli suyuqlik. Yon zanjirdagi vinil gruppa hisobiga $KMnO_4$ ni, bromli suvni rangsizlantiradi; polimerlanib polistiroloni h/q: $nC_6H_5CH = CH_2 \rightarrow [-CH(C_6H_5) - CH_2 -]$.

9,129 10,63 X,417 A,497 KM,76 Ol. Sanoatda arenlar neft va toshko'mir smolasi dan olinadi. Benzolni 1851-yil P.E.Bertlo olgan.

Laboratoriya da: 1) Asetilenidan: $3C_2H_2 \xrightarrow{-C_2H_4} C_6H_6$ Zelenskiy N.D., 1927 y.

2) Sikloalkanlardan: C_6H_{12} siklogeksan $\xrightarrow{-H_2O} C_6H_6 + 3H_2$

$C_6H_{11}CH_3$ metilsiklogeksan $\xrightarrow{-H_2O} C_6H_5CH_3$ toluol + $3H_2$

3) Alkanlarni degidrogenlab: C_6H_{14} geksan $\xrightarrow{-H_2O} C_6H_6 + 4H_2$

4) Benoldan olish: $C_6H_5OH + Zn \xrightarrow{-H_2O} C_6H_6 + ZnO$

5) Benzol gomologlarini Vyurs reaksiyasi bo'yicha olish mumkin.

$C_6H_5 - Cl + 2Na + Cl - CH_3 \rightarrow C_6H_5CH_3$ toluol + $2NaCl$

F/x. Benzol rangsiz, o'ziga xos hiddi, uchuyvchan suyuqlik, zaharli. Molekulasi qutbsiz bo'lgani uchun suvda erimaydi. Havo bilan portlovchi aralashma h/q.


9,128 10,64 X,415 A,498 KM,76 K/x. Arenlar asosan o'rinn olish r/k. Bu reaksiya ga alkanlarga nisbatan oson kirishadi. Birikish reaksiyalari qiyin boradi.

1) Galogenlash $C_6H_5 - H + Cl - Cl \xrightarrow{-HCl, \text{radio, } H_2O} C_6H_5Cl$ xlorbenzol + HCl
 $C_6H_6 + Br_2 \xrightarrow{-Br_2} C_6H_5Br + HBr$ $C_6H_6 + 6Cl_2 \xrightarrow{-Cl_2} C_6Cl_6 + 6HCl$
 C_6Cl_6 geksaxlorbenzol qorakuyaga qarshi fungitsid.


9,185 10,69 Pestitsidlar - zararli o'simlik, hayvon va mikroorganizmlarga qarshi

kimyoviy kurashda ishlataladigan moddalar. Zararli hashoratlarga qarshi *insektisidlar*, begona o'tlarga qarshi *gerbitsidlar*, zararli zamburug larga qarshi *fungisidlar*, kemiruvchilarga qarshi *zootsidlar*, bakteriyalarga qarshi *bakteritsidlar*, kanalarga qarshi *akaritsidlar* ishlataladi. $\text{CCl}_2 = \text{CCl} - \text{CCl} = \text{CCl}_2$ geksaxlorbutadien-1,3 tok kasali fillokseraga (kuyaga) qarshi dori.


Agar galogenlash quyosh nuri yoki UB nur ta'sirida olib borilsa, ionli mexanizmli o'rinn olish reaksiyasi emas, radikal mexanizmli birikish reaksiyasi yuz beradi.




2) *Nitrolash reaksiyasi*. $\text{C}_6\text{H}_5 - \text{H} + \text{HO} - \text{NO}_2 \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4}$ $\text{C}_6\text{H}_5\text{NO}_2$ nitrobenzol + HOH
Toluol nitrolash reaksiyasiga CH_3 metil gruppa ta'sirida halqani orto va para holatlarida elektron zichligi ortangi uchun benzolga nisbajan oson (qizdirilmasdan) kirishadi, natijada portlovchi modda - 2,4,6-trinitrotoluol yoki trolit (tol) h/b.



Agar nitrolash reaksiyasiga nitrobenzol olinsa, NO_2 halqani elektronlarini o'ziga tortgani uchun halqani elektron zichligi kamayadi, natijada reaksiyanı borishi qiyinlashadi, ikkinchi NO_2 meta holatdagı H ni o'mini oladi.





1,409 Z, 61 KM, 77 *Orientatsiya (yo'naltirish) qoidasi*. Shunday qilib, o'rribosarlar 2 xil bo'ladi: *birinchi tur* o'rribosarlarga CH_3 , ga o'xshash elektron donorlar (- C_2H_5 , - C_3H_7 kabi R lar, - $\text{CH}=\text{CH}_2$, - OH , - NH_2 , -OR, galogenlar) kiradi, ular o'zidan keyingi halqa b-n ta'sirlashayotgan atom yoki atomlari gruppasini orto va para holatlarga yo'naltiradi, sh.u. *orto-para orientatlar* deyiladi. Galogen o'rribosarlilar benzolga nisbatan qiyin r/k (188-b.). *Ikkinchi tur* o'rribosarlarga NO_2 ga o'xshash elektron akseptorlar (-CN, -CHO, -COOH, -COOR, - SO_3H) kiradi. Ular keyingi kelayotgan atom, atomlari gruppasini meta holatga yo'naltiradi, sh.u. *meta orientatlar* deyiladi.




Benzol halqasida 2 ta o'rribosarni halqani p-elektronlarini siljитishi bir-biriga mos kelsa kelayotgan 3 - o'rribosarni bir xil holatlarga yo'naltiradi (*kelishilgan ta'sir*), mos

kelmasa har xil holatlarga yo`naltiradi (*kelishilmagan ta`sir*). Kelishilgan ta`sirga m-ksilol, kelishilmaganga orto- va para-ksilol misol bo`ladi.





5) *Alkillash reaksiyasida* benzol halqasidagi H ni o`rniga alkii alkanlarni radikalli kirishi natijasida benzol gomologlari h/b.



6) *Oksidlanish reaksiyalari*. a) *Yonishi*. Benzol va boshqa arenlar tarkibida alkantarga nisbatan C ko p bo`lgani uchun havoda tutab yonadi. 9,129: $2\text{C}_6\text{H}_6 + 3\text{O}_2 \rightarrow 12\text{C} + 6\text{H}_2\text{O}$ Ammo testda odatdagidek ishtanadi: $\text{C}_6\text{H}_6 + 7,5\text{O}_2 \rightarrow 6\text{CO}_2 + 3\text{H}_2\text{O}$

b) *Kuchli oksidlovchilar* ~~ta`mida~~ *oksidlanishi*. Mavzuni boshida aytiganidek oddiy sharoitda benzoeiga KMnO_4 etmasi ta`sir etmaydi, lekin benzol gomologlari yon zanjir hisobiga oson oksidlanadi. Agar benzol halqasiga 1 ta radikal birikkan bo`lsa, radikalni qandayligidan qat`iy nazar *benzoy kislota*, 2 ta radikal birikkan bo`lsa *statal kislotalari* h/b.



9,129 10,67 A,501 Ish. Benzol va gomologlari pestitsidlar, dorilar, bo`yoqlar, portlovlchi moddalar, sintetik tolalar, plastmassalar olishda, erituvchi sifatida ishlatalindi

60- dars. 02 02. 9,130 10, 73 **Uglevodorodlarning tabiiy manbalari**
9,132 10,73 X,420 A,507 **Tabiiy va yo`ldosh gazlar**

Uglevodorodlarning tabiiy manbalariga. 1) Tabiiy va yo`ldosh gazlar; 2) Neft, 3) Toshko`mir kiradi. XI-biol., 146: Ular qadimda tirik organizmlarning qoldiqlaridagi organik moddalarni kislorodsiz sharoitda minerallashmay o`zgarishidan hosil bo`lgani mashinalarga va tok olish uchun elektr stansiyalarida (IES, GRES lar) yoqilg'i sifatida ishlatalgani uchun *organik yoqilg'ilar* deyiladi. Bu manbalar cheksiz emas, chunki ular Yerdagi hozirgi sharoitda hosil bo`lmaydi, sh.u. qayta tiklanmaydigan energiya resurslariga kiradi. Sh.u. olimlar energiyani boshqa ekologik toza manbalaridan (quyosh, shamol, daryo va dengiz, okean suyi, kuchlari, geotermal suvlar, biologik chiqindilar, yadro reaksiyalari energiyalaridan) foydalanish, organik yoqilg'ilarni esa kimyo sanoatida turli qimmatbaho moddalarni olishga ishlatish bo`yicha izlanmoqdalar.

Tabiiy gaz (ogini gaz) 98% gacha CH_4 metandan iborat, oz miqdorda etan C_2H_6 , propan C_3H_8 bo`ladi. Yoqilg'i sifatida, qurum, H_2 , etilen, asetilen olishda ishlatalindi. $\text{CH}_4 \xrightarrow{\text{C}} \text{qurum} + 2\text{H}_2$ $2\text{CH}_4 \xrightarrow{\text{C}} \text{CH}_2 = \text{CH}_2 + 2\text{H}_2$ $2\text{CH}_4 \xrightarrow{\text{C}} \text{CH} \equiv \text{CH} - 3\text{H}_2$

Yo'ldosh gazlar neft bilan birga uchraydigan gazlar. Neftni ostida gazli „qalpoq“ shaklida yoki bosim ostida neftda erigan shaklda bo'ladi. Tarkibida metandan tashqari boshqa gazzimon alkanlar bor. Amaliyotda quyidagi fraksiyalarni (*fraksiya* – aralashma- dan haydash natijasida birin-ketin ajratib chiqadigan, xossalari bir-biriga yaqin moddalar gruppasi) ajratib olib ishlataladi: 1) *Quruq gaz* – CH₄, C₂H₆ aralashmasi, tabiiy gazdek ishlataladi; 2) *Suyultirilgan gaz* – C₃H₈, C₄H₁₀ aralashmasi, gaz ballonlarga solib oqim gaz bormagan joylarda gaz plitalarida yoqilg'i sifatida ishlataladi; 3) *Gazli benzin* – C₅H₁₂, C₆H₁₄, boshqa uglevodorodlar aralashmasi. Dvigatelni ishga tushirishni yaxshilash uchun benzinga qo'shiladi.

Hozirgi davrda tabiiy gaz va 1,2- fraksiyalar ham gaz quyish shaxobchalarida avtomobillar gaz ballonlariga bosim ostida suyultirilgan shaklda to'ldirib berilmoga. Gaz yoqilg'isi benzindan arzonligi, atrof-muhitni ifloslamasi bo'yicha ustunlikga ega.

9,131 10,74 X,418 A,502 Neft

Белоцветов А.В. и др., „Химическая технология“, М, 1976, 180-197 betlar.

Nefi qora moysimon suyuqlik, o'ziga xos hidli, suvda erinaydi, suvdan yengil, yonadi. Tarkibi 300 ga yaqin alkanlar, sikloparafinlar, aromatik uglevodorodlar aralashmasidan iborat; to'ymagan uglevodorodlar uchramaydi.

Neftdan uglevodorodlarni ajratib olish uchun dastlab suv va unda erigan tuzlardan tozalanadi, so'ngra neft ikki bosqichda haydaladi. 1-bosqichda neftni pechlarda, burama trubalarni ichida 350°C gacha qizdirib rektifikatsion kolonnada haydaladi (10,75 rasm). Bunda neftning quyidagi fraksiyalarini ajratib olinadi: 1) C₄ – C₁₂ uglevodorodlar tarkibli 1- fraksiya (35 – 195°C) – *benzin*; 2) C₉ – C₁₆ uglevodorodlar tarkibli 2- fraksiya (200 – 300°C) – *kerosin*; 3) 300°C dan yuqori haroratda qaynovchi uglevodorodlar fraksiyasi – *mazut*. 1,2- fraksiyalarini ikkinchi marta haydar *aviatsiya benzini* (avtomobil benzinidan yengil, oson uchuvchan: $t_q = 40-180^\circ\text{C}$, $\rho = 0,73-0,76 \text{ g/ml}$), *avtomobil benzini* ($t_q = 35-200^\circ\text{C}$, $\rho = 0,74-0,77 \text{ g/ml}$), yorituvchi (chiroqlar uchun), yengil va og'ir kerosinlar olinadi. Kerosin traktorlarda, reaktiv dvigatellarda (samolyot, raketalarda) yoqilg'i sifatida ishlataladi.


2-bosqichda mazutni o'ta qizigan suv bug'i yordamida, bosimni kamaytirib – *vakuumli haydash usulida* 400°C gacha qizdirib haydaladi. Suv bug'ini ishlatalishi va bosimni kamayishi mazutdagagi uglevodorodlarni qaynash temperaturasini pasayishini, natijada par-chalanmasdan haydalishini ta'minlaydi. Mazutdan turli xil mineral moylar: *solyar moylari* (kerosin qo'shib dizel yoqilg'isi (P: salarka) olinadi, $t_q = 250-350^\circ\text{C}$), *maxsus moylar* (transformator, vakuum nasoslar uchun) va *surkov moylari* (mashina, aviatsiya moylari, avtotraktor moylari - *avtollar*) ajratib olinadi.

Moylarda sovunlarni disperslab quyuq surkov moylari – *solidol*, *konstalin* tayyorlanadi. Surkov moylarini past temperaturalarda qotib qolishini oldini olish uchun ularni tarkibidan katta molekulalni alkanlarni ajratib olinadi. Bu qattiq parafinlardan *shami*, paraffinni surkov moyiga aralashtirib *vazelin* olinadi. Mazutni haydashda qolgan qoldiq *gudron* asfalt qilishga ishlataladi. Gudronni qizdirib, ichidan havo oqimini o'tkazib *bijumga* (qora mumga) aylantiriladi.

10,20 A,504 Detonatsiya - benzin va havo aralashmasini portlab yonishidir. U mashina dvigatellarini qizib ketishiga, porshen-shatunlarni yedirilishiga olib keladi. Yoqilg'i larning detonatsiyaga chidamliligi *oktan soni* (A) b-n ko'rsatiladi. Izooktanni (2,2,4 – trimetilpentanni) oktan soni 100 (A-100), n – geptanniki 0 (A – 0) ga teng. A – 80 benzinni detonatsiyaga chidamliligi 80% oktan va 20% geptan aralashmasining chidamliligiga teng. Benzinning detonatsiyaga chidamliliginini oshirish uchun unga antideetonator – tetraetylqoroshin $Pb(C_2H_5)_4$ qo'shiladi (oktan sonini 10-20 birlikga oshiradi), u zaharli Sh.u. bunday „etillangan benzin”ga rangli bo'yox qo'shiladi. Undan $C_5H_5Mn(CO)_3$ yaxshiroq antideetonator, chunki u zaharli emas, havoni ifloslantirmaydi.

Neftni haydashda olingan benzinning chiqish unumi kam (5-14%) va sifati – oktan soni past (parafinli neftdan olingani 40-50, naftenli neftdan olingani 65-78) bo'lgani u-n neft mahsulotlari *ikkilanchi qayta ishlanadi*: krekinglanadi (165-bet), reforminglanadi. *Neftni krekinglash* – neftni tarkibidagi katta molekulali uglevodorodlarni (C_{12} dan boshlab) havosiz joyda parchalab, kichik molekulali uglevodorodlarga (asosan benzinga: o'r-tacha C_8 ga) aylantirishdir. Krekinglashni sanoat usulini 1891-yilda V.G.Shuxov ishlab chiqqan. Kreking radikal mexaniznda boradi.

Termik krekinglashda mazutni yuqori (2-7 MPa) bosimda va $470-550^{\circ}C$ da qizdirib parchalab, to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlarga aylantiriladi.



Termik kreking sekin boradi, normal zanjirli uglevodorodlar h/b, olingan benzinni uzoq saqlab bo'lmaydi (tarkibidagi alkenlar oksidlanib, polimerlanib smola h/q), lekin alkenlar tufayli to'g'ri haydab olingan benzinga nisbatan detonatsiyaga chidamli.

Katalitik krekingda aluminosilikatlar ishtirokida mazutni $450-500^{\circ}C$ da, atmosfera bosimiga yaqin bosimda parchalanadi. Bunda alkanlarni, sikloparafinlarni parchalanishidan tashqari, izomerlanib tarmoqlangan zanjirli uglevodorodlarga, halqalanib aromatik uglevodorodlarga aylanishi yuz beradi. Natijada katalitik kreking benzinning termik kreking benzinga nisbatan detonatsiyaga chidamliligi yuqori bo'ladi (oktan soni 77-80). Bu benzinni uzoq saqlash mumkin, chunki tarkibida alkenlar kam bo'ladi. Katalitik kreking tez boradi.

Krekingda benzinning unumi 65-70% ga teng. Krekingda benzindan tashqari tarkibi $C_1 - C_4$ li uglevodorodlardan iborat *kreking gazi* h/b, u kimyo sanoatida xom ashyo sifatida ishlataladi (10,78 rasm).

Reforming (aromatlash) – neftni haydab olingan benzindagi $C_6 - C_8$ li to'g'ri zanjirli alkanlarni, sikloparafinlarni Al_2O_3 , Mo va Pt katalizatorlari ishtirokida $500^{\circ}C$ da qizdirib, aromatik uglevodorodlarga aylantirib benzinni sifatini yaxshilashdir (oktan soni 90-95 gacha oshadi, chunki benzolni oktan soni 108, toluolniki 104). Piiformingda benzin unumi 80-85% ga teng.

Sun'iy yoqilg'i – sintetik benzinni toshko'mimi gidrogenlab va sintez gazdan ham olish mumkin. $8C (ko'mir) + 9H_2 \xrightarrow{{}^1P} C_8H_{18} \quad 8CO + 17H_2 \xrightarrow{{}^1P} C_8H_{18} + 8H_2O$

Organik moddalarni havosiz joyda yuqori temperaturada ($700^{\circ}C$ va undan yuqori)

qizdirib parchalash *piroliz* deyiladi (piro - „olov“). Neftni pirolizlab to`yinmagan uglevodorodlar (etilen, asctilen) va arenlarni olish mumkin. Pirolizga yog`ochni quruq haydash, toshko`mirni kokslash ham kiradi.

9,130 10,79 X,422 A,508 Toshko`mirni kokslash

Toshko`mirni kokslash (pirolizlash) uchun ko`mirni kokslash pechlariga (10,8 l rasm) solib, havo kiritmay gaz bilan 14 soat 1000°C da qizdiriladi. Ko`mir daraxtlardan hosil bo`lgani uchun uni ichidagi naychalaragi moddalar gazga aylanib uchib chiqadi. Natijada naychalar tozalanib g`ovak koks h/b. Koks g`ovak bo`lgani uchun ko`mirga nisbatan yaxshi yonadi. ko`p issiqlik h/q. Sh.u. domna pechlarida cho`yan olishda ishlatiladi. Kokslashda hosil bo`lgan gazlarni gaz yig`gichlarga to`plab, unga kokslashda ajralgan ammiakli suvni sepib (bunda eritmadiagi NH₃, bug`langani uchun tez sovutadi) 25-79°C gacha sovutiladi. Natijada gazlar aralashmasi tindirgichda pastki - toshko`mir smolasi, ustki- ammiakli suv qatlamlariga va koks gaziga ajraladi.

Toshko`mir smolasi 400 dan ortiq aromatik uglevodorodlar, fenollar va geterosiklik birikmalar aralashmasidan iborat. Ularni ajratib olish uchun smola rektifikasion kolonna-da haydaladi. Bunda quyidagi fraksiyalar h/b: 1) *Yengil moy* (t_q 170°C gacha) – arenlar (benzol, toluol ...), tiofen, piridin, CS₂ va boshqalar; 2) *O`rta moy* (170 – 230°C) – fenol, krezoil, naftalin va boshqalar; 3) *Og`ir moy* (230 – 270°C) – naftalin va uning gomologlari; 4) *Antratsen moyi* (270 – 350°C) – antratsen, fenantren va boshqalar; 5) Pek (kuyundi) deb ataluvchi qora qoldiq massasi. Uni tarkibida parafinlar va boshqalar bo`ladi.

Ammiakli suv tarkibida NH₃, NH₄Cl, (NH₄)₂CO₃ bo`ladi, ular azotli o`g`itlar olishga ishlatiladi. Suvga yutilmay qolgan koks gazidagi NH₃ ni koks gazini sulfat kislotanining 6-8% li eritmiasidan o`tkazib (NH₄)₂SO₄ ga aylantirib ajratib olinadi.

Koks gazi tarkibidan qisman suyulmasdan o`tib ketgan benzol, toluol, ksilol, fenollarni ham ajratib olingach asosan 60% H₂, 25% CH₄, 5% CO va boshqa gazlar qoladi. Koks gazi koks pechlarini qizdirishga va H₂ olishga ishlatiladi.

KISLORODLI ORGANIK BIRIKMALAR

XX bob. SPIRTLAR. FENOLLAR

61- dars. 04.02. 9,133 10,84 X,429 A,508 KM,77 Bir atomli to`yingan spirtlar

T: 17-229,230 18-271 43-137 47-40 66-259 96-45 100-176 101-230 104-327
105-390 106-408,420 107-452,456 157-1-4,7,9-13 158-14-16,18,20,23-36,38-44,49
159-51-54,56-67,69-72,77-79,81,82,84,85,87,88 160-90,91,94-97,100-107,110,113-116,
,119-121 161-124-133,135-144,146-152 162-153-155,157-164,166-168,171-173,175,
,178,180-182,184-186,188,189,191,193 163-195,197,199,202,203,207-211,214,215,
,217,223,225-228 164-230-232,234-236,239-242

O`tgan darslarimizda tarkibida C va H tutgan organik moddalar – uglevodorodlarni o`rgandik. Bu darsdan boshlab tarkibida C, H dan tashqari O tutgan organik moddalarni o`rganishni boshlaymiz. *Kislородли органик мoddаларга* tarkibida funksional guruh sifatida: -OH gidrosil gruppa tutgan spirtlar, fenollar; >C = O karbonil gruppa tutgan alde-

gidlar, ketonlar; -COOH karboksil gruppasi tutgan karbon kislotalar; -O- li oddiy efirlar, -COO- tutgan murakkab efirlar, yog'lar; -OH, >C=O, -O- tutgan ug'evodlar kirdi.

Spirtlar (alkagollar) - uglevodorod radikaliga bir yoki bir necha -OH gidrosil gruppasi birikishidan hosil bo'lgan organik moddalar: R - OH. Xillari: a) OH soniga qarab: bir atomli (1 ta OH li), ikki atomli (2 ta OH bor) va ko'p atomli (OH ko'p) spirtlarga, b) radikaliga qarab: to'yingan, to'ymagan, aromatik spirtlarga va fenollarga; c) OH ni nechalamchi C ga birikganiga qarab: birlamchi (R - CH₂ - OH), ikkilamchi (R₂CH - OH), uchlamchi (R₃C - OH) spirtlarga bo'linadi.

Bir atomli to'yingan spirtlar - radikal to'yingan, 1 ta OH tutgan spirtlar. Umumiy formulasi: R - OH → C_nH_{2n-1}OH → C_nH_{2n-2}O, molekulyar massasi M = 14n + 18.

9,133 10,86 X,429 A,510 Iz., nom. Ratsional nomlashda tegishli radikal nomiga spirt so'zini qo'shib, xalqaro nomenklaturada mos alkanni nomiga -ol qo'shimchasini qo'shib nomlanadi. Nomerlash -OH yaqin tomondan boshlanadi. Bir atomli to'yingan spirtlarda C zanjiri va OH holati bo'yicha izomerlar bor. Butil spirt yoki butanolning izomerlarini topamiz. C_nH_{2n-1}OH → C₄H₉OH → C₄H₉OH Dastlab normal, keyin tarmoqlangan C zanjirli izomerlarni topamiz. OH ni dastlab chekkaga biriktiramiz, keyin o'rtaqa qarab siljitalimiz.

- 1) $\overset{\bullet}{C}H_3 - \overset{\bullet}{C}H_2 - \overset{\bullet}{C}H_2 - \overset{\bullet}{C}H_2 - OH$ butanol-1, birlamchi butil spirt;
- 2) $\overset{\bullet}{C}H_3 - \overset{\bullet}{C}H_2 - \underset{OH}{\overset{\bullet}{C}}H - \overset{\bullet}{C}H_3$ butanol-2, ikkilamchi butil spirt;
- 3) $\overset{\bullet}{C}H_3 - \overset{\bullet}{C}(CH_3) - \overset{\bullet}{C}H_2 - OH$ 2-metilpropanol-1, izobutil spirt;
- 4) $\overset{\bullet}{C}H_3 - \overset{\bullet}{C}(CH_3) - \overset{\bullet}{C}H_2 - OH$ 2-metilpropanol-2, uchlamchi butil spirt.


To'yingan bir atomli spirtlarga to'yingan oddiy efirlar izomerdir. Sh.u. C₄H₁₀O moddani izomerlari so'ralsa, spirtlardan tashqari oddiy efirlar ham topiladi. **Oddiy efirlar** 2 ta uglevodorod radikalini kislorod orqali o'zaro birikishidan hosil bo'lgan organik moddalar: R - O - R. Murakkab efirlardan (R - C(O) - OR) farq qilib oddiy efirlar suv bilan gidrolizlanmaydi, faqat kons. H₂SO₄, HI larda parchalanadi.

- 1) C₂H₅ - O - C₂H₅, dietil efir (narkoz)
- 2) CH₃ - O - CH₂ - CH₂ - CH₃, metilpropil efir;
- 3) $\overset{CH_3}{C}H_2 - O - \overset{CH_3}{C}H - CH_3$, metilizopropil efir. Shunday qilib C₄H₁₀O tarkibli spirtlar so'ralsa 4 ta oddiy efirlar so'ralsa 3 ta, barcha izomerlar soni so'ralsa 4 + 3 = 7 ta deb ishlanadi.

9,135 10,88 X,434 A,511 KM,78 Ol.

Sanoatda: 1) Alkenlarni hidratlab: $CH_2 = \overset{\bullet}{C}H_2 + HOH \xrightarrow[260-300^{\circ}C, 7,2 \text{ atm} / 0,02 \text{ Pa}]{} CH_3 - CH_2 - OH$ (birlamchi spirt) etil spirt, etanol, gidroliz spirti, vino spirti, tibbiyot spirti. Rangsiz, o'ziga xos (aroq) hidli suyuqlik, 78°C da qaynaydi, yonadi. Zaharli.

narkotik modda. Etil spirtli ichimliklarni (aroq, vino, pivo) hatto oz-ozdan doimiy ichish alkogalizmga olib keladi. Natijada jigar, yurak, miyani kasallanishi, ruhiyatni buzilishi, naslni aynishi yuz beradi.



2) Etil spirtni glukozani bijg'itib olish mumkin.

$C_6H_{12}O_6$ (glukoza, uzum shakari) $\xrightarrow{\text{ferment}}$ $2C_2H_5OH + 2CO_2 \uparrow$ vino tayyorlash
 $C_{12}H_{22}O_1$ (shakar) + HOH $\rightarrow C_6H_{12}O_6$ (fruktoza) + $C_6H_{12}O_6$ (glukoza) $\xrightarrow{-CO_2}$ $2C_2H_5OH$
 Kraxmal (kartoshka, bug'doy), selluloza (yog'ochni) dastlab kislotali muhitda gidrolizlab, so'ngra hosil bo'lgan glukozani bijg'itib etanol olish mumkin. Sh.u. ham bu usulda olingan etanol *gidroliz spirti* deyiladi.

Kraxmal, selluloza: $(-C_6H_{10}O_5 -)_n + nHOH \xrightarrow{\text{nyah}} 2C_2H_5OH + 2CO_2$

3) Sintez gaz yoki suv gazidan olish

$CO + 2H_2 \xrightarrow{300-400^{\circ}C, 5-10 MPa, CuO, ZnO} CH_3OH$ metil spirt, metanol, karbinol, yog'och spirti.
 Metil spirt rangsiz suyuqlik, kuchli zahar (30 g gachasi ko'r qiladi, ko'prog'i o'ldiradi).
 Yog'ochni piroлизlab – quruq haydab olingani uchun yog'och spirti deb ham nomlangan.

4) Metanolni metanni chala oksidlab ham olish mumkin: $CH_4 + 0,5O_2 \rightarrow CH_3OH$

Laboratoriya da: 1) Alkanlarni galogenli hosilalariga ishqorlarning suvli eritmalarini ta'sir ettirib: $C_2H_5Cl + KOH$ (suv) $\rightarrow C_2H_5OH + KCl$. Agar reaksiya ishqorni spirti eritmasi bilan olib borilsa alken h/b: $C_2H_5Cl + KOH$ (sp.) $\rightarrow CH_2 = CH_2 + KCl + H_2O$.

2) Alkenlarni hidratlab: $CH_3 \xrightarrow[CH_3]{\overset{\text{III}}{C} = \overset{(-)}{C} H_2 + \overset{(+)}{H} OH} CH_3 - \overset{\text{II}}{C}(CH_3) - \overset{\text{III}}{C} H_3 - OH$ (uchlamchi sp.)

3) Gidrogenlab aldegidlardan birlamchi spirt, ketonlardan ikkilamchi spirt olish mumkin. $CH_3 - \overset{\text{O}}{\underset{H}{\text{C}}} \text{ (sirka ald.)} + H_2 \xrightarrow{\text{t.kur}} CH_3 - CH_2 - OH$ birlamchi spirt


$CH_3 - \overset{\text{O}}{\underset{O}{\text{C}}} - CH_3$ (aseton, dimetilketon) + $H_2 \xrightarrow{\text{t.kur}} CH_3 - \overset{\text{O}}{\underset{OH}{\text{C}}} - CH_3$, izopropil spirt ikkilamchi spirt

4) Murakkab eifirlarni hidrolizlab: $CH_3 - \overset{\text{O}}{\underset{O}{\text{C}}} - H_3 + HOH \rightarrow CH_3COOH + C_2H_5OH$

9,134 10,89 X,431 A,512 F/x. Tarkibi C_{15} gacha bo'lgan spirtlar o'ziga xos hidli suyuqliklar, C_{15} dan boslab qattiq moddalar. Dastlabki vakillari ($C_1 - C_3$) suvda cheksiz eriydi, keyingilarida radikal kattalaishishi bilan suvda eruvchanligi kamayadi, chunki radikal qutbsiz. Spirlarning suyuq bo'lishiga va suvda eruvchanligiga sabab OH hisobiga H – bog' hosil bo'lishidir (10,89).

9,134 10,90 X,431 A,513 KM,78 K/x. Spirtlar OH, OH dagi H va radikaldagi H hisobiga r/k.

1) Aktiv metallar spirtlardan H_2 ni siqib chiqaradi (~suv).




Hosil bo`lgan alkogolyatlar faqat eritmada mavjud, spirtlar juda kuchsiz elektrolit bo`lgani uchun alkogolyatlar oson gidrolizlanadi. $C_2H_5ONa + HOH \rightleftharpoons C_2H_5OH + NaOH$

2) Degidratlanish reaksiyasi.


- a) $CH_3 - CH_2 - OH \xrightarrow{120^{\circ}C, H_2SO_4} CH_2 = CH_2 + H_2O$ ichki molekulyar degidratlanish
 b) $C_2H_5OH + HOC_2H_5 \xrightarrow{120^{\circ}C, H_2SO_4} C_2H_5OC_2H_5 + HOH$ molekulalararo degidratlanish

3) Eterifikasiya reaksiyasi – spirtlarni kislorodli anorganik yoki organik kislotalar bilan murakkab efirlar hosil qilishi. Bu reaksiyada suv hosil bo`lishida H atomi spirtdagi OH dan ketadi, OH esa kislotadan ketadi (198- bet; I,160).



4) Galovodorodlar bilan almashinish r/k. $CH_3OH + HBr \xrightarrow{H_2SO_4} CH_3Br + HOH$


5) Oksidlanish reaksiyalari. a) Kuchli oksidlovchilar ($KMnO_4$, $K_2Cr_2O_7$) yoki Cu Ota`sirida birlamchi spirtlardan aldegidlar, ikkilamchi spirtlardan ketonlar h/b (olinishini teskarisi). $CH_3 - CH_2 - OH + CuO \xrightarrow{-H_2O} CH_3 - C(H) - C_2H_5$ (sirka ald.) + Cu + HOH



b) Katalitik oksidlanishi: $CH_3 - CH_2 - OH + O_2 \xrightarrow[HOH]{Cu^{+2}} CH_3COOH$ sirka kislota

c) Yonishi: $C_2H_5OH + 3O_2 \rightarrow 2CO_2 + 3H_2O$



6) Degidrogenlash – degidratlash reaksiyasi (Lebedev reaksiyasi).



9,135 10,91 Ish. Etanol spirtli ichimliklar tayyorlashda, sintetik kauchuk, sirka kislota, dorilar (dietil efir narkoz, etil xlorid og`riqsizlantirishda, yodni spirtli eritmasi va spirtni o`zi antiseptik), tutunsiz porox olishda, parfumeriyada (atir, odekolonlarda erituvchi), dvigatellarga yoqilg`i, erituvchi sifatida ishlataladi. $CH_3CH(CH_3)CH_2CH_2OH$ izopentil spirt sui mahsulotlarini yog`lilagini aniqlashga reagent, metanol formaldegid olishda ishlataladi. Denaturatsiyalash – texnik spirtni ichishga yaroqsiz qilish uchun qo`lansa ta`mli moddalar, bo`yoqlar qo`shish.



9,137 10,94 X,435 A,516 KM,79 Ko`p atomli spirtlar

Ko`p atomli spirtlar – tarkibida ikki va undan ortiq OH tutgan spirtlar. Ikki atomli spirtlar diollar yoki glikollar (glyukis – „shirin”), uch atomli spirtlar triollar deyiladi




Ko'p atomli spirtlarda OH lar turli C larda joylashadi, bitta C da 2 ta OH bo'lomaydi, chunki bunday moddalar beqaror bo'ladi (M., karbonat kislota), parchalanib aldegidlarga yoki ketonlarga aylanib ketadi (190- bet).

9,138 10,95 X,437 A,516,519 OI. Glitserinni 1- marta 1779- yil K. Sheyele olgan.



Laboratoryada. 1) Alkanlarni tegishli galogenli hosilalariga ishqorlarni suvli eritmalarini ta'sir etdirib: $\begin{array}{c} CH_2 - CH_2 \\ Cl \quad Cl \end{array} + 2NaOH \text{ (suv)} \rightarrow \begin{array}{c} CH_2 - CH_2 \\ OH \quad OH \end{array} + 2NaCl$




2) Etilenglikolni etilenni $KMnO_4$ bilan oksidlاب olish mumkin (171- bet). $CH_2 = CH_2 + H_2O \xrightarrow{-[O]} CH_2(OH) - CH_2(OH)$


9,137 10,96 A,517,520 F/x. Etilenglikol, glitserin shirin ta'mli, qiyomsimon suyuqlilar, tarkibida OH ko'p bo'lgani uchun suvda cheksiz eriydi, gigroskopik (havodagi suv bug'larini yutuvchi) moddalar. Etilenglikol juda zaharli (sh.u. undan tayyorlangan antifrizga zaharliligidan ogohlantirish uchun bo'yoq qo'shiladi), glitserin esa aksincha zaharli emas, foydalı oziq modda, chunki yog'larni tarkibiga kiradi.

9,137 10,96 X,435,437 A,517,520 KM,79 K/x. Ko'p atomli spirtlar bir atomli spirtlardek r/k, lekin OH ko'p bo'lgani uchun o'ziga xos xossalarga ega.


1) OH larning o zaro ta'siri natijasida O - H bog'i bo'shashadi, natijada ko'p atomli spirtlar bir atomli spirtlardan farq qilib, ishqoriy metallardan tashqari ishqorlar bilan ham ta'sirlasha oladi, ya'ni kislotaligi kuchaygan bo'ladi.



2) Yangi tayyorlangan $Cu(OH)_2$ ($CuSO_4 + NaOH$) bilan ko'k rangli kompleks h/q. Bu reaksiya ko'p atomli spirtlarga sifat reaksiyadir.



3) Ko'p atomli spirtlar bir atomli spirtlardek eterifikatsiya r/k. a) Glitserin yog' kislotalar bilan murakkab efirlar - yog'larni h/q (200 - bet). b) Glitserin HNO_3 bilan nitroglitserin - nitrat kislotaning murakkab efirini h/q (10,97).



„Nitroglitserin” tarixiy nomlash bo`lgani uchun saqlanib qolgan, aslida noto g`ri, chunki u nitrobirkma emas murakkab efir. Nitrobirkma bo`lish uchun NO_2 - nitrogruppadağı azot C bilan bevosita birikishi kerak. Nitroglisterin – og`ir moysimon suyuqlik, silkinish yoki zarba ta`sirida portlaydi, lekin spirtli eritmasi portlamaydi.


Ish. Etilenglikol, glitserindan sovuqda muzlamaydigan eritmalar – *antifrizlari* tayyorlanadi. Etilenglikol lavsan tolsi olishga ishlataladi. Glitserin tibbiyotda qonni saqlashda, qo`l terisini yumshatishda, nitroglitserinni 1% li spirtli eritmasi qon tomirlarni kengaytirovchi (qon bosimini pasaytiruvchi) dori sifatida ishlataladi. Alfred Nobel 1867- yil nitroglitserinni yog`och qipig`i yoki infuzor tuproqqa shimdirlib *dynamitni* kashf etdi.

62- dars. 06.02. 9.139 10,99 X,438 A,522 KM,80 **Fenollar** T: 44-158 107-447
 157-6,8 158-17,19,22,37,45-48 159-50,55,68,73,75,76,80,83,86 160-89,92,93,98,99,
 ,108,109,111,112,117,118,122 161-123,134,145 162-156,165,169,170,174,176,177,179,
 ,183,187,190,192 163-194,196,198,200,201,204-206,212,213,216,218-222,224
 164-229,233,237,238


Tarkibida OH tutgan aromatik birikmalar 2 xil bo`ladi: 1) Aromatik spirtlar; 2) Fenollar
Aromatik spirtlar - OH gruppaga bevosita benzol halqasiga birikmagan, ya`ni OH yon zanjirda joylashgan organik moddalar. $C_6H_5CH_2OH$ benzil spirt, lenilmekanol ($C_6H_5CH_2-$ benzil radikali deyiladi). Aromatik spirtlarni xossalari bir atomli to yingan spirtlarga o`xshaydi.

Fenollar OH gruppaga bevosita benzol halqasiga birikishidan hosil bo`lgan organik moddalar. Fenollar OH soniga qarab bir atomli (fenol, krezo), ikki atomli (pirokatezin), uch atomli (piragallol) va ko`p atomli bo`ladi.

I2, nom. C_6H_5OH fenol (C_6H_5- fenil, OH- ol), karbol kislota. $CH_3C_6H_4OH$ krezo yoki metilfenolning izomerlarini topamiz. Fenollar ni nomlashda benzol halqasidagi C lar OH birikkan C dan boshlab nomerlanadi.



Testda C_7H_8O fenollarini izomerlari so`ralsa 3 ta, C_7H_8O tarkibli OH tutgan aromatik moddalar so`ralsa benzil spirtni ham qo'shib 4 ta izomeri bor deb yechiladi. Ikki atomli fenollar - $C_6H_4(OH)_2$ benzoldiollar yoki (o-, m-, p-) dioksibenzollar:



Uch atomli fenollarga piragallol (1,2,3-trioksibenzol) $C_6H_3(OH)_3$ misol bo`ladi.

9,140 10,100 X,440 A,523 KM,80 Ol. Laboratoriyada fenolni olish qiyin. Sanoatda toshko'mir smolasidan haydab va xlorbenzoldan, asosan kumoldan (izopropilbenzoldan) sintez yo'li bilan olinadi. Fenolni 1- marta 1851- yil P.E.Bertlo olgan.

1) Xlorbenzoldan olish. V,124-125: Xlorbenzolda xlor atomi 1 ta C_T sini halqaga siljib π-elektronlari b-n tutashishi hisobiga kuchsizroq +M mezomer (tutashish) effektiga ega, sh.u. galogenlar orto-para orientat bo'ladi. Ammo galogen bir paytni o'zida benzol halqasiga nisbatan kuchli -I induksion effektiga ega, ya'ni halqani elektronlarini o'ziga siljitali va -I effekti +M effektdan kuchli bo'ladi: -I > +M.

Natijada halqani elektron zichligi benzolga nisbatan kamaygani uchun xlorbenzolni halqada boradigan H ga almashinish reaksiyalari benzolga nisbatan qiyinlashadi; C - Cl bog'ini elektron zichligi ortib bog'ni mustahkamligi kuchaygani uchun xlorni OH ga almashishi qiyin sharoitda boradi: C₆H₅Cl + NaOH → C₆H₅OH + NaCl


2) „Kumol usulida” olish C₆H₆ → CH₂ = CH - CH₃ → C₆H₅ - CH(CH₃)₂ kumol + O₂ → C₆H₅OH + CH₃ - C(O) - CH₃ aseton. Hozirda fenol va asetonni hammasi shu usulda olinmoqda.

9,140 10,101 X,438 A,522 F/x. Fenol o'ziga xos hidli, rangsiz kristall. Zaharli, terini kuydiradi. Suvda kam eriydi.

9,140 10,101 X,438 A,524 K/x. V,124-125: Xlorbenzoldan farq qilib fenolda OH guruhini -I induksion effekti, OH dagi 1 ta C_T ni halqaga siljib halqani π-elektronlari bilan tutashishidan hosil bo'lgan juda kuchli +M mezomer effektdan ancha kuchsiz: -I << +M. Shu sababli kislordan elektron zichligini halqa tomon siljishi natijasida: 1) Halqani elektron zichligi ortadi, sh.u. fenol almashinish reaksiyalariga benzolga nisbatan oson kirishadi. M., brom HNO₃, b-n oddiy sharoitda katalizatorsiz, qizdirilmasa ham ta'sirlashadi; 2) O - H bog'i bo'shashgani uchun H ajralishi osonlashadi, natijada fenolni kislotaligi ko'p atomli spirtlarnikidan kuchli, lekin organik kislotalardan, karbonat kislota dan kuchsiz bo'ladi. Sh.u. fenol karbol kislota ham deyiladi, lekin kislotaligi ancha kuchsiz: laksusni o'zgartirmaydi. P.: Fenoldagi O ni OH da (anilindagi N ni NH₂ da) NEM kattaligiga qaramasdan Cl ga nisbatan -I ni kichikligiga sabab: Cl elektrotortish kuchini faqat halqaga qaratilganligi, O (N) ni elektron tortish kuchini esa ham halqaga, ham H ga bo'linib kamayishidir.

1) Ishqorlar, ishqoriy metallar b-n: C₆H₅OH + NaOH → H₂O + C₆H₅ONa
C₆H₅OH + Na → 0,5H₂↑ + C₆H₅ONa C₆H₅ONa + CO₂ + H₂O → C₆H₅OH + NaHCO₃


2) Halqadagi almashinish reaksiyalar.



Pikrin kislotaning kuchi HCl ga yaqin, ya'ni kislotaligi fenolga nisbatan juda kuchli. Bunga sabab 3 ta NO₂ ni halqaning elektronlarini tortishi natijasida O – H bog'i fenolga nisbatan ko'proq bo'shashadi (NO₂ ni elektron tortishi ftordan, >C=O dan kuchli! V.122).

3) Formaldegid bilan polikondensat lab senoplastlar olinadi (192 - bet).

4) Fenollar FeCl₃ bilan binafsha rangli modda h/q (SR).



9,141 10,103 X,441 A,527 Ish. Fenol yonmaydigan, suyuqlanmaydigan fenoplastlar olishda (elektr rozetka, vilka, patronlari), suvli eritmasi *karbol kislota* nomi bilan ja'rohlikda, sartaroshxonalarda asbotlarni sterillashda ishlataladi. Fenoldan olinadigan fenolftalein indikator, surgu dori sifatida; gidroxinon, piragallol fotografiyada ochiltirgich, pikrin kislota kuyishga dori, portlovchi modda sifatida ishlataladi.

XXI bob. ALDEGIDLAR. KETONLAR. KARBON KISLOTAJAR


63- dars. 09.02. 9,141 10,108 X,441,447 A,527,534 KM,81,83

Aldegidlар va ketonlar (Oksobirirkmalar) T: 46-8 48-92,93 62-101-103 74-576
75-617 101-225 106-425 127-15 164-1-12 165-13-52 166-53-88 167-89-93

Aldegidlар - uglevodorod radikaliga aldegid gruppa -CHO birikishidan yoki >C = O karbonil gruppaga uglevodorod radikali va H birikishidan hosil bo'lgan organik moddalar. *Ketonlar* - > C = O karbonil (keto yoki okso) gruppaga 2 ta uglevodorod radikali birikishidan hosil bo'lgan organik moddalar: R - C(=O)_H aldegid, R - C(=O) R keton.




Aldegidlар radikaliga qarab: 1) alifatik yoki to'yingan (alkanallar); 2) to'yinmagan (alkenallar, alkinallar); 3) aromatik (arenallar) xillarga bo'linadi.

9,141 10,110 A,528 KM,81 Iz., nom. To'yingan aldegidlар to'yingan radikalli ketonlarga izomer bo'ladi. Ularning umumiy formulasi C_nH_{2n}O, mos ravishda molekulyar massasi M = 14n + 16. Aldegidlarda faqat C zanjiri bo'yicha izomerlar bo'ladi, chunki nomerlash doim aldegid gruppadan boshlanadi. Ketonlarda C zanjiri va karbonil gruppani holati bo'yicha izomerlar bor. Xalqaro nomlashda aldegidlarda mos alkan nomiga -an, ketonlarda -on qo'shimchasi qo'shiladi. Tarixiy nomlashda aldegidlarni mos karbon kislota nomidagi kislota so'zini aldegid so'ziga almashtirish bilan nomlanadi.





M.C₅H₁₀O moddani izomerlarini toping. Ye: C₅H₁₀O → C₅H₁₀,5O → C_nH_{2n}O umumiy formulaga mos kelgani uchun moddamiz aldegid, ketonlarga kiradi. Dastlab mos aldegid-

larni faqat C skeleti bo'yicha topamiz: 1) $\text{C}-\text{C}-\text{C}-\text{C}-\text{C}=\text{O}$ pentanal





9,144 10,111 X,444 A,529,535 KM,82,84 Ol. T: *Laboratoriya da:*


1) Birlamchi spirtlarni oksidlاب aldegidlarni, ikkilamchi spirtlarni oksidlاب ketonlarni olish mumkin. $\text{CH}_3\text{OH} + 0,5\text{O}_2 \xrightarrow{-\text{H}_2\text{O}, \text{CuO}} \text{H}-\text{C}=\text{O} + \text{H}_2\text{O}$



2) Alkanlarning digalogenli hosilalarini hidrolizlab: 2 ta galogen chekkadagi C ga birikkan bo'lsa aldegid, o'rtradagi C ga birikkan bo'lsa keton h/b.




Sanoatda: 1) Alkinlardan Kucherov reaksiyasi bo'yicha: asetilenidan sirka aldegid, asetilen gomologlaridan ketonlarni olish mumkin.



2) Alkenlarni oksidlаб: $\text{CH}_2=\text{CH}_2 + 0,5\text{O}_2 \xrightarrow{+\text{Cu, Fe, Pd, Ni, Pt}} \text{CH}_3-\text{CHO}$

3) Metandan chumoli aldegid olish (eng qulay iqtisodiy usul).





F/x. Chumoli aldegid o'tkiz hidli, zaharli gaz. Suvda eriydi, 40% li eritmasi formalin deyiladi. Sirka aldegid o'tkir hidli, zaharli suyuqlik. Moy, valerian (pentanal) aldegidlar ham suyuqliklar, keyingilari qattiq moddalar. Aseton - o'ziga xos hidli uchuvchan suyuqlik ($t_g = 56^\circ\text{C}$). Eng ko'p ishlataladigan organik erituvchi, suvda ham, efirda ham eriydi. Aldegid, ketoilar O-H guruhni bo'limgani uchun H-bog' hosil qilmaydi. Sh.u. qaynash temperaturalarini mos spirit va karbon kislotalarnikidan past. Kuchli qutblangan $> \text{C}=\text{O}$ bog'i borligi uchun molekulalari qutbli bo'ladi, sh.u. suvda eriydi. Radikal kattalashishi bilan suvda eruvchanligi kamayadi, chunki radikal qutbsiz.


9,142 10,112 X,443 A,530 KM,82,84 K/x. Karbonil gruppadagi $>C=O$ bogi harakatchan π -bogi hisobiga va O faqat C dan elektron tortgani uchun (spirtda C va H dan) spirtlardagi C – O bogi iga nisbatan kuchli qutblanadi. Bu qutblanish ta'sirida karbonilni C – H bogi ham bo'shashadi. Sh.u. aldegidlar spirtlarga nisbatan aktiv bo'ladi: karbonildagi C – H bogi oson oksidlanadi, π -bogi ni uzilishi hisobiga R → $\overset{(+)}{C} \overset{(-)}{O}$ bo'lgan birikish, polimerlanish r/k. Karbonildagi C $3\sigma = sp^2$ gibridlangan, sh.u. bogi lanishlar 120° burchak bo'yicha amalgalashadi.

$\text{H} \rightarrow \overset{(+)}{C} \overset{(-)}{O} > \text{CH}_3 \rightarrow \overset{(+)}{C} \overset{(-)}{O} > \text{CH}_3 - \overset{(+)}{C} \overset{(-)}{O} - \text{CH}_3$ Karbonildagi C ni qisman musbat zaryadi qancha katta bo'lsa, oksobirkma shuncha aktiv bo'ladi. Sh.u. aldegidlarning ichida eng aktiv chumoli aldegiddir, chunki radikalni elektronni o'zidan siljitsi (+ I si) H dan kuchli bo'lganini u-n C dagi qisman (+) zaryadni ko'proq kamaytiradi. Ketonlarda esa 2 ta radikal bo'lagini u-n bu kamayish yanada kuchli bo'ladi, sh.u. ketonlar aldegidlarga nisbatan passiv.

I) Birikish reaksiyaları. a) Gidrogenlashda aldegidlardan birlamchi spirt, ketonlar dan ikkilamchi spirt h'b.




b) Gidrosulfitlarni biriktirish reaksiyası.



c) Sianid kislotani birikishi: $\text{H} - \text{CHO} \rightleftharpoons \text{H} - \overset{(+)}{C} \overset{(-)}{N}$ oksinitrillar

2) Oksidlanish reaksiyaları. Oksidlanish tor ma'noda O biriktirish, keng ma'noda elektron berishdir (-e). Qaytarilish tor ma'noda H biriktirish, keng ma'noda elektron olishdir (+e). Demak modda oksidlansa, uni tarkibida O soni ortadi, qaytarilsa O karnayib H ko'payadi.

a) „Kumush ko'zgu” reaksiyasida aldegidlar AgNO_3 ga ammiakli suv ta'sir ettirib olingan kumush kompleksi $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{OH}$ bilan oksidlanib karbon kislotaiga aylanadi. Soddalashtirib kompleks emas, Ag_2O ni ammiakli eritmasi bilan reaksiya yoziladi. Reaksiyada ajralgan kumush probirka devoriga yopishib ko'zgu h/q.





Agar Ag_2O mo'l bo'lsa, chumoli kislota aldegid gruppasi hisobiga yana oksidlanib karbonat kislotaiga aylanib parchalanib ketadi.




Yakuniy reaksiya: $\text{HCHO} + 2\text{Ag}_2\text{O} \xrightarrow{\text{NH}_3\text{H}_2\text{O}} \text{CO}_2 \uparrow + \text{H}_2\text{O} + 4\text{Ag} \downarrow$


b) Yangi tayyorlangan $Cu(OH)_2$ ($CuSO_4 + NaOH$) bilan oksidlashda dastlab sariq $CuOH$, keyin qizil Cu_2O cho'kmalari h/b. Bu reaksiya ham, yuqorida ko'rildigan „kumush ko'zgu” reaksiyasi ham aldegidlarga sifat reaksiyalardir. Bu reaksiyalarga ketonlar kirishmaydi, chunki ularda $C = O$ bilan bog'langan H yo'q.



c) Ketonlar kuchli oksidlovchilar ta'sirida karbon kislotalar aralashmasini h/q.




3) Polimerlanish reaksiyalar. a) Butlerov reaksiyasi.




b) Parafom - parformaldegid ($n = 8 - 100$), poliformaldegid (PF) – polioksimetilen ($n = 1000 - 4000$) olish reaksiyasi: $nCH_2 = O \rightarrow (-CH_2 - O -)_n$

4) Polikondensatlanish reaksiyasi – polimer bilan birga kichik molekulali moddalar (suv, NH_3 , HCl) hosil bo`ladigan reaksiyalar.

a) Fenoplastlar (fenol-formaldegid smolalar) olish.



b) Aminoplastlar (karbamid smola) olish.



Ish. Chuniali aldegid formalin tayyorlashga, paroform, PF, fenoplastlar, aminoplastlar olishda ishlatalidi. Formalin kuchli antisептик bo'lgani uchun biologik preparatlarni saqlashda, terini oshlashda, urug'larni dorilab (qorakuyaga qarshi) ekishda, dezinfeksiyalashda ishlatalidi. Paroform dezinfeksiyalashda, PF mexanik mustahkam bo'lgani uchun masina detallari, pylonkalar, tolalar, aminoplastlar elektrotexnikada g'ovak penoplastlar (peno – ko'zik) olishda ishlatalidi. Sirka aldegid sirka kislota olishda, organik sintezda ishlatalidi. Halqali trimeri – paraldegid uyqu doril (X,445).

64-dars. 11.02. 9,145 10,115 X,448 A,537 KM,85 Karbon kislotalar T: 21-413

40-22 41-81 44-160,182,188,193 45-222 48-88 49-111 64-185 67-304 68-341
71-467,477 72-493,497 75-658 81-140 83-211 84-225,240,255 100-178 103-315

Karbon kislotalar – tarkibida uglevodorod radikaliga birikkan bir yoki bir necha karboksil gruppa - COOH tutgan organik moddalar. Xillari: a) COOH soniga qarab *bir asosli, ikki asosli va ko'p asosli* karbon kislotalar bo'ladi; b) *radikaliga qarab to'yingan, to'yinmagan va aromatik* karbon kislotalar bo'ladi. To'yingan va to'yinmagan karbon kislotalarning ba'zilari yog'lar tarkibida uchragani uchun ular *alifatik yoki yog' kislotalari* ham deyiladi.

Bir asosli to'yingan karbon kislotalar

Bir asosli to'yingan karbon kislotalar – tarkibida to'yingan - alkil radikaliga 1 ta COOH birikkan karbon kislotalar. Umumiy formulasi R - COOH → C_mH_{2m+1}COOH = C_nH_{2n}O₂ bu yerda n = m+1. Mos ravishda molekulyar massasi M = 14n + 32. Bu kislotalarga to'yingan murakkab efirlar izomer.

Iz.nom. Bir asosli to'yingan karbon kislotalarda aldegidlardagidek faqai C zanjiri bo'yicha izomeriya bor, chunki xalqaro nomlashda nomerlash COOH dagi C dan boshlanadi. Tarixiy nomlari kislota dastlab olingan xom-ashyoga qarab aytilgan (yodlang): 1) HCOOH chumoli kislota, metan kislota; 2) CH₃COOH sirka kislota, asetat kislota, etan kislota; 3) CH₃CH₂COOH propion yoki propan kislota; 4) CH₃CH₂CH₂COOH moy yoki butan kislota; $\overset{\text{C}}{\text{C}}\text{H}_3-\overset{\text{C}}{\text{C}}\text{H}(\text{CH}_3)-\overset{\text{C}}{\text{C}}\text{OOH}$ izomoy yoki 2-metilpropan kislota; 5) CH₃(CH₂)₃COOH valerian yoki pentan kislota; 6) CH₃(CH₂)₄COOH kapron yoki geksan kislota (6 ta C = nomi 6 ta harfli);

C₁₅H₃₁COOH palmitin yoki geksadekan kislota (palmitin → pyatnadsat: R da 15 ta C). C₁₆H₃₃COOH margarin yoki geptadekan kislota; C₁₇H₃₅COOH stearin (→ seninadsat: R da 17 ta C) yoki oktadekan kislota.

10,118,120 X,452 A,545 KM,85 OI.

Laboratoriyyada: 1) Tegishli tuzlariga sulfat yoki xlorid kislota ta'sir ettirib
2CH₃COONa natriy asetat + H₂SO₄ → 2CH₃COOH + Na₂SO₄

2) Aldegidlarni oksidlab: CH₃CHO + Ag₂O → CH₃COOH + 2Ag↓

Sanoatda: 1) Alkanlarni oksidlab: CH₄ + 1,5O₂ → HCOOH + H₂O
C₄H₁₀ + 2,5O₂ → 2CH₃COOH + H₂O N.M.Emanuel usuli, eng salnarali usul
C₁₆H₃₄ + 2,5O₂ → 2C₁₇H₃₅COOH + H₂O

2) Spirtlardan olish: C₂H₅OH + O₂ → CH₃COOH + H₂O

3) Aldegidlardan olish: CH₃CHO + 0,5O₂ → CH₃COOH

4) Is gazidan foydalanib olish: CH₃OH + CO → CH₃COOH
NaOH + CO → HCOONa → HCOOH


5) Ba`zi yuqori yog` kislotalar yog`larni gidrolizlab olinadi (200- bet).

10,118 T/u. Organik moddalar oksidlanishini oxirgi mahsuloti bo`lgani uchun tabiatda ko`p uchraydi. Chumoli kislota chumolida, qichitqi o`tda, archada bor. Moy kislota achi-gan moyda, valerian kislota valerian o'simligi ildizida bo`ladi.

9,146 10,119 X,452,453 A,540 KM,85 F/x. Dastlabkilari o`ziga xos o'tkir hidli suvda yaxshi eriydigan suyuqliklar (M., sirkal kislota, rus. uksusnaya kislota), palmitin kislotalidan boshlab hidsiz, qattiq, suvda erimaydigan moddalar. Radikal kattalashishi bilan eruvchanlik kamayadi. Gazsimon vakillari yo'qligiga, $\text{CH}_3 - \text{C}(\text{O})_2 \text{HO} \rightleftharpoons \text{C}(\text{O})_2 \text{H}$, suvda eruvchanligiga sabab H bog` borligidir (OH gruppasi bor). Sh.u. hatto bug`ida ham dimer holda uchib yuradi.

9,47 10,119,121 X,450 A,540 KM,86 K/x. Karbon kislotalarda karboksil gruppasi dagi C $3\sigma = \text{sp}^2$ gibriddlangani uchun C va unga bog`langan O lar bitta te-kislilikda joylashgan. Bu atomlar bitta tekislikda joylashgani va qo'shbog` - R → C(+)O(H) ← H -
dagi elektron zichlikni O ga tomon siljishi natijasida O – H dagi O ni I ta C₁ sini mezomer effekt bo'yicha π bog` bilan tutashib C ga tomon siljishi yuz beradi (P. C = O dagi O faqat C dan, OH dagi O esa ham C, ham H dan elektron tortgani u-n C = O dagi O ni elektron tortishi kuchli). Natijada O – H bog`i bo'shashadi, H ajralishi osonlashadi: kislotalik xossasi paydo bo'ladi, larmusni qizartiradi. Tutashish sababli karbon kislotalar anionida C = O (1,22 Å) va C – O (1,36 Å) bog`lari tenglashib uzunligi bir xil - 1,27 Å bo`lib qoladi (A,541): $\left[\text{R} - \text{C}(=\text{O})\text{O}^- \right]$ karboksilat anioni.

To`yingan bir asosli karbon kislotalarni ichida eng kuchlisi va eng aktivni chumoli kislota ($\text{pK}_a = 3,75$), chunki unda karbonilni C dagi qisman (+) zaryad eng katta bo`ladi. Radikal kattalashishi bilan umuman radikalni o`zidan elektron siljitishti (+I) kuchayadi, natijada karboksildagi C ni qisman (+) zaryadi kamayadi, mos ravishda kislotalik susayadi. Radikalga M., sirkal kislotani CH₃ ga H o'miga (X – CH₂ – COOH) kiritilgan X guruhining induktiv ta'sirida (X karboksildan CH₂ bilan ajralgani uchun mezomer ta'sir bo'lmaydi) kislotalik kuchi quyidagicha o'zgaradi:







Bu yerda M., X = NO₂ da O₂N ← CH₂ ← C(O) ← O ← H nitrosirkal kislotada $\text{pK}_a = 2,26$; K_a – kislotani dissosilanish doimysi (I- qism, 57- bet), $\text{pK}_a = -\text{lg K}_a$. pK_a qancha kichik bo`lsa, kislota shuncha kuchli bo`ladi, ya`ni pK_a pH. Kuchsiz kislotalarni kuchini pI bilan ifodalash qiyin bo`lgani uchun pK_a kiritilgan. pK_a qiymatlari Рабинович В.А., Хавин З.Я. „Краткий химический справочник”, Л.1978, 237- betdan va П.Сайкс., „Механизмы реакций в органической химии”, М.1977, 77- betdan olindi. H ga nisbatan oldindagilar elektrodonor (+I li) bo`lib (X → C) kislotalikni susaytiradi, H dan keyindagilar elektronakseptor (-I li) bo`lib kislotalikni kuchaytiradi (X ← C(O) ← O ← H bo`yicha).

Demak: mos to'yingan bir asosli karbon kislotalardan aminokislotalar kuchsiz (AK ichki tuzga aylangani uchun ham kuchsizlanadi, 216- bet); to'yinmagan, aromatik, oksi, galogen, 2 asosli, nitro kislotalar kuchlidir. Elektronakseptor gruppalarini soni onishi va C zanjirida COOH ga yaqinlashishi bilan -l oshgani uchun kislotalik kuchayadi


1) Anorganik kislotalarga o'xshash reaksiyalar. a) Aktivlik qatorida H dan oldindagi metallar bilan: $2\text{CH}_3\text{COOH} + \text{Mg} \rightarrow (\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Mg}$ magniy asetat + $\text{H}_2\uparrow$

b) Asosli va amfoter oksidlar, gidroksidlar bilan:




c) Chumoli va sirkal kislotalar karbonat kislotalidan kuchli bo'lgani uchun uni tuzlari dan siqib chiqaradi. $2\text{CH}_3\text{COOH} + \text{CaCO}_3 \rightarrow (\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca} + \text{CO}_2\uparrow + \text{H}_2\text{O}$

d) Karbon kislotalar kuchsiz bo'lgani uchun tuzlari giadrolizlanadi.




e) Angidridlar h/q:





f) Eterifikatsiya reaksiyasi:



2) Galogenlash reaksiyasida galogen α -C atomidagi H ni o'rmini oladi, chunki COOH ta'sirida unga eng yaqin α -C dagi C - H bog'i bo'shashadi.



3) Amid olish reaksiyaları. Karbon kislotalarni $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ bilan yoki o'zlarini ammoniyli tuzlarini qizdirilganda amidlar h/b.



4) Chumoli kislotani o'ziga xos xossalari. Chumoli kislota aldegid gruppasi borligi uchun „kumush ko'zgu” r/k (191- bet), kons. H_2SO_4 ta'sirida suvini yo'qotib CO h/q.





9,148 10,123 -124 X,452 A,546 Ish. Chumoli kislota organik sintezda kuchli qaytaruvchi sifatida, 1,25% li spirdagi eritmasi „chumoli spiriti” nomi bilan tibbiyotda, gazlamalarni bo'yashda, oziq-ovqat sanoatida dezinfeksiyalovchi va konservalovchi sifatida, tabiiy kauchukni koagullashda ishlataladi.

Sirka kislota: asetat tola, dorilar (aspirin, fenasetin), yonmaydigan kinoplyonkalar, organik shisha, bo`yoqlar ($Pb(CH_3COO)_2$ – qo`rg`oshinli belila) olishda; mis(II) asetat o'simlik zararkunandalariga qarshi: 2,4-dixlor-fenoksisirka kislota – $Cl_2C_6H_3-O-CH_2-COOH$ va uni Na li tuzi gerbitsid; sirka kislotani 3-9% li suvli eritmasi ta'm beruvchi va, konservalovchi vosita sifatida ishlataladi.

Palmitin, stearin kislotalar sham olishda, Na li tuzlari kir sovun, K li tuzlari suyuq sovun olishda ishlataladi.

10,124 A,547 KM,88 Bir asosli to`yinmagan karbon kislotalar – radikal tarkibida 1 ta qo`shbog` tutgan bir asosli karbon kislotalar. Ularda qo`shbog` holati bo`yicha va fazoviyl izomerlar bor. Xalqaro nomlashda nomerlash COOH dagi C dan boshlanadi.



Suyuq tabiiy yog`lar – moylarda olein kislota bo`ladi. To`yinmagan karbon kislotalar alkenlarga va karbon kislotalarga xos r/k. Akril va boshqa α , β -to`yinmagan kislotalarda galogenvodorod birikishi qo`shbog`ga COOH ta`sirida Markovnikov qoidasiga teskar bo`ladi: $\overset{\cdot}{C} H_2 \rightleftharpoons \overset{\cdot}{C} H \rightarrow COOH + H Br \rightarrow Br - CH_2 - CH_2 - COOH$ 3-brompropan kislota

Z,119 T: 104-323 Aromatik karbon kislotalar – COOH gruppasi bevosita benzol halqasiga birikkan kislotalar. C_6H_5COOH benzoy kislota kristall modda, toluolni oksidlab olinadi. O'simliklarda efirlari uchraydi, o'zi tibbiyotda antiseprik, tuzi – C_6H_5COONa natriy benzoat konservalovchi vosita sifatida ishlataladi. $HOOC - C_6H_4 - COOH$ ftal kislotalardir. Karboksillar orto- holatdagisi ftal, meta- si izoftal, para- si tereftal kislota deyiladi. Ularni ksilolning mos izomerlarini oksidlab olish mumkin (179- bet). Tereftal kislota lavsan tolasi olishda ishlataladi (231- bet).

I,460 Benzoy kislotalagi benzol halqasiga para- va meta- holatda CH_3 , NH_2 (ortoda ham) kabi elektronondonorlarni kiritilishi COOH dagi O – H bog`ini elektron zichligini ortishiga, mos ravishda benzoy kislotaga nisbatan kislotalik kuchini kamayishiga olib keladi. Aksincha, shu holatlarda NO_2 , galogenlar – elektronakseptorlar kislotalik kuchini oshiradi. Orto- holatda NH_2 dan boshqa yuqoridagi barcha o'rinnbosarlar (OH ham) kislotalik kuchini oshiradi. Ayniqsa NO_2 , galogenlar, OH da kislotalik kuchi keskin ortadi.


Bunga orto- holatda induktiv effektni qisqa masofalarda kuchli ta'sir qilishi va ichki H bog' hosil bo'lishi sababchi bo'lsa kerak (П.Сайкс., „Механизмы реакций в органической химии”, М, 1977, 80).

Z,117 T: 101-222,223,228 102-250 103-313 106-422 **Dikarbon kislotalar** – tarkibida 2 ta COOH tutgan karbon kislotalar, nordon va o'rta tuzlar h/q. 2-bosqichda dissotsilanadi. HOOC – COOH oksalat kislota (nordon tuzi shovul, ravochda; Ca(COO)₂ g'o'za bergida bor), HOOC – CH₂ – COOH malon kislota sholg'om sokida, HOOC –(CH₂)₂ – COOH qahrabo kislota qahraboda bor, HOOC –(CH₂)₃ – COOH glutar kislota. HOOC –(CH₂)₄ – COOH adipin kislota naylon tolasi olishda ishlataladi (231- bet).

Tö'yinmagan dikarbon kislotaga HOOC – CH = CH – COOH misol bo'ladi. Sis-shakli malein kislota, trans- shakli fumar kislota (qo'ziqorinda bor) deyiladi (I,344).

Z,111 V,258 **Oksikarbon kislotalar** – molekulasida OH (oksi gr.) va COOH tutgan kislotalar. Eng sodda vakili HO – CH₂ – COOH glikol kislota. CH₃ – C*H(OH) – COOH sut kislota qatiqda, chim-chimda, silosda glukozani bijg'ishidan h/b, yaxshi konservant (C* – assimetrik C atomi). Olma kislota HOOC – CH₂ – C*H(OH) – COOH olma, uzumda; vino kislota HOOC – C*H(OH) – C*H(OH) – COOH uzumda bor. Limon (sitrat) kislota HOOC – CH₂ – (HO)C*(COOH) – CH₂ – COOH limon, apelsin, uzum, sholg'omda bor.

Z,114 V,33,259,296 I,353 **Optik izomeriya.** Oksikarbon kislotalarda tuzilish izomericidan tashqari fazoviy optik (ko'zgu) izomerlar bor. Bunga sabab ularni tarkibida 4 xil atomlar guruhi yoki atomlar bilan bog'langan optik faol assimetrik C* atomlari bor.



Turli tekislikda harakatlanayotgan oddiy yorug'lik nurini maxsus Nikol prizmasidan o'tkazilsa bitta tekislik bo'ylab harakatlanuvchi qutblangan mur h/b. Eritmasi qutblangan nurni L(-)-sut k. D(+) - sut k. chapga buradigan fazoviy izomer L yoki (-) izomer, o'ngga buradigani D yoki (+) izomer deyiladi (ing. leve – chap, dexter – o'ng).

P: Rasmida Fishering shartli proeksiyon formulalari berilgan. O'rtdagi assimetrik C ni yakka bog'larda qolgan 2 ta C ga nisbatan erkin aylanishi natijasida L, D izomerlar hosil bo'lishi mumkinmasdek ko'rinadi. Plastilenden 109° burchak ostida 5 ta sharchadan L, D izomerlarni tetraedrik modellarini yasab ko'ring, shunda L, D izomerlarni haqiqatda mavjudligiga ishonch hosil qilasiz. L va D izomerlarni fizik - kimyoziy xususiyatlari o'xshash, lekin optik va biologik xossalari har xil bo'ladi. M., L – sut kislota qutblangan nurni chapga -3,82° ga, D – sut kislota o'ngga +3,82° ga buradi. Teng miqdordagi L va D izomerlar aralashmasi L,D yoki (±) ratsemat izomer deyiladi, u optik faol emas: qutblangan nurni burmaydi (sababini o'ylab ko'ring). Fransuzcha „aside racemique“ – uzum kislota. 1848- yil L.Paster 1-marta uzum kislotasidan L, D vino kislotalarni ajratib olgan. Demak, uzum kislota – L, D vino kislotalarni ratsemati yoki L,D (±) vino kislotasidir.

Bu kashfiyat molekulalarni fazoviy tuzilishini va fazoviy tuzilishni moddaning xossaliga ta sirini o'rganuvchi kimyo fani bo'limi - stereokimyo (stereo – fazo) vujudga kelishiha turtki bo'ldi. Stereokimyo 1874- yil paydo bo'lgan. Bunga 24 yoshli golland olimi Ya Vant-Goffning sut kislotalada assimmetrik C atrosida 4 xil gruppasi har xil tetraedrik joylashishi, to'yinmagan malein va fumar kislotalarda esa qoshbog dagi C lar ni bir-biriga nisbatan erkin aylana olmasligi natijasida moddalarini fazoviy izomerlar hosil qilishi mumkinligi haqida 1-marta aytgan gipotezasi sababchi bo'ldi (Ya.G.Vant-Goff, J.A. Le Belni assimetrik C haqidagi tetraedrik nazariyasi).

Optik izomerlar soni 2^n formula bilan topiladi (n- assimmetrik C lar soni). M., sut kislotalani $2^1 \cdot 2$ ta: L, D izomeri va I ta ratsemat izomeri, jami 3 xil optik izomeri bor. D – sut kislota odam va hayvon muskullarida glukozani anaerob (kislorodsiz) parchalanshidan h/b. Ratsemat sut kislota glukozani sut kislotali bijg'ishida (sutni qatiqga aylanishiha, karamdan chirm-chim, makkajo'xoridan silos tayyorlashda) h/b.

Optik izomerlar oksikislotalardan tashqari organik moddalarning boshqa sinflarida M., uglevodlar, aminokislotalarda ham bor.

To'yinmagan, aromatik, dikarbon, eksikislotalar to'yingan inos karbon kislotalardan kuchli bo'ladi (194-195- betlar).


XXII bob. MURAKKAB EFİRLAR. YOG'LAR

65- dars. 13.02. 9,148 10,132 X,453 A.551 Murakkab efirlar

T: 45-224 49-113 105-373 122-299 170-1-23 171-24-56 172-57-92 173-93-102

Murakkab efirlar ikki uglevodordi radikalini - C(O) – O – gruppa orqali birikishidan hosil bo'lgan organik moddalari. R – C(O) – O – R Murakkab efirlarni karbon kislotalarni karboksilidagi H ni radikalga almashtishidan hosil bo'lgan hosilasi deyish mumkin. Kislordoli anorganik kislotalarni ham murakkab efirlari bor (185- bet).

OI. Tabiiy murakkab efirlar o'simliklardan organik erituvchilar yordamida ekstraksiya usulida ajratib olinadi. Murakkab efirlar asosan qaytar eterifikatsiya reaksiyasi yordamida olinadi. Bunda spirtdag'i OH dan H, kislotalidan OH ajralishi ^{18}O izotopi bilan (nishonlangan atom) isbotlangan.



Efirlini unumini oshirish uchun Le Shatelye prinsipi bo'yicha kislota va spirtni ortiqcha olish, suvni bog lovchi H_2SO_4 ishlatalish, efirlni to'xtovsiz haydah olib turush kerak.

T/u. Murakkab efirlar tabiatda keng tarqalgan. Guliar, mevalarda uchraydi, ularni hidi belgilaydi. Asalari mumi, spermatset (Zikriyaev A., Fayzullaev S., "Biologiya" lug'at.

T, 2004, 127-bet: spermatset - hayvon mumi, kasholatdan olinadi) yuqori bir atomli spiritlarni, tabiiy yog'lar glitserinni yuqori yog' kislotalari bilan hosil qilgan murakkab efirlaridir.


9,149 10,133 X,454 A,556 F/x. Nom. Monokarbon kislotalarning murakkab efirlari OH gruppasi bo`lmagan uchun H-bog` hosil qilmaydi, sh.u.: karbon kislotalarga nisbatan oson uchuvchan, xushbo`y hidli suyuqliklar, suvda yomon eriydi. Yuqori spirit va yuqori kislotalardan hosil bo`lgan efirlar qattiq, hidsiz moddalar.

Murakkab efirlarning nomi efimi hosil qilgan kislota va spirit nomidan hosil bo`ladi. Quyida ba`zi murakkab efirlarning nomlanishini va hidrlarini ko`rib chiqamiz. 1) **Chumoli kislota efirlari:** HCOOC_2H_5 chumoli etil efiri yoki etilformiat *rom hidli*, $\text{HCOOC}_5\text{H}_{11}$ chumoli pentil (amil) efiri, pentilformiat *olcha gilos hidli*, $\text{HCOOCH}_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$ chumoli izopentil (izoamil) efiri, izopentilformiat *olxo`ri hidli*, $\text{HCOOCH}_2\text{C}_6\text{H}_5$ benzil formiat *jasmin hidli*, $\text{HCOOCH}_2\text{CH}_2\text{C}_6\text{H}_5$ feniletiformaliat *xrizantema hidli*. 2) **Sirk kislota efirlari:** $\text{CH}_3\text{COOC}_5\text{H}_{11}$ pentilasetat *banan hidli*, $\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$ izopentilasetat *nok hidli*. 3) **Moy kislota efirlari:** $\text{C}_3\text{H}_7\text{COOC}_2\text{H}_5$ moy etil efiri, etilbutirat *ananas hidli* (*A,556: o`rik hidli*), $\text{C}_3\text{H}_7\text{COOC}_4\text{H}_9$ moy butil efiri, butilbutirat *ananas hidli*. 4) **Izovalerian kislotaning izoamil efiri** $\text{C}_4\text{H}_9\text{COOC}_5\text{H}_{11}$ *olma hidli*.

10,92 Ayrim murakkab efirms moddalarining hidrlari: $\text{C}_6\text{H}_5\text{OC}_6\text{H}_5$ difenil efir *yorongul (geran) hidli*, $\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$ feniletiformaliat *atirgul hidli*.

A,552 Iz. To`yingan radikalli murakkab efirlar to`yingan bir asosli karbon kislotalarga izomer, sh.u. ularni umumiyl formulasi ham bir xil: $\text{C}_n\text{H}_{2n}\text{O}_2$. M., Tarkibi $\text{C}_4\text{H}_8\text{O}_2$ moddani izomerlarini toping. Ye: $\text{C}_4\text{H}_8\text{O}_2 = \text{C}_4\text{H}_{2,4}\text{O}_2 = \text{C}_n\text{H}_{2n}\text{O}_2$ umumiyl formulaga mos tushgan uchun bu moddaga mos karbon kislotalarni va murakkab efirlarni topamiz. Karbon kislotalar: 1) $\text{C} - \text{C} - \text{C} - \text{COOH}$ moy yoki butan kislota; 2) $\text{C} - \text{C}(\text{C}) - \text{COOH}$ izomoy yoki 2-metilpropan kislota. Murakkab efirlar: 1) $\text{HCOOCH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$ propilformiat; 2) $\text{HCOOCH}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$ izopropilformiat; 3) $\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$ etilasetat; 4) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{COOCH}_3$ metilpropianat. Javob: 2 ta kislota + 4 ta efir = Jam: 6 ta izomer.

9,149 10,133 X,455 A,554 K/x. Murakkab efirlar kislotali sharoitda qaytar, ishqoriy muhitda qaytmas gidrolizlanadi, chunki ishqoriy muhitda kislota emas tuz h/b.




Ish. Murakkab efirlar parfumeriyada, xushbo`y hidli ichimliklar, konfetlar tayyorlashda, metilmekrilat organik shisha olishda (229 - bet) ishlataladi.

9,150 10,136 X,456 A,556 KMJZ7 yog'lar

Yog'lar glicerin va yuqori karbon kislotalar bilan hosil qilgan murakkab esfirler urjinendianadir.


Tur. I. M. E. 1832-yilda yog'larin tarkibini 1847-yilda E. Shevret yug'hami sari bilan (ishqor) urjinendiyar qorolaydi. Karot, kislotalar va apri oldi. 1854-yilda M. Beccio glycerindan karbon kislotalar ta'sinda 1-mantlo yug' oldi zenglashagan.




Yog'lar tarkibida 4 ta C li esir kislotalar bo'ldi. 26 ta C i ugan kislotalariga bo'ldi, mos ravishda kislotalarini radikalari - R₁, R₂, R₃ larda 3 tadan 25 tagacha C bo'ldi. Hayvon yog'lar qattiq yog'lar bo'lib, tarkibida asosan to'yinmagan C₁₈H₃₂COOH palmitin va C₁₈H₃₀COOH stearin kislotalar qoldiqlari bo'ldi. O simolidorlarning etimadigan sayyaz yog'larday deyiladi, ularni tarkibida asosan quyidagi to'yinmagan kislotalarini qoldiqlari bo'ldi: C₁₈H₃₂COOH olein kislotasi (1 ta qo'shibog') → C₁₈H₃₀COOH linol kislotasi (2 ta qo'shibog') → C₁₈H₃₀COOH linolen kislotasi (3 ta qo'shibog'). Ba'zi hotorda hayvon yog'i suyuq (baliq moyi), o simlik yog'i qattiq (kokos yog'i) bo'lishi mumkin.

Yog'lar suvdan yengil, suvda erimaydi, lekin qutbsiz organik erituvchilarda (benzin, benzin, csir) triydi. Suvda emulsiya h/q M., sut - oqsil va yog'larning birga suvda hosil qilgan tabiiy emulsiyasidir. Tabiiy yog'lar turli trigliseridlardan tashqari vitaminlar, bo'yngalar, erkin yog' kislotalar, mono- va diglitseridlari, karotinoidlar qo'shimchalari bo'lani, ya ni tabiiy yog' moddalarning aralashmasi bo'lgani uchun aniq bir temperaturada etmas, temperaturalar oralig'ida (intervalida) suyuqianadi yoki qotadi.

9,151 10,136 X,456 A,558 K/x. 1) *Gidrolizi*: Yog'lar murakkab esir bo'lgani uchun kislotali muhitda qaytar, ishqoriy muhitda qaytmas gidrolizlanadi. Ishqoriy muhitdagi gidrolizlanish sorunlanish reaksiyasi deyiladi, chunki reaksiyada yuqori karbon kislotani Na li yoki K li tuzi - sorun h/b.



2) *Gidrogenlash*. Suyuq yog'larini bosim ostida, katalizator ishtirokida avtoklavlarda qizdirib gidrogenlab qattiq yog' larga salomas. margaringa aylantiriladi, chunki ular tashishga va ishlashiga qulay. Gidrogenlashda suyuq yog'larini tarkibidagi to'yinmagan kislotalar qo'shibog'lariga H birikishi natijasida to'yingan kislotalarga aylanadi.



Ish. Yog'lar eng muhim oziq moddalardan biri. Bundan tashqari yog'lardan sovun, glitserin, karbon kislotalar, alif, loklar, kosmetik vositalar olish mumkin. Yog'lar kasaliliklarni davolashda ham ishlataladi.

9,152 10,137 X,457 A,559 Sovunlar, sintetik yuvish vositalari (SYuV)

Sovunlar yuqori karbon kislotalarning tuzlari. Na li tuzlar *qattiq sovunlarni*, K li tuzlar *suyuq sovunlarni* h/q. Suyuq sovun kir sovunga nisbatan suvda yaxshi erigani va sovun gidrolizda hosil bo'lgan KOH ishqorligi NaOH dan kuchli bo'lgani uchun kirmi yaxshi ketgazadi. Suyuq sovun asosan xirurgiyada ishlataladi, chunki kir sovundan qimmat (NaOH dan KOH qimmat).

Sovunni kir yuvish xususiyati sovun suvda gidrolizlanganda hosil bo'lgan yuqori karbon kislota va ishqorga bog'liq: $C_{17}H_{35}COONa + HOH \leftrightarrow C_{17}H_{35}COOH + NaOH$. Gidrolizda hosil bo'lgan ishqor kirdagi yog'larni emulsiyalaydi, qisman parchalaydi. Karbon kislotalar esa suv bilan ko'pik h/q, ko'pik kir zarrachalarini kiyimdan ajratib olib ketadi. Qattiq suvda bu karbon kislotalar Ca^{2+} , Mg^{2+} ionlari bilan cho'kma hosil qilgani uchun (II qism, 94- bet) ko'pik hosil bo'lmaydi, sh. u. kir ketmaydi.

Sovun olishga ketadigan oziqa yog'larni tejash maqsadida parafinlarni oksidlab olin gan sintetik karbon kislotalarni neytrallab *sintetik sovun* olinmoqda. C soni 10-16 lik kislotalardan *otir sovun*, 17-21 ta C li kislotalardan *kir sovun* olinadi. Sintetik sovun ham yog'lardan olingan sovunga o'xshab qattiq suvda kirmi yaxshi ketgazmaydi. Sh.u. qattiq suvlarda ham ko'pirib kirmi ketgazadigan *sintetik yuvish vositalari (SYuV)* yaratilgan. SYuV lari yuqori spirtlarni H_2SO_4 bilan hosil qilgan murakkab efirlarini *natriyli tuzlari* bo'lib, quyidagi sxema bo'yicha olinadi: $R - CH_3 \xrightarrow{-H_2O} R - CH_2 - OH + HOSO_2OH$ $\xrightarrow{-H_2O} R - CH_2 - O - SO_2 - OH$ mur. efir $\xrightarrow{-H_2O} R - CH_2 - O - SO_2 - ONa$

alkilsulfat kislotani natriyli tuzi (SYuV). SYuV karbon kislotalardan olingan sovunlardan farq qilib bakteriyalar ta'sirida parchalanmaydi, sh.u. atrof-muhitni ifloslaydi.

XXIII bob. UGLEVODLAR

66- dars. 16.02. 9,153 10,142 X,459 A,562 Z,139 Uglevodlar


Uglevodlar tarkibi $C_n(H_2O)_m - C$ (uglerod) va suvni (voda) birikmasi shaklida ifodaلانigan, aralash funksional gruppali (- OH, - CHO, > C = O, - O -) organik moddalar. „Uglevod” nomi tarixiy nomlanish bo'lib unchalik mukammal emas, chunki uglevodlarni ba'zilari (M., dezoksiriboza $C_5H_{10}O_4$) yuqoridagi umumiy formulaga tushmaydi. Aksincha ba'zi uglevodmas moddalar (M., chumoli aldegid $HCHO = C(H_2O)$, sirka kislota $CH_3COOH = C_2(H_2O)_2$) uglevodlar formulasiga mos keladi. Uglevodlar *saxaridlar* (qandlar) ham deyiladi va qanday gidrolizlanishiga qarab quyidagi xillarga bo'linadi:

- 1) *Monosaxaridlar (monozalar)* gidrolizlanmaydi;
- 2) *Disaxaridlar (dioxalar, biozalar)*

gidrolizlanib 2 ta monosaxarid h/q; 3) *Polisaxaridlar (poliozalar)* gidrolizlanganda juda ko'p monosaxarid hosil qiluvchi tabiiy polimerlar.


Monosaxaridlarning nomi -oza qo'shimchasi bilan tugaydi. Tarkibida C soniga qarab monosaxaridlarni quyidagi xillari bor: *riboza* (3C), *tetroza* (4C), *pentoza* (5C), *geksoza* (6C), *heptoza* (7C) va hokazo. Tarkibidagi funksional guruhlariga qarab monosaxaridlardan *aldozalarga* (aldegidospirtlar, M., glukoza, riboza) va *ketozalarga* (ketospirtlar, M., fruktoza) bo'linadi.

Tabiatda asosan pentozalar va geksozalar uchraydi. Pentozalar geksozalardan farq qilib bijg' imaydi. Eng muhim pentozalarga riboza va dezoksiriboza kiradi, chunki ular hal-qali shaklda nuklein kislotalar tarkibiga kiradi (224- bet).



9,153 10,143 X,459 A,563 KM,91 **Glukoza (uzum shakari)** T: 12-341 21-399,416
22-426 26-105 40-28 67-305 75-615 101-227 102-262 107-439 173-1-6,8,10-13,15-
17,19,20,22,24 174-25-29,31,33-48,51-54,56,61 175-64,69,70,72-80,82,84-87,89,91-
-94,97-100,102,103 176-104-115

F/x. Tuz. Iz. Glukoza $C_6(H_2O)_6 = C_6H_{12}O_6$ aldegidospirt. Tarkibida 5 ta OH bo'ligrini 1 mol glukozani 5 mol sirkə kislota bilan r/k murakkab efir hosil qilishidan, qolgan 1 ta O aldegid gruppada ekanligini kumush ko'zgu reaksiyasi bilan isbotlash mumkin(204- bet): $CH_2(OH) - C^*(OH) - C^*(OH) - C^*(OH) - C^*(OH) - CHO$. Bu formulani E.Fisher taklif etgan. Tarkibida 4 ta assimetrik C bo'lGANI uchun $2^4 = 16$ ta fazoviy optik izomer hosil qilishi mumkin (V,277: bu optik izomerlarni barchasi aniqlangan). Shu izomerlardan tabiatda eng ko'p tarqalgani α - D - glukozadir. Shirin ta'mli rangsiz kristall, tarkibida OH ko'p bo'lGANI uchun suvda yaxshi eriydi. α - D - glukoza suvda





eritilganda halqasi ochilib aldegid shaklga, aldegid shakl esa β - D -glukozaga aylanadi. Shunday qilib glukozani eritmasida uni 3 ta shakli muvozanatda turadi. Bitta muddani bir - biriga aylanib muvozanatda turadigan bir necha xil shakllar hosil qilishi *tautomeriya* hodisasi, hosil bo'lgan shakllar esa *tautomer shakllar* deyiladi.

Glukozani siklik shakllari 6 a'zoli kislordanli geterosiklik birikma- *gidropiran* tutgani uchun mos ravishda α - D - glukopiranoza va β - D - glukopiranoza, $-CH(OH) - O - C -$ guruhi tutgani uchun *poluasetal* (*yarim asetal*) shakl ham deyiladi (I,272: aldegidlarni

karbonil gruppasiiga spirtlarni birikishidan hosil bo'lgan R - CHO + HOR' → R - CH(OH) - OR' tarkibli moddalar *poluasetallar*, poluasetallarga spirtlarni birikishidan hosil bo'lgan R - CH(OR')₂ tarkibli moddalar *asetallar* deyiladi).

α - va β - glukozalar bir-biridan 1-C dagi OH ni joylashishi bilan farq qiladi. Bu OH halqaga nisbatan α - glukozada pastda, β - glukozada tepada joylashgan. Qolgan 2,4-C lardagi OH lar pastda, 3,6-C lardagi OH lar tepada joylashgan. 1-C dagi OH halqadagi O ta'sirida boshqa OH larga nisbatan aktiv bo'ladi, *glikozid* yoki *poluasetal* (*yarimi asetal*) *gidroksil* deb ataladi.

Glukozani muhim izomerlariga tarkibi C₆H₁₂O₆ bo'lgan glukozadan 4-C dagi OH tepada joylashishi bilan farq qiladigan fazoviy izomeri *galaktoza* va aldegid gruppasi o'miga 2-C da ketograppa tutgan tuzilish izomeri *fruktoza* (meva shakari) kiradi. D-galaktoza D-glukoza bilan birikib disaxarid sut shakari - laktozani, D-fruktoza D-glukoza bilan birikib disaxarid qand lavlagi yoki shakarqamish shakari - saxarozani h/q.



Fruktoza ketospirt, halqali shaklda ham mavjud, glukozadek ko'p atomli spirtlarga xos r/k, gidrolizlanmaydi. Glukozadan 3 marta, saxaroza-shakardan 1,5 marta shirin. Shirin mevalarda, sabzavotlarda uchraydi. Asal, novvot asosan glukoza va fruktoza aralashmasidan iborat. Fruktoza tabiiy polisaxarid - inulin tarkibida bo'ladi. Inulin kungaboqarga o'xshash yernok (topinambur) o'simligi tugunagida ko'p. Qandli diabetda organizm glukozani, shakarni o'zlashtiraolmagani uchun yernokga o'xshash fruktozali mevalar bilan oziqlanib energiya-quvvat olish mumkin.

10,144 9,153 T/u. Glukoza tabiatda keng tarqalgan: o'simliklarni barcha organlarda, mevalarda, uzumda, asalda, hayvon va odam qonida (0,1%) bo'ladi. Tabiatda Quyosh energiyasi hisobiga o'simliklar xloroplastlarda xlorofill molekulasi yordamida fotosintez jarayonida h/b: 6CO₂ + 6H₂O → C₆H₁₂O₆ + 6O₂. Hosil bo'lgan glukoza erkin holda yoki polikondensatlanib polisaxaridlar: don, kartoshka tugunagida kraxmal shaklda to'planadi yoki selluloza shaklda o'simliklar hujayrasi qobig'ini, o'simlik tolalarini (paxta, zig'ir, lub, yog'ochlik) h/q, o'simlikga tayanch bo'ladi.



10,144 A,569 KM,91 OI. *Laboratoriya*da Butlerov usulida formaldegiddan Ca(OH)₂ ishtirokida olish mumkin. 6H - CHO → C₆H₁₂O₆

Sanoatda kraxmal yoki sellulozani kislotali sharoitda gidrolizlab olinadi.
 $(- C_6H_{10}O_5 -)_n + nH_2O \xrightarrow{-H_2O} nC_6H_{12}O_6$

Kraxmalni gidrolizlab glukoza olishni 1811- yilda K.S.Kirixgof kashf etgan.

9,155 10,145 X,460 A,566 KM,91 K/x. Glukoza aldegidospirt bo'lgani uchun aldegidlarga, ko'p atomli spirlarga, halqali poluasetallarga xos va bijg'ish r/k.

1) Aldegidlarga xos reaksiyalar. a) Oksidlanishi.




2) Ko'p atomli spirlarga xos reaksiyalar. a) Xona temperaturasida $Cu(OH)_2$ bilan ko'k kompleks h/q. $C_6H_7O(OH)_5 + Cu(OH)_2 \rightarrow C_6H_7O(OH)_5 \begin{cases} O \\ || \\ Cu \end{cases} \text{(mis glukonat)} + 2H_2O$

Bu reaksiya tibbiyotda siydkagi glukoza miqdorini aniqlashda ishlataladi.

b) Yuqorida aytilganidek, glukoza 5 ta OH hisobiga sirkal kislota bilan r/k murakkab esir h/q. $C_6H_7O(OH)_5 + 5CH_3COOH \rightarrow 5HOH + C_6H_7O(OOCCH_3)_5$ pentaasetil glukoza

3) Halqali poluasetallarga xos reaksiyalar. Yuqorida aytilganidek, glukozani poluasetal OH gruppasi halqadagi boshqa OH larga nisbatan oson r/k, spirlar bilan oddiy esirlarga oxshash glikozidlar h/q (Glikozidlari – monosaxaridlarni siklik shaklidagi poluasetal OH dagi H hisobiga uglevodmas moddalarni biriktirishdan hosil bo'lgan moddalar).



4) Bijg'ish reaksiyalar. Glukoza achituvchi bakteriyalar, achitqi zamburg'lar fermentlari katalizatorligida turli xil bijg'ish (achish) r/k.

a) Spiritli bijg'ish xamir, vino, pivo, aroq tayyorlashda boradi.
 $C_6H_{12}O_6 \xrightarrow{\text{ferment}} 2C_2H_5OH + 2CO_2\uparrow$


b) Sut kislotali bijg'ish karam, bodring, pomidor tuzlangarida, qatiq, pishloq, silos

tayyorlashda boradi. $C_6H_{12}O_6 \xrightarrow{\text{ferment}} 2CH_3CH(OH)COOH$ sut kislota *

c) Moy kislotali bijg'ish tuzlangan karam, bodring, pomidor eritma yuzasiga chiqib qolishi natijasida havoga tegishi yoki silos yaxshilab bosilmasa orasiga havo kirishi natijasida boradi. Taxir ta'mli moy kislota ta'sirida mahsulotlarni sifati buziladi. Moy kislotali bijg'ish bormasligi uchun karam, bodring, pomidorlarni sopol tovoq va tosh yoki pishiq g'isht bilan bostirib eritmaga botirish, eritma temperaturasi 16^0 dan oshmasligi, silosni esa buldozer bilan yaxshilab bosib, tuproq bilan ko'mib qo'yish kerak.



d) Limon (sitrat) kislotali bijg'ish aerob sharoitda sitromitset zamburug'lari ishtirokida yoki mitoxondriyalarda glukozani aerob parchalanishida Krebs siklini boshida boradi.



Har xil fermentlar ta'sirida sirka kislotali, izopropil spirtli, butil spirtli, asetonli, glitserinli va boshqa bijg'ishlar borishi mumkin.

9,156 10,146 X,461 Ish. Glukoza tibbiyotda qonni saqlashda, organizmga quvvat beruvchi oziq modda sifatida venaga quyishda ishlataladi, chunki 1 mol glukozani mitoxondriyalarda aerob parchalanishidan 38 mol ATP h/b: $C_6H_{12}O_6 + 6O_2 \rightarrow 6CO_2 + 6H_2O + 38ATP$. Glukoza qandolatchilikda, „kumush ko'zgu” reaksiyasi yordamida ko'zgu va yaltiroq o'ynichoqlar ishlab chiqarishda, gazlama va teriga bo'yashdan oldin ishllov berishda ishlataladi.

9,157 10,147 X,461 A,570 KM,92 Disaxaridlar. Saxaroza



Tuz. Iz. Disaxaridlarga kislotali sharoitda yoki fermentlar ishtirokida gidrolizlanganda 2 ta monosaxarid hosil qiladigan, tarkibi $C_{12}(H_2O)_{11} = C_{12}H_{22}O_{11}$ bo'lgan uglevodlar kirdi. Muhim disaxaridlarga yuqorida aytilgan **saxaroza**, **laktoza**dan tashqari 2 ta D - glukozadan hosil bo'lgan **maltoza** – don yoki sumalak shakari ham kirdi.

Saxaroza halqali shakldagi glukoza va fruktozani yarim asetal OH larini suv ajratib birikishidan hosil bo'lgani uchun tautomer aldegid shaklga o'ta olmaydi, sh.u *qaytar-maydigan disaxaridlarga* kirdi. Laktoza, maltoza hosil bo'lishiда esa suv I ta yarim asetal, I ta oddiy OH dan hosil bo'lgani uchun ularni molekulalarida I tadan yarim asetal OH saqlanib qoladi. Sh.u. laktoza, maltoza tautomer aldegid shaklga o'ta oladi, *qaytaruv-chi disaxaridlarga* kirdi (I,592; V,300), aldegidlarga xos r/k.

F/x. T/u. Saxaroza (shakar) qandlavlagi yoki shakarqamishda 20% gacha, makkajo-xori, mevalar, poliz ekinlarida ham ko'p bo'ladi. Rangsiz kristall, 160^0C da suyuqlanib

konfet tayyorlashda ishlataladigan amorf massa -- *karamel* h/q.

K/x. Yuqorida aytigal sabablarga ko`ra saxaroza faqat ko`p atomli spirtlarga xos r/k (M_r , $\text{Cu}(\text{OH})_2$ bilan ko`k kompleks h/q), gidrolizlanib glukoza va fruktozani h/q.



Novvot, parvarda, nisholla, sun`iy asal tayyorlashda shu reaksiya yuz beradi.


10,147 9,157 Ol. Ish. Saxaroza qand lavlagi yoki shakarjamishdan, laktozani hayvon sutidan, maltozani kraxmal gidrolizini oraliq mahsulotlaridan olinadi. Ular ovqat sifatida va konditer sanoatida ishlataladi. Xorazmda qand lavlagidan shakar oladigan zavod ishga tushgan. Lavlagidan shakar quyidagi sxema bo'yicha olinadi: Lavlagini maydalash → diffuzorlarda qaynoq suv b-n lavlagidagi shakarni eritmaga o'tkazish → shakar, bo'yoq, kislotalar ert. $\xrightarrow[\text{Kislotalarni olinish}]{{}^{\text{Ca(OH)}}_{\text{Ca}}} \text{Ca-saxarat, bo'yoq ert.} \xrightarrow[\text{-CaCO}_3]{{}^{\text{CO}_2}} \text{shakar, bo'yoq ert.} \xrightarrow[\text{shakar ert.}]{{}^{\text{shakar laridagi}}} \text{shakar kukuni} \xrightarrow[\text{shakar}]{{}^{\text{shakar}}} \text{oq qand.}$

67- dars. 18.02. 9,158 10,149 X,462 A,572 V,333-343 KM,93 Polisaxaridlar

T: 173-7,9,14,18,21,23 174-30,32,49,50,55,57-60

175-62,63,65-68,71,81,82,83,88,90,95,96,101

Tuz. Muhim polisaxaridlarga: kraxmal, glikogen - hayvon kraxmali, selluloza kiradi. Bu polisaxaridlar shirin ta'mga ega bo`lmagan, suvda erimaydigan amorf moddalar. Hal-qali D - glukozani 1 va 4- holatlardagi OH larini suv ajratib polikondensatlanishidan hosil bo`lgan tabiiy polimerlardir: $n \text{ C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 \rightarrow (-\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5-)_n + n\text{H}_2\text{O}$.



Kraxmal 1:2 mol nisbatdagagi chiziqsimon tuzilishli *amiloza* ($M_r = 30\,000 - 160\,000$) $\xrightarrow{162} \sim n = 200 - 1000$ ta α -D-glukoza qoldig'i va har 20-30 ta glukoza qoldig'idan keyin tarmoqlangan tuzilishli *amilopektin* ($M_r = 100\,000 - 1\,000\,000$, $n = 600 - 6000$ ta α -D-glukoza qoldig'i) makromolekulalari aralashmasidan tuzilgan (Перекалин В.В., Зонис С.А., Органическая химия, М, 1977, 229 – 235 betlar). Amiloza makromoleku-


lasi H – bog`lar hisobiga spiralsimon shakl h/q. Amiloza spiralini o`rtasidagi naychaga yod molekulasi joylashib to`q ko`k kompleks h/q, kraxmalni yod bilan sifat reaksiyasini beradi. Amilopektin esa yod bilan kuchsiz binafsha rangni va kleysterni h/q, tarmoqlangan tuzilishli bo`lgani uchun kraxmalni donador (sharsimon) kukun shaklda bo`llishi sababchi bo`ladi.

Glikogen makromolekulasi ham α - D – glukoza qoldiqlaridan h/b amilopektiniga nişbatan kuchliroq; har 10-14 ta glukoza qoldig`idan keyin tarmoqlangan amilopektindan 10 marta katta: $M = 1\ 000\ 000 - 10\ 000\ 000$, $n = 6\ 000 - 60\ 000$.

Selluloza makromolekulasi kraxmal, glikogendan farq qilib β - D – glukoza qoldiqlaridan tuzilgan. Molekulyar massasi, poimierlanish darajasi amilopektindan 2 marta katta ($M = 1\ 000\ 000 - 2\ 000\ 000$, $n = 6\ 000 - 12\ 000$), lekin tarmoqlangan emas faqat chiziqli tuzilishli bo`ladi. Bu makromolekulalar glukoza qoldig`idagi 3 ta OH lar hisobiga H – bog`lar bilan o`zaro bog`lanib bog`lamlar – o`simliklarning lub va yog`ochliq tolalarini, o`simlik hujayrasi tashqi qobig`ini h/q, o`simliklarning elastikligini, mexanik mustahkamligini ta`minlaydi.

F/x. T/u. Kraxmal oq rangli kukun, qaynoq suvda bo`kib kolloid eritma kleyster h/q. O`simliklarda zahira oziq uglevod sifatida jamg` ariladi. Kartoshka tugunagida 20%, bug`doj, makkajo`xori donlarida 70%, guruchda 80% kraxmal bor. **Glikogen** oq kukun, issiq suvda erib kolloid eritma h/q. Hayvonlarni, odamni muskullarida (1-2%), jigarida (5%) zahira oziq modda sifatida to`planadi. **Selluloza** oq tolasimon modda (gigroskopik momiq paxta, filtr qog`oz deyarli toza sellulozadan iborat), suvda erimaydi. Paxta tclasi da 98% gacha, yog`ochda 50% gacha selluloza bor.

K/x. Ish. 1) Gidrolizi. Polisaxaridlar kislotali sharoitda qizdirilganda yoki fermentlar ta`sirda gidrolizlanadi: $(-\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5-)_n \xrightarrow{-\text{HOH}} (-\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5)_{m < n} \xrightarrow{-\text{HOH}} x\text{C}_{12}\text{H}_{22}\text{O}_{11} \xrightarrow{-\text{HOH}} n\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$



Selluloza gidrolizida disaxarid sifatida 2 ta β - D – glukoza qoldig`idan tuzilgan **sellobioza**, gidroliz oxirida esa β - D – glukoza h/b.

Polisaxaridlar gidrolizi katta ahamiyatga ega. Polisaxarid gidrolizi natijasida hosil bo`lgan suvda eriydigan glukoza o`simliklarda elaksimon naychalar orqali, hayvon, odamda esa ichakdan so`rilib qon orqali hujayralarga yetkaziladi va parchalanib hujayrani energiya bilan ta`minlaydi. Sanoatda gidrolizda hosil bo`lgan glukozani bijg`itib **gidroliz**

spiriti – etanol olinadi. Kraxmal gidrolizi oxirigacha yetkazilmasa dekstrinlar va glukoza aralashmasi –*patoka* h/b. Patokadan qandolat mahsulotlari (M., pryanik), dekstrindan yelim tayyorlanadi.

2) Selluloza tolali tuzilishli bo`lgani uchun uni o'simlik tolalari (paxta, zig'ir, lub) sifatida to`qimachilikda gazlamalar olishda ishlataladi. *Yog`ochga kimyoviy ishllov berib sellulozani ajratib olish. sellulozani eterifikatsiya reaksiyasi* qog`oz, sun`iy tolalar va boshqa mahsulotlar olishda amaliy ahamiyatga ega.

